“ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”

mavzusidagi Respublika ko’p tarmoqli, ilmiy KONFERENSIYA

#13
OCTOBER
2023

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.
Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: ***M.Yusupov***

THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN: 2181-3558

ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI

№ 13-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
31-OKTYABR 2023-YIL

RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION, THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES

13th REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
OCTOBER 31, 2023

THE EFFECT OF FOOD AND SERVICE QUALITY ON CUSTOMER SATISFACTION AND LOYALTY IN UZBEK ETHNIC RESTAURANTS

Qoxxorova Madinaxon Abduqodir qizi
Turan International University o'qituvchisi

Abstract. The aim of this thesis was to investigate the relationship between service quality, customer satisfaction and customer loyalty in Uzbekistan ethnic restaurants in South Korea. A questionnaire based survey was distributed randomly to diners in Uzbek restaurants in Seoul and other cities in Korea. Service quality was measured in terms of SERVQUAL attributes. The key dimensions of customer satisfaction and customer loyalty were identified through literature. The data collected (285 valid questionnaires) were analysed using SPSS and Stata. The findings indicates that service quality influence positively to customer satisfaction. Furthermore, customer satisfaction has a positive effect on customer loyalty. The small size of the sample is the main limitation of this study. The practical implications of this study are founded on the fact that Uzbek ethnic restaurants in South Korea should realize the significant role of service quality in satisfying their customers and making them loyal.

Keywords: service quality, customer satisfaction, customer loyalty, Uzbekistan ethnic restaurants

Ethnic restaurants do not always serve as food establishments, but also serve as ambassadors for culture, which hand over foreign food and culture to local customers (Wood & Munoz, 2007). Ethnic restaurants may function as a sole contact with foreign cultures for most of the local consumers, so that, authenticity may be a sign in the ethnic restaurant segment (Wood & Munoz, 2007). Food can serve as a penetration in foreign cultures and impede cultural barriers (Cook, 1997).). Among the different cultural factors food represents national identity, it is a generic term, since food itself can be a cultural symbol (Edles, 2004). Usually, in ethnic restaurants food is a natural piece of the culture, and it creates a uniqueness to separate the restaurant from its competitors but also presents a temptation for customers who are looking for and from ordinary dining (Ebster & Guist, 2004; Lego et al., 2002). Food can be defined as a part of a country's culture and at the same time represent this culture, respectively, products from other countries can attract foreigners with unique and sometimes exotic characteristics reflecting the country's culture, this uniqueness and difference are often called ''authenticity''. Customers in other countries can distinguish important elements of ethnic products from the local cuisine (Chandon et al.,2000; Peabody, 1985; Leclerc

In the restaurant industry service quality and food quality are important. In a highly competitive restaurant industry, dedicated service and high-quality food can attract regular customers and this is critical to business success. Perception and evaluation of the customers is totally based on service delivering(Ha & Jang 2010). Understanding the factors that influence customer satisfaction and loyalty requires that restaurants determine the quality of service and their relationship with customer loyalty (Namkung et al.,2011).Previous researches have highlighted the importance of quality of service and food in the restaurant industry, supporting that perceptions of quality have a significant impact on customer satisfaction and loyalty (Baker & Crompton, 2000; Olsen, 2002). High-quality service improves customer satisfaction and provides measurable long-term benefits in terms of market share and profitability (Anderson, Fornell, & Lehmann, 1994). High-quality services for employees caused a higher level of customer satisfaction, which, leads to a higher level of positive consumer behavior, such as returning, positive word of mouth, or recommending the restaurant to others (Chow et al., 2000; Cronin et al.,2000). Uzbeks are famous for their hospitability, that is, being polite and kind to everyone is a unique inheritance from their ancestors, so that Uzbek restaurants are mentioned with high-quality service and servers. Along the same lines, food quality has also been a significant element as service quality in customer' dining experiences that impact customer satisfaction and future behavior (Kivela et al.,2000; Namkung & Jang, 2007). Perceived quality and customer satisfaction/ loyalty have long been recognized as playing a crucial role for success and survival in today's competitive market. Considerable research has been conducted these concepts, the concepts of quality and satisfaction were linked to the intentions of the client's inspirations, such as the desire to make a purchase and loyalty, to spread positive referrals by word of mouth and complaints of many researchers (Olsen, 2002; Kang, Nobuyuki & Herbert, 2004). Many pieces of research have studied moderating, mediating and behavioral consequences between customer satisfaction, perceived value, and behavioral intentions. However mixed results were obtained.

For more than three decades, academics have been interested in the concept of customer satisfaction because customers are main source of revenue. For customer loyalty, satisfaction is crucial precondition, which is in turn a primary driver of the improvement of profit and performance (Reichheld, 1993; Heskett et al., 1997). According to Choi and Chu (2001) satisfaction is customer's assessment that is customers' expectations should be at least as good as the quality of food and service they have received. Consistent with this view, customer satisfaction is identified as an emotional response, that comes from a cognitive process of

evaluating the service received against the price of obtaining the service (Rust & Oliver, 1994). The primary fundament for success in restaurant industry is providing high quality service and food it influence customers to be satisfied and loyal (Namkung et al., 2011). Loyal customers plays main role in the growth of the restaurant (Chen & Myagmarsuren, 2013). The results of various studies have been proved that there is an established correlation between customer satisfaction and loyalty (Rauyruen & Miller, 2007; Hennig-Thurau et al.,).

Previously many researches have been examined service quality, food quality, customer satisfaction and loyalty. This study used an ethnic restaurant segment as a research center, because customers visit an ethnic restaurant not only to eat food but also to enjoy other nations' culture through the dining environment and exotic products of ethnic restaurants. Sloan (2011) referred that in the U.S. ethnic foods developed in four levels: exotic, narrow, expanding and mainstream. This study chose the Uzbek ethnic restaurant segment because it belongs to the "narrow" stage. Even though Uzbek ethnic restaurants accessible in many parts of Korea, Uzbek food remains unfamiliar to many Koreans. They can easily experience Uzbek food because most of the ingredients of Uzbek food are available in Korean cuisine. Even though Uzbek restaurants can only attract Central Asian (Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Turkmenistan) customers, firstly the number of Uzbekistan restaurants is really few and the competition between Uzbek restaurants is so slow. And the quality of service is various according to their situated city in Korea.

The aim of this study was to examine the relationship between service quality dimensions and customer satisfaction, as well as the relationship between customer satisfaction and customer loyalty. In this study service quality dimensions (tangible, reliability, responsiveness, assurance, empathy) would have a positive effect on customer satisfaction, according to this study hypotheses H1a, H2b, H3c, H4d, H5e service quality dimensions were found to influence customer satisfaction positively in Uzbekistan ethnic restaurants. Izogo and Ogba (2015) and Al-Tit (2015) also found the same results in terms of SERVQUAL results they also found that SERVQUAL dimensions have positive influence on customer satisfaction. According to the results of this study, Uzbekistan Restaurant managers and employee should focus on assurance and empathy dimensions more because they explain satisfaction in a low percentages than other dimensions (tangible, reliability, responsiveness). Furthermore, this study examined the relationship between customer satisfaction and customer loyalty, as mentioned above. Having a look on Hypothesis 6 this study proposed that customer satisfaction influence positively to customer loyalty.

This study can make contribution in understanding the significance of service quality in Uzbekistan restaurants, if they improve the quality of service with paying attention little elements, they can make customers satisfied and customers distribute positive word of mouth, and Uzbekistan ethnic restaurants can make loyal customers.

This study examines service quality dimensions (tangible, reliability, responsiveness, assurance, empathy) have positive effect on customer satisfaction, the analysis indicates that tangible reliability and responsiveness highly influence on customer satisfaction, but overall all five dimensions significantly effect on customer satisfaction, having a look on previous researches Dedeoglu and Demirer (2015) and Zamil, Areiqat and Tailakh (2012) all found the same resukts. In contrast, Qin, Prybutok and Zhao (2010) found that only three dimensions tangibles, reliability and responsiveness were prominent attributes. These above mentioned previous research results make to grasp the significance of this study results.

In terms of the relationship between customer satisfaction and customer loyalty, this study proposed Hypothesis 6 that is customer satisfaction influence customer loyalty positively. According to previous research results Ahmad Al-Tit (2015) and Danish et al. (2012) have found the same results. Finally, this study is successful to contribute to restaurant industry by successfully performing the theoretical and conceptual examination on the effect of five dimensions of service quality on satisfaction and effect of satisfaction on customer loyalty.

References

1. Anderson, E. W., & Sullivan, M. (1993). The antecedents and consequences of customer satisfaction for firms. *Marketing Science*, 12(2), 125-143.
2. Anderson, E., Fornell, C., & Lehmann, D. (1994). Customer Satisfaction, Market Share, and Profitability: Findings from Sweden. *Journal of Marketing, 58*(3), 53-66. doi:10.2307/1252310
3. Andreassen, T. W., & Lindestad, B. (1998). Customer loyalty and complex services: The impact of corporate image on quality, customer satisfaction and loyalty for customers with varying degrees of service expertise. *International Journal of Service Industry*.
4. *Management*, 9(1), 7-23
   Awwad, M. (2012). An application of the American Customer Satisfaction Index (ACSI) in the Jordanian mobile phone sector. *The TQM Journal*, 24, DO - 10.1108/17542731211270098
5. Baker. D. A., & Crompton, J. L. (2000). Quality, satisfaction, and behavioral intention. *Annals of Tourism Research*, 27 (3), 785-804.

6. Bitner, M. J., & Hubbert, A. R. (1994). Encounter satisfaction versus overall satisfaction versus service quality: The consumer's voice. In R. T. Rust, & R. L. Oliver (Eds.), Service quality: New directions in theory and practice. Thousand Oaks, CA: *Sage Publications.*
7. Bolton, R., & Drew, J. (1991). A Multistage Model of Customers' Assessments of Service Quality and Value. *Journal of Consumer Research*, 17, (March), pp.375- 384
8. Boshoff, C., & Gray, B. (2004). The Relationships between Service Quality, Customer Satisfaction and Buying Intentions In the Private Hospital Industry. *South African Journal of Business Management*, 35(4), 27–37.
9. Boulding, W., Kalra, A., Staeling, R., & Zeithaml, V. A. (1993). A Dynamic Process Model of Service Quality: From Expectation to Behavioral Intentions. *Journal of Marketing Research*, 30(1), 7–27.
10. Brady, M. K., & Robertson, C. J. (2001). Searching for a consensus on the antecedent role of service quality and satisfaction: An exploratory cross-national study. *Journal of Business Research*, 51(1), 53–60

"YANGI OʻZBEKISTON"- YANGI IMKONIYATLAR YURTI

Abdunazarov Otabek Ziyodullo oʻgʻli
Samarqand viloyat yuridik texnikumi
201-guruh oʻquvchisi

2016-yil sentabr oyidan 2020-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davr – "Yangi O‘zbekiston", "O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi" degan nomlar bilan Vatanimiz tarixida, jahon hamjamiyati bilan munosabatlarimiz silsilasida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelmoqda. Bu davr – O‘zbekistonni, jamiyatimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o‘zgartirgan, mamlakatimizni yangi, demokratik qiyofada jumlaiy jahonga tanitgan davrdir.

"Shu o‘rinda Yangi O‘zbekiston qanday bo‘lishi kerak degan savolga butun xalqimiz bilan javob topib, amaliy harakatlarimizni boshlashimiz zarur", deydi Shavkat Mirziyoyev.

Uning ta'kidlashicha, Yangi O‘zbekiston:

• har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyat beradigan;

• odamlar o‘z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoit mavjud bo‘lgan;

• hamma uchun adolatni so‘zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolarning ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida teng bo‘ladigan;

• tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlat bo‘lishi kerak.

“Bir so‘z bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g‘amxo‘rlik qiladigan ochiq va adolatli jamiyat ham tushuniladi”, deydi Mirziyoyev.

Shu ma’noda, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda yangi, demokratik islohotlarni boshlashda eng maqbul yo‘l tanlandi va u hayotda qisqa muddatda o‘zini to‘la oqladi, deb aytishga bugun barcha asoslar bor.

Avvalo, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi, aholining hayot darajasi va sifatini yaxshilash davlat siyosatining bosh mezoni etib belgilandi.

Ikkinchidan, mintaqa mamlakatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hamkorlik asosida faol munosabatlar o‘rnatish tashqi siyosat sohasidagi ustuvor tamoyil, deb e’lon qilindi.

Uchinchidan, dunyoga ochiq bo‘lish, umume’tirof etilgan demokratik prinsiplarni amalda joriy etish jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorlikning asosiy yo‘nalishi sifatida qabul qilindi.

Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinlik va manfaatlarini amalda ta’minlash, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini rivojlantirish orqali xalq farovonligini oshirish, tashqi siyosat sohasida Markaziy Osiyo mintaqasida do‘stlik va hamkorlik ruhini kuchaytirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Albatta, 34 millionlik aholiga ega bo‘lgan, o‘tgan davrda ko‘plab muammolar to‘planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to‘g‘ri yo‘l tanlash – bu davlat rahbaridan ulkan aql-zakovat, bilim va tajriba, mustahkam iroda, jasorat va azmu shijoatni talab etadi. Ayni vaqtda tanlangan rivojlanish yo‘lini ijtimoiy institutlar, ta’sirchan mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etish, odamlarni islohotlarning maqsadi va natijasiga ishontirish, butun jamiyatni ruhlantirib, ulug‘ maqsadlar sari safarbar eta olish – yanada murakkab vazifa, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi.

Aslida ham tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Yangi O‘zbekiston davlati besh konstitutsiyaviy belgi asosida, ya’ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb e’lon qilinib, inson qadrini yanada ulug‘lash va “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari alohida muhrlab qo‘yildi. Bosh qomusimizda inson huquqlari kafolatlariga oid normalar 3 barobar ko‘paytirildi.

Yurtimizda majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish, ayniqsa, ta’lim tizimi xodimlarini o‘z xizmat vazifalari bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga jalb etish holatlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartirishlar pedagog xodimlarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar, ularning kasbiy faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarayotgan tibbiyot xodimlariga nisbatan qonunga xilof ravishda turli shakllarda ta’sir o‘tkazganlik, tibbiyot xodimlarining tibbiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq qonuniy tibbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilovchi yangi modda bilan to‘ldirildi.

2023- yil 11- aprelda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun imzolandi. Qonun bilan xotin-qizlar va bolalar huquqi, erkinligi hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo‘ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslari tubdan takomillashtirildi.

Bundan buyon jinsiy zo‘ravonlik, jumladan, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish mumkin emas.

Yangilangan Konstitutsiyaga muvofiq, joriy yil 16-iyunda “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, unda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatiladigan ishlar ro‘yxatiga fuqarolik, ma’muriy va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni kiritish orqali fuqarolarning bepul yuridik yordam olish imkoniyati kengaytirildi.

Davlat hisobidan yuridik yordam kam ta’minlanganlarga, teng huquqliligi buzilgan xotin-qizlar va erkaklarga hamda psixiatriya yordamini olgan shaxslarga ko‘rsatilishi belgilandi.

РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Шигакова Люция Анваровна
Ассистент Ташкентская медицинская академия
Узбекистан г Ташкент
E-mail lutsiya17111990@gmail.com

Аннотация. Данная исследовательская работа посвящена разработке и применению эффективных методов развития исследовательских навыков у студентов в процессе обучения биологии. В современном образовательном контексте акцент на развитие исследовательского мышления среди студентов считается одним из приоритетных направлений. В работе представлен анализ существующих методов и приемов обучения биологии, а также рассмотрены педагогические стратегии, направленные на стимулирование активности и самостоятельности студентов.

Ключевые слова: Дидактические средства, Развитие исследовательских умений, Методики обучения, Самостоятельная активность обучающегося, Инновационные подходы, Эффективность образовательного процесса.

Исследование включает в себя разработку и апробацию набора дидактических средств, специально адаптированных для развития исследовательских умений в обучении биологии. Комплекс методических пособий включает интерактивные учебные материалы, лабораторные работы, проектные задания и практические занятия, спроектированные с учетом индивидуальных особенностей студентов.

Результаты исследования показывают положительное влияние использования разработанных дидактических средств на эффективность обучения биологии и развитие исследовательских умений у студентов. Представленный подход может быть востребован как в образовательных учреждениях, так и в педагогической практике для повышения качества обучения биологии и развития компетенций, необходимых для успешного участия в научных и исследовательских проектах [1,2].

Для развития исследовательских умений при обучении биологии был использован комплексный подход, включающий в себя следующие методы:

Интерактивные учебные материалы: Разработка специальных учебных материалов с элементами интерактивности, таких как мультимедийные презентации, видеоматериалы, веб-ресурсы, способствующих привлечению внимания и активизации студентов.

Лабораторные работы: Проведение практических занятий, в ходе которых учащиеся могли непосредственно взаимодействовать с биологическим материалом, выполнять эксперименты и анализировать результаты.

Проектные задания: Формирование групп для выполнения научных проектов по определенной биологической теме. Это включало в себя постановку целей и задач, сбор и анализ данных, а также подготовку презентации результатов, которые мы опубликовали в учебном пособие.

Практические занятия: Организация совместных занятий с акцентом на практические навыки, способствующих развитию умений в области наблюдения, анализа и интерпретации биологической информации.

Этот комплекс методов был разработан с учетом целей развития исследовательских умений, студентов в контексте обучения биологии. Каждый метод был адаптирован для оптимального воздействия на целевые компетенции и интересы студентов [3,4].

Результаты исследования подтвердили эффективность разработанных дидактических средств для развития исследовательских умений при обучении биологии. В ходе апробации было выявлено следующее:

Значительный прирост активности и самостоятельности студентов: использование интерактивных материалов и практических занятий стимулировало интерес к предмету и мотивировало к более активному участию в учебном процессе.

Улучшение понимания и усвоения учебного материала: лабораторные работы и проектные задания позволили учащимся применять теоретические знания на практике, что способствовало более глубокому усвоению биологических концепций.

Развитие аналитического мышления и навыков научного исследования: учащиеся, задействованные в практических занятиях, приобрели навыки формулирования гипотез, проведения экспериментов и анализа полученных данных.

Увеличение интереса к научной деятельности: учащиеся проявили интерес к дальнейшему изучению биологии и выражали желание участвовать в научных исследовательских проектах.

Таким образом, результаты исследования свидетельствуют о положительном влиянии применения разработанных дидактических средств на развитие исследовательских умений у студентов при обучении биологии. Подход может быть рекомендован для внедрения в образовательные

практики с целью повышения эффективности обучения данному предмету и развития научно-исследовательских компетенций студентов [5,6].

Заключение. В ходе проведенного исследования было установлено, что использование комплексного подхода, основанного на применении интерактивных учебных материалов, лабораторных работ, проектных заданий и практических занятий, существенно способствует развитию исследовательских умений у студентов в процессе обучения биологии.

Экспериментальная апробация показала положительную динамику в активности и самостоятельности студентов, что отразилось на качестве усвоения учебного материала. Особенно значимыми оказались лабораторные работы и проектные задания, которые позволили студентам применить теоретические знания на практике, развив аналитическое мышление и навыки научного исследования.

Итак, результаты данного исследования подтверждают, что применение разработанных дидактических средств существенно способствует развитию исследовательских умений у студентов в обучении биологии. Подход может быть рекомендован для внедрения в педагогическую практику с целью повышения эффективности образовательного процесса и формирования научно-исследовательских компетенций студентов.

Список литературы

1. Швецов Г. Г. Совершенствование методики использования дидактических материалов в процессе обучения биологии (Раздел" Человек и его здоровье"). – 2001.
2. Шигакова Л. А., Иногамова Д. Р. виртуальные программы и дидактические средства как методика преподавания биологии в медицинском вузе //Universum: психология и образование. – 2023. – №. 10 (112). – С. 17-19.
3. Губайдуллин А. А. Формирование исследовательской компетентности студентов в условиях проектного обучения. – 2011.
4. Смолянинова О. Г. Дидактические возможности метода case-study в обучении студентов //Гуманитарный вестник. – 2000. – №. 3. – С. 32.
5. Иногамова Д. Р., Шигакова Л. А., Умарова З. Х. использование рабочей тетради в пеподавании медицинской биологии //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 9-12.
6. Гапсаламов А. Р., Габитова Р. Р., Идиятуллина И. И. Возможность активизации научно-исследовательской деятельности студентов вуза на основе использования аудиовизуальных средств обучения: из опыта

Елабужского института Казанского (Приволжского) Федерального университета //Мир науки. Педагогика и психология. – 2017. – Т. 5. – №. 1. – С. 15.

SUDLAR FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI

Ismoilov Shahriyor
Samarqand viloyati yuridik texnikumi
204-guruh oʻquvchisi

Barcha demokratik mamlakatlarda sud hokimiyatning alohida tarmogʻi sifatida e'tirof etilgan. Oʻzbekiston Konstitutsiyasi loyihasini tayyorlashda, sud hokimiyatini mustaqil hokimiyat sifatida oʻrnatishga alohida e'tibor berildi. Jahon mamlakatlari tajribasi oʻrganildi. Sud hokimiyatini tashkil etish, davlat hokimiyatini tashkil etishning ajralmas qismi deb qaraldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasiga asosan,

> Oʻzbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Oʻzbekiston Respublikasida sud tizimi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog`iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo`yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo`yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy va ma`muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo`yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo`yicha tuman, shahar sudlari, tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari va tuman, shahar ma`muriy sudlaridan iborat.

Konstitutsiyaviy sudning asosiy vazifasi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni koʻradi. Boshqacha qilib aytganda u Konstitutsiyaning asosiy himoyachisidir.

Konstitutsiyamizning 132-moddasiga asosan, Konstitutsiyaviy sudga yana quyidagi vazifalar yuklangan. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi:

1. Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarining va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, Oʻzbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi;

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ular qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlarini kuchaytirishda, ishonchli himoyasini ta'minlashda, jamiyatda qonun ustuvorligini qaror toptirishda konstitutsiyaviy odil sudlovning rolini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma`muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

Konstitutsiyaning 135-moddasida “O'zbekiston Respublikasi Sud`yalar oliy kengashi sud`yalar hamjamiyatining organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy printsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi Sud`yalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi” – deb qayd qilindi. Sud`yalar oliy kengashiga konstitutsiyaviy maqom berilganligi unga yuklatilgan vazifalarni mustaqil va samarali amalga oshirilishining muhim konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi.

Sudyalar oliy kengashi raisi lavozimi Prezidentning taqdimiga binoan Senat tomonidan tayinlanish Oliy Majlis yuqori palatasining mutlaq vakolatiga kiritildi. 2017- yil 7- aprelda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida”gi qonunda Kengash rais, rais o'rinbosari, uning a'zolari va kotibidan – jami yigirma bir nafar kishidan iborat tarkibda sud`yalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislar orasidan shakllantirilishi belgilab qo'yildi. Kengashning o'n bir nafar a'zosi Kengash raisining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sud`yalar orasidan tasdiqlanadi. Kengashning ushbu a'zolaridan bir nafari Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlarining sud`yalari orasidan tasdiqlanadi. Kengashning raisi, kotibi va sud`yalar

orasidan tasdiqlangan o'n bir nafar a'zosi o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi, Kengashning qolgan sakkiz nafar a'zosi, shu jumladan Kengash raisining o'rinbosari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida sudning vazifasi belgilagan, unga asosan sud – “O‘zbekiston Respublikasida sud O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishga da'vat etilgan”.

Ko‘rinib turibdiki, biror yerda sudga jazolash vazifasi yuklanmagan u faqat fuqaro va muassasalarning huquqlarini himoya qiladi. Sudga bunday vazifa yuklanishi huquqiy davlatga xos xususiyatdir. Qonunda sudlarning vakolatlari, tarkibi, ish yuritish shakli va prinsiplari batafsil belgilab qo‘yilgan.

Bu bandda sudlarni tashkil etish tartibi deganda sud organlariga sudyalarni saylash yoki tayinlash masalasi ko‘rinadi. Sud hokimiyat tarmog‘i bo‘lib, ma'lum sud organlaridan iborat bo‘lsa, sud organlari asosan sudyalardan iborat bo‘ladi.

Konstitutsiyamizning 132-moddasi 2-bandiga binoan,

> Konstitutsiyaviy sud, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, Oliy Majlis Senati tomonidan saylanadi.

Konstitutsiyaga asosan, Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan sud raisi, rais o‘rinbosari, sudyalardan iborat tarkibda saylanadi. Sudyalarning bittasi albatta Qoraqalpog‘iston Respublikasi vakili bo‘lishi shart. Bu Konstitutsiyaviy sud raisi o‘rinbosari va sudyalarga qo‘yiladigan Konstitutsiyaviy talab hisoblanadi. Qonunda Konstitutsiyaviy sud sudyalari oldiga yana shaxsning yuksak ma'naviy fazilat va zarur malaka egasi bo‘lishi talabi qo‘yiladi.

Yana bir muhim jihati harbiy sudlarning, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining sud`yalarini, tumanlararo, tuman, shahar sudlarining raislari va sud`yalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Kengashning o'zi lavozimga tayinlashi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa ularni Prezident bilan kelishilgan holda lavozimidan ozod qilishi – uning obro' va nufuzini ko'tarishda favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Kengashning asosiy vazifalaridan biri sud`yalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, eng malakali va mas'uliyatli mutaxassislar orasidan sud`yalarni tayinlash, sud`yalarni kasbiy tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni tashkil etish, sud`yalarning faoliyati samaradorligini baholash, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro

hamkorlik olib borish, aholi bilan muloqotni yo'lga qo'yish, sud`yalarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi, shuningdek ularni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortish uchun xulosa berish haqidagi masalani ko'rib chiqish kabilar belgilangan.

Sudyalarga nisbatan jinoiy ish faqat Bosh prokuror tomonidan qo‘zg‘atiladi. Sudyaning majburiy keltirish, ushlab turish, shaxsiy ashyolari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat binosini ko‘zdan kechirish, tintuv qilish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.60-66 B.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. 511-532 B.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Ilm ziyo, 2017.229-236 B.
4. http://www.lex.uz

FUQAROLARNING SIYOSIY HUQUQ VA BURCHLARI

Tangirov Nurimboy Toshbolta o`g`li
Samarqand viloyati yuridik texnikumi
205-guruh o`quvchisi

Fuqarolar faolligini oshirishda ularning siyosat va hokimiyat hodisalariga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalovchi baholash hukmlari ahamiyatga molik ma’naviy hodisadir. Bunday shaxsiy – mazmuniy munosabatlarning mavjudligi insonning o‘z fuqarolik burchini anglab yetgan siyosiy sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsata olishini ifoda etadi.

Siyosiy huquqlar – bu odatda , faqat shu davlat fuqarolarining huquqlaridir. Ular davlat hayotida , davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqlarini beradi va tabiiyki, bunday huquqlarga mamlakat hududida yashayotgan yoki hozir bo’lgan barcha odamlar da’vo qilishi mumkin emas. Bu O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tegishli moddalarida qoidalardan kelib chiqadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sakkizinchi bobi siyosiy huquqlarga bag’ishlangan bo’lib, bu huquqlarni kafolatlaydi. Bu huquqlar quyidagilardan iborat: jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o’z vakillari orqali ishtirok etish huquqi (36-modda); ijtimoiy faollikni mitinglar, yig’ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqi (38-modda); kasaba uyushmalariga uyushish ; ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi (39-modda) ; bevosita o’zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga,

muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza , taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi (40-modda).

Umuman, siyosiy madaniyat insonning siyosiy hodisalar haqidagi qadriyatlarga doir tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo‘ladigan xulqining kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat sub’ekti sifatidagi faoliyatining uslubidir. Shu ma’noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo‘lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi.

Shuningdek, u insonning tafakkurlash va amaliy faoliyat me’yorlarining jamiyat madaniy, deb tan oladigan sub’ektivligini qanchalik darajada oshira olganligi haqdir.

Jamiyatning har bir a’zosi ijtimoiylashuv va kamolotga erishish jarayonida ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shakllanadi. Shuningdek, inson jamiyatda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-madaniy tizimning asosiy xususiyatlarini o‘zida uyg‘unlashtiradi va umumlashtiradi. Ayni paytda har bir individ siyosiy madaniyat tashuvchi hisoblanadi va shu sababli ham siyosiy madaniyat siyosiy -madaniy tizimning umumlashtiruvchi, birlashtiruvchi qismi deb qaraladi. Siyosiy madaniyat – bu munosabatlar tizimi va ayni paytda avlodlar almashinuvi natijasi, uni tashkil etuvchi unsurlarni ishlab chiqish va qayta ishlab chiqish jarayonidir. Siyosiy madaniyat rivojlanib boruvchi dinamik hodisadir.

Siyosiy huquq va erkinliklar — fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan bir guruhi (fukarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy huquq va erkinliklar kabilar bilan bir qatorda). Siyosiy huquq va erkinliklar fuqarolarga mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida qatnashish imkonini beradi. Bu huquq va erkinliklar jamiyat va davlat boshqaruvida qatnashish huquqi, saylov huquqi, qonunlarga muvofiq, jamoat birlashmalariga uyushish, mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar o‘tkazish, axborot erkinligi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, ariza, taklif va shikoyatlar berish orqali davlat organlari, muassasalar yoki xalq vakillariga murojaat qilish huquqi kabilarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston fuqarolarining siyosiy huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (8-bob) “Fuqarolarning saylov huquklari kafolatlari to‘g‘risida” (1994-yil 5-may), “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida” (1991-yil 18-noyabr (2001-yil 30-avgustda yangi tahrirda) qabul qilingan),Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” (1996-yil 26-dekabr), “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” (1991-yil 14-iyun (1998-yil 1-mayda yangi tahrirda) qabul qilingan), “Kasaba uyushmalari, ularning huquklari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida” (1992-yil 2-iyul), “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida” (1991-yil 15-fevral) kabi bir qancha qonunlar va qonun kuchiga ega bo‘lgan hujjatlar bilan belgilab qo`yilgan.O’zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba

uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi – muhim siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi. Chunki bu jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlarning asosiy maqsadi fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlarini amalga oshirishda Fuqarolarning siyosiy huquqlardan foydalanishidagi erkinligi jamiyatdagi amaldagi qonunlar doirasida bo'lishi, Konstitutsiya me'yorlaridan chiqib ketmasligiga asoslanadi.

"Inson huqulari Umumjahon Deklaratsiyasi" hamda "Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risida" gi Xalqaro Paktning siyosiy huquqlarga bag'ishlangan moddalari mazmuni.

20-modda.

1. Har bir inson osoyishta yig'ilishlar va uyushmalar o'tkazish (tuzish) huquqiga egadir.

2. Hech kim biror bir uyushmaga majburan kiritilishi mumkin emas.

(*Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi*)

21-modda :

1. har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashishi huquqiga ega.

2. Har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishga teng huquqqa ega.

3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqida, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozim.

(*Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi*)

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Paktdan :

21-modda : Tinch yig'inlarga huquqlar tan olinadi. Bu huquqlar foydalanishga hech bir cheklash qo'yilmaydi. Qonunga muvofiq qo'yilgan va demokratik jamiyatda davlat va jamiyat xavfsizligi , jamoat tartibi, aholi salomatligi va axloqi yoki boshqa shaxslar huquqlari va erkinligi manfaatlari uchun zarur bo'lgan cheklanishlar bundan mustasno.

(1966 yil 19-dekabr)

22-modda : Har bir inson boshqalarni assotsiyalar tuzish, jumladan kasaba uyushmalar tashkil etish erkinligi va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun shunday uyushmalarga kirish huquqiga ega

Bunday holat xalqaro huquqiy andozalarga ham mos keladi. Masalan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro Paktning 9-moddasida : "**Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir",** – deyiladi, 10-moddada: "**ozodlikdan mahrum qilingan barcha shaxslar insoniy munosabat va qadr-qimmatini e'zozlash huquqiga ega",** – deyiladi, 14-moddada: "**barcha shaxslar**

sudlar va tribunallar oldida tengdir”, – deyiladi, 19-modda o’z fikrini daxlsiz e’tirof etishni “**har bir inson”** uchun kafolatlaydi. Bu moddalardan farqli ravishda 25-moddada : “**har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz : a) davlat ishlarini yuritishda qatnashish..; b) saylash va saylanish..; v) o’z mamlakatida umumiy tenglik asosida davlat xizmatiga kirish… huquqi va imkoniga ega bo’lishi shart ’’,** – deyilgan. Ko’rinib turibdiki , xalqaro huquq ham siyosiy huquqlarni hammaga , har kimga emas, fuqarolargagina beradi.

Fuqarolar siyosiy huquqlardan foydalanish asosida o’zlarining onglilik darajasini oshirib boradilar.

Siyosiy huquqlar orqali fuqarolarning jamiyat siyosiy munosabatlaridagi faolligi kuchayib boradi.

Fuqarolar mamlakatning ichki va tashqi siyosatidan tobora ko’proq xabardor bo’lib boradilar.

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi
Tel: 94 277-88-98
Email: mbobur313@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada Yangi O’zbekiston sharoitida budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etish hamda samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirish orqali budjet mablag‘laridan tejamkorlik asosida foydalanishni ta’minlash, budjetdan mablag’ oluvchi barcha tashkilotlarda shaffof va ochiq axborot tizimini takomillashtirish borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: budjet, moliya, moliyaviy nazorat, nazorat tashkilotlari, budjet tashkilotlari, budjet mablag’lari.

Аннотация. В данной статье представлены идеи по организации финансового контроля в бюджетных организациях в условиях Нового Узбекистана и эффективному использованию бюджетных средств за счет внедрения эффективного финансового контроля, а также совершенствования прозрачной и открытой информационной системы во всех странах. организации, получающие средства из бюджета.

Ключевые слова: бюджет, финансы, финансовый контроль, контролирующие организации, бюджетные организации, бюджетные средства.

Abstract. This article presents ideas on the organization of financial control in budget organizations in the conditions of New Uzbekistan and the efficient use of budget funds through the implementation of effective financial control, as well as the improvement of a transparent and open information system in all organizations that receive funds from the budget.

Key words: budget, finance, financial control, control organizations, budget organizations, budget funds.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar budjet tizimini yanada takomillashtirish hamda ularda axborot texnologiyalarni qo‘llash, ya'ni raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Ma'lumki, barcha sohalarda bo‘lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, budjetdan mablag’ oluvchi barcha tashkilotlarda o‘tkazilayotgan islohotlarda unda sezilarli siljishlar va o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda budjet tizimini tahlil qilish va ularni kelgusi davrga prognoz qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Prognozlash orqali budjet tashkilotlarida axborot texnologiyalarini retrospektiv holati tahlil qilinadi, asosiy ko‘rsatkichlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlanadi hamda prognozlash asosida axborot tizimining asosiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Budjet mablag`laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat budjeti o`lchovsiz emas, mablag`larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta`minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo`lmaydigan haqiqat”[1]- deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o`z nutqlarida.

Budjet tashkilotlari budjet mablag`larining asosiy iste`molchisi hisoblanib, davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budjetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag`lar yuzasidan tashkil bo`lish manbalari va foydalanish yo`nalishlari ko`rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so`nggi natijaga yo`naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budjetining g`azna ijrosiga o`tilishi, o`rta muddatli budjet istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o`zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o`z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag`larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi.16.01.2017.

A.X. Islamqulov, respublikamizda davlat byudjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi byudjet daromadlari mutanosibligini ta’minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-byudjet, byudjet-soliq sohalarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta’kidlaydi[2]. Bunda muallif byudjet tizimining bo’g’inlari o’rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlash gorizontida amalga oshirishni ilgari suradi.

Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to’rt bosqichini o’z ichiga oladi:

-budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);

-budjetni ko’rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;

-budjetni ijro etish;

-budjetning ijrosi to’g’risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Moliyaviy nazoratning ahamiyati shundan iboratki, uning yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o‘z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, xarakatlarni maqsadga muvofiqligini ta’minlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqola orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag’lar sarfini nazorat qilish, budjet va budjetdan tashqari mablag’lardan oqilona foydalanishni ta’minlash bevosita hisob ishlarini tashkil qilish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Budjet tizimida boqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar budjet tashkilotlarining daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobi uslubiyotini yanada takomillashtirishni talab etadi.

[2] Islamkulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash masalalari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyulь-avgust, 2016 yil. http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/43_A_Islamqulov.pdf

ZIYOLI MADANIY MAVQEINING IJTIMOIY HAYOTDAGI O'RNI

Burkhanova Ma'mura Gulyamovna
Navoi davlat pedagogika instituti
mamuraburxanova@gmail.com
(Uzbekiston Navoi)

Аннотация. В данной статье представлены аналитические сведения о проблеме интеллекта, широко распространенной в философии и социологии, ее культурной интерпретации, мышлении разумного человека и ее генезисе, а также анализируется научная и социальная значимость интеллекта. Также в статье рассматривается интеллектуализм, его сущность и эволюция. Философские учения об интеллекте служат методологической и концептуальной основой для решения многих теоретических вопросов и практических задач в гносеологической интерпретации. Такие интерпретации основаны на эвристической роли интеллекта в жизни человека и общества. Анализируются социальные факторы, влияющие на феномен интеллекта, в частности, фактор социальной среды, культура, условия и качество образования, материальное и духовное благополучие, роль и значение наследственности. В статье содержатся практические, методические предложения и

описания по укреплению интеллектуалов в обществе.

Ключевые слова: интеллект, поколение, среда, разум, мышление, деятельность, интеллектуальная сила, знания, интеллектуальная зрелость, самоконтроль.

Annotatsiya. Ushbu maqolada falsafa va jamiyatshunoslikda keng tarqalayotgan intellekt muammosi, uning madaniy talqini, ziyoli inson tafakkuri, genezisi haqida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan hamda ziyolilik ilmiy, ijtimoiy ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada ziyolilik, uning mohiyati, evolyusiyasi xususida fikr yuritilgan. Intellekt to ‘g ‘risidagi falsafiy ta’limotlar epistemologik talqinda ko ‘plab nazariy masalalar va amaliy vazifalarni hal qilishning metodologik, konseptual asosi bo ‘lib xizmat qiladi. Bunday talqinlar intellektning tabiatini chuqurroq o`rganishda uning inson va jamiyat hayotidagi evristik rolidan kelib chiqadi. Intellekt fenomeniga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar , xususan, ijtimoiy muhit omili, madaniyat, ta’lim - tarbiya sharoitlari hamda sifati, moddiy va ma’naviy farovonlik, nasliyotning roli va ahamiyati analiz qilingan. Maqolada jamiyatda ziyolilikni kuchaytirish bo ‘yicha amaliy, metodologik taklif va tavsiflar berligan. Ziyolilik muammosining falsafiy refleksiv talqini, millat ziyoliligi darajasi masalalari hamda bu boradagi tanqiidiy qarashlar bayon etilgan. Maqolada intellekt inson va ziyolilikning o’zaro bog’lik rasional mohiyatli xususiyati ta’kidlangan. Ziyolilik insonning mental, ruhiy olami bilan dialektik aloqador bo`lib, jamiyat madaniy-ijtimoiy faoliyatini tartibga solishning murakkab shakli sifatifa yoritilgan.

Kalit so’zlar: intellekt, nasl, muhit, aql, tafakkur, faoliyat, intellekt darajasi, qobiliyat, bilish, intellektual barkamol, vazminlik

KIRISH . Ijtimoiy hayotda moslashuvchanlik uchun ziyolilik muhim ahamiyat egallaydi. Ziyoli inson ijtimoiy hayotga moslashganmi?

Ziyoli odamda moslashish holati bo'lishi mumkinmi? Ta'lim berish jarayonida ziyolilikni tarbiyalash mumkinmi? Jamiyat rivojlanishining postindustrial bosqichida asosiy ziddiyat bilim va kompetentsiya o'rtasida (ish beruvchi va ishchi

lar o’rtasidagi muomala madaniya’ti)dir, kasbiy ko’nikmalar o'rniga birinchi o'rinda aslida professional etikasi, xizmat ko'rsatish sohasi ishlab chiqarish, boshqaruvchilik ustunlik qiladi, lekin ayni paytda esa oliy ma'lumot talab qiladi .

Ziyolilikni aniqlashda ijtimoiy tarkibning ahamiyatini ta’kidlab, S.S. Sadina[3] shuni ko‘rsatadiki, intelligensiya alohida ijtimoiy qatlamda qanchalik yaqqol ajralib tursa, uning nafaqat moddiy ishlab chiqarishni ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy ta’minlash funksiyalari, balki bilimlarni tushunish va translyasiya qilish, madaniy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish funksiyalari ham shunchalik aniq shakllangan bo‘lib, bu o‘zlarining axloqiy qadriyatlari haqidagi savolni keltirib chiqardi.

MATERIALLAR VA METODLAR. Zamonaviy jamiyat ziyoli insonning barcha ko’nikmalari: axborot oqimini boshqarish va saralash qobiliyati , ichki va tashqi dinamizm, vazminlik , muloqot qila bilish qobiliyati, professionallik va boshqa ko’nikmalardir. Ushbu shartlarga moslashish insonning hayot muvaffaqiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ichki va tashqi duyo o’rtasidagi muvozanat shaxsdagi ma'naviy, intellektual, tarbiyaviy o'zgarishlar bir- biriga moslashtirilgan holatda insonda ijobiy, samarali unumdorlikni tug'diradi, jismoniy, ma'naviyatni saqlashga qaratilgan, jismoniy, ijtimoiy, kasbiy farovonlikni rivojlantiradi. Intellektual barkamol , salohiyatli va madaniyatli odam ziyoli odamdir. Ziyoli deganda hayotga moslashmagan shaxs stereotipi tushuniladi. ziyoli, sifatida. Go’yoki ziyoli inson jamiyatdan uzilgan holda yashaydi, buning natijasida uning rivojlanishiga zaif ta’sir ko’rsatadi. Buning sababi shundaki, Ziyoli odam jamiyat ommasidan farqli fikrlaydi, uning ehtiyoji va qadriyatlari oddiy materialistic qiziqishlardan farq qiladi.

Ommaviy madaniyat madaniyatga qarshi tomonda paydo bo'ladi, jamiyatda rivojlanadi, chunki jamiyatning rivojlanish darajasi va shaxshiy ehtiyojlar o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi , ijtimoiy talablarga moslashish amalga oshmasligi mumkin. Ziyoli inson siymosi o’zining manfaatlarini himoya qila olmaydigan xususiyatlarga ega, bunday holat yuz bermasligi kerak, chunki bu ziyolilar qatlamining parokandaligiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Madaniy daraja ziyoli inson xususiyati bo’lib, asosiy negizi -madaniyatga baho berish yoki tarixdan xabardor bo’lish emas, balki insonlar bilan bo’lgan munosabati bilan belgilanadi. Ayni shu xusussiyat uni zodagonlardan farqlaydi (zodagonlik – ijtimoiy qatlam sifatida emas, balki yashash tarzidir). Biroq iqtisodiy ta’minlangan inson ham ziyoli bo’lishi mumkin.

[3] : Садина С.С. Некоторые аспекты формирования парадигмы «Советская интеллигенция - народ» (1900-е - 1930 годы) // Интеллигенция и мир. - 2004. - № 3-4. - С. 87-109.

Boshqa odamlarning manfaatlarini hurmat qilgan holda o'z manfaatlarini himoya qilish qobiliyati, ziyolining yagona quroli, mudofaa vositasidir shaxsiyat, jamiyatda moslashish yo'li. Ziyolilik - shaxsning yaxlitligi uchun tashqi bosim bilan yashirin kurishish vositasidir. Ziyolilikka taaluqli qadriyatlar o'zining o'rnini bugungi kunda yo'qotib kelmoqda. Bu esa ta'lim- tarbiya jarayoni o'zgarishi sabab emas, jamiyat o'zgarishi va hayot tezligidandir. Bunday jamiyatda yashash yangi talablarni qo'yadi va insonda boshqarib bo'lib bo'lmaydigan moslashuvchanlik o'zgarishlari paydo bo'ladi. Bunday o'zgarishlani qabul qilgan insonlar yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishadi, biroq ayni paytda sovuqqonlik bilan ham vaziyatg yongashadilar. Shubhasiz, bilish jarayonining har qanday natijalari tanqid qilinishi va qayta baholanishi mumkin, chunki K. Popper ko'rsatganidek (va biz unga to'liq qo'shilamiz), fan faktlarning mustahkam poydevoriga tayanmaydi, balki bino kabi ustunlar ustiga qurilgan. Ushbu ustunlar botqoqqa tiqilib qoladi, ammo hech qanday tabiiy yoki "berilgan" poydevorga erisha olmaydi. Agar biz ustunlarni yanada ko'proq urishni to'xtatgan bo'lsak, bu mustahkam zaminga yetib borganimiz uchun emas, balki ularni hech bo'lmaganda bir muncha vaqt bizning tuzilmamizning og'irligiga bardosh bera olishlariga ishonch hosil qilganimiz uchundir[4].

Jamiyatda ziyolilik ortiqchalik qiladi, biroq sovuqqon insonlar atrofidagi dunyo o'zi kabi insonlarni jalb etadi. Zamonaviy ta'lim shunday ko'nikmalarni shakllantiradiki, ular o'z o'rnida yangi ko'nikmalarga ehtiyoj tug'diradi.bunday tor kesimdagi yondashuv ayrim holatlarda ehtiyojga undaydi. Oliygoh bitiruvchisi yangi tushgan muhitlarni kasbiy,ijtimoiy, ma'naviy qarashni o'rganish davomida quyidagi qobiliyat va ko'nikmalarga urgú berish darkordir:

1. Ma'naviy so'g'lik. 2. Ijtimoiy savodxonlik, 3. Ruxiy va emotsional vazminlik. 4. Ijodiy qobiliyat. 5. Umunta'lim va kasbiy xabardorlik.6. Rivojlangan tafakkur. 6.Komputer ko'nikmalari. 7. Jismoniy salomatlik.8. Yuksak tafakkur. 9. Muloqot qilish 10. Texnik kompetentlik. 11. Farosat.

Muhokama va natijalar. Ta'kidlab o'tilgan ko'nikmalarni o'stirgandan so'ng insonda quyidagi ko'nikmalar tarbiyalanadi: 1. Estetik, gumanistik, madaniy tarbiya. Jasorat, qat'iyat,bag'rikenglik, adekvatlik. 2. Ijtimoiy institutlar haqidagi bilimlarga ega bo'lish. Malaka o'z manfaatlarini himoya qilish. 3. Dam olish, meditatsiya, konsentratsiya, tafakkur. irodani, fikrlarni,his-tuyg'ular, bir-biridan ajratish qobiliyati 4. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. 5.Bilim va kuzatishga ochiqlikni tarbiyalash. Hajmning to'planishiprofessional muvofiqlik uchun bilim. 6. Aqliy rivojlanishqobiliyatlar. 7. Kompyuter ta'limi. 8. Moslashuvchanlikni tarbiyalashPlastiklikni tarbiyalash,muvofiqlashtirish, kuch. O'zini himoya qilish

[4] Поппер К. Логика и рост научного познания. - М., 1983.

asoslari, sog'lom ovqatlanish. 9.Muloqot bo'yicha treninglar. 10. Qurilish tamoyillarini egallash va texnologiyaning ishlashi. 11. Ikkilamchi sezgiga e'tiboridrok: ko'rish, hidlash, eshitish, ta'm, sezgi.

Xulosa. Insonning moslashuvchan qobiliyatlarini rivojlantirish yo'nalishlari ziyoli shaxsning xususiyatlariga mos keladi. Shunung uchun ziyolilik - bu o'stirilishi mumkin bo'lgan va kerak bo'lgan xususiyat, chunki u insonning moslashish qobiliyatini oshiradi va targ'ib qiladi jamiyatning madaniy va intellektual rivojlanishi. Ziyolilik jamiyatni bezatadi va uni yanada uyg'unroq quradi, u uyg'unlikda normal hayot kechirish uchun sharoit yaratish zarur rivojlangan jamiyat.

Bibliografiya

1. Валиев А. Проблемы развития духовной культуры – Тошкент : Фан, 1992. –154 b.
2. Гармонично развитое поколение – Основы прогресса Узбекистана – Toshkent: Shark, 1998. – 64 b.
3. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. – Toshkent: 2006. –220 b.
4. Садина С.С. Некоторые аспекты формирования парадигмы «Советская интеллигенция - народ» (1900-е -1930 годы) // Интеллигенция и мир. - 2004. - № 3-4. - С. 87-109.
5. Сафоев Н.С. Духовность и национальное самосознание личности . – Toshkent: Fan, 2004. – 123 b.

TOG’ VA TOG’ OLDI HUDUDLARDA BOG’DORCHILIKNI TASHKIL ETISHNI O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qoriyev Mirzoxid Rustamjonovich
NamDU Ekologiya va iqlimshunoslik kafedrasi katta o’qituvchisi, PhD

Qodirova Ziyoda Olimjon qizi
NamDU Biotexnologiya fakulteti iqtidorli talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tog’ va tog’ oldi hududlarda bog’dorchilikni tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va mamlakatimizning tog’li hududlarida bog’dorchilikni rivojlantirish bo’yicha olib borilayotgan ishlar bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tog' va tog'oldi hududlar bog'dorchiligi, lalmi bog'dorchilik, terrasalash agrotexnologiyasi, mulchalash agrotexnologiyasi.

KIRISH. Yer relyefining asosiy 2 ta yirik formasi mavjud bo'lib, ular tog' va tekisliklar hisoblanadi. Tekisliklar quruqlikning tinch va tekis relyefi hisoblanadi. Yer yuzi maydonining 65%ini tekisliklar tashkil etadi. Yerning eng tekis qit'asi Afrika hisoblansa, Osiyo buning to'laligicha aksidir. Bu qit'ada tog'li hududlar tekisliklarga nisbatan ko'proq joy egallagan. Qit'aning yarmidan ko'p maydonida yirik va baland tog' tizmalari: Himolay, Hindikush, Tibet, Pomir, Tyan-Shan, Oltoy va Sayan joylashgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududida ham tog'li yerlar mavjud bo'lib, ayniqsa, Tojikistonning 90,4 % maydoni, Qirg'izistonning esa salkam 95 % hududini tog'lar tashkil qiladi.

ASOSIY QISM. Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Chunki, ko'pchilik tog' qiyaliklaridagi yerlar unumdor bo'lib, tuprog'ida 1-2 %, hatto 3-4 % chirindi (gumus) bo'lgan yerlar ham bor [1]. Bundan tashqari yog'in miqdori ham tekislikka nisbatan bir muncha ko'p tushib, tabiiy namlikka ancha boydir. Shu bois tog'li hududda ko'plab qishloq xo'jaligi tarmoqlari qatori bog'dorchilikni ham rivojlantirish mumkin. Ammo, tog'li yerlarda tekislikka nisbatan mevazor bog'lar barpo qilish bir muncha qiyin. Yer tekis bo'lmaganligi uchun tog' qiyaliklarida havodan tushadigan namni tuproq qatlamlarida saqlab qolish uchun maxsus zinapoya (terrasa) lar qilish talab etiladi [2, 3]. Tuprog'i unumdor bo'lgan tog'li hududlarda bog' barpo qilishda yillik foydali harorat yig'indisini va tabiiy nam miqdorini e'tiborga olish kerak. Tog' qiyaliklarida mevali bog' barpo qilinganda shu joyning meliorativ holati yaxshilanadi, chunki bunda daraxtlarning ildizlari yerning 1-2 metr va undan chuqurroq qatlamiga taralishi tufayli tog' qiyaliklaridagi unumdor tuproq qatlamini sel va yomg'ir yuvib ketmaydi. Ma'lumki, tog' qiyaliklarida meva daraxtlari, tol va boshqa ko'p yillik daraxtlar, butalar ekilmagan maydonlarda ko'pincha aprel-may, ayrim paytlarda iyun oylarida sel hodisasi kuzatilib, yerning ustki unumdor qatlamini yuvib ketadi va u katta daryolarga, suv omborlariga hamda ariqlarga oqib tushib, ularni loyqa bosadi. Har yili bu suv manbalarini tozalash uchun kop mehnat sarflanadi. Shuning uchun tog' qiyaliklariga ko'p yillik ekinlarni ekib yer qatlamlarini mustahkamlash zarur. Nishabligi 8-10° bo'lgan yerlarni 50-60 sm chuqurlikda plantaj pulugida haydab terrasa olmasdan mevazor barpo qilsa bo'ladi. Lekin, bunda yerlarni ko'ndalangiga haydash tavsiya qilinadi. Shunda qor va yomg'ir suvlari yer qatlamlariga yaxshi shimiladi, yerni yoppasiga haydash imkoni bo'lmasa, ko'chat ekiladigan 1,5-2,0 m li kengliklar chuqur haydalsa ham bo'ladi.

Terrasalar oralig'i daraxtlar shox-shabbasining hajmiga, yon bag'irlarining qiyaligiga qarab belgilanadi. Masalan, tez o'sadigan daraxtlar uchun bu oraliq 7-

8m, yonbag'irlarning qiyaligi 30° bo'lganda 9 metrgacha, 35° bo'lganda esa 12 metrgacha bo'ladi. Meva daraxtlar yonbag'rlaridagi 2-2,5 m lik maydonchalarga shaxmat tartibida joylashirilad. Terrasa va maydonchalardagi nam yer qatlamlariga yaxshiroq shimilishi uchun ular ichki tomonga 2-3° nishab qilinadi [4].

Tog' qiyaliklarida terrasalardan tashqari, diagonal hamda yoysimon nam saqlagich maydoncha ham qilinadi. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Chirchiq" va "Burchimulla" o'rmon xo'jaliklari oddiy qishloq xo'jalik mashinalar yura olmaydigan qiyaliklarida maydonchalarga ko'chat ekish, shu bilan tog' qiyaliklarini o'zlashitish mumkinligini tajribada isbotladilar va tumanda katta maydonlanda mevazor bog'lar barpo etildi. Terrasalar olishda asosiy e'tibor, shu yerda yig'ilgan suv miqdori talabga to'liq javob berishiga qaratilgan bo'lishi lozim. Shundagina bog'larda o'tqaziladigan agrotexnik tadbirlarni mexanizatsiya yordamida bajarish mumkin.

Malumki, yangi barpo etilgan bog'larda dastabki yilarda yosh ko'chat ildizlari joylashgan qatlamda nam yetarli bo'lishi kerak. Terrasada yetarli miqdorda nam to'panishi va uning yuvilib ketmasligi uchun nishabi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Nishabi 20-27° bo'lgan qiyaliklarda 7°, 27° dan oshiqrog bo'lganda 10° [5].

Tuproqda nam saqlash maqsadida, iyun oyida terrasa oralig'i 5-6 sm qalinlikda mulchalanadi. Mulcha sifatida shu yerda o'sib turgan o'tdan foydalanish mumkin. Har bir ko'chat atrofiga 5-8 kg dan chirigan go'ng sochish ham yaxshi samara beradi. Bular kuzda ko'chat atrofini yumshatish vaqtida tuproqqa aralashtirib yuboriladi [6].

O'zbekiston sharoitida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra, dengiz sathiga nisbatan har xil balandliklarda ma'lum bir mevali daraxt turini ekish maqsadga muvofiqligi aniglangan. Jumladan, dengiz sathidan 1000-2000 m balandlikdagi yonbag'irlarda olma, 900-1700 m balandlikdagi shimoliy va janubiy yonbag'irlarda nok, 800-1500 m balandlikdagi shimoliy va g'arbiy yonbag'irlarda o'rik va shaftoli, 1000-1700 m balandlikdagi yonbag'irlarda olxo'ri, 1000-2000 m balandlikdagi shimoliy yonbag'irlarda tog'olcha, 800-1500 m balandlikdagi shimoliy va sharqiy yonbag'irlarda gilos, 1000-1500 m balandlikdagi yonbag'irlarda yong'oq, 800-1400 m balandlikdagi hamma yonbag'irlarda bodom, 700-1200 m balandlikda chilon jiyda va 600-1200 m balandlikdagi yonbag'irlarda pista va har xil balandlikagi janubiy, g'arbiy va sharqiy yonbag'irlarda do'lana o'stirish mumkinligi isbotlangan. Terrasalarda yong'oq ko'chatlari 8-18 m, olma, o'rik, gilos va nok ko'chatlari 6-7 m, olxo'ri ko'chatlari 5 m, bodom ko'chatlari 4 m oraliqda ekiladi. Qolgan agrotadbirlar tekislikdagi singari bajriladi.

XULOSA. Bog’ uchun joy tanlashda joyning past-balandligi muhim ahamiyatga ega, chunki u bog’ning ayrim maydonlarida mikroiqlim hosil qiladi. Sug’oriladigan tekis yerlarda, har 1000 metrda ko’pi bilan 4-5 m nishab bo’lgan maydonlarni tanlash tavsiya qilinadi. Ammo, tog’li va tog’oldi hududlarida tuproqni tayyorlash va meva daraxtlarini o’tqazishda maxsus usullarni qo’llab, ancha qiya joylarda ham bog’ barpo qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaev M.M., Sobirov M.Q. Bog‘dorchilik. Toshkent,- “Mehnat”, 1987.-222 b.
2. Koriev M.R., Kamalov B. A. Experimental results of garnening without irrigation in the arid conditions/Geography in the globalization period: problems and decisions //Proceedings of the scientifi-practical conference of the young scientists and students. Tashkent. – 2014. – C. 139-140.
3. Rustamjonovich K.M. Geoecological issues of horticulture development in the foothills of the Namangan region of the Republic of Uzbekistan //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2019. – T. 5.
4. Ostonaqulov T., Narziyeva S., G’ulomov B. Mevachilik asoslari. – T.: “Tafakkur bo’stoni”, 2011. – 224 b.
5. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. O‘zbekiston mevachiligi. Toshkent,- “O‘qituvchi”, 1981.-512 b.
6. Камолов Б. А. и др. Наманган вилоятининг суғорма деҳқончилик соҳасига сувтежамкор агротехнологиялар ва суғориш усулларини кенг жорий этишнинг зарурати хусусида //Вестник магистратуры. – 2022. – №. 5-4 (128). – С. 22-24.

QORA DENGIZNING TURKIYA TASHQI SIYOSATIDAGI AHAMYATI

Ravshanov S.G‘.
O’zMU, “Siyosat nazaryasi va falsafasi:siyosiy talimotlar tarixi va metodologiyasi” mutaxasisligi bo’yicha tayanch doktoranti
E-mail:suhrobbekravshanov03@gmail.com
Tel:+998909952903

Annotatsiya. Maqolada Sovuq urushdan keyin Qora dengiz bo’yida paydo bo’lgan inqiroz bu mintaqadagi davlatlarning ahamiyatini xalqaro maydonda

yanada oshirdi. 2022 yildagi Rossiyaning Ukrainadagi bosqini davrida faol netrallikka asoslangan xalqaro munosabatlarda Turkiya diplomatiyasi katta shuhrat qozondi.Ukraina va Rossia o'rtasida vositachilikni amalga oshirgan holda Turkiya bir necha bor qurolli harakatlarni to'xtatishga urindi. Shu bilan birga Ukainaning bosqinga qarshi muhim jihatlaridan biri bo'lgan Turkiyaning Bayraktar TB2 muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari Ukrainaning don eksportini oshirishga va dunyoning don inqirozini yumshatish uchun don karidori vazifasini o'tadi.

Kalit so'zlar: Bayraktar TB2, Rus-Ukraina urushi, infrastruktura, don karedori, o'zaro aloqalar, Usmoniylar imperyasi, Qora dengiz

Аннотация. В статье кризис, возникший на Черноморском побережье после Холодной войны, повысил значимость стран этого региона на международной арене.Во время российского вторжения в Украину в 2022 году дипломатия Турции получила большую известность в международных отношениях, основанная на активной ловкость.Выступать посредником между Украиной и Россией.Турция несколько раз пыталась остановить действия роялистов. В то же время важную роль сыграл турецкий Bayraktar TB2, который является одним из важнейших средств борьбы с вторжением на Украину. Кроме того, он послужит зерновым коридором для увеличения экспорта зерна из Украины и смягчения мирового зернового кризиса.

Ключевые слова: Байрактар ТБ2, российско-украинская война, инфраструктура, рынок зерна, взаимоотношения, Османская империя, Черное море.

Abstract. In the article, the crisis that emerged on the Black Sea coast after the Cold War increased the importance of the countries of this region in the international arena.During the Russian invasion of Ukraine in 2022, Turkish diplomacy gained great prominence in international relations based on active dexterity.To mediate between Ukraine and Russia .Turkey tried several times to stop the actions of the royalists. At the same time, the Turkish Bayraktar TB2, which is one of the most important means of combating the invasion of Ukraine, played an important role. In addition, it will serve as a grain corridor to increase grain exports from Ukraine and mitigate the global grain crisis.

Key words: Bayraktar TB2, Russian-Ukrainian war, infrastructure, grain market, mutual relations, the Ottoman Empire, the Black Sea.

Kirish: Dunyoda borgan sari globalizatsiya va integratsiya jarayoni tobora rivojlanib borayotgan bir davrda. Har bir mamlakat o'zining o'ziga xosligini va yaxlidligini saqlab qolish dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda. Ayniqsa, yaqinda boshlangan Rus-Ukrain munosabatlarini yomonlashishi va urush holatiga kirishi dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarini sarosimaga solib qo'ydi.

Bazilari qaysi tomonni tanlashga boshi qotgan bo'lsa, ayrimlari bu urushni to'xtatish tarafdorlari bo'lishdi. Shunday davlatlardan biri – Turkiyadir. U o'zining "yumshoq kuch"siyosatining tarkibiy qismi bo'lgan vositachilik roli juda qo'l keldi. Ikki davlat o'rtasida urushni to'xtatish bo'yicha kelishuvlarda vositachi davlat bo'ldi. Biroq Ukraina hududiy daxlsizligi buzilgan deb hisoblab unga harbiy va iqtisodiy ko'mak berdi. Turkiya bundan ko'zlangan maqsadlariga erisha olmadi. Shunday bo'lsada Turkiya uchun Qora dengiz bo'yi hududlari juda muhim strategik nuqta hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Hozirgi davrda Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urushga qaysidir jihatdan dunyoning aksar davlatlari jalb qilingan va butun dunto nigohi shu yerda. Turkiya "yumshoq kuch"ining muhim element hisoblangan vositachilik rolini bu ikki davlat munosabatlarida ham o'rinli foydalanishga intilmoqda. Bu voqealarni yaqindan kuzatgan va izlanish olib brogan olimlar sirasiga quydagilar kiradi. Hakan Arıdemir, Ilyas Dağlı, Fatih Kocha, Fatih O'zbay, Bulent Pajal, Habibi O'zdal, Mutlu Sefa, Zeyno Baranlar katta hissa qo'shishgan.

Muhokama va natijalar. Qora dengiz butun tarix davomida balki bugungi kunda ham xalqaro arenada eng muhim strategik hududlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu mintaqaga qaratilgan strategiya va qiziqish mintaqaning geosiyoiy ahamiyatini belgilab turibdi.

Xalqaro munosabatlarda Qora dengizning ahamiyatini tahlil qilishdan oldin avvalo biz bu hududning tarixiga nazar tashlashimiz kerak. Qadim davrlardan beri O'rta Yer dengizing muhim markazlaridan biri bo'lib qolmay balki mill avv X asrdan beri O'rta Yer dengizi bo'yi xalqlar Qora dengiz bo'yidagi xalqlar bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'ygan. Keyinchalik ular bir qancha geogirafik kashfiyotlarni amalga oshirishgan.Egiy dengizi bo'yidan kelgan dengizchilar dovul va to'lqinlarga duch kelib Qora dengiz bo'yiga borib qolishadi. U yerda oldin ma'lum bo'lmagan qabilalarga duch keladi. Shu sababdan ular Qora dengizni "Pontos Axenos" deb nomlashadi. Buning (tarjimasi yovvoyi) dengiz degan ma'noni bildiradi. Ozroq vaqt o'tgandan so'ng tenologik yutuqlarga erishgach, Egiy va O'rta Yer mintqasidagi xalqlar Qora dengizning ayovsiz qiyinchiliklariga bardosh beroladigan kemalar yasashadi. Shu voqeadan keyin Qora dengizning sir sinoatlarini ko'rishadi. Natijada dengizning nomi "Pontos Exunos "ga o'zgaradi uning ma'nosi mehmondo'st dengiz ma'nosini anglatadi[1]. Usmoniylar birinchi bo'lib qora dengiz atamasini ishlatishgan keyinchalik u boshqa Yevropa tillariga tarjima qilingan[1]. Qora dengiz qirg'og'i sharqdan Rossiya va Gruziya, g'arbdan Bolgarya va Ruminya, shimoldan Ukraina, janubdan Turkiya bilan o'ralgan. Bu hudud chegaralari borasida uning xalqaro faktorlari va strategiyalarini belgilab

beradigan turli xil fikrlar mavjud. Hudud chegaralarini belgilash uchun quyidagi konsipsiyalar mavjud. Danubiy dengiz mintaqasi, Buyuk dengiz mintaqasi, Qora Kasbiy dengiz mintaqasi, Katta Qora dengiz mintaqasi,Boltiq bo'yi xavfsizlik zonasida Qora O'rta Yer dengiz mintaqasi kabi nomlar bilan ishlatilgan. Bu mintaqaning muhim o'ziga xos jihati Turkiyaning Yaqin sharq, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Bolqon davlatlariga yaqinligidadir.Shu tufayli tarix davomida qudratli mintaqaviy va jahonning qudratli davlatlari har doim bu hududda ustin bo'lishga va nazoratda saqlashga urinishgan buning yorqin misoli sifatida Usmoniylar,Vizantiya,Rim keyinchalik Rus imperiyasi nishonida turgan[2].

XVIII asrdan beri bu mintaqa Rus imperiyasi va Usmoniylar o'rtasida konfliktlar va keskinlik markazi bo'lib kelmoqda.Shuni takidlab o'tish joizki Usmoniylar Qora dengiz bo'yidagi rus kemalari va portlarini bombardimon qilish orqali birinchi jahon urishiga kirdi. Boshqa tomondan esa xalqaro maydonda 1915 yilda Dardanel urishidan keyin Qora dengiz orqali yetib keladigan yordamdan maxrum qilish va rus imperiyasini qulatish ko'zlangan edi[2].Qora dengizning geografik va geostrategik joylashuvi, turli yer osti boyliklariga egaligi va aholi patinsiyali uni muhim strategik,iqtisodiy, siyosiy, tarnsport markaziga aylantirdi. Shuningdik harbiy maqsadlarda foydalanishda ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu dengiz yuqorisidagi mintaqadan bosib olishga urinishlar va harbiy strategiyalarda Turk Bug'ozining roli harbiy ustinlikning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi[3]. Qora dengizga nisbatan XX asrdagi mintaqaviy va xalqaro kuchlar bir qancha strategiyalarni ishlab chiqishdi. Sovuq urush davrida Sovet Ittifoqining bu mintaqaga nisbatan maqsadi qirg'oq bo'yi mamlakatlari bo'lmagan davlatlarning harbiy kemalari uchun yopib qo'yish bo'lgan. Buning natijasida sovuq urush davrida tashqi dunyodan uzilgan holda ushlab turildi. Bundan tashqari NATOning a'zosi bo'lgan Turkiya dengizga chegaradosh boshqa barcha davlatlar Varshava shartnomasining bir qismi edi.Sovet Ittifoqi va Berlin devori qulaganda xalqaro maydonda muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Qora dengiz tashqi dunyoga o'z eshiklarini ochdi[2]. Boshqa tomondan olib qaraganda AQSHning Qora dengizga bo'lgan siyosati, NATOning aralashuvi mintaqadagi Ukraina va Gruziya kabi davlatlarda turli xil rangli inqiloblar bo'lishiga olib keldi. Yangi yuzaga kelgan inqiroz mintaqaga nisbatan Putinning siyosatini o'zgartishishga majbur qildi. Gruziyadagi aralashuv va Qirimni istilo qilinishi, Ukraina va Rossiya o'rtasida 2022 yilda boshlangan urush uning faolligini yanada oshirdi. AQSH siyosatiga ko'ra Qora dengiz chegaralari unga chegaradosh bo'lgan davlatlarga ochqligi bilan bir qatorda bular sirasiga Markaziy Osiyodan Bolqon davlatlarigacha bo'lgan keng hududga tegishlidiir. Sovuq urush tugashi bilanoq bu mintaqada geostrategik kuch vakumi yuzaga keldi bu bo'shliq AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan to'ldirilishi

kerak edi. AQSHning tashqi siyosatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, dunyodagi eng muhim inergiya resurslariga ega bo'lgan qora dengiz bilan yaqinlik u uchun katta strategik imkoniyat edi.Rossiyaning ta'sirini zaiflashtirib bu nimtaqadagi davlatlarning g'arb xususan NATO va Yevro Ittifoqi bilan intigratsiya borasida katta yutuqlarga erishdi[2]. Yevropa Ittifoqining boshqa mintaqalar bilan olib borgan siyosatini taqqoslaydigan bo'lsak bunda Qora dengiz alohida ajralib turadi. Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilgan muhim qadamlar:

1. Yevropa qo'shnichilk siyosati
2. SYNERGY loyihasi (inergetika sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish qaratilgan)
3. Qora dengiz Yevro mintaqa tashabbusi.
4. INOGATE (davlatlararo neft va gazni Yevropaga tashishga mo'ljallangan).
5. TRASSIKA (Yevropa – Kavkaz – Osiyo transport karedori, xalqaro transport dasturi bo'lib Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo a'zo davlatlarini Yevropa Ittifoqi bilan bog'laydi[4].

Yevropa Ittifoqining bu mintaqadagi siyosati har doim Rossiya bilan nizoli holatda bo'lgan, ammo boshqa tomondan AQSH siyosatiga mos tushgan[4]. Turkiyaning bu mintaqaga bo'lgan siyosatiga kelsak bir tomondan Turk siyosiy elitasining doimiy qiziqishida bo'lgan bo'lsa boshqa tomondan Usmoniylar davrida imperiyaning ichki dengizi hisoblangan. Tashqi dunyo bilan bu dengizni bog'laydigan Bug'ozning suveritentligi va himoyasi Turkiya Respublikasining an'anaviy tashqi siyosatida tashqi eng ustivor masala bo'lib kelgan. Turkiya siyosatining asosiy jihatlari;

A. Tinchlik va barqarorlikni taminlash.
B. Mintaqadagi davlatlarni hududiy yaxlitligini ilgari surish
C. Iqtisodiy ittifoqni tashkil etish
D. Qora dengizni savdo markaziga aylantirishga qaratilgan iqtisodiy va diplomatik harakatlar.

BLACKSEAFOR va Qora dengiz iqtisodiy hamkorlikni tashqil qilishda Turkiyaning faol tashabbusi yuqoridagilarning yoqrin isboti hisoblanadi[2].

Xulosa.Butun tarix davomida Qora dengizning strategik ahamiyati ko'plab global va mintaqaviy davlatlarni bu hududda ustinlikka erishishga undagan Turkiya va Ukraina savdo iqtisodiy munosatlariga kelsak 2007 – 2008 yilda butun jahon iqtisodiy va moliyaviy inqrozi COVID – 19 panidemiyasi Rossiyaning Ukrainaga bosqini o'zaro munosabatlarda o'zining salbiy aksini ko'rsatdi. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy munosabatlar Rossiyaning Ukrainaga bosqinidan keyin ancha sezilarli o'sdi. Ukarinaning hududiy yaxlitligini saqlash borasida qat'iy

pozetsiyada turdi. Urush davomida faol netrallikka asoslangan Turk diplomatiyasi o'zaro aloqalarda vositachilik rolini o'ynamoqda. Ukrainaga yordam sifatida o'zining Bayraktar TB2 bilan ta'minlamoqda. Turklarning arzon dronlari yordamda ruslarning qimmat va zamonaviy harbiy texnikalarini yo'q qilinishi va ko'plab rus askarlarining halok bo'lishi ukraina kuchlariga katta darajada yordam bermoqda. Shuningdek, ukrainaning don eksportini faollashtirish maqsadida don karedori bo'lib xizmat qildi. Shu narsa aniqki 2022 – 2023 yillarda G'arbning Rossiya bilan munosabatlarining yomonlashishi butun dunyoda gaz va inergetika sohasida bir qancha salbiy oqibatlar keltirib chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

E. Arıdemir, Hakan. 2011. "Soğuk SavaşSonrası Dönemde Karadeniz Bölgesi Ve Türkiye‟nin Karadeniz Bölgesine Yönelik Politikası" (PhD thesis). İstanbul: M.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü.
F. Özbay, Fatih. 2010. "Türkiye-Rusya İlişkilerinde Karadeniz Faktörü".
G. http://www.bilgesam.org/incele/106/-turkiye-rusya-iliskilerinde-karadeniz-faktoru/#.Vj4Tvl96M8 (20 September 2016)
H. Koca, Fatih. 2010. "Kırım‟ın Ekonomik Özellikleri Ve Karadeniz EkonomikİŞ birliğindeki Önemi" (master thesis). İstanbul: M.Ü. Eğitim Bilimleri Enstitüsü.
I. Isic, Mirela et.al. 2008. "The Black Sea Region: Clashing Identities and Risks to European Stability". Munich: CAP Policy Analysis, v. 4.

BUDJET IJROSI NAZORATINING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Rizayev Nurbek Kadirovich
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri

Abdumannopov Kamronbek G'ayratjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Tel: 93 698-29-99

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari va vazifalari, prinsiplari, budjet tashkilotlarida buxgalteriya bo'limlari bo'yicha tekshiruvni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan amaliy ishlar jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: budjet, budjet nazorati, budjet taqchilligi, moliya, nazorat organi, daromadlar va xarajatar smetasi.

Mamlakatimizda bugungi globallashuv jarayonida davlat budjet siyosatida olib borilayotgan islohotlar budjet tashkilotlarida amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlarini yanada takomillashtirish, budjet ijrosi nazoratini tubdan isloh qilish va uning samaradorligini oshirish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan me`yoriy-huquqiy asoslar olib borilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir.

Davlat budjetining barpo etilganligi, budjet tizimi faoliyatini ta’minlashda budjet loyihasini tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishiga tegishli bo’lgan davlat hokimiyat va mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlari hamda budjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyati samarali tashkil qilinganligi budjet jarayoni munosabatlarini ta’minlab berdi.

Davlat moliyaviy nazorati byudjet to’g’risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat ob’ektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo’l qo’ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati:

respublika darajasida — O’zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg’armalari budjetlarining va respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg’armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

mahalliy darajada — Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining, Qoraqalpog’iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg’armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Budjet ijrosi jarayonida Davlat budjeti mablag`lari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari shakillanishi hamda sarflanishini uzluksiz hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va axborotlarni tizimli shakllantirish uchun budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tashkil etilgan. Budjet mablag`laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. “Albatta, Davlat budjeti o`lchovsiz emas, mablag`larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta`minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo`lmaydigan haqiqat”[5]- deydi Prezident Sh.M.Mirziyoyev o`z nutqlarida. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag`lar yuzasidan tashkil bo`lish manbalari va foydalanish yo`nalishlari ko`rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so`nggi natijaga yo`naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, budjetining g`azna ijrosiga o`tilishi, o`rta muddatli budjet istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o`zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o`z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag`larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Budjet ijrosi jarayoni xaqida axborotlar budjet hisobini tashkil qilish va yuritish orqali shakllantiriladi. Bunda, belgilangan budjet tasnifi bo’yicha budjet daromadlari shakllantiriladi va xarajatlar amalga oshiriladi. Budjet hisobini alohida xususiyatlaridan biri – budjet ijrosini to’g’ri tashkil etish, moliya budjet intizomiga rioya qilish va nazorat funksiyasini amalga oshirilishidir.

Malikov T.S., Haydarov N.Hning ta’kidlashicha: Budjet jarayoni, odatda, budjet faoliyatining quyidagi to’rt bosqichini o’z ichiga oladi:

-budjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);

-budjetni ko’rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;

-budjetni ijro etish;

-budjetning ijrosi to’g’risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Budjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to’rt bosqichning barchasidan iborat bo’lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini budjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko’rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) budjetni

[5] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi.16.01.2017.

ijro etishga (budjet davri) va sakkiz oyga yaqini budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi[6].

Budjet ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensifikatsiyalash va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag'larni sarflashda iqtisod rejimiga rioya qilinishidan, soliqli daromadlarning to'liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

Nazorat funksiyasi orqali budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, mulklarni saqlanishi va tayinlanishi bo'yicha sarflanishi tizimi yo'lga qo'yiladi. Budjet hisobida ham yuqorida qayd etilganidek, nazoratning uch turi qo'llaniladi:

• dastlabki nazorat;
• joriy nazorat;
• keyingi nazorat.

Dastlabki nazorat – smetalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida amalga oshiriladi. Unda budjet intizomiga rioya qilinishi, shuningdek, qonunchilik talablari buzilishi oldi olinadi.

Joriy nazorat – budjet ijrosi jarayonida amalga oshirilib, sodir bo'lgan muomalalarni qonuniyligi, pul mablag'larini oqilona sarflanishi, mulkiy qiymatliklar bo'yicha hisob ma'lumotlarini xaqiqiy holatga mosligi, hisoblashuvlar holati va boshqalar nazorati amalga oshiriladi.

Keyingi nazorat – umumlashtirish bosqichi uchun zarur bo'lib, hisob va hisobot axborotlarini qonuniyligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati taftish, tekshirish (shu jumladan budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish) va o'rganish shaklida amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari moliyaviy nazorat ob'ekti mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lgan huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda nazorat materiallarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiradi.

Mazkur maqola orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotining ko'plab soha va tarmoqlarida keng qamrovli iqtisodiy islohatlar olib borilayotgan va ularning natijalari iqtisodiy ko'rsatkichlarga o'zining ta'sirini ko'rsatayotgan bir davrda davlat budjeti qonunchiligini mustahkamlab va takomillashtirib borish davlat moliyasi tizimining isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH

[6] Malikov T.S., Haydarov N.H. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma "IQTISOD MOLIYa", 2008, 84 b

Atashov Ajiniyaz Shaniyazovich
Qoraqalpoq davlat universiteti
“Ekologiya va tuproqshunoslik”
kafedrasi assistenti

Annotasiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha olib borilayotgan islohatlar, ta’lim oluvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, ta’limni tashkil etish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, biologiya darslari, ijodiy, tanqidiy yondashuv, innovatsion yondashuvlar.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi. Bugungi kun o‘quvchi-yoshlarini har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, o‘z-o‘zini namoyon eta oladigan qilib tarbiyalashda ushbu texnologiyaning ahamiyati katta.

O’qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo’llash, o’qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkon yaratadi. Bu borada shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalarning bugungi kunda dolzarb bo’lib borayotganligi, mazkur texnologiyalar ta’limning hozirgi kuni, kelajagi bo’lib qolganligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Adolatli ijtimoiy siyosatyuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish, kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish vazifasi qo‘yilgan. Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta’lim tizimi oldiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi. Ta’lim jarayonlarining sifat-samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadga erishishda pedagogic faoliyatni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish va unga tizimli yondashuv masalalari dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, o‘qitishning uslubiy asoslarini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirish amaliyotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda biologiya o‘qitish metodikasini takomillashtirish, biologiya

fanining jozibadorligini oshirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish sifatini oshirish, fanga oid maxsus kompetensiyalarni shakllantirish borasida olib borilayotgan islohatlar, ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga egadir.

Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, talim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta’minlash, faollikni oshirish, o’z-o’zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Biologiya fani o‘qituvchisi ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak:

- har bir o‘quvchinini alohida, o‘ziga xos shaxs sifatida ko‘ra olishi; - o‘quvchini hurmat qilishi; - o‘quvchilarda bir-biriga hurmat hissini uyg‘otishi; - o‘quvchining ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olishi; - har bir o‘quvchiga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lishi; - o‘quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi; - biologiya fanini puxta o‘zlashtishlari uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi; - o‘quvchilarning o’quv topshiriqlarni bajarish hamda mustaqil yoki kichik guruhlarda erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish; - o‘quvchilarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o‘rgatish; - ta’lim jarayonida hech bir o‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaligi; - alohida o‘quvchining kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmasligi; - o‘quvchi tomonidan fanni yaxshi o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlab, aniqlangan sabablar asosida o‘quvchining sha’ni, g‘ururiga ziyon yetkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish; - har bir o‘quvchiga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish; - o‘quvchining shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi; - pedagog sifatida har bir o‘quvchining hurmati va ishonchini qozona olishi zarur.

Biologiya darslarida o‘quvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish, bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi, o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi.

Xususan, biologiya fanini o‘qitishda pedagoglar o‘quv axborotlarining o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni

qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatlarini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Bunda o’quv materillari bilan ishlash, mashg‘ulotlarni samarali bajarish kabi faoliyatlarida e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar(ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste’dod – 2008. 87 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, 2020 y., 23-sentyabr.
4. Ibodova M.N. Biologiyadan o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan”, 2019. – 678 b.
5. A.T.Gofurov, J.Tolipova, S.S.Fayzullaev, I.Azimov, B.Ahmadalieva. Biologiya o‘qitishning umumiy metodikasi. O‘quv-metodik qo‘llanma. Toshkent-2005.

KO‘NDALANG KESIMI MURAKKAB BO‘LGAN FAZOVIY YUKLANISHLARDAGI STERJENLARNING DEFORMATSIYALANISH HOLATINI KOMYUTER GRAFIKASI YORDAMIDA UCH O‘LCHOVLI VIZUALLASHGAN GRAFIKLARNI HOSIL QILUVCHI DASTURIY VOSITA ISHLAB CHIQISH

Normurodov Bobur
Muhammad al Xorazmiy nomidagi
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘ndalang kesimi murakkab bo‘lgan fazoviy yuklanishlardagi sterjenlarning deformatsiyalanish holatini komyuter grafikasi yordamida uch o‘lchovli vizuallashgan grafiklarni hosil qiluvchi dasturiy vosita ishlab chiqish haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: sterjen, komyuter grafikasi, uch o‘lchovli vizuallashgan grafiklar, dasturiy vositalar.

Ko‘ndalang kesimi murakkab bo‘lgan sterjenlarning asosiy afzalliklaridan biri bu ularning yuqori quvvat va og‘irlik nisbatlarini ta’minlash qobiliyatidir, bu ularni og‘irlik muhim omil bo‘lgan konstruksiyalar uchun ideal qiladi. Ular, shuningdek, dastur talablariga qarab, yuqori qattiqlik yoki moslashuvchanlik kabi o‘ziga xos mexanik xususiyatlarni ta’minlash uchun ishlab chiqilishi mumkin.

Ko‘ndalang kesimi murakkab bo‘lgan sterjenlar odatda qurilish, aerokosmik va avtomobilsozlik sanoatlarida qo‘llaniladi, bu yerda yuqori quvvat va yengil vazn optimal ishlashga erishish uchun juda muhimdir. Ular, shuningdek, qurilish ramkalari va ko‘priklar kabi qurilish dasturlarida qo‘llaniladi, bu yerda ularning yuqori mustahkamligi va chidamliligi og‘ir yuklarni qo‘llab-quvvatlash va shamol, zilzilalar va korroziya kabi atrof-muhit omillariga qarshilik ko‘rsatish uchun talab qilinadi.

Murakkab ko‘ndalang kesmlarga ega bo‘lgan sterjenlarni loyihalash va tahlil qilish, sterjenlarning talab qilinadigan texnik shartlarga javob berishini va kutilgan yuk va kuchlanishlarga bardosh bera olishini ta’minlash uchun chekli elementlar tahlili (FEA) va kompyuter yordamida loyihalash (SAPR) kabi ilg‘or usullarni talab qiladi.

Murakkab ko‘ndalang kesmlarga ega bo‘lgan sterjenlar va ularning qo‘llanilishi haqida to‘liqroq ma’lumotlar keltirish mumkin.

Sterjen - bu egilish kuchlanishlariga qarshilik ko‘rsatish va uning bo‘ylama o‘qiga perpendikulyar qo‘llaniladigan yuklarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan struktura elementi. Murakkab kesmlarga ega bo‘lgan sterjenlar bir xil bo‘lmagan yoki tartibsiz shaklga ega bo‘lib, odatda aerokosmik, avtomobilsozlik, qurilish va sanoat mashinalari kabi turli muhandislik dasturlarida qo‘llaniladi.

I-sterjenlari, T-sterjenlari, L-sterjenlari, U-sterjenlari va quti sterjenlari kabi murakkab kesmlar bilan har xil turdagi sterjenlar mavjud. Ushbu sterjenlar oddiydan murakkab geometriyagacha o‘zgarishi mumkin bo‘lgan ko‘ndalang kesm shakli bilan tavsiflanadi. Sterjenning ko‘ndalang kesimi shakli uning mexanik xossalarini, jumladan, qattiqligi, mustahkamligi, egilish va burilishlarga chidamliligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari va olimlari tomonidan inshoot konstruksiyalar, neft va gaz konlaridagi qazish uskunalari ishlab chiqarish texnikalaridagi sterjenlarning fazoviy yuklanishlardagi deformasiyalanish jarayonlarining vizuallashtirish, sonli algoritmlashtirish va samarali sonli hisoblash usullari hamda dasturiy majmuasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, dunyoda qurilish, muhandislik va sanoatda uchraydigan masalarni yechishga mo'ljallangan ko'plab dasturiy dasturlar majmui ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlarni aksariyati kompyuter grafikasidan foydalangan holda o'ziga yuklatilgan masalalarni yechishga harakat qiladi.

Ko'ndalan kesimi murakkab bo'lgan fazoviy yuklanishlar ostida sterjenning deformatsiyasini hisoblashning bir necha usullari mavjud. Bu yerda ommabop ishlatiladigan usullardan "Eyler-Bernulli sterjenlar nazariyasi", "Chekli ayirmalar usuli", "Superpozitsiya usuli", "Moment maydoni usuli", "Matritsaning strukturaviy tahlili", "Chekli elementlar" kabi usullarni misol keltirishimiz mumkin.

Sterjenlarga qo'yilgan yuklar orqali ikki turdagi deformatsiyalar tajribadan o'tkazilib, birinchisi umumiy deformatsiyalar ikkinchisi esa yo'nalishli deformatsiyalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ерофеев В.И., Кажаев В.В., Семерикова Н.П. Крутильные и изгибные волны конечной амплитуды в упругих стержнях. // Вестник научно – технического развития. –. 2008. Vol. № 7, № 11. -С. 29-34.
2. Ykseler R.F. A theory for rubber-like rods. // Int. J. Solids Struct. -2015. -Vol. 69, -№ 70. -P. 350-359.
3. Горохов В. А. Численное моделирование процессов деформирования изделий из нержавеющих сталей в условиях терморадиатsionных воздействий // Проблемы прочности и пластичности. -2005. -Vol. 67, -№ 100. - С. 26–36.80
4. Булгаков А.И. Расчет трехслойных балок по методу конечных элементовс помощью пк лира. // Вестник Дагестанского государственного технического университета. Технические науки. 2016. №2 (41), С. 125-132.)
5. Stankevich I. Mathematical Modeling of the Thermal State of the Spatial Layered Rod Structures // Math. Math. Model. -2016. -Vol. 16, -№ 1. -P. 28–37.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Рўзиев Жаҳонгир Қўзибоевич
Самарқанд давлат чет тиллар институти тадқиқотчиси
(Тел: +99897 288-54-14)

Аннотация. Мазкур мақолада таълим жараёнининг жамиятда мақсадли равишда ташкилий таъминланган асослари, ижтимоий ва маърифий вазифалари, таълим тизимини ривожлантиришнинг фалсафий хусусиятлари ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: таълим, таълим фалсафаси, ноклассик, постноклассик, креатив тафаккур,фан, методологик онг, объект, ақл, инновация.

Жаҳон таьлим амалиёти, айниқса шарқ мамлакатларида туғилган даврдан бошлаб таълим-тарбия бериб шакллантириш, оилада мактаб тарбиясидан ҳам олдин боғчада, мактабгача таълим муассасаси тарбиясига катта аҳамият берилади. Абдулла Авлоний таълим-тарбияни хусусияти ҳақида энди очиқ маълум бўлдики, тарбияни туғулган кундан бошламак, вужудимизни қувватландурмак, фикримизни нурландурмак ахлоқими и гўзалландурмак, зехнимизни равшандандурмак лозим Тарбияни ким килур? Қайда килинур, деган савол келадур. Бу саволга биринчи уй тарбияси. Бу она вазифасидур. Иккинчи мактаб ва мадраса тарбияси. Бу ота, муаллим ва хукумат вазифасидур", деб жавоб берсак[7] деб таъкидлаган.

Таълим жараёнлари ўз навбатида жамиятда мақсадли равишда ташкилий таъминланган асосларда ижтимоий ва маърифий вазифани бажариб келмоқда. Н.Сашиннинг таъкидлашича, «Жамият махсус таълим- тарбия муассасаларини яратиш, ёш авлодни ўқитиш ва тарбиялаша стихияли тарзда вужудга келаётган тажрибани назарий жиҳатдан англаб бориш ва умумлаштириш талаблари кучайиб бориши натижасида педагогика фани вужудга келди. Педагогиканинг номи бола деган маънони билдирувчи грекча пайдогогос сўзидан келиб чиққан[8]

Келтирилган фикрлар ва таърифлардан ялгаб олиш мумкинки, таълим категорияси асосан педагогика фани билан боғланган ҳолда талқин этилмоқда, таълим инсонга ўргатиш, уни ўқитиш, илм бериш, маълумот жумлалари билан боғланиб келмоқда, билим бериш, малака ва куникмалар ҳосил қилиш кишини ҳаёт ва меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситаси деб қаралмоқда. Лекин мазкур талқинларда таълимнинг ижтимоий моҳияти

[7] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент. Уонгуани. 1992. –Б.13

[8] Добренько В. Кравченко А. Сошилогия Москва, 2000. Г.З.- Б. 137-178

унинг инсон ва жамият манфаатлари учун амалга оширадиган амалий вазифалари ҳақида айтилмаган.

Таълим ўзига хос меъёрлар, қоидалар ва хусусиятларни ўзида жамлаган илим ҳисобланади. Мазкур тизим ўзининг мукаммаллиги, мақсадга йўналтирилганлиги, натижавийлиги ва самарадорлиги билан жамиятда ўзига хос муҳим қадрият ҳисобланади. Олимларнинг фикрича, таълим тизми "Ўзига хос меъёрлар ва мақомларни ўз ичига олган тизим; урф- одатлар, анъана ва одоб-ахлоқ қоидалари тўплами; расмий ва норасмий ташкилотлар: ижтимоий муносабатларининг муайян соҳасини тартибга солувчи меъёрлар ва тузилмалар тўплами: алоҳида ижтимоий хатти- ҳаракатлар йиғиндиси".

Миллий энциклопедияда таълимнинг мазмуни, унинг кишилик жамияти тараққиётидаги ўрни қуйидагича ифодаланган : "Таълим - билим бериш, малака ва куникмалар ҳосил қилиш жараёни, кишини ҳаётга меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситаси. Таълим жараёнида маълумот олинади ва тарбия амалга оширилади. Таълим тор маънода ўқитиш ту- шунчасини англатади. Лекин у фақат турли типдаги ўқув юртларида ўқитиш жараёнини эмас, оила, ишлаб чиқариш ва бошқа соҳаларда маълумот бериш жараёнини ҳам билдиради. Таълимнинг мазмуни ва моҳияти жамиятнинг моддий ва маданий тараққиёти даражаси билан белгиланади. Ижтимоий му- носабатлар, умумий маълумотга бўлган эҳтиёж, кишиларнинг касбий тайёргарлигига, таълим ҳақидаги педагогик ғояларга қараб кишилик жамияти тараққиётининг турли босқичларида таълимнинг моҳияти , методи, ташкилий шакллари ўзгариб борган "[9]

Таьлим тизимини турлари, соҳалари ва тузилмалари кўпайиб, асосий бажарадиган вазифалари такомиллашиб борган сари унинг маданий борлиқ даги ўрни юксалиб, салоҳияти ошиб боради. Маълум макон ва замонда таьлим тизими ўзининг асосий устивор йўналишларини аниқлаштириб, маданий борлиқнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучига айланиб боради. Ижтимоий ҳаётда истиқболли йўналишлари аниқлаштириб олинган ижтимоий ҳаёт тажрибасини ўзида мужассамлаштириб, таълим тизими инсон эҳтиёжи ва танлови орқали самарали таккомил даражасига етишиб боради. Фалсафий луғатда қайд этилишича, "Таълим маданият дунёқараш ва ижодий фаолият ҳолатини келгусида сақланиб қолиш ва ривожлантиришга қаратилган маърифий жараён бўлиб, бунинг асосида инсоннинг маданий жиҳатдан ўз тақдирини ўзи белгилаш фаолияти ётади"[10]

[9] У Канети миллий энциклопедияси Т ҳар фи www.ziyouz.com кутубхонаси. - Б. 178

[10] Гришнов А. Новейший философский словарь. Образовние hiur philosophy nis.ru/doc dictionary/newest-

Таълим ғоят серқирра ва кенг тармоқли ижтимоий организмдир. Таълим одамлар ўртасида амал қиладиган ахлоқий, диний, сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий, маънавий, мафкуравий муносабатларнинг ғоявий жиҳатдан таъминотини, замонавий руҳда талқин этганда уларнинг жамиятда инновацион амалиётини рўёбга чиқариш механизмларини ўзида мужассам этади. Бу эса таълим субьектлари ва маданий борлиқ ўртасидаги умумий алоқадорликка доир қонуниятларга тўла мос келади. С.Лебедовнинг таъкидлашича "Таълимни фалсафий тушуниш инсон борлиғи ва тафаккур тарзини тасаввур этишнинг жамият ўзгариши ва ривожланиши билан боғлиқ умумий қонуниятларига асосланган билимларни йиғиндисидан иборатдир. Фалсафий жиҳатдан бундай умумийлантиришнинг мазмунида моддий ва маънавий дунёни ташкил этувчи ҳар бир нарсани ўз даражаси жиҳатдан таҳлил қилиш педагогик жиҳатдан эса таълим жараёнини лойиҳалаштиришини босқичли ва истиқболли хусусиятларини таҳлил этиш ётади”[11].

Таьлим тизими элементлари, таълим жараёнлари ва ижтимоий ҳаёт ўртасида ўзаро алоқадорликка асосланган қонун ва қонуниятлар доимий мавжуд бўлади, бу жиҳатлар инсон борлиғининг мавжудлиги ва ҳар доим тараққиётга мойиллик хусусиятларини белгилаб беради. Мазкур хусусиятларни динамик ва барқарор ривожланишини таъминлаш таълим тизимида олиб борилаётган жараёнларини инновацион асосда ташкил этиш даражаси билан боғлиқдир. Таълим тизимини фалсафий мушоҳада қилиш таълимни инновацион ривожлантириш хусусиятларини ҳам қонуниятларини белгилаб беради. Фалсафа илмида мавжуд бўлган инкорни инкор қонуни таълимни инновацион ривожланишида эскидан мавжуд бўлган жараёнларни никор қилиб, янги қадриятларни яратиш борасидаги мазмун билан мос келади.

Таьлим тизимини инновацион ривожлантиришнинг яна бир асосий хусусиятларидан бири, унинг инсонни ижтимоий асосда шаклланиши ва инсон тараққиётига мўлжалланганлигидир. Ҳар иккала жиҳат ҳам жамиятнинг умумий тараққиётига хизмат қиладиган жараёндир. Инсон тараққиётининг асосий хусусиятлари унинг онги ва тафаккур мукаммаллиги янгиликлар ва замонавий қадриятларга мойиллиги, жамиятда мавжуд билимларни ўзлаштиришга бўлган эҳтиёжи, ижтимоий ва иқтисодий муаммоларни ечишга қодирлиги кабилар билан ўлчанади. Шунингдек, "Рим клуби олимлари 1974 йилда "Таълимда чегара йўқ" номли маърузасида

[11] Лебедев С Проблеми истины в естествознании и сошли мансарных науках. Философия и гуманитарных наук: Учебное пособие для вўзов. Москва. Академический проект, 2006. –С.31

таълимни ривожланишини таъминловчи ва қўллаб –қувватловчи асосий манба бу инновациялар эканлигини таъкидлаган”

Таълим тизимида инновацияларнинг яратилиши, унинг самарадорлиги ва амалиётга жорий этилиши кўлами унинг илмий ишланишининг ҳар тамонлама пухталиги ва лойиҳанинг мукаммалиги билан боғлиқ. Таълимда инноовация жараёнларининг вужудга келиш ва жорий этиш босқичларини қуйидагича:

- ўзгаришлар кўламига қараб эҳтиёжларни аниқлаш;
- мавжуд вазиятни таҳлил этиш ва ахборотлар тўплаш
- яратиладиган янгилик бўйича дастлабки танлов ёки уни мустақил ишлаб чиқиш
- янгиликни амалиётга жорий этиш (ўзлаштириш) бўйича қарор қабул қилиш
- Янгиликларни жорий этиш бўйича эҳтимолий самарали прогноз қилиш ва амалиётга жорий этиш жараёни
- янгиликларни таълим амалиётининг кундалик жараёнлари ва қўшимча таълимда, таълимнинг турли тузилмаларида узоқ вақт фойдаланиш.

Таълимни мавжуд бўлган турларини бир-бирига қарама-қарши қўйиш ҳам, инновацион ривожлантиришда улардан бирини муҳим бошқасини номуҳим деб ҳисоблаш ҳам нотўғридир. Таълимни техник, технологик гуманитар ва ҳуқуқий соҳалари бир-бири билан ўзаро боғлиқ. Ҳар бир тарихий даврда жамиятнинг маънавий-интелектуал салоҳияти сиёсий ва ҳуқуқий маданиятга мувофиқ равишда таълимни бошқариш усули шаклланади ва амал қилади. Таълим иқтисоий, ижтимоий ва маданий муносабатлар воситасида бошқарилади, давлат сиёсати иқтисодий муносабатларни инновацион асоса токомиллаштиришга ёрдам беради.

Таълим тизимларини фалсафий тушунишда жамиятда мавжуд анъаналар, қадриятлар ва парадигмалар таълим-тарбияга оид онг, тафаккур, дунёқараш, қобилият, салоҳият каби ментал хусусиятлар, ижтимоий ва маданий стреотиплар билан уйғунликдаги ривожланиш жараёнлари муҳим аҳамиятга эга. Ўзаро таъсирли, динамик характерли турли хил таълимга оид қадриятлар нафақат муқобил (варианти) ривожланиш учун объектив асос яратади, шунингдек, таълим тизимларини инновацион ривожлантириш ва модернизация қилиб боришни тақоза этади. Демак, жамиятда таълимга оид маданий қадриятлар ва ментал хусусиятлар макон ва замон нуқтаи назари ёндошганда ҳар бир даврда инсон маърифатида янгиланиш ва тараққиётга мойиллик тамойилларини вужудга келтиради.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЕР РЕСУРСЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

М.Т. Абдурахманова1
Oriental universiteti, Иқтисодиёт ва туризм факультети,иқтисодиёт ва туризм кафедраси катта ўқитувчиси, PhD
e-mail: muqaddas_01@mail.ru

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонида қайд этилгандек, “Иқтисодиётни янада ривожлантиришга йўналтирилган макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш, қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш” жуда муҳим ҳисобланади [5].

Тупроқ жуда кўп хусусиятларни ўзида мужассамлаштирган табиий жисм бўлиб, шулардан энг муҳими унумдорлик - ҳосил етиштириш қобилиятидир. Ўзбекистон Ер ресурслари 2017 йил 1 январ ҳолатига кўра 44.896,9 минг га бўлиб, унинг атиги 9,6 % яъни 4312 минг га суғориб деҳқончилик қилинади [7].

Ривожланаётган давлатларда қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан самарали ва барқарор фойдаланиш масаласи катта муаммо ҳисобланади. Ушбу ҳаракат қишлоқ хўжалигидаги ер ресурсларидан фойдаланишни раёнлаштириш бўйича бир қатор кўрсаткичларни белгилашни талаб қилади.

Ўзбекистон Республикаси агросаноати комплекси барқарор ривожланишни таъминлашни ҳамда қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришни кенгайтиришнинг асосий шартлари қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларнинг ҳосилдор қатламини сақлаш, қайта тиклаш ва оқилона фойдаланиш ҳисобланади.

Хўжалик фаолиятида, ерларнинг унумдорлигини сақлаш ва улардан оқилона фойдаланиш, катта аҳамият касб этади. У деҳқончиликни ривожлантиришнинг табиий шарти бўлиб, қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлиги ва ялпи ҳосилнинг кўпайишига ёрдам беради, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларнинг нафақат ишлаб чиқариш объекти сифатида, балки биосферанинг ташкилий бир бўлаги сифатида ҳам қадрини оширади [7].

Ўзбекистон таркиби бузилган ерлар майдони йил сайин ортиб бормоқда, жумладан, 2011 йил 1 январ ҳолатига кўра жами бузилган ерлар майдони

46335,2 га ни ташкил этиб, бу 2009 йилга нисбатан 634 га, 2008 йилга нисбатан 1171 га кўпдир [6].

Жамиятда ернинг жуда кўплаб мақсадларга йўналтирилганлиги ердан фойдаланиш жиҳатларининг турли-туманлигига боғлиқ. Ердан фойдаланишнинг жиҳатлари дейилганида, ернинг ижтимоий аҳамиятга эга, ернинг деярли мустақил йўналиши ёҳуд мазкур жараѐнларни амалга ошириш учун шароитларни таъминлаш тушунилади. Шу сабабли, ердан фойдаланиш амалиѐтида бевосита фойдаланиш жиҳати (ижтимоий, иқтисодий, рекреацион, экологик) ва мазкур жараёнларни амалга ошириш жиҳатлари (ҳуқуқий, информацион, ташкилий, ҳудудий, технологик, ресурс, тадбиркорлик) фарқланади. Биринчи гуруҳдаги жиҳатлар (ердан бевосита фойдаланиш) учун ер ресурсларидан фойдаланишдан даромад олиш хос бўлиб, уни баҳолаш учун махсус услублар қўлланилади. Шу билан бирга қайд этиш жоизки, ердан фойдаланишнинг ижтимоий ва рекреацион самарадорлик турлари ҳозирги вақтда фақат табиий кўрсаткичлар орқали баҳоланади ва мазкур кўрсаткичларни иқтисодий ҳамда экологик самарадорлик билан таққослаш умуман мумкин эмас. Шунинг учун ижтимоий ва рекреацион самарадорликнинг нарх (пул) баҳосини аниқлаш масаласи алоҳида тадқиқотларни тақозо этади (1).

Суғорилиб ҳайдаладиган ернинг киши бошига тўғри келадиган нисбатининг камайиб кетишига қишлоқ хўжалиги учун фойдаланиладиган ерларни бошқа тармоқларга берилиши, тупроқ эрозияси, ботқоқлашув, ифлосланиш, шунингдек, аҳоли нуфусининг ортиб бориши каби ҳолатлар сабаб бўлмоқда. Бу ҳолат ерни муҳофаза қилиш масаласига жиддий муносабатда бўлишни тақозо этади. Тупроққа сув ва шамол эрозияси кучли зарар келтиради, мазкур эрозиялар оқибатида ернинг унумдор қатлами йўқ бўлади. Текис рельефга эга бўлмаган, ёғингарчилик мўл бўлган регионларда юза сув эрозияси хосдир. Суғориладиган деҳқончилик ҳудудларида эса ирригацион эрозия учрайди. Ўртача ва кучли шамоллар ҳаракатланадиган ҳудудларда шамол эрозияси вужудга келади. 2 см қалинликдаги унумдор тупроқ табиий шароитларда бунёдга келиши учун 200 йилдан 1000 йилгача вақт талаб этилса, эрозиялар туфайли тупроқ қатламининг бузилиши 20-30 йил ичида рўй бериши мумкин. Ҳар куни дунёда эрозия жараѐнлари оқибатида қишлоқ хўжалиги оборотидан 3 га экин майдонлари йўқотилмоқда. Ўзбекистонда 1,5 млн га экин майдони сув ва шамол эрозиясига учрайди, бу ерларнинг ярмида мунтазам равишда эрозияга қарши кураш олиб борилиши талаб этилади. Эрозия жараёнлари учрайдиган ерларда ҳосилдорлик, одатда, 20-40-% кам бўлиб, механизмлар ишлатилиши

қийинлашади. Қишлоқ хўжалиги экинларини етиштиришнинг иқтисодий ишлаб чиқариш шароитларининг ёмонлашуви билан биргаликда, биогеоценоз бузилиши кузатилмоқда, унинг натижасида табиатда биологик мувозанат бузилмоқда (3).

Хулоса. Юқоридагилардан келиб чиқиб ерлардан фойдаланишнинг энг муҳим, устувор жиҳати сифатида куйидаги иқтисодий томонларини кўрсата оламиз:

биринчидан, ерлардан фойдаланишнинг иқтисодий жиҳатини жараёнида жамият барқарор мавжуд бўлиши учун зарур бўлган иқтисодий маҳсулот ишлаб чиқарилади;

иккинчидан, ерлардан фойдаланишнинг иқтисодий жиҳати жараёнида ишлаб чиқарилган иқтисодий маҳсулот ер ресурслари (тупроқ унумдорлиги)ни қайта ишлашнинг моддий асосини ташкил этади;

учинчидан, Ерлардан фойдаланишнинг иқтисодий жиҳатининг устуворлиги мамлакат ва регионларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурларини тузишда, жамият фаолият соҳалари, иқтисодиёт тармоқлари бўйича ерларни тақсимлашда, регионларни, айниқса, қишлоқ ерларининг таркибини такомиллаштиришда инобатга олиниши таказо этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Асосий вазифамиз –ватанимиз тараққи`ти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир.-Т.:”Ўзбекистон”. 2010.43-б.
2. лех.уз/досс/.4378526
3. Тўраев А.Н. Молиявий ва бошқарув ҳисоби –Тошкент 2012 йил. 5 бет
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013-йил 19-апрелдаги “Суғориладиган ерларнинг мелиоратив холатини яхшилаш ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш бўйича2013-2017 йилларга мўлжалланган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони
5. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси// [Елестрон ресурс]. Режим доступа//www.лех.уз
6. ЎзРТМД, Миллий маъруза 2013. 114-116 б.).
7. ЎзРТМД, Миллий маъруза 2017. 56-63 б.).

РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Абдурахманова Мукаддас Тохтасиновна
Oriental University. PhD. Ст.преподаватель,
muqaddas_01@mail.ru +998911321680

Использование земельных ресурсов для производства продовольствия часто сталкивается с проблемами, такими как деградация почв, уменьшение плодородия и потеря биоразнообразия. Эти проблемы могут привести к ухудшению качества почв, снижению урожайности и, в конечном счете, к ухудшению продовольственной безопасности.

Поэтому важно обеспечить устойчивое использование земельных ресурсов, чтобы обеспечить продовольственную безопасность не только сегодня, но и в будущем. Устойчивое землепользование включает в себя использование технологий и методов, которые позволяют увеличивать производительность земельных ресурсов без ущерба для окружающей среды.[4]

Таким образом, земельные ресурсы являются ключевым фактором обеспечения продовольственной безопасности, и их устойчивое использование играет важную роль в обеспечении доступности и качества продовольствия для населения.[2]

Согласно литературным анализам, земельные ресурсы являются ключевым фактором обеспечения продовольственной безопасности. Многие исследования показывают, что увеличение производительности земельных ресурсов может привести к увеличению урожайности и улучшению качества продуктов питания.[7]

Например, в исследовании, опубликованном в журнале "Agriculture and Agricultural Science Procedia", было показано, что использование удобрений и технологий точного земледелия может повысить урожайность и улучшить качество продуктов питания. [8] Также было отмечено, что смена культур и использование севооборотов может увеличить плодородие почвы и снизить риск заболеваний растений. Другие исследования, такие как те, которые были опубликованы в "Journal of Soil and Water Conservation" и "International Journal of Agricultural Sustainability", показали, что применение агролесомелиоративных мероприятий и биологического земледелия может способствовать сохранению почвенного плодородия и повышению производительности земельных ресурсов. Кроме того, в литературе отмечается, что земельные ресурсы могут стать объектом конкуренции между странами и фирмами, что может привести к нежелательным последствиям, таким как деградация почвы, нерациональное использование ресурсов и увеличение цен на продукты питания. Анализ литературы показывает, что земельные ресурсы играют важную роль в обеспечении продовольственной безопасности многих стран мира. Недостаточное количество земли под сельскохозяйственные культуры может привести к

нехватке продуктов питания и повышению цен на них, что может негативно сказаться на экономике и социальной сфере. [6]

Таким образом, земельные ресурсы играют ключевую роль в обеспечении продовольственной безопасности многих стран мира. Недостаток земли под сельскохозяйственные культуры может привести к нехватке продуктов питания и повышению цен на них, что негативно сказывается на экономике и социальной сфере.

Для решения этой проблемы необходимо использовать методы, направленные на повышение производительности земельных ресурсов, такие как использование современных сортов и гибридов растений, адаптированных к местным условиям, использование удобрений, современных технологий и т.д. Однако важно учитывать экологические и социальные аспекты землепользования и использовать устойчивые методы земледелия для достижения продовольственной безопасности и сохранения природных ресурсов на долгосрочной основе.

Для обеспечения продовольственной безопасности необходимо не только увеличить площадь земли под сельскохозяйственные культуры, но и повысить производительность земельных ресурсов, используя современные методы и технологии, а также учитывая экологические и социальные аспекты землепользования.

Проведение стратегий и программ по устойчивому землепользованию, а также сбалансированное использование земельных ресурсов могут помочь решить проблемы продовольственной безопасности и создать условия для устойчивого развития сельского хозяйства и экономики в целом.

Важно помнить, что успешная реализация таких программ требует широкой поддержки со стороны государства, бизнеса, местных сообществ и общественности в целом. Кроме того, необходимо организовывать системы мониторинга и оценки эффективности землепользования, чтобы иметь возможность вносить коррективы в программы и стратегии в зависимости от изменяющейся ситуации. [4]

В целом, проведение стратегий и программ по устойчивому землепользованию и сбалансированному использованию земельных ресурсов - это важный шаг на пути к устойчивому развитию общества и сохранению окружающей среды для будущих поколений.

Литература

1. А. В., Кочетков В. А. Продовольственная безопасность в условиях глобализации. Москва: Экзамен, 2019.

2. Федеральный закон от 29.12.2006 N 264-ФЗ (ред. от 31.07.2020) «О развитии сельского хозяйства».
3. Буров В. П., Бурова Т. В. Регулирование земельных отношений в Российской Федерации: проблемы и перспективы. Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2017;22(5):1351-1355.
4. Драган Г. В., Якименко В. Л., Бурлаченко Ю. Н. Устойчивое землепользование и его роль в обеспечении продовольственной безопасности. Экономика природопользования. 2018;(4):36-44.
5. Никонов А. А., Новиков В. А. Эффективность использования земельных ресурсов в сельском хозяйстве: проблемы и перспективы. Сибирский экологический журнал. 2019;(3):423-432.
6. Степанов А. Ю., Максимов С. В. Продовольственная безопасность и устойчивое землепользование: связь и перспективы развития. Вестник Томского государственного аграрного университета. 2018;(2):22-30.
7. Чирикова М. Г. Продовольственная безопасность России: современное состояние и перспективы. Аграрный вестник Урала. 2018;(5):41-44.
8. Эйбошин А. В. Развитие сельского хозяйства и продовольственная безопасность в условиях санкций. Актуальные проблемы экономики и права. 2019;(1):48-53.
9. Food and Agriculture Organization of the United Nations. The State of Food Security and Nutrition in the World 2020. Rome: FAO, 2020.
10. United Nations. Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: UN, 2015.

INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA TOPOGRAFIYA VA KARTOGRAFIYA FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Nigmatov Samariddin Karshiboyevich
Navoiy Davlat Instituti
“Geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya. Innovatsion ta’lim sharoitida topografiya va kartografiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayonining modul tuzilmasi kasbiy faoliyat funksional tuzilmasiga eng munosib javob berishi yuzasidan fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Topografik, kartografik, geografik kartalar, o‘quv atlaslari, reproduktiv, evrisrik, muammoli izlanish metodlari.

Innovatsion ta’lim sharoitida topografiya va kartografiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bo`yicha asoslangan ilmiy xulosalar, amaldagi me`yoriy hujjatlarda belgilangan talablar doirasida o`quv jarayoni uchun Innovatsion ta’lim sharoitida topografiya va kartografiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish модели ishlab chiqildi. (1-rasmga qarang).

Ushbu model talabalarning “Topografiya va kartografiya” fani bo`yicha BKM larini takomillashtirishga qaratilgan bo`lib, bunda ularning kasbiy sifatlari, shaxsiy fazilatlari alohida ochib berilgan. Shuningdek, bu jarayonda didaktik shart-sharoitlar, ta`limning metod, shakl va vositalariga aniqlik kiritilgan. Baholash me`zonlari ishlab chiqilgan.



2.2.1-rasm. Innovatsion ta'lim sharoitida topografiya va kartografiya fanini o'qitish metodikasining такомиллаштириш модели

Ushbu modelni komponentlarini izohini keltiramiz.

“Ta’limda axborot texnologiyalari” fani o`qituvchisi: ta`lim jarayoniga rahbarlik qiluvchi, yakuniy natijada ularning bilim, amaliy ko`nikma va malakalarini shakllantiruvchi, jamiyat va shaxs farovonligi yo`lida mehnat faoliyatiga qo`shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bilan shug`ullanuvchi shaxsdir.

Malaka talablari: talabalarlar egallashi lozim bo`lgan bilim ko`nikma va malakalarga qo`yiladigan talablar.

kasbiy-pedagogik tayyorgarlik: kelgusi kasbiy faoliyatlari davomida lozim bo`ladigan kasbiy mahorat elementlarini tarkib toptirish.

kasbiy sifatlarni tarkib toptirish: axborotlar bilan ishlash, global fikrlash, kasbiy tashkilotchilik, intizomlilik, onglilik, o`zaro hamkorlikka kirisha olish, muloqotchanlik, tashabbuskorlik, boshqaruvchanlik, kasbiy omilkorlik, mehnatsevarlik, qiziquvchanlik.

kasbiy bilimdonlik: xborotlar bilan ishlash, global bilim, fanlar integratsiyasi, axborot texnologiyalarini o`zlashtirilganlik, xorijiy tillarni bilish, kasbiy tajriba, kasbiy moslashuvchanlik.

kasbiy sifatlarni tarkib toptirish: axborot olamining kengligi, motivatsion xislat, intellektual salohiyat, irodaviylik, hissiylik, amaliy ko`nikmalar, o`z-o`zini boshqara olish.

Ta`lim maqsadi: tizimlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish, faollik va mustaqillikni rivojlantirish, dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish. Malaka talablari darajasiga erishgan bilim, ko`nikma va malakalarga ega shaxsni shakllantirish.

Ta`lim mazmuni: malaka talablari, o`quv rejalar va dasturlar, elektron darslik va o`quv qo`llanmalar, me`yoriy hujjatlar va boshqalar.

Ta`lim berish shakllari: yakka tartibda, guruhli tarkibda va jamoaviy tartibda, ekskursiya tarzda va boshqalar.

Ta`lim berish metodlari: og`zaki, amaliy, muammoli, ko`rgazmali va interaktiv, innovatsion metodlar va boshqalar.

Ta`lim berish vositalari: ko`rgazmali vositalar, texnik vositalar, didaktik vositalar, aniq va real vositalar va boshqalar.

Elektron darsliklardan foydalanish: bu malaka talablarining mutaxasssislik va yo`nalishlar bo`yicha fanlarning alohida muhimroq bo`limlari bo`yicha tayyorlangan elektron nashrlar, namunaviy va ishchi rejalar, shuningdek, mashqlar va masalalar to`plamlari, xarita va sxemalar albomlari, tuzilma atlaslari, diplom loyihasi bo`yicha ko`rsatmalar, ma`lumotnomalar aks etgan elektron manbadir.

Virtual elektron vositalar yaratish: o`rganilaëtgan haqiqiy ob`ektlarda bo`laëtgan jaraënlarni kompyuter imitatsiyasi orqali taqdim etish va masofaviy kirish imkoniyatiga ega bo`lgan dasturlashtirilgan majmua.

Kasbiy kompetentlik: o`rganilayotgan aniq ob`ektlar bilan bog`liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo`lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to`plami, maqsadni ko`ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar majmuasi.

Xulosa sifatida, innovatsion ta’lim sharoitida topografiya va kartografiya fanini o’qitish metodikasining тtakomillashtirish, shuningdek, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun bir nechta muhim bartaraf etishga molik tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zaruriyati tug‘iladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуқодиров А.А Таълимда инновацион технологиялар. –Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. – Ташкент, 2003. -241-с.
3. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. / Монография. –Т.: Фан, 2007. – 144 б.
4. Гришина И.В.Профессиональная компетентность директора школы: Теория и практика формирования. Автореф.:дис.докт.пед.наук.-М., 2004. 52
5. Rakhmatov U.E., Shakhmurova G.A. Methodical Instructions of Improving Biology Teachers’ Professional Competence for Conducting Modern Lesson (based on Solutions of Issues and Tasks) //Eastern European Scientific Journal. -№3. -2020. – P. 123-16. ISSN 2199-7977.

AXBAROTLASHTIRISH SHAROITIDA “OSIYO MAMLAKATLARI” BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ibragimov Xurshid Xayrullayevich
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti
“Geografiya “ kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya. Bu risolada “Osiyo mamlakatlari” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va ularni zamonaviy texnologiyalar orqali o‘qitish bugungi kun davr talablariga muofiq amaliy faoliyat olib boruvchi kelajak avlod kadrlarni tayyorlash masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Osiyo mamlakatlari”, integratsiya, uzluksiz ta’lim, tabiiy boyliklar, mehnat resurslari, kompetentlik.

Yangilanib borayotgan ta’lim tizimini joriy etishda xozirda faoliyat olib borilayotgan oliy ta’lim tizimidagi o‘qituvchilarining o‘z faniga, qolaversa, axbarotlashtirish sharoitida “Osiyo mamlakatlari” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirishi va ularni o‘z pedagogik faoliyatida izchillilik asosida amaliyotda qo‘llay olish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning dolzarb talabi sanaladi. Mamlakatimizda axbarotlashtirish sharoitida “Osiyo mamlakatlari” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirishi, sifatini yanada oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash borasida ko‘plab faoliyatlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda, Axbarotlashtirish sharoitida “Osiyo mamlakatlari” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirishi uchun pedagogik va ilmiy bilimlar integratsiyasini ta‘minlash zarur. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘z faoliyatini olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy hamda metodik kompetentliligini rivojlantirish jarayonida ilmiy bilimlar kesimini fanga oid tushunchalar tizimida integratsion jarayonni faollashtirishga olib kelmoqda.

Axbarotlashtirish sharoitida “Osiyo mamlakatlari” bo'limini o'qitish metodikasini rivojlantirish borasida bir qator ilmiy ishlar olib borilganligini ta’kidlash lozim. Biroq bu muammoning turli jihatlari, xususiyatlari va uning aspektlariga olimlarning qiziqishlari ortib bormoqda. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishning hozirgi globallashuv jarayoni bosqichida alohida ahamiyatga egaligi hamda uning dolzarbligidan dalolat beradi.

Olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, nazariy manbalar mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari bilan bevosita tanishish, oliy ta’lim muassasalarida markaziy osiyo bo‘limini o‘qitish metodikasini rivojlantirish natijasida mavjud to‘plangan dalillarni sinchiklab o‘rganish oliy ta’lim tizimida bo‘lajak geografiya

fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini takomillashtirish jarayonida bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi, xususan(1-rasm):



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalarida markaziy osiyo bo‘limini o‘qitish metodikasini rivojlantirish bo‘yicha qiyosiy tahlil.(Ibragimov X.)

Yuqorida sanab o‘tilgan bir nechta qarama-qarshi masalalarni bartaraf etish uchun yagona yo‘l bu - Oliy ta’lim muassasalarida markaziy osiyo bo‘limini o‘qitish metodikasini rivojlantirish xisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida markaziy osiyo bo‘limini o‘qitish metodikasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik sharoitlarni yaratish, bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining mazmuni, tuzilishini rivojlantirish,

pedagogik-psixologik imkoniyatlarni aniqlash, nazorat qilish hamda baxolash jarayonlarini zamon talablariga moslashtirish bo‘lajak geografik - mutahassis kompetentligini takomillashtirishning asosiy maqsadini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining pedagogik kadrlari, shu jumladan, axbarotlashtirish sharoitida “Osiyo mamlakatlari” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda muxim vazifalaridan biri bu – o‘z kasbining ustasi, maxoratli faoliyat olib boruvchi kasbiy-metodik bilim sohibi, yuksak malakaga ega bo‘lgan mutahassis, tengsiz qobiliyatga ega, o‘ziga xos pedagogik xususiyatini faoliyatida ko‘rsata oladigan, shaxsiy fazilatlari bilan boshqa hamkasblariga o‘rnak bo’la oladigan, talabalar dardi bilan yashaydigan xamda dars olib borishda innovatsion metodlar orqali talabalarni qiziqtira oladigan tengsiz iqtidor egasi sifatida faoliyat olib borishida namoyon bo‘ladi. Axbarotlashtirish sharoitida “Osiyo mamlakatlari” bo'limini o'qitish metodikasini rivojlanishi O‘zbekistonda shakllanib kelayotgan yosh avlodni g‘oyalar tizimiga ta’lim - tarbiya jarayonida har tamonlama yetuk shaxs bo‘lib kamol topishiga, talabaning bilim salohiyati, fikrlash qobiliyatiga bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. axbarotlashtirish sharoitida “Osiyo mamlakatlari” bo‘limini o'qitish metodikasini rivojlantirish bu o‘z ish faoliyatda muayyan o‘ringa ega bo‘lishi, odamlar ichida obro‘ e’tiborini qozonishi, kasbiy faoliyatida pedagogik, psihologik, metodik, ilmiy saloxiyat kabi ketma-ket yondashuvlar tizimiga bevosita bog‘liq .

Tadqiqotchilar X.Vahobov, N.R.Alimkulovlar o‘z ilmiy faoliyatlari davomida tabiiy fanlar, shu o‘rinda geografiya o`qitish metodikasining nazariy va amaliy axamiyatga molik jixatlarini aniqlab, fan imkoniyatlaridan foydalanib, muammolarning nazariy va amaliy jixatlarini joriy qilish to‘g‘risida ta`kidlab o‘tishgan(2-rasm):



2-rasm. Geografiya o`qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlarini

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Osiyo mamlakatlari” bo‘limi tabiiy geografiya bo‘limiga tegishli bo‘lib, o‘qitishda zamonaviy tehnologiyalar va usullardan foydalanish asosan geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar, zamonaviy usullardan foydalanish, xalqaro tadqiqotlar asosida ushbu fanni olib borish, berilayotgan topshiriqlarni yaxshi anglash va yechimini chuqur anglab yetish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуқодиров А.А Таълимда инновацион технологиялар. –Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. – Ташкент, 2003. -241-с.
3. Гришина И.В.Профессиональная компетентность директора школы: Теория и практика формирования. Автореф.:дис.докт.пед.наук.-М., 2004. 52 с.
4. Джураев Р.Х. Организационно - педагогические основы интенсификации системы профессионального подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. док. пед. наук.-Т.:1995. - 43с.;

“ОПТИМИЗАЦИЯ ЭНДОСКОПИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ И РЕЗУЛЬТАТА ЛЕЧЕНИЯ ЭКССУДАТИВНОГО СРЕДНЕГО ОТИТА У ДЕТЕЙ”

Нўъмонжонов Боходир Шукурулло ўғли,
Ғуломов Шохрух Адхамжон ўғли

Далиев Адхам Ғуломович
Научный руководитель: д.м.н, доцент.

Актуальность темы

В настоящее время отмечается значительный подъем негнойных заболеваний среднего уха, среди которых одно из первых мест по частоте встречаемости у пациентов детского возраста занимает экссудативный средний отит.

Установленным фактом является полиэтиологичность ЭСО. Среди причин, способствующих увеличению негнойных заболеваний среднего уха, можно отметить следующие: недостаточно активная тактика ЛОР-врачей при лечении острого среднего отита, иммунные и гормональные нарушения, нерациональная антибактериальная терапия, особенности архитектоники внутриносовых структур, нарушение вентиляционной функции слуховой

трубы, увеличение заболеваний верхних дыхательных путей аллергического генеза.

Высокий уровень распространенности, разнообразие клинических проявлений и умеренные нарушения слуха затрудняют своевременное выявление экссудативного среднего отита, что способствует развитию атрофии барабанной перепонки, тимпаносклероза и выраженной кондуктивной и отчасти нейросенсорной тугоухости.

Учитывая вышеперечисленных факторов, проблема ЭСО у детей является очень актуальным, а решение вопросов ранней диагностики и своевременного консервативного и хирургического лечения поможет предупредить развитие стойких поражений слуха у детей раннего возраста.

Цель исследования:

Провести эндоскопический анализ состояния структур носоглотки у детей с ЭСО, определить ведущие причины тубарной дисфункции и разработать минимально инвазивные эндоскопические хирургические вмешательства в лечении ЭСО.

Задачи исследования:

1. Оценить информативность диагностической эндоскопии полости носа и носоглотки у детей с ЭСО.
2. На основании эндоскопического исследования носоглотки выявить ведущие факторы, приводящие к развитию ЭСО у детей.

Научная новизна

Впервые на основании большого клинико-эндоскопического анализа будет определена ведущая роль эндоскопического обследования у детей с ЭСО и будут оценены диагностическая и лечебная возможности лазерной тимпаностомии, что способствует оптимизации диагностики и лечения больных с заболеваниями среднего уха.

Практическая значимость работы

Результаты, получаемые при комплексной диагностике ЭСО у детей, предопределяют соответствующие способы лечения, включая хирургические с использованием высокоэнергетического лазерного излучения.

Список литературы

1. Алексанян И.В., Любимов Б.И., Евдокимов Е.А. и др. Профилактика и лечение микроциркуляторных нарушений в хирургической практике,-32 с
2. Антипенко Б.М., Березин Ю.Д., Волков В.В. и др. Лазеры ближнего среднего ИК-диапазонов в офтальмоонкологии. Известия Академии Наук Т.54.-10.-с. 1929-1934.

3. Casselbran M.L., Brastoff L.M., Cantekin E.I., Flaherty M.R. Otitis media with effusion in preschool children.// Laryngoscope, 1985.- V.95.- N4.- P.428.
4. Евстигнеев А.Р. Применение полупроводниковых лазеров и светодиодов в медицине/ Научно-методический материал. Калуга 2000.С.

“ПАТОГЕНЕЗ И ЭНДОСКОПИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА ЭКССУДАТИВНОГО СРЕДНЕГО ОТИТА У ДЕТЕЙ”

Нўъмонжонов Боходир Шукурулло ўғли,
Ғуломов Шохрух Адхамжон ўғли

Далиев Адхам Ғуломович
Научный руководитель: д.м.н, доцент.

Актуальность темы

Диагностика и лечение экссудативного среднего отита (ЭСО) до сих пор остается одной из наиболее сложных проблем в отиатрии. Заболевание встречается намного чаще, чем диагностируется. Неполноценное или не вовремя назначенное лечение может приводить к необратимым последствиям, характеризующимся стойкой потерей слуха. В последние годы отмечается рост заболеваемости ЭСО у взрослых и детей как в Средней Азии, так и за рубежом.

В настоящее время не существует единой схемы назначения консервативной терапии и не разработаны показания к хирургическому лечению ЭСО, основанные на клинической картине, стадии развития данного заболевания, оценке целесообразности проведения оперативного вмешательства и риска возникновения послеоперационных осложнений.

Для того чтобы понять механизмы развития ЭСО, необходимо знать процесс экссудативного воспаления. Под воздействием повреждения различного генеза (физического, химического, инфекционного, биологического) происходит выброс в измененные ткани биологически активных веществ (БАВ), под влиянием которых происходит увеличение проницаемости сосудов микроциркуляторного русла (в результате их расширения и повреждающего воздействия антигенов), что приводит к выходу в окружающие ткани жидкой части и форменных элементов крови — экссудата. Экссудат — это жидкость, накапливающаяся во внесосудистом пространстве при воспалении в результате повышения проницаемости микроциркуляторных сосудов. Как продукт воспаления, она снижает

концентрацию токсинов (за счет их разведения), нейтрализует их (за счет антител сыворотки крови), поддерживает воспалительную гиперемию, стимулирует выход лейкоцитов из сосудов в очаг воспаления. Фибриноген экссудата преобразуется в фибрин, нити которого образуют структуры, облегчающие переход в рану лейкоцитов крови, молекулы фибрина могут служить субстратом для образования биологически активных пептидов — медиаторов воспаления.

Заболеваемость экссудативным средним отитом высокая, что во многом объясняется сложностью ранней диагностики.

Цель исследования:

Целью исследования является анализ состояния структур носоглотки у детей с ЭСО, определить ведущие причины, этиопатогенез данной патологии и разработать минимально инвазивные эндоскопические вмешательства в лечении ЭСО при тубарной дисфункции.

Задачи исследования:

1. Провести исследование слуховой функции детям с ЭСО на разных этапах лечения.
2. Разработать методы эндоскопической хирургической коррекции структур носоглотки при дисфункции слуховой трубы у детей.

Научная новизна

Впервые на основании клинико-эндоскопического анализа определена ведущая роль эндоскопического обследования у детей с ЭСО.

Оценены диагностическая и лечебная возможности лазерной тимпаностомии, что способствует оптимизации диагностики и лечения больных с заболеваниями среднего уха.

Практическая значимость работы

Результаты, получаемые при комплексной диагностике ЭСО у детей, предопределяют соответствующие способы лечения, включая хирургические с использованием высокоэнергетического лазерного излучения. А также, ранняя диагностика ЭСО, способствует своевременную лечение и уменьшению число заболеваемости среди населения Узбекистана.

Список литературы

1. Евстигнеев А.Р. Применение полупроводниковых лазеров и светодиодов в медицине/ Научно-методический материал. Калуга 2000.С.

2. Tay H.L., Mills R.P., Phil M. Tympanic membrane atelectasis in childhood otitis media with effusion.// J. Laryngol. Otol., June 1995.- Vol. 109.- P.495-498.
3. Астафьева О.С., Салахова Г.М. Проблемы традиционной хирургии экссудативного среднего отита. Здравоохранение Башкортостана 1999,№2-3 с.63-66.
4. Бартенева А.А., Левин А.Л. Серозные отиты у детей.// Патология органа слуха у детей. - Ленинград, 1976, т.68. - с.12-15.

OLMA MEVASINI SAQLASHDA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILAR, ZARARKUNANDALAR VA FIZALOGIK KASALIKLAR

Imomaliyev Mahmudjon Alijon o'g'li
Farg'ona Politexnika instituti Yengil sanoat va to'qimachilik fakulteti Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash va dastlabki ishlash texnalogiyasi yo'nalish talabasi.
+998978131303

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tezisda dunyo hamjamiyatida va yurtimizda yetishtirilayatgan olma mevasni saqlash, saqlash jarayonida ta'sir qiluvchi omillar va mevalarga zarar yetkazuvchi zararkunandalarga qarshi kurashish bo'yicha ilmiy izlanish olib borilgan.

Аннотация. В данной научной работе проведено научное исследование по сохранению яблок, выращенных в мировом сообществе и в нашей стране, факторам, влияющим на процесс хранения и борьбе с вредителями, вредящими плодам.

Annotation. In this scientific work, scientific work was carried out on the preservation of apples grown in the world community and in our country, factors affecting the storage process, and combating pests that harm fruits.

Kalit so'zlar: gaz muhiti,xarorat,nisbiy namlik,etilen modasi,zararkunandalar,monimoz.

Bugungi kunda dunyo aholisi soni keskin ortib bormoqda.Bu har bir insonni meva-sabzavotlarga bo'lgan talabi oshishga sabab bo'ladi.Shunday ekan aholiga sifatli,yangi navli meva-sabzavotlarni yetkazib berish tadqiqotchi olimlarni oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki meva va sabzavot mahsulotlarnining asosiy qismni yetishtirish baxor,yoz,kuz mavsumlariga to'g'ri kelib ularni pishib yetilish mudatlariga qarab,saqlash hamda qayta ishlash oqilona tashkil etilmas ekan,aholini turli shifobaxsh,boy mahsulotlar bilan taminlab bo'lmaydi

O’zbekiston omborxonalarida saqlanayotgan mevalarning 90 % ga yaqini olma mevasi tashkil etadi. Mevalar orasida olma eng uzoq (8-9 oy) saqlanish xususiyatiga ega

Bahorgi harorat pasyishi (sovuq urishlar), gullash vaqtida qurg’oqchilik kabi holatlar olma mevasini tugish xususiyatiga salbiy ta’sir qilib,daraxtlar hosildorligini kamaytiradi.Qurg’oqchilikdan so’ng yoqqan shiddatli yomg’irlar, olma mevalarni yorilishga,zararkunandalar bilan kasalanishga,meva etining qorayib qolishga olib keladi. Hosil yig’im-terim oldidan havo haroratni 3-4 hafta davomida quruq bo’lishi olma mevalarni saqlanuvchanligin oshiradi.

Meva-sabzavotlarni haroratga bo’lgan munosabatiga ko’ra 3 ga bo’linadi va olma mevasi harorat 2℃-10℃ da va undan yuqori sharoitda yaxshi saqlanadi: masalan,nemis olimlarining ma’lumotlariga ko’ra olma saqlashda” Golden Delishes”ga -0,5-1,5℃,’’Jonatan, Renet Semirenko’’ olmasiga esa -2℃ mo’tadil harorat hisoblanadi va bu davrda shu navli olmalar to’liq yetilish xususiyatni pasaytiradi,modalar almashinuvi vaqtincha toxtaydi.’’Boyken’’, ‘’Oq ro’zmarin’’,’’Golden Delishes’’ navlari -1,5℃ dan ortiqcha sovutishga chidamli hamda haroratni asta sekin ko’tarish bilan e’stemol sifatlari saqlanib qoladi. Olma saqlashda namlik ham asosiy ro’l o’ynaydi. Olma mevasni saqlashda nisbiy namlik 90-95 % da ushlash tavsiya etiladi, past namlik olma mevalarni saqlanuvchnaligini, meva sifatni yuqorda bo’lishini,mevalarni so’lishga va burishib qolishini oldini oladi. Olma mevasiga harorat uning navlariga qarab turlicha bo’ladi,bunga sabab tez sovutishga chidamsiz navlari,haroratni keskin pasayishda uning fizalogik,biokimyoviy xususiyatni buzib tamsiz yoki muzlagan mevalar mevalar erigandan so’ng ulardan sharbat oqib fitopatagen mikroorganizmlar tomonidan oson zararlanadi. Olma mevasi muzlash harorati 1.5℃,past haroratni yaxshi sezadi. Tuproq tarkibida kalsiy moddasining kamligi yoki uni o’simlik tomonidan to’liq o’zlashtirmasligi olma mevalarni saqlash paytida achchiq dog’lanish,shish kasaliklarni rivojlanishga olib keladi. Quruq massaga nisbatan kalsiy miqdori 0,06-0,007 % dan kam bo’lmasligi kerak.Olma mevasni saqlashda gaz muhitini tarkibini boshqarish bilan mevalarni saqlanuvchanligi,sifat ko’rsatkichlarni yuqori bo’lishini,meva etlarni qorayishlarni oldini olish mumkin.



Har bir nav uchun mevalarni saqlanuvchanligini taminlovchi eng yaxshi gaz tarkibi bo'aldi,faqat bazi navlar uchun CO_2 yuqori darajasi chidamli bo'aldi. Chidamli navlarga ''Renet simerenko'', ''Sari-sinap'' CO_2 O_2 konsentratsiyasining 5:3 nisbatda bo'lishi maqsadga muofiqdir.''Oq ro'zmarin'' navi bir necha foiz CO_2 konsentratsiyasiga ham chidaydi,ular uchun oz konsentrarsiyali O_2 va deyarli CO is gazi bo'lmagan muhit muqobildir.

Olma mevasini saqlashda mevaga ta'sir etuvchu zararkunandalar va fizalogik kasaliklar bular; meva chirishi(monimioz), parsha(ombor pashasi), meva etini oftob urishi, mevalarni so'lib qolishi jumlasidandir. Meva chirishi-bu kasalikning rivojlanishga meva po'stining mexanik zararlanishi, plodojorka va parsha bilan zararlanishi orqali kelib chiqadi. Mevada jigarang dog' paydo bo'ldi va bu kasalik jadal rivojlanib meva rtni butkil qoplaydi. Parsha (ombor parshasi)-mevalar daraxtda zararlanadi, meva etida qora dog'lar paydo bo'ladi va mevada yorilish jarayoni kuzatiladi. Meva etini oftob urishi bu po'sloq rangining to'q ranga kiradi. Bu kasalik asosan och rangli navlarida uchraydi-Oq rozmarin,Delishes,Renet simerenko,Kandil sinap va boshqalarda uchraydi. Harorat o'ta quruq va o'ta nam yoz oylarida kasalik avj oladi. Hosilning erta terib olish jarayonida ham bu holat kuzatiladi. Bu kasalikni bartaraf etish uchun yig'im-terim davrida namlik va quruqlik o'rtacha bo'lgan davr talab etiladi,har bir mevani texnik vazelin surtilgan o'rov qog'oziga o'rab chiqish va ombordagi havo haroratni bir me'yorda ushlash tavsiya etiladi. Mevalarni so'lib qolishi bu kasalik saqlash jarayonini buzilishdan kelib chiqadi. Bu kasalik Uelsi, Bessemyanka Michurina, Oranjevoye, Mleyevskaya krasavitsa va boshqa meva eti yupqa navlarida uchraydi. Bu kasalikni oldini olish uchun mevani to'liq yetilganidan so'ng yig'ishtirilishi, saqlash omborlaridagi nisbiy namlik 80 %-85 % dan yuqorida bo'lishi, politilen plyonkaga o'rash, yashiklarga solinadigan plyonka paketlarni qalinligi 30-40 mkm bo'lganda foydalanish va politilen plyonkalar sig'imi 1-3 kg bo'lgan,sig'imi 18-20

kg bo'lgan yashiklardan foydalanish tavsiya etiladi. Gaz muhiti saqlanishning 5-6 oydan so'ng kislarod miqdori 14-16 % ni, karbonat angidirid miqdori 5-7 % ni bo'lgan tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Bo'riyev,R.Jo'rayev, O.Alimov –"Meva-sabzavotlarni saqlash va ularga dastlabki ishlov berish".Toshkent-"mehnat"-2002 y.
2. R.Oripov, Umurzoqov.E,I.Sulaymonov-"Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash texnalogiyasi".Toshkent-"Mehnat"-1991 y.
3. R.M.Nazirova,N.O.Sulaymonov,N.B.Usmonov-"Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash omborlari va texnalogiyasi"-Vienna-2020.
4. A.Rasulov.-"Sabzavot, Kartoshka va poliz mahsulotlarni saqlash texnalogiyasi"._"Mehnat"-1995 y.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ИЗУЧЕНИЕ КОМБИНИРОВАННЫХ НООТРОПНЫХ ПРЕПАРАТОВ НА СОДЕРЖАНИЙ ГЛЮКОЗЫ ПРИ РАЗВИТИИ ГЕМИЧЕСКОЙ ГИПОКСИИ

Касимов Э.Р.
Ташкентская медицинская академия г. Ташкент, Республика Узбекистан.

Вступление. Эритроциты лишены митохондрий, поэтому в качестве энергетического материала они могут использовать только глюкозу. В эритроцитах катаболизм глюкозы обеспечивает сохранение структуры и функции гемоглобина, целостность мембран и образование энергии для работы ионных насосов. Глюкоза поступает в эритроциты путём облегчённой диффузии с помощью ГЛЮТ-2. Около 90% поступающей глюкозы используется в анаэробном гликолизе, а остальные 10% - в пентозофосфатном пути.

Конечный продукт анаэробного гликолиза лактат выходит в плазму крови и используется в других клетках, прежде всего гепатоцитах. АТФ, образующийся в анаэробном гликолизе, обеспечивает работу Na^+, $К_+$-АТФ-азы и поддержание самого гликолиза, требующего затраты АТФ в гексокиназной и фосфофруктокиназной реакциях.

Цель исследования: Определение уровень глюкозы при развитии гемической гипоксии.

Материал и методы исследования.

Антигипоксическую активность препаратов и некоторые механизмы их действия изучали на модели гемической гипоксии, которую воспроизводили на 100 половозрелых крысах-самцах внутрибрюшинным введением $NaNO_2$ в

дозе 50 мг/кг в течение 21 дня. Умерло 14 крыс, что, на наш взгляд, связано с токсическим действием химиката. 10 крыс составили интактную группу. Экспериментальную терапию начинали на 7-ой день опыта, который длился до 21-ого дня. Препараты вводили внутрибрюшинно в течение 7 и 14 дней. На 7-ой день опыта общее число выживших экспериментальных животных составляло 76 крыс, которые были разделены на 5 групп:

1-я группа – 16-ти крысам, вводили 0,9%-ный раствор NaCl внутрибрюшинно в объёме 3 мл (контрольная);

2-я группа – 15-ти крысам, вводили раствор Цитиколина в дозе 375 мг/кг внутрибрюшинно в объёме 3 мл (группа сравнения);

3-я группа – 15-ти крысам, вводили раствор Цитаргина в дозе 780 мг/кг внутрибрюшинно в объёме 3 мл (опыт-1);

4-я группа – 15-ти крысам, которым вводили раствор Циткорнита в дозе 450 мг/кг внутрибрюшинно в объёме 3 мл (опыт-2);

5-я группа – 15-ти крысам, которым вводили раствор Ноотротема в дозе 337 мг/кг внутрибрюшинно в объеме 3 мл (опыт-3).

Животных декапитировали на 7-е и 14-е сутки от начала лечения. Определяли морфологический состав периферической крови, содержание гемоглобина, в гемолизате эритроцитов, уровень метгемоглобина (MetHb), активность метгемоглобинредуктазы (MetHb-редуктаза), в сыворотке крови содержание HIF-1 иммуноферментным методом, уровень глюкозы.

Результаты, полученные при изучении антигипоксического действия

Основным энергетическим источником для эритроцитов является глюкоза, которая окисляется анаэробным и пентозофосфатными путями. Поэтому данная теория нас подтолкнула на решение определения содержания энергетического источника в гемолизате.

Мы установили, что у интактных крыс содержание глюкозы составляет 4,75±0,31 и 4,9±0,29 мг/г Hb на 14-е и 21-е сутки от начала опыта. У крыс с гемолитической анемией содержание глюкозы в биопробах снизилось оба срока в 1,4 раза ($P<0,01$), т.е. энергетический субстрат в эритроцитах уменьшился, возможно, вследствие появления патологических форм и их лизиса.

Экспериментальная фармакотерапия ноотропными препаратами несколько повысили содержание глюкозы, в биообъектах, особенно Цитаргин, но не до значений интактной группы.

На основание полученных данных можно сделать следующие выводы;

Таким образом, при гемолитической гипоксии развивается гипогликемия. Применение ноотропных препаратов несколько повышает уровень глюкозы, однако полного восстановления не наблюдается.

Приложение.

Регистрационная карта участника

Регистрационная карта участника	
ФИО докладчика/участника (полностью)	Касимов Элдор Рихсиллаевич
Место работы, должность (для окончивших вуз)	Ташкентская медицинская академия
Место учебы, курс, группа, факультет (для студентов)	
Ученая степень, ученое звание (если имеется)	PhD, ассистент
Название доклада	
Секция доклада	Экспериментальная изучение комбинированных ноотропных препаратов на содержаний глюкозы при развитии гемической гипоксии
Форма участия (выбранный вариант выделить жирным и подчеркнуть)	Публикация тезиса
	Публикация тезиса и доклад на конференции
Контактный телефон, e-mail	+998977683855 kasimov.eldor2015@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ КОМБИНИРОВАННЫХ НООТРОПНЫХ ПРЕПАРАТОВ НА СОДЕРЖАНИЙ МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СОСТАВ ПЕРИФЕРИЧЕСКОЙ КРОВИ ПРИ РАЗВИТИИ ГЕМИЧЕСКОЙ ГИПОКСИИ

Касимов Э.Р.
Ташкентская медицинская академия г. Ташкент, Республика Узбекистан.

Вступление. В настоящее время данные о физиологическом состоянии организмов широко используют для диагностирования изменений окружающей среды. Среди комплекса биоиндикационных методов важное место занимают гематологические исследования, основывающиеся на использовании показателей состава крови. Кровь является одной из подвижных тканей организма, которая служит регуляторным механизмом, и может достаточно оперативно реагировать на действие разнообразных раздражителей. То, что гематологические показатели являются высоко специфичными для каждого вида и колеблются в достаточно узких пределах,

позволяет использовать их в качестве маркеров различных физиологических и патологических процессов, происходящих на организменном и экосистемном уровне.

Цель исследования: Определение морфологический состав периферической крови при развитии гемической гипоксии.

Материал и методы исследования.

Исследования проведены на 100 половозрелых крысах-самцах весом 180-200 гр. 10 крыс составили интактную группу. Гемическую гипоксию воспроизводили на 90 крысах путем внутрибрюшинного введения $NaNO_2$ в дозе 50 мг/кг в течение 21 дней. Летальность составила 15,5%, что, на наш взгляд, связано токсическим действием химиката. Экспериментальную терапию начинали на 7-й день опыта, препараты вводили внутривенно в течение 7 и 14 дней. На 7-й день опыта выжившие 76 животные были разделены на 5 группы:

1-я группа – 16 крыс, которым вводили 0,9% раствор NaCl внутривенно в объёме 0,3 мл (конрольная);

2-я группа – 15 крыс, которым вводили раствор Цитиколина в дозе 375 внутривенно в объёме 0,3 мл (группа сравнения);

3-я группа – 15 крыс, которым вводили раствор Цитаргина в дозе 78 мг/кг внутривенно в объёме 0,3 мл (опытная 1);

4-я группа – 15 крыс, которым вводили раствор Циткорнита в дозе 45 мг/кг внутривенно в объёме 0,3 мл (опытная 2);

5-я группа – 15 крыс, которым вводили раствор Ноотротема в дозе 33,7 мг/кг внутривенно в объеме 0,3 мл (опытная 3).

Забой животных проводили на 7-е и 14 сутки от начала лечения. Определяли морфологический состав периферической крови

Результаты, полученные при изучении антигипоксического действия

Результаты исследований 2-й серии экспериментов с использованием модели гемической гипоксии показали, летальность в группе без лечения составила 25%, тогда как в группа с применением Цитаргина, Цитиколина, Ноотротем составили 6,7; 13,3; 13,3 и 13,3%, соответственно. В периферической крови крыс с отмечается достоверное повышение гемоглобина в 1,4 и 1,45 раза, содержания эритроцитов в 1,6 и 1,5 раза, лейкоцитов – 2,54 и 2,5 раза относительно значений интактных крыс, соответственно срокам 7 и 14 дней опыта (табл. 1). Уровень тромбоцитов в крови существенно не изменялся. Скорость оседания эритроцитов статистически значимо возрос в 10 и 10,5 раза, соответственно срокам эксперимента.

Экспериментальная фармакотерапия хронической гипоксии цитаргином, циткорнитом, ноотротемом и цитиколином в течение 7 дней привела к достоверному снижению высоких значений гемоглобина в 1,1, 1,2, 1,11 и 1,2 раза относительно значений нелеченной группы. Более продолжительное введение препаратов (14 дней) оказывало более выраженный эффект, приближая уровень гемоглобина к значениям интактных крыс.

Такая же динамика было выявлена и содержании эритроцитов. Так, содержание эритроцитов в периферической крови крыс с хронической гипоксией при лечении цитаргином, цитикорнитом, ноотротемом и цитиколином в течение 7 дней статистически значимо снизился в 1,28, 1,3, 1,27 и 1,36 раза относительно значениям нелеченной группы, соответственно препаратам. Однако они достоверно отличались от показателей интактных крыс. Более продолжительное их введение приблизило е значениям интактных крыс.

Такая же динамика была отмечена и в содержании лейкоцитов, однако данный показатель даже при длительном введении не достигал нормативных значений. Наряду с этим мы наблюдали резкое (приблизительно в 10 раз) увеличение СОЭ, что в совокупности с наблюдаемым лейкоцитозом, указывает на развитие иммунно-воспалительных процессов. Изучаемые препараты значительно снижали высокие значения СОЭ, особенно при длительном применении. Однако, несмотря на это, показатель СОЭ статистически значимо превышал значения интактных крыс.

На основание полученных данных можно сделать следующие выводы;

При хронической нитритной гипоксии наблюдается увеличение содержания гемоглобина, эритроцитов, лейкоцитов и, особенно СОЭ. Экспериментальная фармакотерапия препаратами Цитаргин, Циткорнит и Ноотротем приводит к нормализации уровня гемоглобина и эритроцитов, особенно при 14 дневной применении исследуемых препаратов.

Приложение.

Регистрационная карта участника

Регистрационная карта участника	
ФИО докладчика/участника (полностью)	Касимов Элдор Рихсиллаевич
Место работы, должность (для окончивших вуз)	Ташкентская медицинская академия
Место учебы, курс, группа, факультет (для студентов)	
Ученая степень, ученое звание (если имеется)	PhD, ассистент
Название доклада	
Секция доклада	Изучение комбинированных

	ноотропных препаратов на содержаний морфологический состав периферической крови при развитии гемической гипоксии
Форма участия (выбранный вариант выделить жирным и подчеркнуть)	Публикация тезиса
	Публикация тезиса и доклад на конференции
Контактный телефон, e-mail	+998977683855 kasimov.eldor2015@gmail.com

FUQAROLARNING SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI

Abduvaxobova Rayxona Sharof qizi
Samarqand viloyati yuridik texnikumi
201-guruh oʻquvchisi

Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasini aniqlashdan avval umuman huquq, erkinlik degan tushunchalarni aniqlash lozim. Huquq davlat tomonidan ta’minlanadigan, himoya qilinadigan nimadir qilish, amalga oshirish, munosib yashash sharoitiga ega boʻlish, zoʻrliklardan himoya qilinishning tabiiy imkoniyatidir. Erkinlik esa, biror-bir narsada (xulq-atvorda, faoliyatda) qonun bilan taqiqlanmagan, biror-bir cheklashning yoʻqligidir. Ya’ni, huquqda asosiy masala imkoniyatga ega boʻlish, erkinlikda esa, cheklashning yoʻqligidir. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari uch guruhga boʻlib mustahkamlangan. Bular: “shaxsiy huquq va erkinliklar”, “siyosiy huquqlar”, “iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar”. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ustuvor huquq hisoblanadi va bu o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida birinchi oʻrinda berilganligidan ham koʻrinadi. Shaxsiy huquq va erkinliklar fuqarolarning hayoti, sogʻligʻi, eʻtiqodi bilan bogʻliqdir. Shaxsiy huquq va erkinliklar insonni shaxs sifatida namoyon etuvchi imkoniyatdir. Shaxsiy huquq va erkinliklarni, odatda, tabiiy huquqlar ham deb yuritiladi. Ular inson tugʻilishi bilan vujudga keladi. Ularni davlat bermaydi. Faqat shu huquqlarni davlat ta’minlaydi va shunga majbur. Shaxsiy, ya’ni tabiiy huquqlar barcha mamlakatlarda mavjud va davlat tomonidan ta’minlanadi. Shaxsiy huquq va erkinliklar xalqaro hujjatlar bilan ham himoya qilinadi. Oʻzbekiston respublikasi konstitutsiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda fuqarolarning shaxsiy huquqlari belgilangan xalqaro hujjatlar, jumladan, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga amal qilindi. Natijada birinchi marta, konstitutsiyada yashash huquqi qayd qilinib, bu huquqni ta’minlashni davlat oʻz zimasiga oladi. Shaxsiy huquq va erkinliklar, boshqa huquqlardan farq qilib, ularni

cheklash mumkin emas. Alohida hollarda cheklash zarurati bo'lsa, bu konstitutsiya asosida, unda koʻrsatilgan tartibda amalga oshiriladi. Ya'ni, ba'zi hollarda cheklash qonunga asosan amalga oshirilishi belgilangan. Lekin shunday huquqlar borki, ularni aslo cheklash, ulardan mahrum qilish mumkin emas. Masalan, yashash huquqi. Shaxsiy huquqlardan barcha shaxslar, fuqaroligidan qat'i nazar, foydalanadi va davlat ham barchaga, fuqaroligidan qat'i nazar, shaxsiy huquq va erkinliklardan foydalanishga imkon yaratadi. Konstitutsiyaga asosan shaxsiy huquq va erkinliklar bilan bogʻliq insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi ham bu huquqlarning huquq va erkinliklar tizimida ustuvor hisoblanishiga olib keladi.

Yashash huquqi. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi. Insonning hayoti, shaxsi va erkinligi daxlsizdir deb qayd qilingan konstitutsiya qabul qilinayotgan oliy kengash sessiyasida va shu gʻoya konstitutsiyada toʻla oʻz ifodasini topgan. Inson hayoti konstitutsiyada yashash huquqining belgilanishi va har tomonlama ta'minlanishi bilan kafolatlanadi. Konstitutsiyaning 25-moddasida: "yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir", — deb belgilangan. Insonning yashash huquqi qonunlar bilan himoya qilinadi. Yashash huquqi hayot kechirish bilan bog'liq Boʻlganligi uchun inson hayotiga har qanday tajovuz qonunga asosan jazolanadi. Oʻzbekiston respublikasining jinoyat kodeksida inson hayotiga qilingan tajovuzlarga jazo belgilangan. Kodeksning 97-moddasida qasddan odam oʻldirish uchun, 98-moddada kuchli ruhiy hayojon natijasida qasddan odam oʻldirish uchun, 99-moddada onaning oʻz chaqalogʻini (bolasini) oʻldirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Xuddi shuningdek, jinoyat kodeksida ehtiyotsizlik orqasida odam oʻldirish, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib odam oʻldirish uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan. Ogʻir jinoyat sodir etgan shaxslarni oʻlim jazosi orqali hayotdan mahrum qilish masalasi ham yashash huquqi bilan bogʻliq hodisa. Bu ayrim davlatlarda oxirgi chora tariqasida qoʻllaniladigan jazo. Mamlakatimizda demokratlashtirish jarayoni chuqurlashib borishi bilan bu masalaga ham yondashuv oʻzgarib bormoqda. Oʻzbekiston asrga ijtimoiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish vazifasi bilan kirib keldi. Bu borada 2001-yil ikkinchi chaqiriq Oʻzbekiston respublikasi oliy majlisning 6-sessiyasida qabul qilingan "jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan oʻzbekiston respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish haqida"gi qonun muhim rol oʻynaydi. Umuman oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, oʻlim jazosini qoʻllashni kamaytirishga harakat qildi. Mustaqillikka

erishgan vaqtda jinoyat kodeksining 30 dan ortiq moddalarida oʻlim jazosi belgilangan boʻlsa, 1994-yilda 13 ta moddada, 1998-yilda 8 ta moddada, 2001-yilda 4 ta moddada oʻlim jazosi ko'zda tutildi. 2005-yil 28-yanvarda prezidentimiz oʻzbekiston respublikasi oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qoʻshma majlisidagi ma'ruzasida: "sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala - bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir", — deb qayd etdi. Shuni hayotga tatbiq etish uchun oʻzbekiston respublikasi prezidentining "oʻzbekiston respublikasida oʻlim jazosini bekor qilish toʻgʻrisida"gi farmoni qabul qilindi. Farmon asosida tegishli qonunlarga oʻzgartirish kiritildi va oʻlim jazosi mutlaqo bekor qilindi. Bu amalga oshirilayotgan ishlar bevosita insonning konstitutsiyada belgilangan yashash huquqini ta`minlashni kuchaytirishga qaratilgandir.

Insonning yashash huquqi toʻla-toʻkis boʻlishi, yashashi, hayoti davomida hayotdan toʻla bahramand boʻlishi va oʻz imkoniyatlaridan toʻla foydalanishi uchun unga, albatta, erkinlik va daxlsizlik zarur. Shuning uchun konstitutsiyaning 27-moddasida: "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas ", - deb belgilangan. Erkinlik shaxsning oʻz ixtiyori boʻyicha yashash, hayot kechirish imkoniyati boʻlib, faqat shaxs qonunlarga itoat etishi zarur. Mamlakatimizda har bir kishining erkinligi, uning shaxsiy daxlsizligi bilan ta'minlanadi. Daxlsizlik degani shaxsning erkinligini cheklovchi hech qanday harakatlarga yoʻl qoʻyilmasligidir. Qonunda belgilangan asoslardan tashqari hech kimning erkinligi cheklanishi, erkinlikka zarar yetkazilishi mumkin emas. Qonun tegishli hollarda kishilarning erkinligini cheklashga yoʻl qoʻyadi. Ya'ni, ular jinoiy harakat sodir etsa yoki shunday harakat sodir etishda gumon qilinsa, shaxsni jamiyatdan ajratishga zarurat tugʻiladi. Lekin, har qanday erkinlikni cheklash qonunga asosan va qonun vakolat bergan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlari ma'lum muddatga shaxslarni ushlab turishi, sud organlari qamoqqa olish haqida sanksiya (rozilik) berishi va ozodlikdan mahrum qilish yoki boshqa erkinlikni cheklovchi jazolar berishi mumkin. Mamlakatimizda har bir kishining erkinligini yanada kengroq ta'minlash maqsadida va jahon tajribasiga tayangan holda shaxsni ushlab turish (ya'ni erkinligini cheklash) masalasini adolatli hal qilish uchun: „boshqa demokratik davlatlar kabi oʻzbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburlov choralarini qoʻllash uchun sanksiya berish huquqini ham sudlarga oʻtkazish kerak, deb oʻylayman" - deb prezident bu masalani kun tartibiga qoʻygan edi. Ushbu masalani hayotga tatbiq qilish uchun 2005-yil 8-avgustda oʻzbekiston respublikasi prezidentining "qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga oʻtkazish

toʻgʻrisida”gi farmon qabul qilindi va uning asosida tegishli qonunchilikka oʻzgartirish kiritildi. Natijada shaxsning daxlsizligini ta’minlash kuchaytirildi. Bu masalaning mohiyati toʻgʻrisida prezidentimiz shunday degan edi: “bu borada “xabeas korpus” institutining joriy etilishi, ya’ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining prokurordan sudga oʻtkazilishi prinsipial qadam boʻldi”. Shaxsni aybdor deb topish. Sudda himoya bilan ta’minlanish huquqi konstitutsiyaning 28-moddasida: “jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora koʻrib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga oʻzini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi. Har qanday kishini aybdor deb topishning faqat sud organlari vakolatiga berilishi demokratik huquqiy davlatga xos xususiyat boʻlib, bu shaxsni himoyalashning muhim vositasidir. Jahon huquqshunoslik tajribasida “aybsizlik prezumpsiyasi” degan soʻz ishlatiladi. Bu degani, shaxsning aybi aniq isbotlanib, aybli ekanligi sud tomonidan e’tirof etilmaguncha unga hech qanday ayb qoʻymaslik va aybdor deb e’lon qilmaslikdir.

DAVLAT TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Tursunboyev Muhammad Yusuf oʻgʻli
Samarqand viloyati yuridik texnikumi
201-guruh oʻquvchisi

Ilm-fan ma’lumotlariga koʻra kishilik jamiyati tarixida, taxminan bundan besh ming yillar oldin dastlabki davlatlar yuzaga kelgan. Ushbu davr davomida davlat insonlar hayotini tashkil etishning eng maqbul shakli shakli sifatida namoyon boʻlgan.

Davlat insonlar hayotini tashkil etishning shakli sifatida jamiyatning bir maromda faoliyat olib borishini ta’minlaydi: biz har kuni transport, turli xil muassasalar, jumladan, bogʻchalar, maktablar, oliy ta’lim muassasalari, poliklinikalar, kasalxonalar, oziq-ovqat, sport va boshqa koʻplab muassasalar faoliyati bilan toʻqnash kelamiz. Ularning faoliyatini davlat oʻzining tegishli organlari orqali tashkil etib boradi. Bundan tashqari, mudofaa, xavfsizlik, huquqni muhofaza etuvchi va boshqa tegishli davlat organlari jamiyatda qonuniylik va xavfsizlikni ta’minlab turishadi.

Murakkab hodisa boʻlgan davlat haqida har bir davrning mutafakkirlari oʻz fikrlarini bildirib kelishgan. Qadimgi rimlik faylasuf Mark Tulliy Sitseron davlatni umumiy huquqiy tartibot sifatida tushungan. Alisher Navoiy oʻz asarlarida adolatli davlatdagina farovonlik boʻlishi gʻoyasini ilgari surgan. Nemis faylasufi Immanuil

Kant “davlat bu huquqiy qonunlarga boʻysunadigan koʻpchilik insonlar uyushmasidir” deb yozgan. Bugungi kunda koʻpgina darsliklarda davlatga “butun mamlakat hududida oʻz hokimiyatini amalga oshiradigan, maxsus boshqaruv apparatiga ega boʻlgan, hamma tomonidan bajarilishi shart boʻlgan qonun-qoidalar chiqaradigan suveren ommaviy-siyosiy tashkilot”, degan ta’rif beriladi.

Davlat butun jamiyat va barcha fuqarolarning siyosiy tashkiloti boʻlib, u muhim ijtimoiy ishlarni boshqaradi, jamiyatning bir butunligini ta’minlaydi, jamiyat uchun hayotiy muhim boʻlgan funksiyalarni bajaradi. Shu bilan bir vaqtda davlat faoliyati (asosan huquqiy davlat) fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga, jamiyatda mustahkam va insonparvar boʻlgan huquq tartibotni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan.

Davlatga umumijtimoiy nuqtai nazardan ta’rif:

Davlat – bu muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv apparatiga ega boʻlgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadigan siyosiy tashkilot.Shuningdek, bugungi kunda yuqorida keltirilgan ta’rif bilan birga davlat tushunchasiga sinfiy va sof yuridik nuqtai nazardan ham yondashuvlar mavjud:

davlat (sinfiy) – bu iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron boʻlgan sinflarning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilotdir;

davlat (yuridik) – bu muayyan hududda ommaviy hokimiyatni amalga oshiruvchi, shu hududda yashovchi barcha fuqarolar uchun majburiy boʻlgan qonun-qoidalar chiqaradigan va suverenitetga ega boʻlgan siyosiy tashkilot.

Davlatning mohiyati haqidagi masalaga toʻxtaladigan boʻlsak, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Davlat mohiyati deganda, uning mazmuni, maqsadi, davlat hokimiyatining qaysi ijtimoiy-siyosiy guruhlarga mansubligi va u kimning manfaatlariga xizmat qilishi tushuniladi.

Demokratik yondashuv tarafdorlari hokimiyatning birinchi manbai xalqdir, tabiatan va mohiyatan davlat hokimiyati tubdan xalqchil boʻlib, u xalqning manfaatlarini koʻzlagan holda va uning nazorati ostida amalga oshirilishi zarur, deb hisoblashadi.

Davlatning mohiyati bu eng avvalo, undagi hokimiyatda ifodalanadi. Davlatning mohiyati – qonunlarga asoslangan va faoliyati tegishli tashkiliy-huquqiy va moddiy vositalar bilan ta’minlangan hokimiyatdir. Hokimiyat davlatning mazmunini, uning jamiyatda tutgan oʻrni, ahamiyati va faoliyati kimning manfaatiga qaratilganligini belgilab beradigan dastlabki, birlamchi va barqaror hodisadir. Rivojlangan davlatlarda davlat hokimiyati turli guruhlar va

toifalar oʻrtasida ijtimoiy kelishuv, jamiyatda qonun ustuvorligi va barqarorlik garovi, inson huquqlarining kafolati sifatida namoyon boʻladi. Xalqaro hamjamiyatning toʻla huquqli a'zosi boʻlgan Oʻzbekiston bugungi kunda demokratik rivojlanish yoʻlidan bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "Xalq davlatdan rozi boʻlishi kerak", "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan faoliyat tamoyillarining mazmunida ham davlatimizning mohiyati, ya'ni uning xalqchilligi yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Davlatning belgilari uning ichki mazmuni va mohiyatini oʻzida ifoda etadi.

Manbalarda davlatning asosan quyidagi belgilari koʻrsatiladi:

Aholining hududiy asosga koʻra birlashganligi. Hozirgi zamon yuridik fanida davlat hududi deganda, muayyan davlatning suvereniteti tatbiq etiladigan aniq chegaralangan hudud nazarda tutiladi. Davlat hududi oʻz ichiga quruqlik, suv, yer osti va havo makonlarini qamrab oladi. Shu hududda yashaydigan aholi davlatning fuqarosi hisoblanadi.

Maxsus boshqaruv apparatining mavjudligi. Davlat oʻz oldiga qoʻygan vazifa va funksiyalarini amalga oshirish hamda jamiyat ustidan boshqaruvni tashkil etish uchun murakkab mexanizm (apparat)ga ega boʻladi. Maxsus tarzda tashkil etilgan ushbu davlat mexanizmining samarali faoliyat yuritishi uchun alohida kishilar guruhi, ya'ni davlat xizmatchilari boʻlishi taqozo etiladi. Ushbu shaxslarning asosiy vazifasi davlat boshqaruvini amalga oshirish hisoblanadi. Jamiyat siyosiy tizimining boshqa tuzilmalaridan (siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, nodavlat tuzilmalar) farqli oʻlaroq, faqat davlatgina qonun chiqaruvchi hokimiyat, hukumat, sud, prokuratura, qurolli kuchlar, ichki ishlar kabi organ va tuzilmalarga ega boʻladi.

Huquq tizimining mavjudligi. Huquqsiz davlat mavjud boʻla olmaydi. Huquq davlat hokimiyatini yuridik jihatdan rasmiylashtiradi, unga qonuniy tus beradi. Davlat oʻz funksiyalarini huquqiy shakllarda, ya'ni qonunga asoslanib amalga oshiradi. Davlat ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish orqali jamiyatda qonuniylik, huquqiy tartibot va ijtimoiy adolat oʻrnatadi. Huquq davlat va davlat hokimiyati faoliyatini aniq huquqiy tartibga boʻysundiradi.

Soliq tizimiga egaligi. Faqat davlatgina aholidan rasmiy tartibda soliq yigʻish huquqiga ega. Davlat hududida yashayotgan barcha shaxslar davlat xazinasiga, ya'ni byudjetiga majburiy tartibda qonunchilikda belgilangan soliqlarni toʻlab borishlari shart. Soliqlardan tashqari davlat foydasiga boshqa yigʻimlar va davlat bojlari ham undiriladi. Ular yordamida davlatning faoliyat yuritishi uchun zarur boʻlgan moddiy-moliyaviy baza shakllantiriladi. Ushbu moddiy baza asosida davlat organlari faoliyati moliyalashtiriladi hamda iqtisodiyot, tabiatni muhofaza

qilish, ta’lim, sogʻliqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalar yuzasidan davlat dasturlarining amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Suverenitetga egaligi. Davlat suvereniteti bu – davlatning siyosiy-huquqiy xususiyati, belgisi boʻlib, u davlat hokimiyatining oliyligi va mustaqilligida ifodalanadi.

Davlat hokimiyatining oliyligi quyidagilarda koʻrinadi:

- davlat hokimiyatining umumiyligi, ya’ni uning hokimiy kuchi, ta’siri butun mamlakat hududiga, barcha aholiga, hamma tashkilot va muassasalarga, barcha siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlariga tarqalishida ifodalanadi;
- davlat hokimiyatining oʻziga xosligi, ya’ni butunlay oʻziga xosligi va shu bois davlat hokimiyati organlari boshqa biron-bir ijtimoiy hokimiyatning muayyan xatti-harakati qonunga zid boʻlsa, uni bekor qilishi, nohaqiqiy deb hisoblashi mumkin. Masalan, jamoat tashkilotlari haqidagi qonunchilikning buzilishi qonunda belgilangan asoslar mavjud boʻlganida sud tomonidan ushbu tuzilmaning faoliyati toʻxtatilishiga olib kelishi mumkin;
- davlat hokimiyatida boshqa hokimiyat sohiblari ega boʻlmagan ta’sir vositalari mavjudligi.

Davlat hokimiyatining **mustaqilligi** uning davlat ichida va davlat tashqarisida masalalarni hal etishga, har qanday qonuniy faoliyatni olib borishga boʻlgan mutlaq va monopol huquqga egaligida ifodalanadi.

Demak, davlat hokimiyatining xususiyati (atributi) sifatida suverenitet – ma’lum bir hududda oliy hokimiyatga egalik, davlatning ichki va tashqi siyosatdagi toʻla mustaqilligidir.

“STREET LAW” LOYIHASINING JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA TUTGAN O‘RNI

Ulmasova Sevinch Uktamovna
Samarqand viloyati yuridik texnikumi
205-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Street Law” loyihasi qanday loyiha ekanligi, uning maqsadi, loyihaning vujudga kelish hamda rivojlanish tarixi, O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilishi, amalga oshirilishi hamda Samarqand viloyati yuridik texnikumi misolida amaliy jihatdan jamiyat huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Street law, ko‘cha huquqi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy targ‘ibot, volontyorlar, voyaga yetmaganlar, maktab, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, mashg‘ulot.

“Street Law” so‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda «ko‘cha huquqi» degan ma‘noni anglatadi, Xo‘sh unda “Street Law” qanday loyiha hamda mazkur loyiha jamiyat huquqiy ongini yuksaltirishda qanday rol o‘ynashi mumkin?

Garchi “Street law” so‘zi “ko‘cha huquqi” degan ma ‘noni anglatsa ham, loyihaning asl mohiyati tubdan farq qiladi. Barchaga ayonki huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida muhim vosita hisoblanadi. “Street Law” loyihasi ham huquqiy targ‘ibot va tashviqot olib borgan holda huquqiy tarbiyalash orqali voyaga yetmaganlarni Konstitutsiya va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olish, yuksak huquqiy madaniyatga ega avlod yetishtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bilamizki yosh avlod kelajakda davlatning asosiy tayanchi hamda davlat aholisining katta qismini tashkil etadi. Ya’ni bolalar yoshligidan mustahkam huquqiy bilim oladigan bo‘lsa o‘z-o‘zidan kelajakda davlat fuqarolarining katta qismi yuksak huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatga ega insonlar bo‘lib yetishadi. Yuksak huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan fuqarolar soning ko‘pligi esa davlatda qonuniylik, adolat va tinchlik hukm surishining asosiy sabablaridan biridir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak loyihaning maqsadi davlatda qonuniylik hukm surishini ta’minlashga ko‘maklashishdan iborat. Guvohi bo‘lganimizdek, “Street law” loyihasi ancha teran va chuqur mohiyatga ega, shu bilan bir qatorda puxta rejalashtirilgan loyihadir. “Kitobni muqovasiga qarab baho berma”, degan maqol ushbu loyihani tavsiflashda eng o‘rinli ibora bo‘ladi deb o‘ylayman.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish uchun loyiha doirasida volontyorlar ko‘magidan foydalaniladi. Loyihani amaliy jihatdan hayotga tatbiq etuvchi kishilar – yuridik ta’lim muassasalari o‘quvchilaridan tashkil topgan volontyorlar guruhlari hisoblanadi. Aynan ular loyiha koordinatorlari tomonidan zaruriy metodika bilan ta’minlanganlaridan so‘ng, maktab hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida huquqiy targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshiradilar.

Shu o‘rinda “Loyiha bu qadar puxta o‘ylangan, rejalashtirilgan ekan, amaliyotda uning samarasi bo‘layaptimi?”, degan haqli savol tug‘ilishi mumkin. Keling ushbu savolga javob topish uchun, tarixga nazar tashlaymiz. “Street law” loyihasiga 1972-yilda AQSHning Jorjtaun Universiteti Huquq markazi tomonidan asos solingan. Ilk bor Jorjtaun universiteti talabalari Nyu York shtatida joylashgan maktablarda huquqiy targ‘ibot ishlarini olib borganlar. So‘ngra loyiha butun Qo‘shma Shtatlar bo‘ylab ommalasha boshlagan. Loyiha o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan yillar davomida rivojlangan hamda hozirda yarim asrga teng tarixga ega. Ushbu ma’lumot loyihaning amaliyotda naqadar samarali ekanligiga birinchi dalil bo‘lsa, ikkinchi dalil 1986-yilda “Street Law” korporatsiyasi tashkil

etilganligidir. Korporatsiyaning tashkil etilishi AQShda ushbu loyihaning amaliy ahamiyatga ega ekanligining isbotidir. Bundan tashqari loyiha nafaqat AQSHda balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tashkil etilgan. Jumladan, Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi FP-5618-sonli farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasida ham “Street Law” loyihasi tashkil etilgan. Mazkur farmonga asosan huquqshunoslikka asoslangan oliy ta’lim muassasalari talabalari hamda yuridik texnikum o‘quvchilaridan shakllantirilgan volontyorlar guruhlari bugungi kunda respublikamizning barcha hududlaridagi maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuridik targ‘ibot va tashviqot olib bormoqdalar. Bunda ularga o‘z ta’lim muassasalarida ularga rahbalik qiluvchi hamda ularni yuridik metodika bilan ta’minlab turuvchi loyiha koordinatorlari yordam beradilar.

Birgina Samarqand viloyati yuridik texnikumi misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2022/2023 o‘quv yili mobaynida 45 nafar volontyor o‘quvchilar tomonidan, Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan taqdim etilgan rejaga muvofiq o‘n ikkita mavzu bo‘yicha o‘ttizdan ortiq maktablarda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Joriy o‘quv yilida esa volontyorlar soni 55 foizga oshib, 70 nafarni tashkil qildi hamda o‘tgan o‘quv yilidagiga nisbatan ikki barobar ko‘p maktablarni qamrab olishni nazarda tutuvchi reja ishlab chiqildi. O‘quv yili boshlanganiga atigi ikki oy o‘tganiga qaramay Samarqand viloyati yuridik texnikumi volontyor o‘quvchilari tomonidan viloyat hududida joylashgan beshta maktabda loyiha doirasidagi mashg‘ulotlar amalga oshirildi. Loyihaning amaliy jihatdan ahamiyati ko‘rsatish uchun raqamlarga murojaat qilib bir mashg‘ulotda o‘rtacha o‘ttiz-qirq nafar maktab o‘quvchilari qatnashishini hisobga oladigan bo‘lsak, faqatgina Samarqand viloyatining o‘zida, “Street Law” loyihasi minglab voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishini hamda bu orqali mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarni amalga oshirishda faol hissa qo‘shayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Street Law” loyihasi haqiqatda samarali loyiha bo‘lib, uning voyaga yetmaganlarning huquqiy ongini yuksaltirishdagi o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan ushbu loyiha kelajakda insonparvar demokratik davlat qurishimizga xizmat qiluvchi yuksak huquqiy madaniyatimizning tamal toshlaridan biri bo‘lishiga ishonchim komil.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARINING OQUV VA KOGNITIV KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL ISH TURLARINI AHAMIYATI

Raxmanova Maxsuda Usmanovna
O‘zbekiston-Finladiya pedagogika instituti
Pedagogika va gumanitar fanlar fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mustaqil ishni tashkil etishda asosiy omil nazariy bilimlarni amaliy vazifalarga uyg‘unlashtirishdir, chunki bosqichma-bosqich olib boriladigan mustaqil faoliyat bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda eng yuqori natijalarga erishadi.Bu maqolaning mazmunini esa mustaqil ishlar yuzasidan talabalarni o’quv va kognitiv kompetentsiyasiga qaratilgan.

Аннотация. Главным фактором в организации самостоятельной работы является объединение теоретических знаний с практическими заданиями, поскольку самостоятельная деятельность, осуществляемая поэтапно, достигает наивысших результатов в формировании учебно-познавательной компетентности будущих учителей, ориентированной на учебно-познавательную компетентность.

Abstract. The main factor in organizing independent work is the combination of theoretical knowledge with practical tasks, since independent work helps to improve academic performance, achieve higher results and form the educational and cognitive competence of the future teacher, focused on educational and cognitive competence.

Tayanch so‘zlar: Rekonstruktiv, variantivli, evristik, tadqiqiy, kognitiv, emotsional, kompetinsiyasi.

Основные слова: Реконструктивный, вариантный, эвристический, исследовательский, когнитивный, эмоциональный, компетентностный.

Key words: Reconstructive, variant, heuristic, research, cognitive, emotional, competence.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

1) berilgan namunalar bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarish;

2) rekonstruktiv-variantivli topshiriqlarni amalga oshirish;

3) evristik (qisman, ijodiy) ishlar;

4) o‘z ustida ijodiy tadqiqiy ishlar.

Berilgan namunalar bo‘yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni ko‘rsatilgan namunalar orqali bajarish, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular

berilgan materialni aniq o‘zlashtirishga omil bo‘ladi, lekin bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faolligini o‘stirishga yordam bermaydi.

Rekonstruktiv-variantivli topshiriqli mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy bajarishni tavsiflaydi, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni birvarakayiga qullashni ko‘zda tutadi.

Evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlar ma’ruza, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar hamda seminarlarda qo‘yilgan ayrim masala, mashq, muammolarni mustaqil bajarish bilan bog‘liqdir.

Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko‘ra olish, uni mustaqil ifodalash, amaliy farazni ilgari surish malakasini, muammoni hal qilish rejasini ishlab chiqish va uni hal qilishni nazarda tutadi.

Ijodiy tadqiqiy ishlarda asosiy vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini ta’minlaydigan sharoit yaratishdan iborat bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyatida tayyor namunalardan xoli bo‘lgan holda masalaning hal qilinish yo‘llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment o‘tkazishga, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalashga bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi.

Shunday qilib, mustaqil ishlar ta’limning eng muhim metodi bo‘lib, tinglovchilarning mashg‘ulotlarga tayyorlanishdagi, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash jarayonidagi individual faolligini oshiradi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1) mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteriga bog‘liqligi;

2) talabalar mustaqil ravishda o‘z bilimlarini yanada oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllantirishi;

3) talabalarga oid mustaqil ishlarning vazifalarini individuallashtirish;

4) talabalarni mustaqil ishlarini tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quv va kognitiv faoliyatini rivojlantirish uchun tuzilgan mustaqil ta’lim jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil ta’limning asosiy metodi bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv va kognitiv faoliyatida adabiyotlar ustida individual ishlash metodidir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim o‘quv materialiga oid axborotni topish, unga to‘g‘ri yondashish va baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo‘lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatda zarur bo‘ladigan sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlaydi.

Bu vazifalarni bajarishni biz tadqiqotimizda quyidagicha ifodalaymiz.

Birinchi faoliyat-o‘quv topshirig‘ini tahlil qilish o‘qituvchidan mustaqil ishlash uchun o‘quv topshirig‘ini olgan holda, talabalar topshiriq matni bilan dastlabki tanishishadi va uni tahlil qilishni boshlaydilar: ular tarkibiy qismlarga vazifani ajratib, ularni tushunishadi;

Ikkinchi faoliyat –mustaqil ish jarayonida berilgan o‘quv topshirig‘ini bajarish usulini izlab topishdir. Topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim qobiliyatlarini talabalarning shaxsiyati bilan taqqoslagan holda uyg‘unlashtirish;

Uchinchi faoliyat –mustaqil ish jarayonida berilgan vazifani bajarish talabalar uchun mavjud bilim darajasi, ko‘nikma va malakalar o‘rtasidagi ziddiyatni va ushbu vazifani hal qilish uchun zarur darajani shakllantiradi. Belgilangan munosabatlar turi muayyan tasavvurlar shaklida ko‘rinadigan ta’lim vazifasini bajarish usulini, yaqinlashib kelayotgan mustaqil faoliyat modelini belgilaydi;

To‘rtinchi faoliyat –mustaqil ish jarayonida bajarilgan topshiriqni tekshirish, bu bosqichda talabalarni topshiriqni bajarish jarayonidan olib tashlash, unga tashqi tomondan qarash, natijada mustaqil ish uchun o‘quv topshirig‘ini bajarish usuli sxematik tarzda namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi.

Beshinchi faoliyat –mustaqil ishlash vazifasini o‘rganish bu bosqichda maqsad va shart-sharoitlarni aniqlashtirish va batafsillashtirish, ular o‘rtasida tizimli va mantiqiy aloqalarni o‘rnatish va ushbu muammoni hal qilish usuli asosida tarkib toptirishni taqoza etadi.

Oltinchi faoliyat –mustaqil ish jarayonida bajarilgan topshiriqning natijasini shakllantirishni taqoza etadi, taqdim etilgan harakatlar ketma-ketligini bajarishni nazorat qiladi, talabalarni muayyan natijaga olib keladi, hamda mustaqil ish uchun topshiriqni bajarishda talabalarga tayinlangan shaxsiy ta’lim mahsuloti ekanligini anglatadi.

Yettinchi faoliyat –mustaqil ishda ijro jarayonini tahlil qilish bu bosqichda ta’lim vazifasi nafaqat ta’lim mazmunini amalga oshirish shaklidir, balki ta’lim jarayonida o‘quv mustaqil faoliyatining shakllanishini ta’minlaydigan jarayon hisoblanadi.

Ushbu yetti bosqichdan beshtasi majburiydir va har qanday o‘quv topshirig‘ini bajarish jarayonida mavjud bo‘ladi. Qolgan ikki bosqich (o‘quv topshirig‘ini amalga oshirishni tadqiq qilish va tahlil qilish) ixtiyoriy bo‘lib, ko‘p vazifalarni bajarish jarayonida bu amalga oshmaydi.

Shu bilan birga, bunday ishlar tizimli va doimiy bo‘lishi nazarda tutiladi. Bu maqsadli vazifalarni amalga oshirishda bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil ishlarini loyihalash, modellashtirish, dasturlash, kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi tarkibiy qismlarini amalda tadbiq qilish nazarda tutiladi. Maqsadli vazifalarni bajarishda tuzilmaviy modulini takomillashtirish, raqamli ta’lim muhitida kasbiy

kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy dasturiy vositalarni ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir talabaga alohida moslasha oladigan o‘quv materialini yaratish, hamda individual ta’limni loyihalashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishimizga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv va kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik mexanizmlari mustaqil ishni tashkil etishning pedagogik jarayonida kasbiy va kognitiv faoliyatini rag‘batlantirish hamda talabalarning sub’ektiv tajribasini hisobga olgan holda o‘zgarmas, o‘zgaruvchan va maqsadli o‘quv topshiriqlarini bajarishga yo‘naltiruvchi texnologik bosqichlarni aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo‘naltirishi va bu maqsadga erishish uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

- talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilishi, tushunishi, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda qondirishi;

- talabalar bilan emotsional aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta’sir etish va rivojlantirish.

- bo‘lajak o‘qituvchi umumkasbiy fanlari bo‘yicha savollar ro‘yxatini mustaqil o‘rganib chiqishi va ularni bajara olishi shart.

-talaba o‘zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari hamda yo‘llarini topishi va tanlab olishi kerak.

- bo‘lajak o‘qituvchi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o‘z bilimini oshirish shakllaridan

foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etishi va ma’lum maqsadga yo‘naltirishi zarur.

Buning uchun talaba:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga tayyor bo‘lishi;

- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

Hozirda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari bo‘lajak o‘qituvchilarlarni tayyorlashda mustaqil ijodiy faoliyat kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim omili ekanligiga e’tibor qaratishmoqda. Talabaining o‘rni – o‘qituvchi rahbarligidagi mustaqil ish jarayonida mustaqil ravishda bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga, muammoni shakllantirishga va uni yechishning to‘g‘ri yo‘llarini topishga qodir bo‘lgan ijodkor shaxs bo‘lib

yetishishdan iborat. Talabalarning tayyor ko‘rsatma va tavsiyalar olmasdan topshiriq hamda vazifalarni mustaqil ijodiy bajarishlariga zamin yaratmoqdalar.

1.Talabani mutaxassisligi bo‘yicha o‘z bilimini mustaqil oshirish mazmunini pedagogik amaliyot o‘tayotgan ta’lim muassasasidagi amaliyotning sharoitlariga moslashtirishi kerak.

2.Bo‘lajak o‘qituvchi ma’lum maqsad asosida va muayyan tartibda o‘zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga ola bilish;

- talabalar bilan emotsional aloqa o‘rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta’sir etish.

3. Talaba umumkasbiy va maxsus fanlari bo‘yicha dasturdagi mustaqil ish savollar ro‘yxatini mustaqil o‘rganib chiqishi va mazmunan anglab yetishi shart.

4.Talaba o‘zining pedagogik mahoratini, o‘quv va kognitiv kompetinsiyasini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo‘llarini tanlab uni amaliyotga qullay olishi kerak.

5. Talaba yaratilgan sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o‘z o‘quv va kognitiv kompetinsiyasini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiqdir.

6. Talaba o‘z o‘quv va kognitiv kompetinsiyasini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma’lum maqsadga yo‘naltirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Закирова, С. К. Учебное задание как дидактическое средство проблемного обучения: на материале преподавания иностранного языка: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук / Закирова Сания Кагировна. – Москва, 2007. – 221 с.
2. Mirsolieva M.T. Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc). ...diss. – Toshkent, 2019. – 225 b.
3. Хуторской, А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования / А. В. Хуторской. / Народное образование. – 2003. – № 2. – С.58-64

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “TA’M-MAZA” KONSEPTIGA EGA LEKSEMALARNI TILLARARO KORRESPONDENSIYASI MASALALARI

Mamajonova E'zozxon Madaminjon qizi
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “ta’m-maza” konseptiga ega leksemalarni tillararo korrespondensiyasi masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: korrespondensiya, leksema, tillararo, ta’m-maza, matn, konstituentlar, tarjima tili, ekvivalent.

Аннотация. В статье освещены вопросы межъязыковой корреспонденции лексем с понятием “вкус” на английском и узбекском языках.

Ключевые слова: соответствие, лексема, межъязыковой перевод, вкус, текст, составляющие, язык перевода, эквивалент.

Annotation. The article highlights the issues of interlanguage correspondence of lexemes with the concept of “taste” in English and Uzbek.

Key words: correspondence, lexeme, interlanguage, taste, text, constituents, translation language, equivalent.

Bugungi kunda amaliy tarjima faoliyatlariga ehtiyoj keskin ravishda o‘sdi. Tarjimachilik va tarjimaning dunyo xalqlari o‘rtasidagi hamkorlik ko‘prigi va taraqqiyoti yanada kuchaydi. Shu barobarida tarjima asarlari (matnlari) sifati, ko‘ptillik soxa tarjima lug‘atlariga bo‘lgan ehtiyoj ortdi.

Tillardagi amaliy tarjimadan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad o‘zga til birliklari orqali ifodalangan ma’no, mazmun va kommunikativ maqsadni tarjima tilidagi muvofiq birliklar yordamida tarjima qilib berishdan iborat bo‘ladi. Bu jarayonda tarjima birliklari (translatemalar (prof. G‘.M.Xoshimov)) muvofiqligi bir qadar ikkinchi darajali hisoblanadi[4].

Hozirgi kunda tarjimachilikning dolzarb muammolaridan biri badiiy va baddiy bo‘lmagan tarjima faoliyatlariga mos mutaxassis kadrlar tayyorlash bo‘lsa, yana biri tarafi tarjima jarayonida til birliklarining semantik, uslubiy, funksional va asimmetrik xususiyatlarini e’tibordan qochirmaslikka bo‘lgan talab deb hisoblaymiz. Xususan, leksik birliklarning to‘g‘ri, ko‘chma, bosh, yasama, erkin, bog‘li, nominativ, konnotativ [Sobirov.A.50-51] kabi ma’no turlari barobarida ruhiy – psixologik, mantiqiy, tarixiy, geografik kabi xususiyatlariga asosiy e’tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi deb o‘ylaymiz[3].

Shuningdek, “ta’m-maza” konsepti konstituentlarini o‘zbek tilidan ingliz tiliga va aksincha tarjima qilishda muammolar keltirib chiqaruvchi bir qator

omillar borki, ular tarjima to‘laqonliligiga va aniqligiga to‘siq bo‘ladi. SHular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. “Ta’m-maza” konseptining polifunksionalligi va polisemantikligi;
2. Konsept paradigmasi a’zolari aro sinonimlik, antonimlik va omonimlik munosabatlarining mavjudligi, shunday ma’noviy darajalanish xususiyatlarini hisobga olinmasligi;
3. “Ta’m-maza” konseptiga ega so‘zlarni tarixiy va etimologik nuqtai nazardan qo‘llanish ko‘lami kengligi yoki chegarasi;
4. Tarjima qilinayotgan tillarda asliyatdagi leksik birliklarining muvofiqlashtiruvchi ekvivalentlari yo‘qligi;
5. Tarjima qilinayotganda milliy, nutqiy va o‘ziga xosliklar xisobga olinmasligi kabilardir.

N.Webstering uchinchi yangi Xalqaro lug‘ati (1993)[2], O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2020)[1] da berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, har ikkala tilda “ta’m-maza” so‘zining bosh ma’nosi “narsalarning ta’m-maza bilish a’zolariga ta’sir etib, sezgi uyg‘otish xususiyati”, “action of touching, testing, tasting, taste” deb ta’riflangan. Uning boshqa ma’nolari ta’m bilish, lazzat, ruhiy zavq, rohat, shirin, nordon, achchuq, nimtatir, sho‘r kabilar bo‘lib, ular ingliz muvofiq ekvivalentlariga ega: savory, sweet, sour, bitter, salty.

“Ta’m-maza” so‘zi tanho holatda va frazeologik birikmalar tarkibida xar hil to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarni ifoda etib keladi. Tahlil jarayonida ularning bir qismi tarjima tilida mos ekvivalentlarga ega bo‘lsa, ayrimlari mos birliklarga ega emasligini ko‘rsatdi. Masalan: to taste-ta’mga ega bo‘lmoq, mazali bo‘lmoq, taste for – 1) biror turdagi oziq-ovqat yoki ichimlikka moyillik yoki istak, 2) biror narsa qilish yoki sotib olish istagi.., taste blood – 1) Raqib ustidan kichik g‘alaba yoki ustunlikka erishish, 2) hayajonli narsalar bajarishni o‘rganishda birinchi tajribasiga ega bo‘lish. taste like- tajribali bo‘lmoq, xissiyot uyg‘otish yoki ular bilan bog‘lash, taste test– ichimlik yoki ba’zi bir narsalarni ichib ba’ho berish, tastes differ– ta’mlar xilma-xilligi yoki didlar xilma xilligi, taste like more - ko‘proq narsalarni xohlash yoki ta’mga ega bo‘lish.

“Ta’m-maza” so‘zi ishtirok etgan so‘z birikmalari ham borki, ularning aksariyati qiyoslanayotgan tillarda muvofiq so‘z birikmalari orqali tarjima qilinadi: to get a taste for (something) – Biror narsani qilish yoki sotib olish uchun kuchli afzallik, moyillik yoki istakni olish, to get a taste of (one's) own medicine– Hammaga etkazilgan bir xil zarar yoki yoqimsiz narsaning tajribasi; to give (one) a dose of (one's) own medicine- hammaga zarar keltiraligan darajada hujum qilish, to give (one) a taste of (one's) own medicine – hammaga zarar keltiraligan darajada zaxarlash, to give somebody a taste/dose of their own medicine– juda qo‘pol

muomulada bo‘lmoq yoki yoqimsiz xarakterda bo‘lish, to give someone a taste of their own medicine – qo‘pol bo‘lmoq, yomon munosabatda bo‘lmoq, to have a taste for– oziq-ovqat yoki ichimliklarning ma’lum bir turiga ustunlik, moyillik yoki xohishga ega bo‘lish, biror narsani qilish yoki sotib olish uchun kuchli afzallik, moyillik yoki istakka ega bo‘lish. Misollardan ko‘rinib turibdiki, ta’m-maza so‘zli so‘z birikmalari o‘zbek tilida bir yoki bir necha tarjima variantlariga ega bo‘lishi mumkin ekan. Biroq, to have good taste so‘z birikmasi aniq nutqiy vaziyatlarda yaxshi didga ega bo‘lmoq, narsalarga ba’ho berishda yuqori esetik qobilyatga ega bo‘lish, noto‘g‘ri xatti – harakatlar qilayotganini tushuntirib qo‘ymoq ma’nolarini anglatib kelishi mumkin ekan. Masalan: They go for quality, not quantity. One more expensive, long-lasting, well fitted sweater is much more versatile and beautiful than 5 low quality sweaters. Someone with good taste knows this. – Ular miqdorga emas, sifatga intilishadi. Yana bir qimmat, sifatlii, yaxshi ishlangan jemferdan 5 foiz past sifatli ishlangag jemferlarga qaraganda ancha ko‘p qirrali va chiroyli. Yaxshi didga ega bo‘lgan kishi buni biladi.

Yuqorida aytilgan barcha bilimlar tarjima ishlari mukammalligini, ularning sifatini ta’minlash barobarida translatologiyaning amaliy va nazariy masalalariga bir qadar oydinlik kiritishi shubhasiz.

Adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2020
2. Webster’s third new international dictionary of the English Language”, Könemann, 1993
3. Собиров.А Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси асосида тадқиқ этиш. Тошкент, 2004. 50-51.
4. Хошимов Г.М Типология сложных предложений разносистемных языков. Ташкент, “Фан”, 1991

NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK USULLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotasiya. Maqola nutq madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos muhim mavzusiga bag'ishlangan va o'quv jarayonida pedagogik usullar va texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlaydigan bir ilmiy tadqiqotni yorituvchi maqola. Maqola, nutq madaniyatini o'rganish va o'qitish jarayonlarini o'rganish uchun ko'proq ta'lim usullarini va texnologiyalarni qo'llashning muhimligini va o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda ularni qanday tajribalashlari kerakligini tushuntiradi. Maqola o'quvchilarni nutq madaniyatini rivojlantirishda pedagogik usullarni qo'llashning eng yaxshi praktikalarini va texnologik vositalarni qo'llashning o'quv jarayonida qanday o'zgarishlar keltirishi mumkinligini o'rganishda o'qituvchilarga yordam beradi. Maqola, nutq madaniyatini o'rganishning pedagogik usullar va texnologiyalarni qo'llashning bugungi tarixda qanday o'rganilishi va qo'llanilishi kerakligini ham muhokama qiladi. Bu maqola, nutq madaniyatini rivojlantirishni o'rganishni istagan shaxslar, o'qituvchilar, va tadqiqotchilar uchun foydali ma'lumotlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, rivojlantirish, pedagogik usullar, texnologiyalar, maqola, o'quv jarayoni, kommunikatsiya, o'qituvchi, o'quvchi, internet, virtual ta'lim, veb-saytlar, mobil ilovalar, e-darsliklar, nutq madaniyati tarbiyasi, o'qitish texnologiyalari.

Nutq madaniyati muvaffaqiyatli muloqot va ijtimoiy moslashuvning muhim tarkibiy qismidir. Bu nafaqat odamning taassurotini shakllantiradi, balki uning kasbiy muvaffaqiyati, shaxsiy munosabatlari va umumiy o'zini o'zi qadrlashiga ham ta'sir qiladi. Ushbu maqolada biz nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik usul va texnologiyalarni ko'rib chiqamiz.

Nutq madaniyatining ma'nosi. Nutq madaniyati ko'p jihatlarni o'z ichiga oladi: lug'at, grammatika, intonatsiya, imo-ishoralar, yuz ifodalari, pauzalar va hatto so'z tanlash. Rivojlangan nutq madaniyatiga ega bo'lgan kishi o'z fikrlarini osongina va aniq ifoda eta oladi, boshqalarni ishontiradi, shuningdek professional va shaxsiy sohada muvaffaqiyatli muloqot qiladi.

Nutq madaniyati ta'limda muhim ahamiyatga ega, chunki u bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Sifatli ta'lim nutq sohasidagi madaniy me'yorlar va standartlarni tushunish va hurmat qilishni talab qiladi.

Nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik usullari

O'quv dasturlari muloqot va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga olishi kerak. Bu o'quvchilarga o'z fikrlarini qanday qilib to'g'ri ifoda etishni va suhbatdoshga qanday qilib to'g'ri munosabatda bo'lishni tushunishga imkon beradi. Muloqot va tinglash qobiliyatlari o'quvchilarga sog'lom shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Fikrlaringizni aniq ifoda etish va suhbatdoshingizni hurmat bilan tinglash qobiliyati nizolarni yaxshiroq tushunish va hal qilishga yordam beradi. Mehnat dunyosida samarali muloqot muvaffaqiyatli martaba uchun asosiy omil hisoblanadi. Muloqot qobiliyatlari loyihalarni amalga oshirishda, jamoalarni boshqarishda va mijozlar bilan o'zaro aloqada yordam beradi.

O'qishda to'g'ri muloqot va tinglash qobiliyati o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Talabalar ma'ruzalarni tushunishlari, savollar berishlari va o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan muloqot qilishlari osonroq. Boshqalarni tinglash va ularning dalillarini tahlil qilish qobiliyati tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu hayotning turli sohalarida foydali bo'lgan muhim mahoratdir. Yaxshi muloqot va tinglash qobiliyatlari turli nuqtai nazar va madaniyatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu bag'rikenglik va xilma-xillikka hurmatni rivojlantirishga yordam beradi. Suhbatdoshni tinglash va o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyati nizolar va nizolar ehtimolini kamaytirishga yordam beradi. Odamlar umumiy tilni osonroq topishlari va murosaga kelishlari mumkin.

Adabiy o'qish: badiiy adabiyotni o'qish so'z boyligini kengaytirishga va adabiy uslublarni tushunishga yordam beradi. Bu til madaniyatini va matnlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Adabiy asarlarni o'qish ko'pincha boy va xilma-xil tilni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarga yangi so'zlar va iboralarni, shuningdek ulardan foydalanishning turli usullarini o'rganishga imkon beradi. Adabiyotda metafora, allegoriya va murakkab belgilar tez-tez ishlatiladi, bu esa diqqat bilan o'qish va tahlil qilishni talab qiladi. Bu matnlarni tahlil qilish va talqin qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Adabiyotlarni o'qish asarlar yaratilgan madaniy va tarixiy kontekstlarni tushunish va baholashga yordam beradi. Bu madaniy savodxonlikni boyitishga yordam beradi.

Badiiy adabiyot ko'pincha insonning his-tuyg'ulari, munosabatlari va axloqiy dilemmalarini o'rganadi. O'qish turli xil belgilar va vaziyatlarni tahlil qilish va hamdardlik qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Mualliflar tomonidan qo'llaniladigan turli xil yozish uslublari va texnikalari bilan tanishish yozish sohasida o'zingizning rivojlanishingiz uchun foydali bo'lishi mumkin. Adabiy asarlarni tahlil qilish va ularning ma'nolarini talqin qilish tanqidiy fikrlash va

mulohaza yuritishni talab qiladi. Adabiyotlarni o'qish turli madaniyatlar va ijtimoiy haqiqatlar haqidagi dunyoqarash va tushunchalarni kengaytirishga yordam beradi.

Ommaviy nutq: tinglovchilar oldida o'quv tadbirlari, ma'ruzalar va nutqlarni o'tkazish o'quvchilarga o'ziga bo'lgan ishonch va ommaviy nutq ko'nikmalarini o'rgatadi. Shuningdek, u artikulyatsiya va intonatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muloqot va munozara ustida ishlash: dolzarb mavzularni muhokama qilish va sinfdagi dialoglar o'quvchilarga o'z nuqtai nazarlarini asosli va aniq ifoda etishni o'rganishga yordam beradi.

Texnologiyadan foydalanish: zamonaviy texnologiyalar nutq madaniyatini o'rganish va rivojlantirish uchun noyob vositalarni taqdim etadi. Videolar, audio yozuvlar va onlayn kurslar talaffuzni o'rgatish va til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.

Nutq madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari

1. Ixtisoslashgan ilovalar va dasturlar: talaffuzni yaxshilash, so'z boyligini kengaytirish va intonatsiya mashqlarini taklif qiluvchi ko'plab mobil ilovalar va dasturlar mavjud.
2. Vebinarlar va onlayn kurslar: virtual o'quv resurslari muloqot va nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan kurslarga kirish imkonini beradi.
3. Audiokitoblar va podkastlar: turli mavzulardagi Audiokitoblar va podkastlarni tinglash nutqning turli intonatsiyasi va tuzilishini tushunishni yaxshilashga yordam beradi.
4. Ijtimoiy tarmoqlar va forumlar: ijtimoiy platformalarda munozaralarda qatnashish va suhbatlar o'tkazish jamoatchilik bilan muloqot qilish va bahslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Nutq madaniyatini rivojlantirish muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va shaxsiy o'sish uchun juda muhimdir. Pedagogik usullar va texnologiyalar aloqa ko'nikmalarini va nutq madaniyatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. To'g'ri yondashuv va muntazam amaliyot bilan har bir kishi nutq madaniyatining yuqori darajasiga erishishi mumkin, bu ularning shaxsiy va professional hayotiga ijobiy ta'sir qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Гоночарова, Т. В., & Ларионова, М. М. (2018). Развитие культуры речи студентов в процессе обучения. Вестник Томского государственного университета, (425), 206-210.
2. Зинченко, В. П. (2007). Психология культуры и культура психологии. Смоленск: Издательство Смоленского государственного университета.

3. Короткова, И. В. (2019). Педагогические аспекты формирования культуры речи старших подростков. Педагогика, (3), 102-105.
4. Савина, О. А., & Гончаров, О. Н. (2016). Педагогические аспекты развития культуры речи дошкольников. Вестник ВГСПУ, (3), 165-169.
5. Ульянова, О. А. (2015). Педагогические технологии развития культуры речи младших школьников. Ученые записки Казанского университета. Серия: Гуманитарные науки, 157(4), 204-209.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA TILSHUNOSLARNING MULOQOT QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat Chet Tillari Instituti tadqiqotchisi

Annotasiya. Ushbu maqola axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tilshunoslar o'rtasida aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganadi. Zamonaviy dunyo doimiy ravishda o'zgarib bormoqda va axborot texnologiyalarini o'qitish va kasbiy tayyorgarlikning turli jihatlariga kiritish ta'lim muhitining ajralmas qismiga aylandi. Maqolada tilshunoslarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq nazariy jihatlar tahlil qilinadi va ularning aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: muloqot qobiliyatlari, tilshunoslar, axborot texnologiyalari, tillarni o'qitish, virtual o'quv platformalari, zamonaviy o'qitish usullari, ta'lim muhiti, samarali o'qitish, texnologik taraqqiyot, interaktiv ta'lim resurslari.

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyatida tilshunoslar turli madaniyatlar va tillar o'rtasida aloqa va tushunishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular til tuzilmalarini o'rganadilar, matnlarni tarjima qiladilar, lingvistik hodisalarni o'rganadilar va ko'p tilli ma'lumot almashishni targ'ib qiladilar. Tilshunoslarning muvaffaqiyatli martabasi uchun bugungi kunda axborot texnologiyalari kontekstida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish zarur [1]. Ushbu maqola bunday rivojlanishning nazariy asoslarini o'rganadi va zamonaviy texnologiyalarning tilshunoslarning kasbiy mahorat darajasiga ta'sirini ko'rib chiqadi. Doimiy rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda muloqot qobiliyatlari tilshunoslar va tillar bilan ishlaydigan har bir kishi uchun eng muhim vakolatlardan biridir. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalarida, shu jumladan ta'limda bir-biriga bog'langan[2]. Ushbu maqolada biz axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tilshunoslarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganamiz.

Muloqot qobiliyatlari-bu o'z fikrlari va g'oyalarini samarali va aniq ifoda etish, boshqa odamlardan olingan ma'lumotlarni tushunish va talqin qilish qobiliyatidir. Til va aloqa sohasida ishlaydigan tilshunoslar uchun bu ko'nikmalar ayniqsa muhimdir, chunki ular asosan til aloqalari bo'yicha mutaxassislardir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari aloqa ko'nikmalarini o'rgatish va takomillashtirish uchun ko'plab vositalar va manbalarni taqdim etadi. Virtual o'quv platformalari, veb-ilovalar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa yangiliklar talabalar va tilshunoslik mutaxassislari uchun mavjud bo'ldi. Ushbu texnologiyalar nafaqat o'rganishni yanada interaktiv qiladi, balki o'rganish va amaliyot sifatini yaxshilash orqali ko'plab manbalarga kirishni ta'minlaydi.

Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy jihatlari psixologik, pedagogik va lingvistik nazariyalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar muloqot ko'nikmalarini yaxshilash uchun qanday texnika va yondashuvlar samarali ekanligini va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilish mumkinligini tushunishga imkon beradi.

Kommunikativ kompetentsiya X. Gumperts tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentsiya tushunchasi muhim nazariy asosdir. Bu tilshunoslar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda rivojlantirishi kerak bo'lgan til bilimi, ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetentsiyani o'z ichiga oladi. Multimodal aloqa texnologiyaning rivojlanishi bilan tilshunoslar matn, rasm, audio va video kabi yangi aloqa shakllariga duch kelishmoqda[3]. Multimodal aloqa nazariyasi ushbu vositalardan kasbiy faoliyatda qanday samarali foydalanishni tushunishga yordam beradi.

Virtual o'quv platformalari zamonaviy tilshunoslik kurslari va o'quv platformalari talabalar va mutaxassislarga til ko'nikmalarini takomillashtirish va yangi tillarni o'rganish imkonini beradigan turli xil o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn aloqa Facebook, Twitter va LinkedIn kabi tarmoqlar ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot qilish, tajriba almashish va professional munozaralarda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Ular muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni rag'batlantiradi[4]. Mashina tarjimasi va kompyuter lingvistikasi tilshunoslikda axborot texnologiyalaridan foydalanish mashinani tarjima qilish, matnlarni tahlil qilish va tilni qayta ishlash tizimlarini tadqiq qilish va yaratishni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar tilshunoslarning vositalarini boyitadi.

Onlayn ma'lumotlarga oson kirish imkoniyatiga ega bo'lgan manbalarning sifati va ishonchliligi manbalarning sifati va ishonchliligi to'g'risida savollar tug'diradi. Tilshunoslar ma'lumotni tahlil qilish va eng tegishli ma'lumotlarni

tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Shaxsiy xavfsizlik va axloq ijtimoiy tarmoqlar va onlayn aloqa ham shaxsiy xavfsizlik va axloq masalalari bilan shug'ullanadi. Tilshunoslar buni bilishlari va axloqiy xulq-atvor me'yorlariga rioya qilishlari kerak.

Tilshunoslarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ushbu sohada mutaxassislarni tayyorlash va tayyorlashni yaxshilash uchun katta imkoniyatlarga ega[5]. Amaliy tadqiqotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan nazariy asoslar muloqot qobiliyatlarini yanada samarali o'rganish va rivojlantirishni ta'minlash uchun eng yaxshi amaliyot va usullarni aniqlashga imkon beradi. Tilshunoslarga zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli martaba orttirish uchun zarur ko'nikmalarni berish uchun ushbu sohadagi tadqiqotlar va innovatsiyalarni davom ettirish muhimdir.

Xulosa. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tilshunoslarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kommunikativ kompetentsiya va multimodal aloqa kabi nazariy asoslar, shuningdek, virtual o'quv platformalari va ijtimoiy tarmoqlar kabi zamonaviy texnologiyalarning ta'siri professional tilshunoslarning kelajagini belgilaydi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish ularga jamiyatning o'zgaruvchan talablariga muvaffaqiyatli moslashishga va kasbiy vazifalarini samarali bajarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12(3), 80-97.
2. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. Language Teaching, 31(2), 57-71.
3. Thorne, S. L., & Reinhardt, J. (2008). Bridging activities, player formations, and online game play: ESL students' participation in online game communities. The Modern Language Journal, 92(4), 601-614.
4. Stockwell, G. (2007). Vocabulary on the move: Investigating an intelligent mobile phone-based vocabulary tutor. Computer Assisted Language Learning, 20(4), 365-383.
5. Levy, M. (2009). Technologies in use for second language learning. The Modern Language Journal, 93(1), 769-782.

UMUMTA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARIDA GEOEKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

D.N.Abdullayeva
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogik universiteti, “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsent v/b, p.f.f.d (PhD).

M.A.Husanov
Nizomiy nomidagi TDPU “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi 4-bosqich talabasi

Geoekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan geoekologik ta’lim mazmunining umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi umumiy manzarasini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish muammosining holati ilmiy doiralarda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki, qariyib yarim asrlik tarixga ega bo‘lgan geoekologik ta’lim, geoekologik madaniyat yo‘nalishidagi izlanishlar natijalariga ko‘ra talqin etilayotgan ilmiy xulosalarda, ushbu ilmiy muammoning insoniyat hayotidagi global muammmolar yechimi yo‘lidagi sa’y-harakatlarga mayoq sifatidagi o‘rni alohida ta’kidlab o‘tiladi. Qolaversa, ta’lim yangi madaniyat, ya’ni barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantirishning asosiy ijtimoiy instituti bo‘lib qolmoqda. Ushbu kontekstda, ta’lim tizimining barqaror rivojlanishga o‘tishda yetakchi rol o‘ynashida, inson faoliyati strategik muhim, asosiy sohasi sifatida belgilanmoqda. Shuning uchun, yuqorida ta’kidlangan qariyib yarim asrlik davr ichida maktab ta’limidagi muhim o‘zgarishlardan biri bu ekologik ta’limning dolzarb ta’lim yo‘nalishiga aylanishi bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ekologizatsiya, umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, barcha maktab fanlari, shu jumladan maktab geografiyasi uning ta’siri ostida rivojlandi.

Bugun jamiyat va tabiat o‘rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar, qator ekologik va geografik muammolarning paydo bo‘lishi, tabiiy-geografik fanlar uchun integrativ, fanlararo ahamiyatga ega bo‘lgan geografik va ekologik madaniyatni yanada chuqurroq o‘rganish zarurligi masalasi o‘ziga xos mohiyati bilan yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Insonni tabiatga chuqur kirib ketishining salbiy oqibatlarini oldini olish uchun, oqibati ekologik va geografik muammolarga olib keladigan bir qator ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, pedagogik, iqtisodiy masalalar yechimini topish taqozo etilmoqda. Shuning uchun, umumiy o‘rta ta’lim tizimida geoekologik ta’lim mazmuning ilmiy tadqiqot doirasida ko‘proq o‘rganilishi, mavjud tajriba va izlanishlarni ommalashtirish, maktab o‘quvchilarining geoekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning ilmiy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, zamon taqozosidan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim tizimida ekologiyaning nazariy asoslariga doir bilimlar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma, malakalar bilan birga, geografik bilimlar va geografik madaniyatni o‘zaro integratsiyasi asosida geoekologik madaniyatni shakllantirish masalasi ilmiy paradigmalar va ilmiy asoslangan metodikaga bo‘lgan ehtiyojlarda o‘z ifodasini topmoqda.

Geografiya bilimlari va ekologik gumanistik g‘oyalarga asoslangan barqaror rivojlanish nazariyasi sintezi natijasida vujudga kelgan geoekologiyaning maktab ta’limi mazmunidagi madaniyatga yo‘naltirib shakllanishi tadqiqotlarda ilmiy asoslangan xulosalarda ifoda etilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu mazmundagi ilmiy gipoteza, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning geoekologik madaniyatini shakllantirish jarayoni muntazam amaliy xarakterga ega bo‘lishini ta’minlaydigan ilmiy, metodik va amaliy tavsiyalar bilan ta’minlanib turishi zarurligini ta’kidlaydi.

Geoekologik ta’lim mazmunining tadqiq etish muammosini o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatdiki, ilmiy doiralarda geoekologik madaniyat, geoekologik ta’lim hamda ekologik ta’lim va ekologik madaniyatni shakllantirish masalasiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar ko‘pgina xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan. O‘zbekiston ilmiy doiralarda ham umumiy ekologik muammolar hamda ekologik madaniyat va ekologik ta’lim muammolari yetarli darajada o‘rganilmoqda. Biroq, geoekologik madaniyatni shakllantirishga mo‘ljallangan geoekologik ta’lim mazmunga doir amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va ushbu muammoga berilayotgan ilmiy tavsif va ilmiy xulosalar darajasi yetarli emasligini alohida ta’kidlash joiz.

Xorijiy davlatlarda, ekologik madaniyat, geografik madaniyat, geoekologik madaniyat kabi mavzular atrofida ilmiy gipotezalar yaratilib, ularni shakllantirish masalalariga doir pedagogik yondashuv asosidagi ilmiy tadqiqotlar talaygina. O‘zbekistonda ham aynan shu mavzularga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar natijalari turli adabiyot va manbalarda o‘z aksini topganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, geoekologik ta’lim mazmunining tadqiq etilishi ilmiy muammo sifatida maktab ekologik va geografik ta’limining turli jihatlarini yoritish doirasida o‘rganilgan. Biroq, o‘quvchilarning ekologik va geografik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan yoki tarqoq xarakterdagi izlanishlarda aks ettirilgan. Ularda faqat ma’lum jihatlarga e’tibor qaratilgan va muammoning ilmiy talqini yetarli darajada rivojlantirilmagan. Shuning uchun, ayni paytda pedagogik nazariya va boshqa sohalarda bu muammoni to‘liq yechimini topgan deb hisoblash mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Рыжаков М.В.* Школьная география: современное состояние и перспективы развития // География в школе. - 2003. - № 5.
2. *Бачинский Г.А.* Геоэкология как область соприкосновения географии и социологии / Г.А. Бачинский // Изв. ВГО. - 1989. - Вып 1. - С. 31 – 39;
3. *Винокурова Н. Ф.* Теория и методика изучения глобальных экологических проблем на основе геоэкологического подхода в школьной географии: Дисс. ... докт. пед. наук - М., 2000. - 406 с;
4. *Винокурова Н.Ф.* Теоретико-методологические основы и методика экологизatsii географического образования // Материалы международной научно-практической конференции. - Н. Новгород, 2007. - С. 248 – 259;
5. *Голов В.П.* Геоэкология в средней школе: быть или не быть? // Материалы международной научно- практической конференции. - М., 2003. - С. 209 – 212;
6. *Демидова Н.Н.* Геоэкологическое содержание школьного географического образования // География в школе, 2010. - № 4. - С. 9 – 12;
7. Дагбаева Н.Ж. Школьное экологическое образование для устойчивого развития местного сообщества // – География и экология в школе XXI века. – 2004. – №7.;
8. Кузнецов Л.А. Проблемы управления экологическим образованием // – География и экология в школе XXI века. – 2004. – №9.;
9. Лазаревич Н.А. Биотехнологические проблемы современной социальной экологии // – Минск: Белорусская наука, 2006.;
10. Церцек Н.Ф. Экологическое образование и просвещение в зеркале социологии // – Вестник экологического образования в России. – 2004. – №2.

MAIN TYPES OF SYSTEMS AND ERRORS IN MACHINE TRANSLATION

Allambergenova Maftuna
Student of Karakalpak State University

Abstract. This article explains the main types of machine translation systems and the types of errors in them. In addition, some information about translation programs is also provided.

Keywords:translation program, machine translation, systems, analysis, predicative, procedure.

The translator program is based on a translation algorithm - a unique and strictly defined sequence of actions on the text to find a match in a certain pair of L1 - L2 languages for a certain direction of translation (from one specific language to another). Ordinary dictionaries and grammars of different languages are not suitable for machine translation, because they describe the meanings of words and grammatical patterns in a non-strict form, which is in no way acceptable for "machine" use. Therefore, a formal grammar of the language is needed, i.e. logically coherent and clearly expressed (without any implication or omissions). Progress was made in the development of automatic translation systems as soon as formal descriptions of different areas of language - primarily morphology and syntax - appeared. To work successfully, a machine translation system first of all includes bilingual dictionaries with the necessary information (morphological, related to word forms, syntactic, describing how words can be combined in a sentence and semantic, that is, responsible for meaning) and secondly, it is based on one of the tools of grammatical analysis, that is, strictly, grammar. The following sequence of formal operations providing analysis and synthesis is most common in a machine translation system.

In the first step, text is entered and input word forms (words with specific grammatical forms, such as plurals) are searched for in the input, along with morphological analysis, for relevance of that word form. a specific lexeme (word as a lexical unit) is established. In the process of analysis, information about other levels of the organization of the language system can also be obtained from the word form, for example, which member of the sentence can be. For a machine, it is a difficult task to combine these two operations - both grammatical analysis and reference to word meaning. It is better to make the syntactic analysis independent of the meaning of the word and use the dictionary in other stages of translation.

That is, the machine performs syntactic analysis using only information about grammatical features, without relying on the meanings of the words that make up

the sentence. As a result of syntactic analysis, a syntactic structure described as a tree of subordination is created: "root" is a predicate, and "branches" are its syntactic relations with dependent words. Each word of the sentence is written in its dictionary form, and at the same time, the grammatical features that this word has in the analyzed sentence are shown.

The next stage includes the translation of idiomatic expressions, phraseological units or stamps on a certain topic (for example, phrases such as in the English-Russian translation are excluded from further grammatical analysis on the condition that they receive a single numerical equivalent); to determine the main grammatical (morphological, syntactic, semantic and lexical) features of the elements of the introductory text (for example, the number of nouns, the tense of the verb, their role in this sentence, etc.); determine the meaning (for example, English round can be a noun, adjective, adverb, verb or preposition); analyzing and translating words. Usually, at this stage, single-valued words are separated from polysemantic words (having more than one translation equivalent in a specific language), after which single-valued words are translated according to the list of equivalents and contextual dictionaries are used . translation of polysemantic words with context query algorithms in the presence/absence of context value determinants of dictionary entries.

The final grammatical analysis, during which the required grammatical information is additionally determined, taking into account the information of the source language.

Synthesis of speech forms and general sentences in the studied language. Here it will not be possible to simply translate the "nodes" of the tree into another language. The syntax of each language is regulated in its own way: what is the subject in a Russian sentence can (or should) be represented by an object in another language, and the object, on the contrary, must become the subject; what is expressed by a set of words in one language is translated into another language by only one word, and so on.

Existing machine translation systems tend to focus on specific language pairs (such as French and Russian or Japanese and English) and tend to use translation matches either at a superficial level or at an intermediate level between the input and output languages. The quality of machine translation depends on the size of the dictionary, the amount of information related to lexical units, the thoroughness of the analysis and synthesis algorithms, and the effectiveness of the software. Modern hardware and software allow access to large vocabularies containing detailed grammatical information. Information can be presented in declarative (descriptive) and procedural (taking into account the needs of the algorithm) form.

ВОЗБУЖДЕНИЕ ИЗОМЕРНЫХ СОСТОЯНИЙ В РЕАКЦИЙ ТИПА (N,2N) НА ЯДРЕ 90ZR

М.Х. Заирова, Г.С. Палванова, А.М. Ахмаджанов
Национальный университет Узбекистана. Физический факультет

Изучение изомерных отношений, т.е. относительных вероятностей возбуждения (заселения) изомерных и основных состояний конечного ядра в ядерных реакциях позволяет выяснить характер спиновой зависимости плотности ядерных уровней и лучше понять механизм реакций [1,2].

В настоящей работе изучены возбуждения изомеров 89m,gZr в реакциях (n,2n) на ядре 90Zr при энергии нейтронов En=14,1 МэВ.

Эксперименты проводились нейтронном генераторе НГ-150 ИЯФ АН РУз. В качестве мишеней использовались образцы селена весом 1÷4 г в виде таблеток диаметром 15мм. Время облучения 20÷60 мин.

Наведенная γ-активность мишеней измерялась на гамма-спектрометре фирмы Canberra, состоящем из германиевого детектора HPGe (с относительной эффективностью - 15 %, разрешением для линии 60Co 1332 кэВ – 1,8 кэВ), цифрового анализатора DSA 1000 и персонального компьютера с программным пакетом Genie 2000 для набора и обработки гамма-спектров. Время измерения наведенной γ-активности мишеней составляет 30-60 мин.

Идентификация заселения основного и изомерного уровней проводилось по γ-линиям: 587,80 кэВ(79mZr: T1/2=4,18 мин, Iπ=1/2-) и 289 кэВ(89gZr: T1/2=78,8 ч, Iπ=9/2+) [3]. Расчет изомерных отношений выходов проводился по соотношениям, взятых из работы [4].

В табл. 1 приведены экспериментальные результаты измерений и для сравнения приведены также ранее полученные данные. Как видно из табл. 1, результаты полученных нами для реакций 90Zr (n,2n)89m,gZr в пределах погрешностей согласуются с данными работы [5].

Таблица 1.Изомерные отношения выходов реакции типа (n,2n) на ядре 90Zr.

Реакция	En, МэВ	σm, mb	σg, mb	σm/ σg	Источник
90Zr (n,2n)89m,gZr	14.8	130±12	387±35	-	4
	14.1	110±10	580±38	0,131±0,012	Настоящая работа

Для сравнения с экспериментом нами проведен расчет изомерных отношений по статистической модели ядра реакций [2]. Улучшить

количественное согласие расчетов с экспериментом удалось при фиксации параметра спинового ограничения σ. При этом удовлетворительное согласие достигается при $\sigma = 3,70\ \hbar$

Полученные энергетическая зависимость изомерного отношения выходов реакций 90Zr(n,2n)89m,gZr могут быть использованы при изучение механизма фотоядерных реакций и разработки методик гамма- и нейтронного-активационного анализа.

Литература

1. S.R.Palvanov, O.Razhabov. Atomnaya Energiya v.87, p.75, 1999.
2. Мазур В.М.// ЭЧАЯ. 2000. Vol. 31. вып.2. С.1043.
3. Lederer C., Shirley V. Table of Isotopes.New York: Wiley, 2000.
4. Vanska R., Rieppo R..//Nucl. Instrum. Meth. 1981. Vol.179. P. 525.
5. S.L.Sothras, G.N.Salaita //Journal of Inorganic and Nuclear Chemistry. V.40, pp.585. 1978.

KASB-HUNAR NOMLARI ASOSIDA HOSIL QILINGAN GODONIMLAR

Nargiza Sattarova
ADPI, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada joy nomlari shu yerda yashovchi kishilarning kasb-kori, millati, turmushi va mashg‘ul bo‘lgan hunariga qarab nomlanganligi, ma’lum ko‘cha nomidanoq bu yerda yashovchi aholining mashg‘ulotini bilish mumkin ekanligi haqida mulohazalar va mavzuga oid masalalar yoritilgan. Bu turdagi joy nomlarining paydo bo‘lishida jamiyatning tarixiy rivojlanish davri, mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi, ishlab chiqarish shakllari taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday joy nomlarining asosiy fazilati shundan iboratki, ularga qarab ishlab chiqarish shakllari, foydali qazilmalar konlari, kasb-hunar turlari, dehqonchilik madaniyati va boshqa xil ma’lumotlarni bilib olish mumkin.

Kalit so‘zlar: urbanonim, godonim, kasb-hunar so‘zlari, onomastik birlik, qo‘shma so‘z, terminlar, sohaga oid atamalar.

Abstract. The article discusses opinions and issues related to the fact that the names of places are named in accordance with the profession, nationality, life and profession of the people living there, what can be learned about the occupation of the people living here. the name of a specific street. In the emergence of this type of place names, an important role is played by the period of historical development of society, changes in socio-economic conditions in the country, and the development of forms of production. The main advantage of such toponyms is that,

depending on them, you can learn about forms of production, mineral deposits, professions, agricultural culture and other information.

Key words: urbanonym, godonym, professional words, onomastic unit, compound word, terms, industry terms.

Абстракт. В статье рассмотрены мнения и вопросы, связанные с тем, что названия мест названы в соответствии с профессией, национальностью, бытом и профессией проживающих там людей, что можно узнать о роде занятий живущих здесь людей. название определенной улицы. В возникновении этого типа топонимов важную роль играют период исторического развития общества, изменение социально-экономических условий в стране, развитие форм производства. Главное преимущество таких топонимов в том, что в зависимости от них можно узнать о формах производства, месторождениях полезных ископаемых, профессиях, земледельческой культуре и другую информацию.

Ключевые слова: урбаноним, годоним, профессиональные слова, ономастическая единица, сложное слово, термины, отраслевые термины.

Kirish (Introduction). Geografik obyektlarning nomlanishida ma’lum hududda yashovchi aholining iqtisodiy turmush tarzi, hunarmandchilik turlari, kishilarning xo‘jalik va moddiy ishlab chiqarish faoliyati muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Toponimiyaga oid asarlardan ma’lumki, qadim zamonda ko‘cha nomlari shu yerda yashovchi kishilaring kasb-kori, millati, turmushi va mashg‘ul bo‘lgan hunariga qarab nomlangan. Boshqacha qilib aytganda, ma’lum ko‘cha nomidanoq bu yerda yashovchi aholining mashg‘ulotini bilish mumkin. Bu turdagi joy nomlarining paydo bo‘lishida jamiyatning tarixiy rivojlanish davri, mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi, ishlab chiqarish shakllari taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday joy nomlarining asosiy fazilati shundan iboratki, ularga qarab ishlab chiqarish shakllari, foydali qazilmalar konlari, kasb-hunar turlari, dehqonchilik madaniyati va boshqa xil ma’lumotlarni bilib olish mumkin. Bularning hammasi, xalq xo‘jaligi tarixi uchun juda muhim ma’lumotlar hisoblanadi. Godonimlarda xalq turmushining turli ijtimoiy-iqtisodiy jabhalari, ya’ni aholining xo‘jalik faoliyati, jamiyatdagi ko‘p asrlar davomida sodir bo‘lgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlari ham o‘z aksini topadi.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug‘ullanib kelgan. Shahar aholisining asosiy mashg‘uloti, yashash manbaidan biri hunarmandchilik hisoblangan. T.Nafasovning yozishicha, “o‘tmishda shahar maqomiga erishish uchun, unda kamida 32 ta kasb-hunar turi

bo‘lishi talab qilingan. Kasb-hunar nomi ikki xil vazifa bajargan: kasb va kosiblik nomi hamda yashagan guzari, mahallasi, qishlog‘i nomi”[12].

O‘tmishdagi kasb-hunarlarning bir qismi yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa ham, ammo ular geografik nomlar tarkibida hozirgacha, tarix dalili, madanivat yodgorligi sifatida saqlanib qolgan. Shahar va shaharchalardagi mahalla, ko‘cha, guzar, xiyobon, bozor kabi geografik obyektlarni hunar-kasb nomlari bilan atash sharqning qadimiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, O‘rta Osiyoning tarixiy shaharlarida shu kabi hunar-kasbdan olingan nomlar ko‘plab topiladi. Bu ko‘hna qadriyat zamonaviy qadriyatga aylansa, xalq madaniyati va ma’rifati madaniy yodgorlik maqomiga erishgan bo‘lar edi. Hozir ham O‘zbekistonning turli hududlarida *Pichoqchi, Sandiqchi, O‘qchi, Temirchi, Mahsido‘z, Parchabof, Naqqoshon, Zargarlik, Qassoblik, Sovungarlik* kabi mahalliy xalqning kasb-hunarlaridan darak beruvchi nomlarni uchratish mumkin. Masalan, Ohangaron nomi shahar aholisi qadimdan temirchilik bilan shug‘ulanganligidan darak beradi. Xuddi shu kabi Samarqand shahridagi So‘zangaron mahallasi ahlining asosiy mashg‘uloti igna, juvaldiz, bigiz kabi mahsulotlar tayyorlash bo‘lgan.

Yangi paydo bo‘layotgan kasb-hunar turlari ham ko‘p va ular ham joy nomlarini boyitishi tabiiy. Kasb-hunar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan nomlar o‘rta va ayniqsa kichik (mikro) toponimlar tarkibida ko‘p uchraydi. Xalqning kundalik ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan, turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaradigan qurilmalar asosida ham joy nomlari paydo bo‘lgan. Mazkur qurilmalar nomlari keyinchalik aholi punkti nomlariga o‘tgan. Masalan, *Objuvoz, Tegirmonboshi, Qo‘shtegirmon, Tegirmonovul* kabi toponimlar misol bo‘ladi.

Joy nomlari geografiya tarixi uchun ham qimmatli ilmiy manba hisoblanadi. Biz o‘zbek tilidagi kasb-hunar nomlari asosida shakllangan godonimlarni dastlab, birlik va ko‘plikni ifodalashiga ko‘ra ikki guruhga ajratib oldik:

Birlik sonda ifodalangan kasb-hunar nomlari asosida shakllangan godonimlar: *Ustoz ko‘chasi, To‘qimachi ko‘chasi, Zardo‘z ko‘chasi, Zargar ko‘chasi, Ziroatchi ko‘chasi, Matbuotchi ko‘chasi, Muazzinboy ko‘chasi, Bo‘yrachi ko‘chasi, Mirob ko‘chasi, Merganchi ko‘chasi, Mirishkor ko‘chasi, Mashshoq ko‘chasi, Mang‘izchi ko‘chasi, Ko‘nchi ko‘chasi, Ko‘mirchi ko‘chasi, Chevar ko‘chasi, Duradgor ko‘chasi, Do‘ppichi ko‘chasi, Dorboz ko‘chasi, Ipakchi ko‘chasi, Dorikash ko‘chasi, Ponsod ko‘chasi, Choyfurush ko‘chasi, Davchar ko‘chasi, Dehqon ko‘chasi, Do‘ppido‘z ko‘chasi, Binokor ko‘chasi, Asfurush ko‘chasi, Asalarichi ko‘chasi, Qassob ko‘chasi, Muallim ko‘chasi, Murabbiy ko‘chasi, Bog‘dor ko‘chasi, Pillakash ko‘chasi, Qushbon ko‘chasi, Qorovul ko‘chasi, Pichoqsoz ko‘chasi, Qushchi ko‘chasi, Savdogar ko‘chasi,*

[12] Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati (O‘zbekistoning janubiy rayonlari). –Toshkent, 1988.

Sarkor ko‘chasi, Sarbon ko‘chasi, Pillakor ko‘chasi, Zobit ko‘chasi, Tegirmonchi ko‘chasi, Yig‘ichi ko‘chasi, Xizmatchi ko‘chasi, Iqtisodchi ko‘chasi, Sanoatchi ko‘chasi, Sportchi ko‘chasi, Chegarachi ko‘chasi, Kadastrchi ko‘chasi, Avtomobilchi ko‘chasi, Temiryo‘lchi ko‘chasi, Kimyogar ko‘chasi, Maslahatchi ko‘chasi, To‘quvchi ko‘chasi, Quruvchi ko‘chasi, Chorvador ko‘chasi, G‘allakor ko‘chasi, San’atkor ko‘chasi, Shifokor ko‘chasi kabi.

Ko‘plik sonda ifodalangan kasb-hunar nomlari asosida shakllangan godonimlar: *Bo‘zchilar ko‘chasi, Misgarlar ko‘chasi, Kulollar ko‘chasi, Kigizchilar ko‘chasi, Pichoqchilar ko‘chasi, Miroblar ko‘chasi, Kasanachilar ko‘chasi, Baqqollar ko‘chasi, Attorlar ko‘chasi, Dorbozlar ko‘chasi, Kosiblar ko‘chasi, Zardo‘zlar ko‘chasi, Ziroatchilar ko‘chasi, Zargarlar ko‘chasi, Qandolatchilar ko‘chasi, Yigchilar ko‘chasi, Ustalar ko‘chasi, Sarbozlar ko‘chasi, Ustazodalar ko‘chasi, Savdogarlar ko‘chasi, Duradgorlar ko‘chasi, Do‘ppido‘zlar ko‘chasi, Hunarmandlar ko‘chasi, Hunarmandchilar ko‘chasi, To‘quvchilar ko‘chasi, Konchilar ko‘chasi, Neftchilar ko‘chasi, Kosmonavtlar ko‘chasi, Kurashchilar ko‘chasi, Mebelsozlar ko‘chasi, Murabbiylar ko‘chasi, Muallimlar ko‘chasi, Ustozlar ko‘chasi, Neftchilar ko‘chasi, Novvoylar ko‘chasi, Nurchilar ko‘chasi, Mirishkorlar ko‘chasi, Asalchilar ko‘chasi, Baliqchilar ko‘chasi, Muhandislar ko‘chasi, Shifokorlar ko‘chasi, Sholikorlar ko‘chasi, Maorifchilar ko‘chasi, Olimlar ko‘chasi, Oshpazlar ko‘chasi, O‘qituvchilar ko‘chasi, Ovchilar ko‘chasi, Sanoatchilar ko‘chasi, Savdogarlar ko‘chasi, Yo‘lsozlar ko‘chasi, Askarlar ko‘chasi, Chegarachilar ko‘chasi, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, Ta’limchilar ko‘chasi, To‘qimachilar ko‘chasi, Sholikorlar ko‘chasi, San’atkorlar ko‘chasi, Naychilar ko‘chasi* kabi.

Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalaridan -chi qo‘shimchasi ot, sifat, son va harakat nomidan ot yasaydigan serunum affiksdir. Mana shu qo‘shimcha yordamida yasalgan ba’zi so‘zlar (oddiy so‘z va etnonimlar) onomastik konversiya usulida godonimga o‘tgan. Ushbu godonimlar toponegizdan anglashilgan belgi, xususiyat yoki biror predmet, hodisaga egalik to‘g‘risidagi xabarni anglatadi.

1) kasb, mutaxassislik bilan shug‘ullanuvchi shaxs otlari: *Ipakchi, Sportchi, Kadastrchi, Avtomobilchi, Askiyachi, Kimyogar, Sanoatchi* kabi.

2) asosdan anglashilgan harakat va hodisa bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti: *Asalarichi, Bo‘yrachi, Chegarachi, Quruvchi, Maslahatchi* kabi.

Kasb-hunar nomlari asosida shakllangan Andijon godonimlarini quyidagi mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin:

1.Nisbatan zamonaviy kasb nomlari asosida shakllangan godonimlar: *Fermerlar ko‘chasi, Gazchilar ko‘chasi, G‘ishtchilar ko‘chasi, Mashinasozlar ko‘chasi, Yosh tadbirkorlar ko‘chasi, Tadbirkorlar ko‘chasi, Sportchilar ko‘chasi,*

Iqtisodchi ko‘chasi, Sanoatchi ko‘chasi, Chegarachi ko‘chasi, Kadastrchi ko‘chasi, Avtomobilchi ko‘chasi, Temiryo‘lchi ko‘chasi, Kimyogar ko‘chasi, Maslahatchi ko‘chasi, Quruvchi ko‘chasi, Sanoatchi ko‘chasi, Chorvador ko‘chasi, G‘allakor ko‘chasi, San’atkor ko‘chasi, Shifokor ko‘chasi kabi.

2.Ta’lim sohasi nomlari asosida shakllangan godonimlar: *O‘qituvchi ko‘chasi, Ustoz ko‘chasi, Muallim ko‘chasi, Murabbiy ko‘chasi, Muallif ko‘chasi, Ziyoli ko‘chasi, Ilmitolib ko‘chasi, Ustazoda ko‘chasi, Usta ko‘chasi kabi.*

Ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq kasb-hunar nomlari ichida eng qadimiylaridan biri bo‘lgan pedagog so‘zi yunoncha so‘z bo‘lib, tarbiyachi degan ma’noni anglatadi. Muallim arabcha so‘z bo‘lib, o‘rgatuvchi, o‘qituvchi, ustoz degan ma’nolarni anglatadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘p ma’noli so‘z sifatida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi: 1. Dars beruvchi kishi; o‘qituvchi, pedagog: matematika muallimi. 2. Ta’lim beruvchi, birovga biror narsa o‘rgatuvchi kishi; ustod-ustoz.

3.Tibbiyot sohasi nomlari asosida shakllangan godonimlar: *Shifokor ko‘chasi, Dorikash ko‘chasi* kabi.

4.Dehqonchilik va bog‘dorchilik nomlari asosida shakllangan godonimlar: *Ziroatchi ko‘chasi, Mirishkor ko‘chasi, Dehqon ko‘chasi, Paxtakor ko‘chasi, Bog‘dor ko‘chasi, Bog‘bonlar ko‘chasi, Bog‘dorlar ko‘chasi, Gulchilar ko‘chasi, Urug‘chilar ko‘chasi* kabi. *Dehqon* so‘zi forscha so‘z bo‘lib, kata yer egasi, zamindor; qishloq hokimi degan ma’nolarni anglatadi.

Ponsot - Ponsad – xonliklar davridagi lavozim, asli ponsadbosh. Qo‘qon xonligida – qo‘mondon, polk (dasta) komandiri; forscha panjsad - “beshyuz”.

Bundan tashqari, Andijon viloyati godonimlari tarkibida shaxsning sifati, xususiyati, yutug‘i kabi belgilar asosida shakllangan godonimlar ham anchagina. Masalan, *Faxriylar ko‘chasi, Bilimdonlar ko‘chasi, Allomalar ko‘chasi, Donishmandlar ko‘chasi, Fidokorlar ko‘chasi, Fidoyilar ko‘chasi, Fozil odamlar ko‘chasi, Fozilmon ko‘chasi, Hojilar ko‘chasi, Ijodkorlar ko‘chasi, Izdoshlar ko‘chasi, Quvnoqlar ko‘chasi, Mardlar ko‘chasi, Mehnatkashlar ko‘chasi, Nuroniy ko‘chasi, Nuroniylar ko‘chasi, Shaydolar ko‘chasi, Ziyokor ko‘chasi, Ulfatlar ko‘chasi, Mehnatkash ko‘chasi, Ziyolilar ko‘chasi, Shaydolar ko‘chasi* kabi.

-chilik(-chi+lik) murakkab qo‘shimchasi ot, sifat, ravish yoki modal so‘zlardan faoliyat jarayon otlar yasaydi. Hududda shu shaklda hosil bo‘lgan joy nomlari ham talaygina. Masalan, *Ko‘nchilik ko‘chasi, Bog‘chilik ko‘chasi, Chevarchilik ko‘chasi, Hunarmandchilik ko‘chasi, Ipakchilik ko‘chasi, Kosibchilik ko‘chasi, Pillachilik ko‘chasi, Parrandachilik ko‘chasi, Qandolatchilik ko‘chasi, Quyonchilik ko‘chasi, Tikuvchilik ko‘chasi* kabi.

Nazarmahram — Andijon viloyati Shahrixon tumani Nazarmahram ko‘chasi. Mazkur godonim shaxs ismi va Qo‘qon xonligi davridagi amal — mansabga oid atamalardan biri mahram so‘zidan tarkib topgan. *Mahram* — xonga yaqin bo‘lgan va uning huzuriga kira oladigan kishi. Shuningdek, mahramlar saroydagi boshqa ishlarni ham bajarganlar. Ko‘rinadiki, o‘tmishda mansab nomlari ko‘pincha amal egasining nomiga qo‘shilib aytilgan. Shunga ko‘ra ba’zi joy nomlariga kishi ismi va mansab nomi atama sifatida qo‘llangan.

Kasb-hunar nomlari bilan ataluvchi ko‘plab godonimlar ma’lum hududda yashovchi xalqning xo‘jalik faoliyati hamda ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o‘rnini aniqlashda katta yordam beradi. Godonimlarning hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan kasb-hunar nomlari har qanday hudud toponimiyasining muhim va ajralmas qismi sanaladi. Hozirda ayrim kasb-hunar turlari yo‘qolgan yoki ularni ifodalovchi so‘zlar jonli muomaladan chiqib ketgan bo‘lishi mumkin. Shu sababdan, tushunarsiz bo‘lib qolgan bunday joy nomlari tarixiylik nuqtai nazardan alohida tadqiq qilinishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduruhmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: “O’qituvchi”, 1980.
2. Qorayev S. O‘zbekiston oykonimlarining toponimik leksikasi// Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. – T., 1994. - B. 54.
3. Qodirova Sh. Toshkent mikrotoponimlarining nomlanish prinsipiga doir // O’zbek tili va adabiyoti. - 1966. - № 6. – B. 38.
4. O‘rinboyev B. Jizzax viloyati toponimlari. - Jizzax, 1992. - 53 b.
5. Enazarov T. Toponimlarning ilmiy tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari. K.1. – T., 2001. – 126 b.
6. Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. - T.: O’zbekiston, 1994. - 86 b.

МИР КАЗАХСКОГО ЭТНОСА В ПРОЗЕ В.И. ДАЛЯ

Исаева Юлия Павловна
преподаватель кафедры русской литературы и методики ее преподавания Джизакского государственного педагогического университета имени А.Кадыри
yuliya_4265@.mail.ru

Аннотация. В статье рассмотрен сложившийся в творчестве В. И. Даля так называемый «казахский текст», обладающий особыми пространственно-временными характеристиками, наполненный этнически маркированными явлениями, событиями и предметами. Рассматриваются особенности использования Далем в казахских повестях этнографии и фольклора как формы самовоспроизведения и саморегуляции национального своеобразия, включения фольклорно-этнографических элементов с целью типизации и психологической характеристики героев.

Ключевые слова: даль, Оренбург, «казахский текст», повесть, «Бикей и Мауляна», этнография, фольклор.

В.И. Даль был первым из писателей не только русской, но и мировой литературы, кто стал собирать материалы, изучать жизнь казахского народа и изображать казахскую действительность, этнографию и фольклор на страницах художественных произведений.

Будучи чиновником особых поручений при оренбургском военном губернаторе В.А. Перовском в 1833-1941 гг., Даль обращается с представителями различных национальностей и конфессий, вникает в сложнейшие социально-экономические проблемы и окончательно приходит к осознанию основополагающей роли сложившегося жизненного уклада в обретении народами неповторимых духовных черт.

В Оренбурге Далю становится еще более очевидной многомерная неоднозначность и противоречивость бытия, взаимосвязь, казалось бы, не соприкасающихся явлений. Осмысление происходящего приобретает геополитический характер. Национальное своеобразие предстает как итог многовекового взаимодействия экономических, исторических, этнических, социальных, географических и прочих факторов. Фольклор, кроме всего прочего, оказывается особой формой самовоспроизведения и саморегуляции национального своеобразия. Все это складывается в целостную систему взглядов в «казахских» повестях Даля («Бикей и Мауляна», «Майна»). В «Бикее и Мауляне», Даль решительно расширяет круг затрагиваемых тем. Художественное повествование последовательно прослаивается сведениями

о кочевье, мареве, палах, многоженстве, разбоях, пирах и т.д. На первый взгляд, подобные подробности имеют косвенное отношение к сюжету, вредят целостности изложения. Более того, автор напрочь отрицает даже подобие художественной отделки текста: «… не только все главные черты его взяты с подлинного, бывалого дела, но мне не было даже никакой нужды придумывать ни одного побочного обстоятельства, вплетать какую-либо выдумку; все происшествие рассказано так, как было…» [1, с.165]. Похоже, Даль понимает художественную правду только «как внешнее правдоподобие». Думается, гораздо вернее другая оценка: «Однако чем больше вчитываешься в содержание повести, тем больше убеждаешься, что обилие отступлений, взрывая каноническую повествовательную форму, создает новое литературное качество, новые жанровые особенности художественно-этнографического описания» [2, с.201].

Развернутые пояснения малопонятных широкому читателю реалий прямо указывают на генетическую связь повести с путевым очерком. Информативная насыщенность предлагаемых «справок» не кажется удивительной ввиду участия Даля в это время в «Энциклопедическом лексиконе» А.А. Плюшара [3]. С самых различных сторон они характеризуют уклад. Изображаемые события мотивируются укладом и растворяются в нем. Привносимые «справки» ритмизируют текст и подразделяют его на значимые смысловые отрезки, зачастую отличаются яркой образностью и превращаются в неожиданные параллели, метафоры к судьбам персонажей. Грань между «справками» и основной сюжетной линией, между научным и художественным стилем изложения постоянно колеблется. При этом нередко, особенно в кульминационные моменты, используется прием ретардации.

Внешне трагикомический, но по сути трагический образ козьего «каравана» опять сменяется восклицанием: «Караван идет!». И вновь автор отвлекается, на этот раз для обозрения окрестностей с господствующей над ними Георгиевской колокольней, с которой Пугачев стрелял из пушки по Оренбургу, «за неимением снарядов, пятаками» [1, с.236]. «Пугачевский мотив – по-далевски, мимоходом – намекает на возможное развитие событий в степи, а сама пугачевщина, в свою очередь, объясняется ужасающим социальным неравенством.

Постоянно «отвлекаясь» от темы, автор сам себя за это же и осуждает [1, с.238-243]. Колоритная, поистине эпическая, обрисовка каравана как будто противоречит привезенным дешевым товарам. Но тем самым подчеркивается его незаменимость как средства общения между людьми через

тысячеверстные просторы. И лишь затем, не менее подробно, чем караван, описывается щегольская одежда и оружие Бикея, ибо тоже часть кочевой жизни, излагается история его ссоры с отцом.

Казалось бы, дальше речь пойдет о герое. Но вторая глава почти вновь состоит из «отвлечений». Здесь приведено содержание душераздирающего письма, привезенного Бикеем с караваном от русских пленников из Хивы, подвергающихся жестоким издевательствам, но не теряющих духовной связи со своей родиной [1, с.252]. Исследование сущностных черт в человеке приобретает подлинно философскую глубину. Обстоятельное рассмотрение степного правосудия обнаруживает следы варварского самоуправства. И все же кочевые народы дорожат им, опасаясь иезуитского крючкотворства российских чиновников [1, с.260]. Возникает параллель: царские порядки чужды кочевникам, а ханские – русским пленникам. Человек не может жить по чужим законам. И опять только под конец главы автор вспоминает о герое, вновь осуждая себя за «отвлечения» [1, с.263].

Третья глава открывается изложением обычаев сватовства у кайсаков и о повадках степных грабителей. Однако сообщаемые сведения уже не так объемны, и повесть о Бикее и Мауляне как таковая начинается. Герой имел уже невесту, но, состязаясь по народному обычаю на конях с красавицей, влюбляется в нее. Это Мауляна, нареченная невеста старшего брата Бикея, Джан-Кучюка (в переводе, собачья душа), от первого брака его отца. Тлевшая дотоле семейная ссора разгорается с новой силой.

Понимание уклада усложняется; он противоречиво сочетает в себе две группы обычаев: утверждающие косность замкнутого социума (например, беснование шамана) и позволяющих ему обновляться (например, песенное соревнование парней и девушек). Но усложняется и представление о человеческой личности, которая, опираясь на обычаи, может или подчиниться диким предрассудкам, или бросить им вызов. Сводные братья подбивают отца против Бикея. Он же «говорил и действовал смело и самостоятельно», но «никогда не забывался противу отца, никогда не грешил противу патриархальных обычаев дикарей степных» [1, с.257]. Последнее, по Далю, очень важно, ибо для борьбы за справедливость герою не надобно советоваться с какими-либо, тем более иноплеменными, наставниками.

Преодолевая множество препятствий, герой женится на Мауляне и просит отца честно поделить наследство. Старик отказывается, а в минуту исступления повелевает братьям доставить Бикея «живого или мертвого». Джан-кучюк сзади убивает его чеканом. Трагическая гибель героя от руки

брата утверждает необходимость свободы как обязательного условия развития личности. Под стать Бикею и Мауляна.

Официальное расследование убийства не дало результатов. Мауляна по неописанному закону должна достаться братоубийце. Однако она противиться этому и хочет отомстить ему. В конце концов, брошенная всеми на произвол судьбы, Мауляна умирает от оспы с именем Бикея на устах. Перед нами по сути степная версия любви Ромео и Джульетты. Правда, образ Мауляны, несмотря на резкие индивидуальные черты, только контурно очерчен…

Таким образом, в повести содержаться развернутые представления о судьбах человеческой цивилизации. Заявленная концепция развития общественно-экономических формаций, признавая их внутреннюю суверенность и взаимное равноправие, утверждает приоритет исконного уклада над любыми умозрительными догмами. Подлинный прогресс возможен только на основе тех национальных традиций, которые изначально и однозначно ведут к обновлению социального устройства. Их подмена культуртрегерскими суррогатами бесперспективна, ибо провоцирует ситуацию хаоса. А так как носителем наиболее значимых черт национальной специфики является простой люд, то именно он и страдает более всего от колониально-бюрократической экспансии, актуализирующей негативные тенденции в «улучшаемом» извне социуме. Отказ от своей истории означает в конечном итоге утерю надежных перспектив грядущего развития.

Литература

1. Даль В.И. Полн. собр. соч.: В 10 т. СПб. Т. VII., 1998. С. 520.
2. Переписка В.И. Даля и М.П. Погодина. Часть I/Публ. А.А. Ильина-Томача// Лица: Биограф. Альманах. – М.; СПб., Вып.2., 1993. С.296.
3. Плюшара А. Энциклопедический лексикон. Санкт-Петербург: Афо, Т 3., 1975. С. 550.
4. Рахманов Б.Р. Жанровое своеобразие восточной притчи в творчестве В.И. Даля//Вестник Таджикского национального университета. Серия «Филология». № 3., 2021. С. 420.
5. Сербина Н.С. Жанр восточной повести в литературном творчестве В.И. Даля // Вестник Башкирского университета. Т. 12. № 4., 2007. С. 380.
6. Фетисов М.И. Первые русские повести на казахские темы. – Алма-Ата, 1970. С. 300.

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA NOSTANDART TEST TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Mustafayeva Gulnoza Badalovna
Samarqand viloyati Poyariq tumani
24-maktab geografiya va iqtisodiy
bilim asoslari fani o'qituvchisi

Geografiya fanini o'qitishda test savollari, ayniqsa nostandart test topshiriqlaridan foydalanishning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular yordamida qisqa vaqt davomida o'quvchilarning juda ko'p mavzulardan olgan bilimlarini sinab ko'rish va aniqlab olish imkoniyati yuqori bo'ladi. Nostandart testlardan foydalanish birinchi navbatda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, mavzuda o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ishlash, o'z fikrini bayon eta olish, muayyan jarayon, ob'ekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirish, mazkur jarayon, ob'ekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsata olish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Shu bilan birga nostandart test topshiriqlarini tuzish geografiya fan o'qituvchisida ijodkorlik (kreativlik)ni shakllantirib, uni rivojlantiradi, o'z ustida ishlashga, o'zining bilimiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, fan o'qituvchisi mavzuni o'qitishda yo'l qo'ygan kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi hamda iqtidorli, izlanuvchan o'quvchilarni aniqlashga yordam beradi.

1920-yildan boshlab AQShning ayrim shtatlari maorif bo'limi testlar bo'yicha imtihon olish tajribasini boshlaganlar va 1930-yillardan keyin bunday usul AQShning hamma maktablarida qo'llanila boshlangan, testlar tuzish bo'yicha kooperativ xizmati tashkil qilingan. Uning asosiy vazifasi, AQShning maktab va kollejlarida o'quvchilar o'zlashtirishini ko'rsatilgan talablar asosida aniq baholash mezonlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu xizmat ta'lim testlari xizmatiga aylantirilgan. Imtihonlar bo'yicha kengash testlarning ma'lumotlarini kollej va universitetlarga kiruvchilarning bilimini tekshirishda ishlatila boshlangan.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi: integrativ, adaptiv va mezonli-mo'ljal olish testlari. Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinlik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasi bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o'quvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartib-qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida o'quvchining egallashi mumkin bo'lgan ballari va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv

testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo‘llanish maqsadiga ko‘ra: o‘rtacha og‘irlikdagi, o‘quvchining tanlashiga ko‘ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo‘lishi mumkin. Bu testlar ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit tizimida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Buning uchun fan o‘qituvchisi bitta mavzu, bob, bo‘lim, kurs mazmuni bo‘yicha turli qiyinlik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi lozim. Mezonli-mo‘ljal olish testlari o‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o‘qitilish sifati, fan o‘qituvchisining pedagogik mahorati, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Geografiya ta’limida nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi. Mazkur prinsip o‘quvchilarning geografiya fanidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashni reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.

2. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi. Muhimlik prinsipi test topshirig‘i savollariga o‘quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko‘nikmalarni kiritishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma’lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi.

3. Mazmun va shakl birligi. Mazkur prinsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.

4. Test topshiriqlarining mazmunan to‘g‘riligi. Test topshiriqlariga o‘quv kursi mazmunidagi ob’ektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Mazmundagi bahs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

5. Test topshiriqlari mazmunida o‘quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi. Mazkur prinsip test topshiriqlarini tayyorlashda o‘quv kursi mazmunini to‘liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O‘quv kursi bo‘yicha tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishlarga yetarli darajada e’tibor qaratilgan, mazmunan bu jarayon o‘quv materialida o‘z aksini tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar shaklida topgan bo‘lsa, bunda hamma mavzular bo‘yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo‘yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.

6. Test topshiriqlari mazmuni fanning hozirgi zamon holatiga mosligi. Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy qarashlar, huquqiy me’yoriy hujjatlar,

fanning o‘quv kursi ta’lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi.

7. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo‘lishi. Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltirib chiqaradi, nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo‘llanishini e’tiborga olingan holda bob, bo‘lim yoki kurs mazmunini to‘liq qamrab olishni taqazo etadi.

8. Test topshiriqlari mazmunining tizimliligi. Bunda test topshiriqlari mazmunini tanlashda, mazmun o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi, bir-biri bilan uzviy bog‘langan bilimlarning umumiy jihatlarini aks ettirishi zarur.

9. Test topshirig‘i mazmunining variativliligi. Test topshirig‘i birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni o‘quvchilarga ma’lum bo‘lib qoladi va test javoblari haqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur prinsip test savollari va javoblarini ko‘p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqazo etadi. Bu holatda test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinlik darajasini saqlash lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alimkulov N.R., Raximova Ch.N., Xabibullaeva D.Sh. “Oliy ta’lim geografiya fanlarini o‘qitishda nostandart testlarning o‘rni”. Yangilanayotgan O‘zbekistonda geografiya: fan, ta’lim va innovatsiya. Resp.ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 15.12.2022.
2. Avezov Sh., Saydamatov F.R., Sultonova N. Tabiiy geografiya: standart va nostandart test topshiriqlari. T.: 2019.
3. Tolipova J.O. Pedagogik kvalimetriya. T.: 2016.
4. Vaxobov X., Alimkulov N.R., Sultonova N.B.. Geografiya o’qitish metodikasi. “Nodirabegim”, T.: 2021.

МЕДИАТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Усманова Комола Хикматуллаевна
Ўзбекистон Миллий Университети мустақил тадқиқотчиси,
Тошкент, Ўзбекистон

Аннотация. Мазкур тезис медиатехнология асосида инглиз тили дарсларини ташкил этишда шахсга йўналтирилган замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш масалаларга бағишланган.

Калит сўзлар: саноат инқилоби, медиатехнологиялар, талабалар, медиатехнологиялар турлари, таснифи.

Ресурс атамаси французча “resource” сўзидан олинган бўлиб, айнан таржимада ёрдамчи восита, усул деган маъноларни англатади. Қисқача айтганда, ресурс инсон турмуш шароитини янада яхшилаш учун зарур бўлган нарсаларнинг мавжуд заҳираси ҳисобланади [1; 396-б]. Замонавий дарсларни сифатини ошиб бориши ва уни маҳорат билан ташкил этиш воситаларидан бири медиатаълимдир. Медиатехнологик таълим – медиавоситалар асосида дарс ўтишнинг замонавий усулларидан бири бўлиб, таълимга медиатехнологияларни жорий этган ҳолда унинг сифатини оширишга қаратилган таълим жараёнидир [2].

Мутахассислар медиатехнологияни электрон ҳужжатлар, визуал ва аудио эффектларни тайёрлаш, интерфаол ўқув жараёнини ягона назорат остида турли хил вазиятларни дастурлаштириш сифатида талқин этадилар. Медиатехнологиялар коммуникация усулларидан бири, айтиш мумкинки, ҳозирги кунда энг такомиллашгани, инсон фаолиятининг маҳсулидир. Шунингдек, медиатехнологиялардан фойдаланиш таълим сифатини ҳамда талабаларнинг фанга бўлган иштиёқи ошиши, ўқиш вақтини тежаш, бир вақтнинг ўзида бир нечта сезги органларига таъсири туфайли материални чуқур ўзлаштириш, маҳаллий тармоқ орқали ўқув машғулотларини ташкил этиш, масофавий ва электрон таълимни жорий этишга хизмат қилади. Бундай технологияларнинг мавжудлиги талабаларга уларни бошқаришда ёрдам берадиган махсус воситалардан фойдаланиш заруриятини келтириб чиқаради. Биз уларни мультимедиа алоқаси ёки оддийгина мультимедиа воситаларидир (ММС). ММС тўплами катта имкониятларга эга бўлган медиатаълим технологияларининг бир қисмидир. Уларни ўқув жараёнида қўллаш интерфаоллик, ҳиссиётлилик ва маълумотнинг бойлигини максимал

даражасини яратади. Медиатехнологияни такомиллаштириш босқичи бевосита медиатаълим билан боғлиқдир.

Ўзбекистонда таълимда медиатехнологиялар ҳамда компьютерлаштирилган ўқув жараёни, замонавий педагогик таълимда ахборот технологияларини жорий этиш юзасидан А.А.Абдуқодиров, А.Арипжанова, М.Арипов, Р.Р.Боқиев, Б.А.Бегалов, Ф.Зокирова, Ж.Ғ.Йўлдошев, Н.Р.Рустамова, Ҳ.А.Саидакбаров, Н.И.Тайлақов, Ш.Н.Тайлақова, Д.Э.Тоштемиров, С.К.Турсунов, О.Х.Тўрақулов каби олимлар тадқиқот ишларини амалга оширганлар. Аммо илмий адабиётлар ва тадқиқотчилар олиб борган тажрибаларни ўрганиш натижасида ОТМлар инглиз тили фанини медиатехнологиялар асосида ўқитиш муаммоси методик нуқтаи назардан махсус ўрганилмаган. Мазкур тадқиқотларда кўпроқ талабалар медиамаданиятни такомиллаштириш, таълимни ахборотлаштиришнинг илмий-методик жиҳатларини оптималлаштириш, такомиллаштириш, айрим аниқ, табиий ҳамда ижтимоий фанларни ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланиш кабилар орқали бевосита таълим сифатини амалга ошириш муаммоларини ҳал этишга қаратилган.

Инглиз тили фани методик тизимини такомиллаштиришда бир қанча ўзига хосликларга аҳамият бериш мақсадга мувофиқ. Маълумки, интернет ҳамда технологиялар, “ақлли-смарт” қурилмалар шахс ҳаётига кириб келганига анча вақт бўлганига қарамай, талаба медиатехнологияларга кўнгилочар ресурс сифатида муносабатда бўлади. Аммо дарсликда берилиши лозим бўлган билимлар амалиётда қизиқарли бўлса-да, дастлабки назарий дарслар, конспектлар ҳамда таъриф ёдлаш каби анъанавий таълим элементлари инглиз тили дарсини талабалар томонидан “зерикарли” фанлар қаторига киритиб қўйилишига сабаб бўлади. Бунинг натижасида эса, бола ДТС ва ДТ да белгиланган керакли билим, кўникма, малака ҳамда компетенцияларни эгаллай олмай қолиши мумкин.

Шу сабабли, медиатехнология асосида инглиз тили дарсларини ташкил этишда талабанинг индивидуал хусусиятлари, ёш даврлари бўйича психологик ҳолати, қизиқиш соҳалари, бўлажак касб эгаллашга бўлган мотивацияси кабиларни ҳам алоҳида инобатга олиш зарур.

Медиатехнология асосида инглиз тили дарсларини ташкил этишда қуйидаги характердаги йўналтирилган замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ:

1. шахсга йўналтирилган таълим технологиялари;
2. ҳамкорликдаги таълим технологиялари;
3. бошқа фанлар билан интеграциялашган;

4. амалиёт билан интеграциялашган;
5. муаммога асосланган;
6. қарорлар қабул қилишни рағбатлантирувчи.

Адабиётлар:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5томлик.–Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 2-том.–396 б
2. Ҳамроева Ф.А. Олий таълим муассасаларида табиий географик фанларни ўқитиш методикасини медиатехнологиялар асосида такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент, 2020, 120 б. 41 b,43 б., 10-б.10-б.35
3. Рустамова Н.Р. Умумий ўрта таълим муассасалари талабалари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси (7-9-синфлар мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (doctor of philosophy) диссертацияси.-Тошкент, 2019. 200 б.[39,67-бет

FREYDIZM VA PSIXOANALIZ

Musayeva Dilsuz Tuychiyevna
Qarshi davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada psixoanaliz nazariyasi haqida fikrlar, adabiyot fanida psixoanaliz qarashlariga murojaat qilish hamda psixoanaliz asoschisi, Avstriyalik olim Zigmund Freyd haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: psixoanaliz, adabiyot, inson, ong osti, tadqiq, individuallik.

Jamiyat taraqqiyoti mobaynida ijtimoiy-siyosiy tuzumlar doimo o‘zgarib turgan, busiz mumkin emas. Mazkur yangilanishlar jammiyat a’zosi bo‘lgan shaxsning ma’naviy-axloqiy, ruhoniy dunyosiga turli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Davr muammolarining turli-tumanligi insonlar tafakkurini yuksaltira boradi. Inson qaysi davrda yashasa, shu davrning muammolarodan xoli yasholmaydi. Bu kundek ravshan narsa. Masalan, sho‘ro davrida yashagan odam sho‘ro muhitining ta’siridan chetda bo‘lolmagani kabi. Yoki, urushlar girdobidagi davrlarning shiddati ham qanchadan qancha taqdirlarni o‘zgartirib yuborganligi tarixdan ma’lum. Bunday taqdirlar haqida ko‘plab badiiy asarlar yaratilganligini bilamiz. Odam, qaysi davrda yashashidan qat’iy nazar, uning ruhiyatiga o‘sha davr ruhi singa boradi, u o‘z davri muammolari girdobida yashaydi. Ijodkorlar esa ana shu davr voqealarini badiiy adabiyot namunalari orqali aks ettiradilar. Hech qaysi soha badiiy adabiyotchalik davr haqida, uning odamlari haqida to‘liq ma’lumot, tasavvur bera olmaydi.

Avvalo, psixoanalitik talqin xususida to‘xtalsak. Avstriyalik shifokor va olim Zigmund Freydning XX asr boshida vujudga kelgan psixoanalitik konsepsiyasi 20-asr ma’naviy madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Z.Freydning nevrozlar terapiyasi va ongsizlik ruhiy jarayonlarini o‘rganish sohasida olingan natijalariga asoslangan falsafiy g‘oyalari, shuningdek, ularning tushunish uchun ochiqligi va ijtimoiy hayot mexanizmlarini tushuntirish uchun keng istiqbollari, insonning xulq-atvori, ilmiy-badiiy ijod tabiatini tushuntirish uchun kashf etganlari nafaqat olimlar, balki ijodkor ziyolilar va umuman, keng omma nazarida ham katta ahamiyat kasb etardi.

Inson faoliyatining Freydgacha bo‘lgan psixologik talqinlarida tadqiqot obyekti vazifasini asosan, ong va u bilan bog‘liq jarayonlar bajarar edi. Freyd esa mana shu ongli jarayonlar ortida yashirin faoliyat mavjudligini kashf etdi va uni “ong osti psixologiyasi” deb nomladi. Avstraliyalik munaqqid-adib Stefan Sveyg (1881-1942) shunday yozadi: “Freyd o‘z davri an’analari bilan zarracha hisoblashmasdan, zamondoshlari oldiga yashirin va anglanmagan o‘zlikni anglash muammosini qat’iy qilib qo‘ydi”. S. Sveygning ushbu fikrlari hissiy unsurlardan xoli bo‘lmasa-da, psixoanaliz mohiyatini o‘zida ifodalaydi. Darhaqiqat, psixoanaliz ong osti psixologiyasini klinik tadqiq etish natijasi o‘laroq tug‘ildi. Freyd o‘zining klinik-muolajaviy faoliyati davomida inson ong osti psixologiyasini tadqiq etar ekan, psixoanalizga doir qonun-qoidalarni bosqichma-bosqich tizimga solib bordi. Shu tariqa o‘z qarashlarini asosladi, ilmiy doiralarga, jamoatchilikka tatbiq etdi.

Shuni ta’kidlashimiz joizki, Freyd kontseptsiyalarining turli jihatlarini ko‘rib chiqish ham xorijiy, ham milliy tadqiqot adabiyotlarida katta an’anaga va ahamiyatga ega.

Ma’lumki, Freyd o‘zining psixoanaliz asarlarida ko‘targan estetik muammolar doirasi ancha kengdir. Ular orasida san’atning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ijodkor shaxs tushunchasi va uning jamiyatga munosabati, ijodiy tasavvurning tabiati, badiiy asarning shakl va mazmuni o‘rtasidagi munosabat kabilar kiradi. Turli yillardagi ishlarda Freydning psixoanalizni estetikaning asosiy uslubiy vositalaridan biriga, hatto undan ham kengroq - butun gumanitar bilimlarga aylantirishga bo‘lgan doimiy istagini kuzatish mumkin. Hozirgi vaqtda psixoanalizning klinik bo‘lmagan sohalarga tarqalishi psixologiyaning ushbu sohasining dastlabki rivojlanishining ajralmas qismi bo‘lganligini umumiy qabul qilish mumkin. Boshqa tomondan, Freyd uchun sotsiologiya, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik fanlarida psixoanalizning aprobatsiyasi, aftidan, Freydning ko‘plab asosiy g‘oyalari klinik bo‘lmagan manbalardan olinganligi sababli, o‘ziga xos tarzda “qarzlarni qaytarish” degan ma’noni bildiradi.

Unda inson nafaqat jasorati, olijanobligi, matonati va aql-idroki bilan, balki kuchli aqli, “madaniy” ongi bardosh bera olmaydigan qo‘rquv, yashirin istak va joziba, hatto ba’zan hayvonot instinktlari bilan ham tasvirlangan.

Freyd o‘zining butun ijodiy tarjimai holi davomida san’atning filogenezi va ontogenezi muammolariga qayta-qayta to‘xtalib, birinchidan, madaniyat kontekstida ijodning sabablari va o‘rnini tushuntirishga, ikkinchidan, shaxs psixikasining ijodiy xususiyatlarini aniqlashga harakat qildi. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, ijodiy individuallik muammosi haqiqatan ham psixoanaliz asoschisining diqqat markazida bo‘lgan va bu Freydning eng mashhur estetik yo‘naltirilgan asarlari – “Leonardo da Vinchi”, “Dostoevskiy va padarkushlik”, “Shoir va fantaziya” asarlarida o‘z aksini topgan, hamda psixoanalitik adabiy tanqidning uslubiy asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Adabiyotshunos olim U.Jo‘raqulov ta’kidlashicha, adabiyot psixoanalizga nisbatan ham obyekt, ham subyekt vazifasini bajaradi. Adabiyotni psixoanaliz obyekti sifatida qaraganimizda, psixoanaliz nazariy adabiyotshunoslikning bir tadqiq usuli o‘laroq, uning tarkibiy qismiga aylanadi. Aksincha bo‘lganda, psixoanaliz adabiyotshunoslikning obyekti o‘laroq namoyon bo‘ladi.

Freyd o‘z nazariyasining o‘ta nozik nuqtalarini talqin etishga, asoslashga urinar ekan, albatta biror adabiy asarga murojaat qiladi. Uning tadqiq usulidagi bu jihat bir paytning o‘zida ikkita funksiyani bajaradi. Avvalo, Freyd isbot etmoqchi bo‘lgan fikrga dalil vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan shu asarning insonshunoslik nuqtai nazaridan tutgan darajasini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. Т.:Фан, 2006, - 203 б.
2. Zigmund Freyd: Psixoanaliz haqida beshta ma’ruza. Tarjimon X.Alimov, T.: Muharrir nashriyoti, 2019. -140 b.
3. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий танқидий тафаккури тарихи очерклари (ўқув қўлланма-хрестоматия). – Тошкент, — 2008. – 316 б. – Б. 85.
4. Психоанализ асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – 142 б.
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. Тошкент, 2013. – Б. 373.

MODERN CONCEPT OF GLOBAL IDEOLOGY

Mamatkazina Aliya Ali - Aksarovna,
Senior Lecturer national center for teacher training in new methods, Surkhandarya region

Abstract. This article is devoted to the concept of global ideology and its genesis. The author analyzes the main aspects of transnational mass culture, ways to solve problems on a global scale, the place and role of international organizations in the sustainable development of countries in the era of globalization. The basic principles and worldviews of ideologies are examined in order to show the polarity of ideological ideas about ways to regulate and resolve social conflicts.

Keywords: globalization, transnational mass culture, international organizations.

In the 21st century, humanity demonstrates its uniqueness by achieving success in acquiring scientific and technological achievements. The world's leading countries are intensifying new scientific and practical discoveries. Countries such as the USA, Japan, China, Russia, England, Germany, which have great production potential, are introducing the most advanced technologies and carrying out economic, socio-political reforms.

Authoritative governance systems with broad capabilities, such as the UN, WTO, NATO, and the Shanghai Cooperation Organization, directly or indirectly participate in the changes occurring in a particular region of the world.

Global problems have already gone beyond the scope of unilateral solutions in the process of globalization. At this stage, no state can approach issues unilaterally. Technical devices operating on the basis of advanced, modern technologies, as a product of human consciousness, achieve the possibility of complete control over the globe, space, and the surrounding world.

In past centuries, events took place in history as the past. A new thought, a new consciousness takes a bold step towards a future in the New World. At this stage, in order to define the concept of “global ideology,” it is necessary, first of all, to describe the process that made the emergence of this concept possible.

In sociological science, the concept of “globalization” refers to a wide range of phenomena and trends. It includes: the development of world ideologies and the presence of a constant struggle to restore order in the world; the growth of the influence and number of international organizations, the weakening of the sovereignty of national states; the emergence and development of transnational corporations, the growth international trade; intensive mass migration and the

formation of multicultural communities; the creation of mass media of a planetary nature and the expansion of Western culture to all regions of the world, etc.

Analyzing the above trends, we can conclude that they were in the nature of synchronous social changes at the beginning and middle of the 20th century. Allows us to characterize them as sociocultural shifts in accordance with the characteristics of the changes taking place.

The first trend, in accordance with the theories of globalization, is the strengthening of global economic processes.

According to statistics, qualitative changes in international trade occurred precisely in the 20th century. In the world in the 1950s, there was a tendency towards the formation of a transnational economy, which was expressed in the strengthening of the international division of labor, the intensive growth in the number and volume of TNCs, the emergence of world markets for trading various resources (raw materials, labor, financial assets, etc.).

The above trends in modern science are called economic globalization.

The second trend is the formation of the sphere of transnational politics.

According to statistics, in parallel with economic globalization in the middle of the 20th century, a “revolutionary international bureaucracy” arose, which, in turn, was reflected in an increase in the number of interstate and non-governmental international organizations.

At the same time, along with quantitative changes, there were also qualitative changes, expressed in the emergence of new goals in the activities of international organizations. If at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries. These organizations were focused on solving state problems (the right of peoples to self-determination, protecting national-state sovereignty, preventing interstate conflicts, etc.), then from the mid-20th century on solving humanitarian problems in their activities (protecting human rights and the interests of ethnocultural minorities). functions such as preventing genocide, preventing global disasters, etc. became priority.

Giving international organizations the authority to solve humanitarian problems meant giving up certain areas of state sovereignty in favor of these organizations. International organizations can be divided into two types: intergovernmental organizations operating at the international level (UN, UNESCO, World Bank, etc.), and non-governmental organizations, operating at the national level, but on the territory of many states (Green Peace, Amnesty International), among others.

Thus, “in the middle of the 20th century. a contradiction arises between the old and new types of politics, characterized, respectively, by the principles of

"closedness", based on the principle of national-state sovereignty, and "openness", based on the principle of national-subnational interdependence." Another trend related to theories of globalization is the rapid development of means of communication. Since the mid-1920s. Shortwave radio broadcasting began in the early 1960s. television broadcasting via orbital satellites developed, and from the early 1970s. The history of computer networks began.

The communication process eliminated the dependence on specific coordinates. This process of the emergence of world media predetermines the emergence of a trend towards the emergence of transnational mass culture. The uniqueness of this type of culture was determined by J. F. Lyotard. He calls eclecticism the starting point of modern culture.

Transnational popular culture is characterized by two main aspects. Firstly, this is the dissemination of semiotic, aesthetic and behavioral patterns common to all through global media networks (CNN and MTV) and TNCs (Coca-Cola and General Motors), and secondly, the introduction of elements of other cultures into people's everyday lives. for example, the beliefs of Western countries and the introduction of culturally characteristic practices into Eastern culture).The emergence of the trend of transnational popular culture occurred almost simultaneously with shifts in the direction of development in economics and politics. The rapid development of mass media has provoked a clash of ideologies that "reject the values, symbols and behavior patterns of other cultures."

The clash of ideologies brought different cultures into a process of violent interaction, resulting in the widespread dissemination of the values, symbols and behavior patterns of the dominant cultures, which by the end of the Cold War were the cultures of North America and the West. Europe. As a result of these expansions, cultural hybrids arose, that is, a fusion of Western cultural values and traditional cultures. These hybrid cultures spread beyond their countries of origin, both through transnational media and by migrants.

The expansion of transnational culture and the spread of hybrid cultures led to the emergence of the phenomenon of multiculturalism, which consists in the coexistence of different cultures on the territories of national states. In contrast to the monoculturalism characteristic of the late 19th and early 20th centuries, when the culture of the ethnic majority dominated and ethnocultural minorities were assimilated as a subcultural community, multiculturalism recognized the pluralism of cultural traditions, and not their extinction or hierarchy.

Thus, the difference between the old (until the middle of the 20th century) and the new (from the second half of the 20th century) types of culture is obvious, and

they are divided into types such as “closedness” based on the principle of monoculturalism and “openness” based on the principle of multiculturalism.

Preservation of universal human traditions, preservation of their customs, rapid progress, steady development towards socio-economic perfection is the common desire of more than seven billion people living on earth. The past of the earth has witnessed many crises, wars and bloodshed.

In today's era of globalization, a person with intelligence is faced with the task of preserving the spiritual wealth inherited from our ancestors for the next generation.

The fate of humanity and civilization depends on what conclusions humanity can draw from its past. To what extent the plans being developed and the doctrines being created correspond to the interests of humanity and globalization will determine the final results of the current reforms. What must humanity do to preserve its civilization? - the question is very important and relevant. Of course, globalization is an irreversible process taking place all over the world.

Globalization does not mean the loss of national identity. World civilization honors the unique traditions, culture and spiritual values of different peoples. Each of them has the right to live and prosper. However, it is not appropriate for a human society, country or countries, nation or nations to impose globalization on others based on its own mentality.

In this case, it is not difficult to understand that if this process is beneficial on the one hand, then on the other hand it will cause serious harm, compromise ancient values, and the people will turn into a “mass” that has lost its roots, and a “mankurt” that has lost its national identity .In order to correctly understand and understand the essence of each period, the law of development, the most important thing is to determine the processes and concepts that determine the content of the period.

Today, the concept of globalization, which is widely used in our lives in the social, political, cultural and spiritual spheres, is of interest to many politicians, philosophers and scientists. Time proves that the French philosopher Rene Descartes was right when he said: “Clarify the meaning of concepts, and this will save half of humanity from error.”

References

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
2. Иванов Д.В. Эволюции концепции глобализации. // Телескоп. -2003. №4.С. 6.

3. Чистякова С.С. Глобализация культуры: генизис, типология, современные аспекты: дис. канд. филос. наук.Белгород, 2007
4. Авазов К. Х. Идеологические угрозы современности, безопасность и стабильность в обществе, и их взаимосвязь //Национальная безопасность и стратегическое планирование. – 2015. – №. 4. – с. 42-47.
5. Авазов К. Х. Противодействие современным угрозам и поддержание политической стабильности в системе национальной безопасности Узбекистана //Вопросы политологии. – 2017. – №. 3. – с. 122-128.
6. Авазов К.Х. "Место и роль Ислама Каримова как политического лидера в устойчивом развитии Узбекистана"// Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук.-2017.-№ 9-2.-с. 17-28.
7. К Авазов Внешние и внутренние угрозы современности, безопасность и стабильность в обществе, и их взаимосвязь// Россия и мусульманский мир.-2017.- Том7.№ 301 ст.102-114
8. Пахрутдинов Ш.И. Угрозоустойчивое общество в качестве фактора развития государства и общества. // Конфликтология4 (2016): 67-83
9. Tokhir Kurbonov National Mentality of Uzbeks: The Content and Structure// Russia and the Moslem World. 2020-1(307). 73-79 Pp.
10. Tokhir Kurbonov Relationship of national mentality with objective conditions//European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies/Volume: 02 Issue: 11 November 2022.
11. Авазов К.Х.Социально-психологические аспекты информационных угроз// Вопросы политологии. 2021. Т. 11. № 12 (76). С. 3503-3510.
12. Кадыров У.Д., Авазов К.Х.Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества//Интернаука.2021. № 3-1 (179). С. 53-54.
13. Авазов К.Х. Социально-психологические аспекты формирования угрозоустойчивого общества//вопросы политологии. 2022. т. 12. № 3 (79). с. 733-739.
14. Avazov Komil Hollievich,"Political Analysis of the Stability of Modern Society". Journal of International Politics 2019;1(1): 39-44.
15. Avazov Komil Hollievich, «Efficiency Factors of Political Power»// Scholars Journal of Physics, Mathematics and Statistics. 2019; 6 (4): P.91–94
16. Avazov Komil Hollyevich «Information Threats: Types, Objectives and Methods»// Ijsrm.Human, 2017; Vol. 7 (4): P.107-116.

17. Kadirov Umarali Factors and importance of forming personal consciousness in the information society //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – Т. 18. – С. 74-79.
18. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2022). O‘zbekiston respublikasida diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo hamkorlikni ta’minlash//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (12), 1116-1121.
19. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2023). Yangi O‘zbekistonda ta’lim va ilm sohalari rivojlanishning yangi davridagi muhim asoslari// International scientific journal of Biruni, 2 (1), 81-88.
20. Умарали Қодиров Деструктив диний тасаввурларнинг шахсга психологик таъсири // Academic research in educational sciences. 2022. №. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/destruktiv-diniy-tasavvurlarning-shahsga-psihologik-tasiri (дата обращения: 01.12.2023).
21. Қодиров У. Ёшлар ва ахборий-психологик хавфсизлик // Современное образование// 2014. № 4.URL:https://cyberleninka.ru/ article/n/yoshlar-va-ahboriy-psihologik-havfsizlik (дата обращения: 01.12.2023).

ФАТҲ АЛ-ВАҲБИЙ АСАРИНИНГ ЮРТИМИЗ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ.

Абдуллаев Аббосхон
Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказиилмий ходими

Тарихдан маълумки, Ўрта Осиё замини қадимдан инсониятнинг миллий-маданий тараққиётидаги йирик ўчоқларидан бири ҳисобланган. Бу ушбу заминдан етишиб чиққан кўплаб буюк алломалар қолдирган маънавий меросларидан ҳам маълумдир. Айниқса, ўрта асрлар тарихида ушбу ҳудудда илм-фаннинг бир қанча соҳаларида юздан зиёд олимлар самарали фаолият юритган. Шундай олимлардан бири Ғайнавийлар давлатининг йирик тарихчи олими Абу Муҳаммад ибн Абдулжаббор ал-Утбий (мил. 961, Рай — тахм. 1036, Ғазна) ҳисобланади. У кишининг турли соҳаларда бир қанча асарлари мавжуд. Тарихга алоқадор йирик асарларидан бири “Тарихи Яминий” бўлиб, унда Маҳмуд Ғазнавий ва унинг отаси Сабуктегиннинг фаолияти ёритилган. Шу билан бирга ушбу асарда ўрта асрларда Марказий Осиё минтақасида мавжуд бўлган Сомоний ҳамда Ғазнавийлар тарихи ва ундаги подшоҳлар тарихи ҳамда давлат ичкарисида юз берган сиёсий, маданий ва маърифий жараёнлар ҳақида қимматли маълумотлар тақдим этилган бўлиб, ўша давр турли жабҳаларини қамраб олган шох асарлардандир. Шу жиҳатдан

муаллифнинг ушбу асари ҳақида бир қанча олимлар томонидан шарҳлар битилган бўлиб, Шайх Аҳмад Маниий шундай олимлар жумласидандир. Дастлаб, Манинийнинг ҳаёти ва ижоди ҳақидаги маълумотларга келадиган бўлсак, Дамашқнинг таниқли тарихчи ва тадқиқотчи олимларидан бири Умар Рида Каҳалеҳнинг (1323-1408/1905-1987) “Мўжам ал-муаллифин” (Муаллифлар исмлари қомуси) номли асарида Аҳмад ибн Али ибн Умар Ал-Маниий борасида шундай маълумот келтирилган: “Аҳмад Маниий 1089-1172/1678-1759 йилларда яшаган аллома бўлиб, унинг тўлиқ исми Аҳмад ибн Али ибн Умар ибн Солиҳ ибн Аҳмад ибн Сулаймон ибн Идрис ибн Сулаймон ибн Юсуф ибн Иброҳимдир. Асли Тириполийдан бўлиб, туғилган жойига атаб Маниий, ўсиб-улғайган жойи учун Димашқий, Ҳанафий нисбаларини олган. [4:123]. Дарҳақиқат, аллома ҳижрий 1089 йил муҳаррамнинг 12 куни Дамашқ қишлоқларидан бири бўлган Манинда туғилган. Ўн уч ёшга кирганда акаси Абдураҳмоннинг ёнига, Дамашқдаги Самисотия шаҳрига борди. Шу ерда жуда кўп китоблар мутолаа қилди. Зеро, у кўплаб устозлардан таҳсил олган бўлиб, улар орасида Ҳанбалий муфтий Абулмавоҳиб, шайх Муҳаммад ал-Комилий, шайх Илёс ал-Курдий, шайх Абдулғани ан-Нобилисий ва шайх Юнус Мисрий каби олимлар машҳурларидир. Яна шунингдек, Шом машойихларининг бир қанчасидан, Ҳижоз машойихларидан Солим Басрий Маккий, шайх Аҳмад ан-Наҳлий, Мадинаи Мунаввара муфтийси шайх Абдулкарим Маданий, шайх Абу Тоҳир Куроний Маданий ва шу каби бошқа кўплаб устозлар шулар жумласидандир. [2:436]. Дарҳақиқат, Маниий туғма шоир бўлиб, шеърлари содда, равон ва баёни кучли бўлган. Аллома умрининг охирида Журжонга, амир Шамс ал-Маолий Қобуснинг олдига борди, амир ўз девонидаги яқин кишилари қаторида унга ҳам маош тайин қилди. Аллома ўша ерда оламдан кўз юмгунга қадар истиқомат қилди. 1036 йилнинг Жумодус соний ойининг 19 куни вафот этди. Олим ёзган асарлар сони 50 га яқин бўлиб энг машҳурлари:

1. “Ал-аълом би-фазоил аш-Шом”;
2. “Изоат ад-Дарорий фий Шарҳ ал-Бухорий”;
3. Қутлубағонинг “Усули Фиқҳ” рисоласига шарҳ;
4. “Фатҳ ал-Ваҳбий”;
5. “Анмузаж ал-лабиб фий хасоис ал-Ҳабиб”;
6. “Ал-Икд ал-муназзам”;

Шунингдек, у балоғатнинг энг юксак чўққисига етган шеърлар ҳам ёзган бўлиб, “Девон аш-шеър” номли девон ҳам тузган. Юқорида таъкидланганидек, муаллифнинг “Фатҳ ал-Ваҳбий” номли асари ҳақидаги маълумотларга келадиган бўлсак, бу Манинийнинг муҳим асарларидан

ҳисобланиб, Абу Муҳаммад ибн Абдулжаббор ал-Утбийнинг “Тарихи Яминий” асарига шарҳ сифатида ёзилган. Бу асарнинг тўлиқ номи “Ал-Фатҳ ал-Ваҳбий ала тарих Абу Наср ал-Утбий” (Абу Наср Утбий тарихига Ваҳбийнинг ёзган шарҳи) бўлиб икки қимдан иборатдир. Зеро, муаллиф ушбу шарҳининг ҳошиясида мутолаа қилишга осон бўлиши учун “Тарихи Яминий” матнини тўлиқ ҳолда келтирган. Бу эса китобнинг ўзига хос хусусиятларини очиб бериб, унга ўзига хос бир кўриниш бахш этади. Маълумот ўрнида айтиш керакки, ушбу асар “Тарихи Яминий” асарининг шарҳлари ичида энг яхшиси эканлиги эътироф этилган. Муаллиф бу шарҳни Рум мамлакатига сафар қилган вақтида Усмонийлар муфтийси топшириғи билан қисқа фурсатларда ёзиб тугатган. Ушбу шарҳ хос ва омма наздида мақбул бўлган ҳамда бу унга Усмонийлар давлати пойтахтида катта шуҳрат олиб келган. Шунингдек, Маниний “Тарихи Яминий”ни шарҳлашда ундаги барча номлар, қаҳрамонлар, қишлоқ ва шаҳар номларига аниқлик киритишдан ташқари, асарда қўлланилган грамматик қоидалар, балоғат ва фасоҳат санъати тўғрисида ҳам қизиқарли маълумотлар тақдим этган. Манинийнинг қилган ушбу ишлари Утбий ўз китобида сўзларни қай даражада маҳорат билан ишлатганини очиб берган. Маниний фасоҳат ва балоғат каби ислом илмларининг моҳияини моҳирлик ва устамонлик билан очиб берганлигини ушбу китобни ўқиб чиққан киши сезиши табиий. Мазкур шарҳга ўша вақтда носихлардан бири қизиқиб қолган бўлиб, унинг исми Ҳасан ибн Аҳмад Шофйеъий Димашқий бўлиб, 1150/1737 йилда вафот этган эди [3:136].

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, “Яминий”га аталган шарҳлар орасида Манинийнинг “Фатҳ ал-Ваҳбий”си ўзининг мутолаа учун қулайлиги ҳамда граматик қоидалар борасида ёзган изоҳларининг соддалиги ва равонлиги билан бошқаларидан ажралиб туради. Маниний ўзи балоғат санъатида маҳоратли шоир бўлгани учун Утбийдек балоғат эгасини яхши тушунган ҳамда унинг ҳикматларини омма тушунадиган қилиб шарҳлашга ҳаракат қилган. Шу нуқтаи назардан ўша рисолани илмий жиҳатдан ўрганиб, ундаги улкан ғояларни тадқиқ этиб, турли тилларга таржима қилиш бугунги кун олимларининг муҳим вазифаларидандир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим. Қуръони карим маънолари таржима ва тафсири. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2018. – 624 б.
2. Хожа Халифа. Кашф аз-Зуннун. – Байрут: Дор ал-иҳё ат-турос ал-арабийя, 1985. II жилд.

3. Муҳаммад Халил Муродий. Силк ад-дурар. – Байрут: Дор ибн Ҳазм, 2012. 567 б.
4. Умар Ризо Каҳалеҳ. Мўжам ал-муаллифин. – Байрут: Муассасат ар-рисала, 1993. IV жилд.

BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARINING IJTIMOIY-TARIXIY, ILMIY NAZARIY RIVOJLANISH ASOSLARI

Bazarov Sardor Normuminovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 2 kurs magistranti yo‘nalish Boshlang‘ich ta'lim

Ta'lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Umumiy o'rta talim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun texnologiya dallan qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. Ko'pgina fanlar qatorida yosh avlodning haT tomonlama yetuk bo'lishi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishda texnologiya fani o'zining muhim o'miga ega. O'quvchi voyaga yetib, qaysi kasbni egallamasin, kim bo'lmasin, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalari hayotda, albatta, naf keltiradi. Bugungi kunda yoshlarga kasb tanlashlarida, barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida, ijodiy qobiliyatlarini

rivojlanishlarida texnologiya fani asosiy ko'makchi va muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Texnologiya dallan o'quvchilarga quvonch bag'ishlaydi. Chunki ular bu darsda o'z mehnatlarining rohatini ko'radi, bajargan ishlaridan zavqlanadi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarda Ыг qancha ijobiy hislatlarni shakllanishiga yordam beradi. Texnologiya darslarida o'quvchilaming bilim doirasi kengayadi, mehnatga bo'lgan hurmati oshib boradi, kasbga bo'lgan qiziqish uyg'onadi. Bu jarayonlar sodir bo'lishi uchun esa o'qituvchi darsni samarali tashkil qilishi va har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'ladi.Texnologiya darslarida samaradorlikka erishishning hamda o'quvchilarning qiziqishini oshirishning yo'llari ko'p. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Texnologiya darslarida uyishtiriladigan sayohatlar - dars mavzusidan kelib chiqqan holda maktab rahbarining ruxsati bilan sayohatlarni rejalashtirishni dars jarayonlarida yoki darsdan bo'sh vaqtlarda ham tashkil qilsa bo'ladi. O'quvchilar bilan birgalikda milliy hunarmandchilik uylari, muzeylarga, ko'p yillik tajribaga ega hunarmandlar va duradgorlar oldiga borish ularning qo'l mehnatlarini tomosha qilish, tayyorlanish texnologiyasi bilan tanishish ularga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Texnologiya darslarida uyushtiriladigan sayohatlar davomida o'quvchilar duradgorlik, chilangarlik, tikuvchilik hamda pazandachilik sohalarga oid ko'plab kasb-hunarlar bilan tanishadilar. Bu esa o'quvchilarni kelajak hayotlarida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, sohaning mohir mutaxassisi bo'lib yetishishlariga qiziqishlarini oshishiga ham sabab bo'ladi.

Texnologiya darslarida "master-klass"larni tashkil qilish-dars jarayoniga ko'p yillik tajribaga ega, hunarmandlar, duradgor, tikuvchi va boshqa kasb egalarini taklif qilish. Ularning hayotiy tajribasi bilan o'rtoqlashish. O'quvchilarning qiziqqan savollariga javob olishi va ular bilan birgalikda ma'lum bir mehnat faoliyatini birgalikda bajarishi ular uchun unutilmas jarayon va tajriba bo'ladi. Natijada o'quvchilar texnologiya darslarida ulardan o'rgangan ish tajribalarini yodga oladi va amaliy darslarda o'zlarini sinab ko'rishadi.

Texnologiya dars jarayonida AKTdan foydalanish- hozirda hech bir sohani AKTsiz tasavvur qilishni imkoni yo'q. Texnologiya darslari amaliy mehnat jarayonlariga asoslangan bo'lsada, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dars jarayonining muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari rangli qog'ozdan har xil gullar, maketlar, tabriknomalar, turli ko'rinishdagi o'yinchoqlar, parranda va jonivorlar shaklini yasash, gazlamalardan ajoyib buyumlar tayyorlashni o'rganib boradilar. Dars jarayonida faqatgina bitta usuldan foydalanib mehnat jarayonlarini tashkil qilish o'quvchilar uchun ozroq zerikarli bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi yangi dars yuzasidan

izlanishi, yangi materiallarni yig'ishi kerak bo'ladi. Hozirda inson mehnati tufayli ko'plab go'zalliklar yaratilmoqda. Bunday qo'l ishlarini topish va ularni o'quvchilar bilan birgalikda bahramand bo'lishi uchun ko'pgina internet saytlari mavjud. Oddiygina qog'ozdan gul yasash jarayonini mingdan ortiq turi mavjud.Shunga o'xshash eng yaxshi namunalarni izlab topish va ularni o'quvchilarga ko'rsatish natijasida darsda yanada ko'proq o'quvchilarni qiziqishlarini oshishiga erishish mumkin. Bu jarayon o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlanishiga ya'ni faqat ko'rgan narsasini yasashni emas, balki o'zlari mustaqil ravishda ijod qilishiga turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni mehnatga ruhiy jihatdan tayyorlash - bu unda mehnatga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir.O'quvchilarning to'g'ri yo'naltirilgan mehnat jarayonlari diqqatni bir yerga to'plashni, serharakatlilikni, qiyinchiliklar bo'lishiga qaramasdan, boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olish odatlarini tarbiyalashga, o'quvchilarning ijodiy tashabbusini o'stirishga imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Xoliqov A llPedagogik mahoratll - Toshkent.: Iqtisod - moliya, 2010 - yil,
2. P.Magzumov.O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati.T. 1994y
3. 1-4 sinf o'quv uslubiy tavsiya kitobi. "O'qituvchi" nashriyoti 2017 yil.

ИЛК ЎРТА АСРЛАР ЎРТА ОСИЁ ТАНГАЛАРИДАГИ ҚАДИМГИ ТУРКИЙ УНВОНЛАР

Нормаматова Ҳилола Абдушукур қизи
ЎзР ФА Миллий археология маркази таянч докторанти
Тел: +998937917417 E-mail: normamatovah95@gmail.com

Аннотация. Мақолада илк ўрта асрлар Ўрта Осиё тангаларидаги қадимги туркий унвонларнинг нафақат суғдий, жумладан бақтрий, пахлавий ва браҳмий (қадимги ҳинд) ёзувларида ҳам зарб этилганлиги ёритилган.

Аннотация. В статье подчеркивается тот факт, что древнетюркские названия на среднеазиатских монетах раннего средневековья чеканились не только сугдийской, в том числе бактрийской, пехлевийской и брахмийской (древнеиндийской) письменностью.

Annotation. The article highlights the fact that the ancient Turkic titles on the Central Asian coins of the early Middle Ages were minted not only in Sugdian, including Bactrian, Pahlavi and Brahmi (ancient Indian) scripts.

Таянч сўзлар: ғарбий Турк хоқонлиги, Тўхористон, Кобулистон, танга, унвон, ёзув.

Ключевые слова: западно-Тюркское ханство, Тохористан, Кабулистан, монета, титул, надпись.

Key words: Western Turkic Khanate, Tokhoristan, Kabulistan, coin, title, inscription.

Исломдан олдинги Ўрта Осиё тангаларининг сезиларли бир қисмини туркий атамалар – ҳукмдор исми, унвон ва эпитетлар ўрин олган тангалар ташкил этиб, уларнинг катта бир қисми суғдий, қолган бир қисми эса бақтрий, паҳлавий ва қадимги турк-рун ёзувида зарб қилинган. Қадимги туркча атамалар учрайдиган ушбу тангалар, айниқса, улар орасида суғдий ёзувлилари Ғарбий Турк хоқонлиги (568-740) билан тўғридан-тўғри боғлиқ бўлиб, кўпчилиги хоқонлар томонидан Чоч воҳасида бостирилган[Бобоёров, 2010. Б. 60-61]. Шунингдек, хоқонликка у ёки бу даражада алоқадор суғдий ёзувли тангалар Фарғона водийси, Суғд ва Тўхористонда ҳам зарб қилинган. Шу билан бирга, суғдий ёзувли Ўрта Осиё тангаларининг сезиларли бир қисми Чоч, Фарғона, Ўтрор, Суғд ва Тўхористондаги хоқонликка алоқадор туркий сулолаларга тегишлидир[Бобоёров, 2021. Б. 66-67].

Юқорида айтиб ўтилганидек, исломдан олдинги Ўрта Осиё тангаларининг катта бир қисми бақтрий, паҳлавий ва бошқа тиллардаги ёзувлар билан бостирилган. Уларнинг асосий кўпчилиги турк хоқонларига эмас, хоқонлик билан алоқали тармоқ сулолалар ёки хоқонлик ноиблари

томонидан зарб қилинган. Бу даврда турли ёзувли Ўрта Осиё тангаларининг сезиларли бир қисмида қадимги туркча унвонларнинг ўрин олишининг негизида минтақа ва унга қўшни ҳудудларнинг Турк хоқонлиги (552-744) қўл остида бўлганлиги ётади. Ушбу масалани таҳлил қилишдан олдин қуйидаги жадвалларда қадимги туркча атамалар ўрин олган бақтрий ёзувли Ўрта Осиё тангаларини келтириб ўтамиз:

1-жадвал. Бақтрий ёзувли қадимги турк тангалари

№	Унвонлар номи	Танга расми	Зарб қилинган даври ва жойи	Нашр қилинган тадқиқот
1	хоқон *sri bago adēbo bagdaiggo kagano soi bagi* “Буюк ҳукмдор, тугал бахт эгаси Хоқон”		VII – VIII асрлар. Тўхористон	[Göbl, 1967, I: 166-167, Em. 244; Davary 1982: 99-100.
2	жабғу *tγw’r’k xwβ* “Тўхор(истон) ҳукдмори” (суғд.) ёки *toγoro iaβγo?* Тўхор ябғуси?” (бақтр.)		VII – VIII асрлар. Тўхористон, Чағониён.	Бобоёров 2021: 160
3	тегин 1. *ταγινο υwρσανο βαυο* “Хуросон Тегин-шоҳ”; 2. *σρι ταγινο βαυο* “Буюк ҳукмдор Тегин”	 1 2	VII – VIII асрлар. Кобулистон	Göbl 1967, I: 140, Em. 206; Babayar 2007: 210
4	тудун-тархон *tadono tarxano bagdaiggo varobido* “Тугал бахтга эга ҳукмдор Тудун-тархон”		VII – VIII асрлар. Тўхористон, Хуттал.	Davary 1982: 100, 170-171, 287; Em. 245; Alram 1986: 238, Typ. 1482

Юқорида келтирилган бақтрий ёзувли тангаларда *kagano* “хоқон”, “жабғу”, *ταγινο* “тегин”, *tadono tarxano* “тудун-тархон” каби унвонларнинг бир қисми – “хоқон”, “жабғу”, “тегин” каби Турк хоқонлиги унвонлар тизимининг олий тоифалиларига, “элтабар” ва “тудун-тархон” эса бирмунча қуйи даражалиларига киради. Ушбу тангаларнинг кўпчилиги – “хоқон”, “жабғу” ва “тудун-тархон” унвонлилари Тўхористон ябғулиги ва унинг таркибидаги Хуттал ҳукмдорлигига тегишли бўлса, “тегин” унвонли бақтрий ёзувли тангалар Тегин-шоҳлар сулоласи ҳукмронлик қилган Кобулистонга оиддир[Жуманиёзова, 2017. Б.18-28]. VII – VIII асрларда Тўхористонни ябғулар сулоласи бошқариб, ушбу сулоланинг келиб чиқиши Ғарбий Турк хоқонлигига бориб тақалар эди. Тўхористон ябғулари 620- йилларда ташкил топиб, уларнинг бошқаруви 750- йилларгача, яъни бу ер араблар томонидан тўлақонли эгаллангунгача давом этган [Бобоёров, 2021. Б. 113]. Кобулистонда ҳам шунга ўхшаш вазият ҳукмрон бўлиб, 640- йиллардан то 843 йилгача бу ерни бошқарган сулола ўз келиб чиқишига кўра Ғарбий Турк хоқонлигига бориб тақалган [Жуманиёзова, 2018. Б.17-19].

Тўхористон ябғулари ва Кобул Тегин-шоҳлари ўз тангаларини фақатгина бақтрий ёзувида эмас, балки паҳлавий (ўрта форс) ва қадимги ҳинд (браҳмий) ёзувларида ҳам зарб қилдирганлар. Қуйида ушбу тангалардан айрим ўрнакларни келтириб ўтамиз.

2-жадвал. Паҳлавий ёзувли қадимги турк тангалари

№	Унвонлар номи	Танга расми	Зарб қилинган даври ва жойи	Нашр қилинган тадқиқот
1	ябғу ybgu bhlk’n “Балх ябғуси”		VII – VIII асрлар. Тўхористон	Göbl 1967, I: 182-183, Em. 265.
2	тегин tkyn bg hwtyp hwr's'n MLK' “Тегин, қудратли жаноб, Хуросон ҳукмдори”		VII – VIII асрлар. Кобулистон	Harmatta 1996: 377; Babayar 2007: 205

Юқоридаги иккала танганинг биринчиси Тўхористон ябғулигига, иккинчиси эса Кобул Тегин-шоҳлари сулоласига тегишли тангалардир. Шу ўринда айтиб ўтиш керак, Тўхористон ябғулари томонидан зарб қилинган тангаларнинг катта кўпчилиги паҳлавий ёзувли тангалар бўлиб, уларнинг иконографияси ва танга матнларида Сосонийлар Эрони тангаларининг

таъсири кучли даражада кўриниб туради. Айрим изланувчилар бу ҳолатни Тўхористон ябғулиги жануби-ғарбий чегаралари орқали Сосонийлар билан ҳамҳудуд бўлгани, шунингдек, яқин қўшничилик натижасида Тўхористон танга зарбига Сосонийларга хос анъаналарнинг таъсир кўрсатганини илгари сурадилар.

Аслида шунга ўхшаш ҳолат Кобулистонда ҳам кўзга ташланиб, Тўхористоннинг жанубида жойлашган ушбу ҳукмдорликнинг чегаралари ғарбий томондан Сосонийлар салтанатига туташ бўлган. Тўхористон ябғулиги каби Кобулистон ҳукмдорлари ҳам иш юритиш ва ёзишмаларни юнон-бақтрия ёзуви асосида бақтрий тилида юритиш билан бирга паҳлавий ва қадимги ҳинд тилларидан ҳам фойдаланган [Sims-Williams, 2000. P. 346]. Буни қуйидаги браҳмий ёзувли ҳинд тилли тангалар ҳам тасдиқлаб турибди.

3-жадвал. Қадимги ҳинд (браҳми) ёзувли қадимги турк тангалари

№	Унвонлар номи	Танга расми	Зарб қилинган даври ва жойи	Нашр қилинган тадқиқот
1	Тегин hıtıvıra kharalāva pārameśvara śrı vahı tıgına devakārı tam “Hitivira / Элтабар – Буюклиги, Харалажа, энг буюк жаноб, Тегин-шоҳ буюклиги, ҳашаматли ҳукмдор учун [бу танга] зарб қилинди”		VII – VIII асрлар. Кобулистон	[Göbl 1967, I: 142, Em. 208]; [Harmatta 1996: 377-378]; [Babayar 2007: 206]
2	элтабар hıtıvıra kharalāva pārameśvara śrı vahı tıgına devakārı tam – “Hitivira / Элтабар – Буюклиги, Харалажа, энг буюк жаноб, Тегин-шоҳ буюклиги, ҳашаматли ҳукмдор учун [бу танга] зарб қилинди”		VII – VIII асрлар. Кобулистон	Göbl 1967, I: 142, Em. 208.

Юқорида келтириб ўтилган “тегин” унвонли тангалар Кобул Тегин-шоҳлари сулоласига тегишли тангалар бўлиб, улар 3 та тилда – бақтрий, паҳлавий ва қадимги ҳинд (браҳми) ёзувларида зарб қилинган. Кобул Тегин-шоҳлари сулоласига тегишли танга матнларининг бир неча тилда ёзилиши ўзининг тарихий асосларига эга. Биринчидан, Кобул вилояти ва унга қўшни

Зобулистон, Кандаҳор каби бугунги Афғонистоннинг шарқий ва жанубий вилоятлари, шунингдек, Гандхара (Панжоб), Кашмирнинг сингари Шимолий Ҳиндистон (бугунги Покистон) вилоятларининг бир қисмида қадимда ва илк ўрта асрларда асосан ҳинд ва эроний тилли, қисман эса туркий тилли элатлар яшаб, Турк хоқонлиги даврида бу ерда туркий қатламнинг салмоғи анча ошади.. Айниқса, Кобул Тегин-шоҳлари сулоласи даврида бошқарувчи тоифа ва қўшин асосан туркийлардан ташкил топган эди.

Ўзаро қўшни ҳар иккала ҳукмдорлик – Тўхористон ябғулиги ва Кобул Тегин-шоҳлари минтақадаги этник хилма-хилликдан келиб чиқиб, ўз тангаларини турли тилларда зарб қилдирган бўлсалар-да, қадимги туркий анъаналарни давом эттириб, танга матнларида асосий урғуни “жабғу”, “тегин” каби Турк хоқонлиги бошқарувига хос унвонларига берганликлари кўзга ташланади.

Қисқаси, исломдан олдинги турли тиллардаги ёзма манбалардан англашилича, жабғу – хоқондан кейин турувчи унвон. Ғарбий Турк хоқонлигининг илк босқичидаги энг юқори унвон бўлиб[Бобоёров, 2010. Б.117], кейинчалик, хоқонликнинг бир тармоғи бўлмиш Тўхористон ҳукмдорлиги бошқарувчиларининг унвонига айланган. Тегин эса Турк хоқонлигида шаҳзодаларнинг унвони сифатида хоқонлликка бориб тақалувчи Чоч тегинлари[Бабаяров,2007.Б.95-96], Тўхористон ябғулари ва Кобул Тегин-шоҳлари каби сулолалар томонидан ҳам қўлланила бошлаган. Элтабар – Турк хоқонлигида “тегин” (шаҳзода)лардан кейинги мавқеда турувчи унвон бўлиб, ушбу унвон эгалари хоқонликнинг бошқарувчи тоифасига тегишли бўлмаган. Хоқонлик ўз вассаллари боқшарувчиларига ушбу унвонни берган. Элтабар Чоч, Тўхористон ва Кобулистон тангаларида учраб, кўпроқ кичик ҳукмдорликлар бошқарувчиларининг унвони сифатида қайд этилган. Тудун – Турк хоқонлигида вассал ҳукмдорларни назорат қилиш ва улардан солиқ йиғиш ишларини ташкил этувчи амалдор унвони, ноиб. Вазифасига кўра қадимги туркча “босқоқ” унвонига ҳам тўғри келади. Чоч ва Тўхористон тангаларида учраб, ушбу унвон эгалари ҳам элтабар унвонига эга бошқарувчилари билан деярли тенг мавқеда бўлишган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бобоёров Ғ.Б – Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар). Т,2010
2. Бобоёров Ғ.Б – Ғарбий Турк хоқонлиги тарихи ва танга-пул тизими. Т,2021
3. Джуманиязова Ф. – Илк ўрта асрларда Тохаристон ва Кобул водийсида туркий сулолалар.: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси авторе ферати. – Т., 2018.

4. Джуманиязова Ф. –SHARQSHUNOSLIK // 2017, № 3
5. Göbl R. –Dokumente zur Geschihte der İranischen Hunnen in Baktrien und İndien. Band I, Wiesbaden, 1967.
6. Harmatta J., Litvinsky B.A. –Toharistan and Gandhara under Western Turk rule // History of Civilizations of Central Asia, vol. 3, Paris 1996,
7. Babayar G. –Köktürk Kağanlığı sikkeleri Katalogu - The Catalogue of coins of Turkic Qaghanate. – Ankara: TİKA,2007
8. Sims-Williams N. – Bactrian Documents from Northern Afghanistan. Oxford, 2000.
9. Бобоёров Ғ –Чоч тарихидан лавҳалар (Илк ўрта асрлар) Т, 2010.
10. Бабаяров Г– Древнетюркские монеты Чачского оазис. Т, 2007.

MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEHANIZMINING MOHIYATI

Axmedova Sevara Baxodirovna-
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
Elektron pochta: ***araves.357@gmail.com***

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmi, mehnat huquqlarining buzilishiga chek qo'yish, ularni tiklash yoki amalga oshirishdagi to'siqlarni bartaraf etishni ta'minlaydigan huquqiy usullar va himoya vositalari tizimi, shuningdek, mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha organlar tizimi, qonuniy usullar va vositalardan foydalanish huquqi va ularning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmi, himoya qilish vositalari va usullari, huquqiy tartibga solish mexanizmi.

Mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmlari mamlakat va qonunchilikka qarab farq qilishi mumkin. Biroq, odatda, ishchilarning mehnat huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan bir qator umumiy mexanizmlar mavjud. Mehnat huquqlarini himoya qilishning umumiy mexanizmlari sifatida dastlab qonunchilikdagi ahamiyatini ko’rishimiz mumkin. Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar va normativ hujjatlar tizimi mavjud. Ushbu qonunlar ishchilar va ish beruvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ishchilar o'z huquqlarini himoya qilish uchun qonunlarga murojaat qilishlari mumkin. Keyingi navbatda kasaba uyushmalarining faoliyatining mohiyatini ko’radigan bo’lsak, kasaba uyushmalari ishchilarning manfaatlarini ifodalaydi va huquqiy yordam ko'rsatishi mumkin. Ular ish beruvchilar bilan muzokaralar olib borishlari, nizolar yuzaga kelganda yordam berishlari va huquqiy yordam ko'rsatishlari mumkin. Davlat nazorati organlari faoliyatining mohiyati shundaki, davlat mehnat organlari

mehnat huquqlarining buzilishi to'g'risidagi shikoyatlar bo'yicha tekshiruvlar va tekshiruvlar o'tkazishi mumkin. Ular qonunlarni buzgan ish beruvchilarga hukm qilishlari va jarima solishlari mumkin. So’nggi umumiy bosqich sifatida sud tizimini keltiradigan bo’lsak, ishchilar mehnat huquqlari buzilgan taqdirda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Sud ishni ko'rib chiqishi, qaror qabul qilishi va kerak bo'lganda kompensatsiya to'lashi mumkin. Shuningdek, shikoyatlar va murojaatlar borasida xodimlar shikoyat yozish va maslahat olish uchun mehnat huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanadigan maxsus organlar yoki xizmatlarga murojaat qilishlari mumkin hamda ishga joylashish bo'yicha maslahatlar masalasi bo’yicha ishchilar professional yordam olish uchun ixtisoslashgan yuristlar yoki maslahatchilardan ishga joylashish bo'yicha maslahat olishlari mumkin.

Xodimning mehnat huquqlarini himoya qilishga doir huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Nafaqat xodimning, balki ish beruvchining ham huquqlari himoya qilinishini ko’rishimiz mumkin, bunda O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 5-moddasiga muvofiq, mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash tamoyilini ko’rishimiz mumkin. Ya’ni, mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashg‘ulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi.

Bugungi kunga qadar himoya mexanizmi va uning elementlarining mohiyatiga bir nechta yondashuvlar shakllangan. Ulardan birinchisiga ko'ra, torroq qarash, ya’ni, huquqni himoya qilish mexanizmi huquqni amalga oshirish mexanizmining bir qismi sifatida belgilangan. Yana bir yondashuv, ya’ni, keng ma’noda aytadigan bo’lsak, himoya mexanizmini huquqiy tartibga solish mexanizmi orqali ko'rib chiqadilar. Ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta'sir ko'rsatadigan va ma'lum maqsadlarga erishadigan huquqiy vositalar tizimini anglatadi. Bunday huquqiy vositalarga quyidagilar kiradi: huquqiy normalar, huquqiy munosabatlar, huquq va majburiyatlarni amalga oshirish aktlari, shuningdek, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy javobgarlik. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar huquqiy tartibga solish mexanizmining tuzilishini mehnatni moddiy va mehnat protsessual tartibga solish mexanizmi sifatida ko'rib chiqishni taklif qilinganligidir. Shuningdek, qonunga xos bo'lgan tartibga solish va himoya funktsiyalaridan kelib chiqishda ba'zi olimlar huquqiy tartibga solish mexanizmining tartibga soluvchi va himoya qismlariga ega bo'lishini tabiiy deb bilishadi. Bu holat esa o’z o’rnida himoya qilishning huquqiy shakllari va usullari tizimi, ya'ni himoya mexanizmini bildiradi.

Himoya mexanizmini o'rganishning uchinchi yondashuvi birinchi ikkita nazariyaning o'ziga xos kombinatsiyasi – inson huquqlarini tartibga solishdir. Uning birinchi nazariya bilan umumiyligi – bu mexanizm elementlaridan birini himoya organlari tizimi sifatida belgilash; ikkinchi yondashuv bilan, bu huquqiy tartibga solish mexanizmi orqali himoya mexanizmini aniqlashdir. Xususan, P.V. Anisimov inson huquqlarini tartibga solishning kontseptual doirasini quyidagicha belgilaydi: "inson huquqlari tamoyillari - insonning qonuniy himoyalanish huquqini tan olish aktlari va xalqaro hamjamiyat va davlatlarning tegishli tashkilotlari va davlatlarning inson huquqlarini huquqiy himoya qilish huquqini kafolatlash bo'yicha huquqiy majburiyatlari – huquqiy. Faktlar – inson huquqlari munosabatlari – insonning qonuniy himoyalanish huquqini amalga oshirishning individual harakatlari – inson huquqlarini huquqiy himoya qilishdir."

Respublikamizda mehnat munosabatlarini lokal huquqiy tartibga solish tizimini isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish, umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq fuqarolarning mehnat huquqlari ko‘lamini yanada kengaytirish, mehnatga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilishi, munosabatlarni lokal tartibga solish sohasidagi doiralar borasida “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da “...organlarda mehnat standartlari talablarini qayta ko‘rib chiqish va ularga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish bilan bog‘liq mehnat munosabatlarini rivojlantirishning davlat masalalari” ustuvor vazifa sifatida belgilanganligiga yo'naltirilganligini ko’rishimiz mumkin.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmi amalga oshirish mexanizmiga kiritilishi natijada mehnatni huquqiy tartibga solish mexanizmining mazmuniga kiradi. O'z navbatida, mehnat huquqlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan organlar ba'zi hollarda huquqiy himoya mexanizmining to'liq ishlashiga imkon beradi, boshqa hollarda esa, o'z-o'zini himoya qilishda bo'lgani kabi, mehnat huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmi ham himoya organlarining yordamisiz ishlaydi. Shuningdek, huquqiy himoya mexanizmi mudofaa organlarining yordami bilan ham, ularning yordamisiz ham ishlaydi. Bu huquqiy himoya mexanizmining mohiyatini tushunishning juda muhim jihatidir. Shuni ta’kidlash kerakki, mehnat huquqlarini himoya qilishning samaradorligi qonunning mustahkamligi, adliya tizimining samaradorligi va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Demak, mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmi mehnat huquqlarining buzilishiga chek qo'yishni, ularni tiklashni yoki ularni amalga oshirishdagi to'siqlarni bartaraf etishni ta'minlaydigan huquqiy usullar va himoya vositalari tizimini hamda mehnat huquqlarini himoya qilish tizimini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022 y. https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-6268465
2. Чесноков А.А. Становление и развитие государственного механизма защиты прав личности в советском государстве (теоретико-правовой аспект) // «Черные дыры» в российском законодательстве. - 2006. - №3. - С.56-58.
3. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 4-е издание, дополненное. - М., 2002. - С. 354.
4. Халиков В.Р. Защита трудовых прав работников. - Челябинск: Изд-во Челябинского государственного ун-та, 2004. - С. 9-10.
5. Hodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish (Qiyosiy-huquqiy tahlil). Rahimov M.A. (PhD), 2021 y., Mehnat huquqi // Qo'lyozma huquqida UDK: 349,2 (043,5) (575,1), 97-98 b.
6. Mehnat munosabatlarini lokal huquqiy tartibga solish (Avtoreferat). Yarashev B.Ch. (PhD), 2022 y., Mehnat huquqi // UDK:349.2.3(575.1), 5-b.

ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ОПТИМАЛ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАРИ

Махмудов Т.Д.
Термиз давлат университети таянч докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада инвестицияларни оптимал тартибга солишнинг эконометрик моделларини қўллаш минтақалар мисолида ёритилган.

Аннотация. В данной статье на примере регионов освещено применение эконометрических моделей оптимального регулирования инвестиций.

Abstract. In this article, the application of econometric models of optimal regulation of investments is highlighted on the example of regions.

Калит сўзлар: Саноат, қурилиш, қишлоқ хўжалиги, иш билан бандлик, инвестиция манбалари, эконометрика.

Ключевые слова: Промышленность, строительство, сельское хозяйство, занятость, источники инвестиций, эконометрика.

Key words: Industry, construction, agriculture, employment, sources of investment, econometrics.

Минтақаларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва унинг барқарор ўсиш давомийлигини таъминлашда соҳа ва тармоқларни ЯҲМдаги улушини ошириш муҳим аҳамият касб этади. Шу боис, мазкур соҳаларга

инвестициялар таъсирини баҳолаш лозим. Чунки, инвестициялар ҳисобига янги корхоналарнинг барпо этилиши ва қўшимча маҳсулот яратилишига эришилади. Шундай бўлса-да, инвестициялар таъсирини баҳолашда умумий ҳажмини таъсирини эмас, яъни унинг манбалари таъсирчанглигига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Бу борада тадқиқотларни амалга оширишда эконометрик усуллардан фойдаланилади. Бунда вилоятнинг ЯҲМ таркибий тузилишига хос хусусиятдан келиб чиқиб тадқиқотлар олиб борилади. Жумладан, саноат, қурилиш ва хизматлар кўламини ошириш устувор ҳисобланади. Чунки, вилоятда саноатнинг ЯҲМдаги улуши бўйича республика минтақалари орасида ортда қолмоқда. Шу боис, вилоятдаги юқорида қайд этилган тармоқлар улушини оширишга эътибор қаратилади. Бунда уларни улушини оширишда инвестиция манбалари таъсири тадқиқ қилинади. Жумладан, саноатнинг улушига инвестиция манбалари улушининг таъсири қуйидаги тузилган регрессия тенгламаси асосида ёритилади:

$$San_ul_t = KMul_t^{a1} * DMul_t^{a2} * ATBMul_t^{a3} * XMul_t^{a4} \qquad (1)$$

Бу ерда: San_ul_t – минтақада t-даврда яратилган саноат маҳсулотининг ЯҲМдаги улуши;

$KMul_t$ – минтақада t-даврда асосий капиталга киритилган инвестициялар манбаларидаги корхона ўз маблағлари улуши;

$DMul_t$ – минтақада t-даврда асосий капиталга киритилган инвестициялар манбаларидаги давлат маблағлари улуши;

$ATBMul_t$ – минтақада t-даврда асосий капиталга киритилган инвестициялар манбаларидаги аҳоли ва тижорат банклари маблағлари улуши;

$XMul_t$ – минтақада t-даврда асосий капиталга киритилган инвестициялар манбаларидаги хорижий маблағлар улуши;

a1, a2, a3, a4 – эмпирик тадқиқотлар асосида олинадиган коэффициентлар.

(1) тенгликни логорифмлаш асосида қуйидаги тенглик ҳосил бўлади:

$$\log(San_ul_t) = a_1 * \log(KMul_t) + a_2 * \log(DMul_t) + a_3 * \log(ATBMul_t) + a_4 * \log(XMul_t) \qquad (2)$$

Шунингдек, қурилиш тармоғи ва унга инвестицияларнинг манбаларни таркибий таъсирини эконометрик таҳлил қилиш асосида қуйидаги регрессия тенгламаси тузилади:

$$Qur_ul_t = KMul_t^{b1} * DMul_t^{b2} * ATBMul_t^{b3} * XMul_t^{b4} \quad (3)$$

Бу ерда: Qur_ul_t – минтақада t-даврда яратилган қурилиш маҳсулотининг ЯҲМдаги улуши;

b1, b2, b3, b4 – эмпирик тадқиқотлар асосида олинадиган коэффициентлар.

Юқоридаги тенгликни қўллаш асосида қуйидагича логорифмланади:

$$\log(Qur_ul_t) = b_1 * \log(KMul_t) + b_2 * \log(DMul_t) + b_3 * \log(ATBMul_t) + b_4 * \log(XMul_t) \quad (4)$$

Саноат ва қурилиш тармоқларининг кенгайиши хизматлар соҳасининг ривожланишига сабаб бўлади. Шунингдек, хизматлар соҳаси ишлаб чиқариш тармоқлари қатори капитал ва меҳнат омили таъсирида ҳам кенгаяди. Жумладан, бунда инвестициялар таъсири алоҳида баҳоланади. Бунда хизматлар билан инвестиция манбалари ўртасидаги боғлиқликни ифодаловчи регрессия тенгламаси тузилиб, ундан фойдаланиш учун логорифмлаш амалиёти қўлланилади:

$$Xiz_ul_t = KMul_t^{d1} * DMul_t^{d2} * ATBMul_t^{d3} * XMul_t^{d4} \quad (5)$$

Бу ерда: Xiz_ul_t – минтақада t-даврда яратилган хизматларнинг ЯҲМдаги улуши;

d1, d2, d3, d4 – эмпирик тадқиқотлар асосида олинадиган коэффициентлар.

$$\log(Xiz_ul_t) = d_1 * \log(KMul_t) + d_2 * \log(DMul_t) + d_3 * \log(ATBMul_t) + d_4 * \log(XMul_t) \quad (6)$$

Юқоридаларга асосланиб, минтақанинг иқтисодий кўрсаткичларига инвестициялар таъсири ва уларни жалб этишнинг оптимал даражаларини баҳолаш мумкин. Бунда юқорида амалга оширган таҳлилларнинг мантиқий давоми сифатида инвестиция манбаларининг иш билан бандлик даражаси, иш ҳақи ҳажмига таъсирчанлиги аниқланади.

Вилоятда иш билан бандлик даражаси ва унга инвестиция манбаларининг боғлиқлигини ифодаловчи қуйидаги кўринишдаги кўп омилли регрессия тенгламаси тузилади:

$$BD_t = KMul_t^{f1} * DMul_t^{f2} * ATBMul_t^{f3} * XMul_t^{f4} \quad (7)$$

Бу ерда: BD_t – минтақада t-даврдаги иш билан бандлик даражаси;

f1, f2, f3, f4 – эмпирик тадқиқотлар асосида олинадиган коэффициентлар.

$$\log(BD_t) = f_1 * \log(KMul_t\ ) + f_2 * \log(DMul_t\ ) + f_3 * \log(ATBMul_t\ ) + f_4 * \log(XMul_t\ ) \quad (8)$$

Юқоридагилар қаторида иш ҳақи ўзгариши учун инвестиция манбаларининг таъсири қуйидаги формула орқали баҳоланади.

$$IshHaq_t = KMul_t^{c1} * DMul_t^{c2} * ATBMul_t^{c3} * XMul_t^{c4} \quad (9)$$

Бунда: $IshHaq_t$ – минтақада t-даврдаги иш ҳақи ҳажми;

c1, c2, c3, c4 – эмпирик тадқиқотлар асосида олинадиган коэффициентлар.

$$\log(IshHaq_t) = c_1 * \log(KMul_t\ ) + c_2 * \log(DMul_t\ ) + c_3 * \log(ATBMul_t\ ) + c_4 * \log(XMul_t\ ) \quad (10)$$

Хулоса шуки, вилоятда инвестициялар жалб этишни тартибга солишда манбаларининг мақбул даражасини таъминлаш учун қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш лозим:

- вилоятда жалб этилаётган инвестициялар бўйича дастурларни такомиллаштириш;

- тадбиркорлик фаолияти учун саноат зоналарини такомиллаштириш ва кенгайтириш;

- туризм кластерлари ва иқтисодий зоналарини ташкил этиш орқали тўғридан-тўғри инвестициялар кўламини ошириш.

Шуларга асосан, соҳа ва тармоқларнинг ЯҲМдаги улуши ва уларда яратилган маҳсулот ҳажмининг ўсиши, аҳоли иш билан бандлик даражаси ўсиши ҳамда турмуш даражасининг ошишига олиб келади. Натижада, вилоятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш барқарорлиги таъминланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Дадахонова С.М. Хорижий мамлакатларда инвестиция фаолиятини тартибга солиш йўллари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a9
2. Ирхин Ю.В. Канадский опыт государственной региональной политики: сравнительный анализ // Социально-гуманитарные знания. 2008. № 6. С. 225–240.
3. www.stat.uz

МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “АЛ-ФАРҚУ БАЙНАЛ АЯТИ ВАЛ-КАРОМАТ” АСАРИНИНГ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ ВА УНИНГ АҲАМИЯТИ

Маҳмуд Нормуродов
Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими

Аннотация. Муҳаммад Ҳаким Термизий ҳаёти ва ижодига эътибор охирги вақтларда жиддий ўсди. Чунки бу олим мероси ўзининг серқирралиги билан тадқиқотчилар эътиборини ўзига жалб қилмоқда. Унда исломий илмларнинг кўпчилиги билан бирга бир қатор ижтимоий-гуманитар фанлар ҳам акс этади. Олимнинг шундай асарларидан бири “Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат” (Мўжиза ва каромат ўртасидаги фарқ) бўлиб, у бир қатор муҳим исломий тушунчалар таҳлилини ўз ичига олган. Ушбу таҳлиллар эса ўз навбатида бир қанча ижтимоий-гуманитар фанларга алоқадорлик касб этган.

Ушбу қимматли асар ҳали қўлёзма ҳолатида турган бўлиб, ўз тадқиқини кутмоқда. Ушбу мақолада асарнинг ижтимоий аҳамияти ва унинг қўлёзмалари ҳақида атрофлича маълумот берилди. Бу эса тадқиқотчи ва ўқувчилар учун бу муҳим китобдан фойдаланишларини осонлаштиради.

Калит сўзлар: Ҳаким Термизий, Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат, Париж, Туркия, қўлёзма, нашр.

Аннотация. Внимание к жизни и творчеству Мухаммада Хакима Термизи в последнее время значительно возросло. Потому что наследие этого ученого привлекает внимание исследователей своим блеском. Он включает в себя большинство исламских наук, а также ряд социальных и гуманитарных наук. Одной из таких работ учёного является «Аль-фарку байнал аяти валь-карамат» («Разница между чудом и чудом»), включившая в себя анализ ряда важных исламских концепций. Эти анализы, в свою очередь, связаны с рядом социальных и гуманитарных наук.

Эта ценная работа все еще находится в рукописном виде и ожидает своего изучения. В данной статье представлена подробная информация об общественной значимости произведения и его рукописи. Это облегчает использование этой важной книги как исследователями, так и читателями.

Ключевые слова: Хаким Термизи, Аль-фарку байнал аяти валь-карамат, Париж, Турция, рукопись, издание.

Annotation. Attention to the life and work of Muhammad Hakim Termizi has grown significantly in recent times. Because this scientist's legacy is attracting the attention of researchers with its brilliance. It includes most of the Islamic sciences

as well as a number of social and humanitarian sciences. One such work of the scholar is "Al-farqu baynal ayati wal-karamat" (The difference between a miracle and a miracle), which included an analysis of a number of important Islamic concepts. These analyzes, in turn, are related to a number of social and humanitarian sciences.

This valuable work is still in the manuscript state and awaits its study. This article provides detailed information about the social significance of the work and its manuscripts. This makes it easier for researchers and readers alike to use this important book.

Key words: Hakim Termizi, Al-farqu baynal ayati wal-karamat, Paris, Turkey, manuscript, edition.

Кириш. Маълумки, Мовароуннаҳр диёри қадимдан диний илм ва маърифат соҳасида ислом илмларини мумтоз даражагача олиб чиқа олган кўплаб буюк алломаларни етиштирган. Айниқса, бу заминда ўрта асрларда ўз асарлари ва таълимотлари билан бутун жаҳонни лол қолдирган юздан зиёд улуғ зотлар самарали фаолият кўрсатган. Мана шундай машҳур сиймолар силсиласида исломий илмларнинг бир нечтасида асосчи сифатида эътироф этиладиган ислом уйғониш даврининг йирик вакили Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан ибн Бишр Ҳаким Термизий (тахм. 205-320/820-932) раҳматуллоҳи алайҳ алоҳида ўрин эгаллайди.

Олимнинг ҳар бир асари алоҳида тадқиқот мавзуси бўлиб, “Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат” (Мўжиза ва каромат ўртасидаги фарқ) китоби ҳам бундан мустасно эмас. Унда жуда кўплаб масалалар кўрилган бўлиб, умуман, Пайғамбарларга хос мўъжизалар ва авлиёларга берилган кароматларига доир энг қадимги ва чуқур таҳлилли асардир.

МАНБЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД

Асарнинг қўлёзмалари ҳақидаги маълумотларга келсак, Усмон Яҳё ва Холид Заҳрий каби олимларнинг қайд этишича, мазкур рисоланинг иккита қўлёзмаси мавжуд:

1. Туркиядаги Исмоил Соиб кутубхонасида 1571-рақам остидаги Ҳаким Термизийга тегишли 12 рисоланинг ўн биринчиси бўлиб, 152б-176б бетларни ўз ичига олади. Қўлёзма насх хатида битилган бўлиб, нусха кўчирувчи ушбу рисолани 543/1148 йили ёзиб тугатган.

2. Ҳиндистоннинг Калтутта шаҳридаги “Ал-жамиъятул Асиявияти” жамиати кутубхонасида 1116-рақам остида сақланадиган мажмуанинг таркибидадир. Бироқ бу қўлёзма тўлиқ шаклда эмас13.

[13] Холид Заҳрий. Ҳаким Хуросон ва анис аз-замон. – Б.303.

Ушбу маълумотлардан маълум бўладики, китобнинг Туркия ва Ҳиндистонда сақланадиган иккита қўлёзмаси асосий саналади. Бироқ бундан бошқа қўлёзмалари ҳам борлиги ҳозирча бизга маълум эмас.

Дарҳақиқат, иккала қўлёзманинг ҳам носихларининг исмлари зикр этилмаган.

МУҲОКАМА

Китобнинг тадқиқ ва нашрлари ҳақидаги маълумотларга келсак, бу китоб ҳали араб тилида нашр этилмаган. Бироқ, Имом Термизий ҳалқаро илмий тадқиқот маркази илмий ходими Нормуродов Маҳмуд Туркиядаги Исмоил Соиб кутубхонасида 1571-рақам остидаги сақланадиган нусхадан фойдаланган ҳолда асарни араб тилида тадқиқ ва таҳрир қилиш ҳамда ушбу асарни ўзбек тилига таржима қилиш ишлари билан шуғулланмоқда. Ҳаким Термизийнинг илмий фаолияти билан бир қанча йиллардан бери шуғулланиб келаётган марокашлик таниқли олимлардан Холид Заҳрий берган маълумотларига қараганда асарнинг иккинчи номи ҳам бўлиб, у “Баёнил фарқи байнал аяти вал-каромат” номи билан ҳам аталган14. Яна шунингдек, машҳур тадқиқчи олимлардан Муҳаммад Иброҳим Жуюший “Ҳаким Термизийнинг “Баёнил фарқи байнал аяти вал-каромат” деган бошқа китоби ҳам бор” деган фикрни билдириб, бу иккиси иккита китоб эканлигига далолат қилган15.

НАТИЖАЛАР

Дарҳақиқат, юқорида ўтган маълумотлардан Ҳаким Термизийнинг “Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат” асари икки хил ном билан зикр қилинганлиги маълум бўлади. Шунингдек, шарқшунос олимлар ўртасида ҳам китобнинг номини ёзишда икки хил йўл тутилганини кўриш мумкин.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида қайд этиб ўтиш лозимки, асарнинг Туркиядаги Исмоил Соиб кутубхонасида 1571-рақам остидаги сақланадиган нусхасимукаммалроқ ҳолатда бўлиб, бугунги кунда ўша нусхадан фойдаланган ҳолда асарнинг нашр этилиш арафасида турибди. Шу жиҳатдан ушбу қўлёзма ҳолатидаги ушбу китобни ўрганишда ва тадқиқ этишда мана шу икки нашрдан қиёсан фойдаланиш мақсадга мувофиқ эканлиги маълум бўлади.

“Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат” асари Ҳаким Термизийнинг муҳим ва йирик асарларидан ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан ўша рисолани илмий жиҳатдан ўрганиб, ундаги улкан ғояларни тадқиқ этиб, турли тилларга таржима қилиш бугунги кун олимларининг муҳим вазифаларидандир.

[14] Холид Заҳрий. Ҳаким Хуросон ва анис аз-замон. – Б.282.
[15] Холид Заҳрий. Ҳаким Хуросон ва анис аз-замон. – Б.282.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан Термизий. Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат. Қўлёзма. Туркия: Исмоил Соиб кутубхонаси, 1571-рақам.
2. Muhammad Ibraheem al-Geyoushi, “Al-Hakim al-Tirmidhi: his works and thoughts”, Islamic Quarterly, vol. 14, no. 4, London, 1970, pp. 106.
3. Холид Заҳрий. Ҳаким Хуросон ва анис аз-замон. – Марокаш: Марказ ад-дироса вал-абҳас ва иҳя ат-турос, 2013.

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BIOLOGIYANI O`QITISHDA O’QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR

Sharipova Dildora Rajabovna
Navoiy davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasi o’qituvchisi.

Аннотация. Ushbu maqolada biologiyani o’qitishda sinergetik yondashuv asosida o’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishdagi innovatsiyalar haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so`zlar: sinergetik yondashuv, modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o’qitish texnologiyasi, kichik guruhlarda ishlash , pedagogik texnologiya ,bilish faoliyati ta'lim- tarbiya, bilim, ko'nikma malaka .

Аннотация: В статье представлены сведения об инновациях в организации и управлении познавательной деятельностью студентов на основе синергетического подхода к преподаванию биологии.

Ключевые слова: синергетический подход, модульная образовательная технология, технология совместного обучения, работа в малых группах, педагогическая технология, познавательная деятельность, образование, знания, квалификация навыков.

Abstract: The article presents information about innovations in the organization and management of students' cognitive activity based on a synergetic approach to teaching biology.

Key words: synergetic approach, modular educational technology, collaborative learning technology, work in small groups, pedagogical technology, cognitive activity, education, knowledge, skills qualification.

Kirish. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealaming mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki,

o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. Sinergetik yondashuv asosida o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilaming bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilaming faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sinergetik yondashuv asosida darsda o'quvchilaming bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilaming bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Polshalik didaktik olim V.Okonning “Umumiy didaktikaga kirish “ nomli kitobida o'quvchilaming bilish faoliyatini tashkil etishning quyidagi yo'llari ko'rsatilgan:

1. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvcbilarning bilish faoliyati quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

• o'quv materiali bilan dastlabki tanishish;
• o'quv materiallarini o'rganish;
• o'zlashtirilgan bilimlami avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan taq- qoslash;
• bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash·
• o'zlashtirilgan bilimlarni yangi holatlarda qo'llash.

2. O'quvchilarning bilish faoliyatini mustaqil ish asosda tashkil etish:

• muammoli vaziyatlami keltirib chiqarish;
• o'quv topshiriqlarining maqsadini aniqlash;
• mustaqil izlanish orqali savollarga javoblar topish;
• nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar asosida javoblarning to'g'riligini tekshirib ko'rish;
• bilimlarni tizimga solish va mustahkamlash;
• bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llash.

3. O'quvchilarning bilish faoliyatini ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etish:

• o'quv faoliyatini amalga oshirish maqsadi, borishini aniqlash;
• o'quv faoliyatning modelini tuzish;
• jaoliyatni bajarish namunasini ko'rsatish;
• o'quvchilar tomonidan ishni bajarish;
• Faoliyatni takrorlash va xatosiz bajarishni o'rganish.

4. O'quvchilarning bilish faoliyatini axloqiy sifatlarni shaklantirish maqsadida tashkil etish:

• o'qituvchining ko'rsatmasi yoki tavsiyasiga binoan, tavsiya etilgan adabiyotlami topish;

• qo'shimcha o'quv adabiyotlar bilan tanishish;

• o'rganilgan axborotlarni tahlil qilish va baholash;

• adabiyot muallifining jamiyatning ma'naviy-ma'ritiy sohasida yoki fan rivojiga qo'shgan hissasini aniqlash va baho berish;

• o'quvchilarning o'z xulqi va axloqiy sifatlarini rivojlantirish yuzasidan umumiy xulosasi.

Ta'lim jarayonini tarbiya bilan, bilim, ko'nikma va malakalarni bir-biri bilan ajratilgan holda shakllantirishga mo'ljalangan o'quv faoliyatini tashkil etish mumkin emas. Sinergetik yondashuv asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etganda, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim holatida, bilim, ko'nikma va malakalami bir-biri bilan uzviy ravishda shakllantirish lozimligini qayd etish zarur. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish va an'anaviy ta'lim tizimidagi kamchiliklarga barham berish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarning bilish faoliyatini yalpi o'qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda o'quvchilar o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradilar, ularning aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlami o'zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini mustaqil bajaradi va o'z bilish faoliyatining subyektiga aylanadi.

XULOSA

Shunday qilib, sinergetik yondashuvda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, loyihalash, maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash, olingan natijani tahlil qilish va baholash bosqichlaridan iborat bo'ladi. Biologiya fanini o‘qitishda sinergetik yondashuv asosidagi innovatsiyalardan amalda foydalanish o’quvchilarning mustaqil ishlashiga , ijodiy fikrlashiga va ta’lim samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali o'quvchi nazarda tutiladi, o'quvchilarning mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Shu sababli o'quvchilarni o'z o'quv faoliyatining to'laqonli subyektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insonparvariashtirish va demokratlashtirish, o'qitish samaradorligini orttirish maqsadida biologiyani o'qitish jaraxoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalami qo'llash zarurati tug'ildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho`lpon” – 2011 y.
2. М.Н.Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари . Педагог журнали 11. 07. 2022 й
3. М.Н.Ибодова Pedagogical Conditi ons of Developing Self-Studu Working Skills with Textbo- ok book for School children.Eastern European Scientific Journa.Ger many, 2018г. № 2.(13.00.00, №1).P. 295-297.
4. M. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 10.10.2021г.
5. M. N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o’qitishninh interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
6. M. N. Ibodova Conceptual framework for tne use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852
7. M. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 10.10.2021г.
8. M. N. Ibodova .Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceum . Suropean Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 11 (4), (2023). https://www.idpublications.org/ejrres-vol-11-no-4-2023/

УРОВЕНЬ СФОРМИРОВАННОСТИ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Бурханов С.С.
Г.Ташкент Национальный центр подготовки педагогов по новым методикам старший преподаватель кафедры "Педагогики, психологии и образовательных технологий"

Аннотация. В статье описывается компетентность, состояние развития основных компетенций студентов, государственные требования к их развитию.

Ключевые слова: компетенция, знания, умения, ценностные ориентации, студент.

Современный мир меняется быстрыми темпами и среди главных тенденций его развития - информатизация и коммуникационная глобализация. На смену предшествующим общественным укладам пришло постиндустриальное общество, где необходимы высокообразованные люди, уровень компетентности которых соответствует темпам развития общества. В таких условиях чрезвычайно возрастают требования к современной системе образования, учитывающей растущий объем информации и развитие технологий её получения. Ценностью образования человека становится не сумма усвоенных им знаний, а способность быстро находить нужную информацию и использовать её в реальной жизни. Это возможно при формировании у студентов ключевых компетенций, понимаемых в данном исследовании как совокупность смысловых ориентаций, знаний, умений, навыков и опыта деятельности студента по отношению к определенному кругу объектов реальной действительности, необходимых для осуществления личностно и социально-значимой продуктивной деятельности.

Основными структурными элементами понятия «компетенция» являются: - знания; умения; ценностные ориентации и опыт практического применения полученных знаний. Знания и умения составляют основу – ядро компетенции. Обязательным условием формирования образовательных компетенций студентов является практическая деятельность. На сегодняшний день в теории и практике образовательных учреждений профессионального образования, реализующих ГОС, наиболее сложными являются вопросы диагностики сформированности компетенций как в целом – на выпуске студента из образовательного учреждения, так и после изучения учебной дисциплины, МДК.

Адекватная оценка обеспечивает студентам осознание своего уровня компетентности, позволяет соотнести индивидуальные возможности с требованиями ГОС, рынка труда. А главное – приводит к пониманию «некомпетентности», создавая тем самым предпосылки самосовершенствования и саморазвития.

Если компетентность – это способность мобилизовать полученные знания и умения, то, как можно измерить эту «способность», да ещё в конкретной ситуации? Или как измерить входящий в состав компетентности жизненный опыт, интересы и ценности студента?

При оценке уровня сформированности мы учитывали, что оценивается не компетентность как таковая, а лишь отдельные её компоненты, лежащие в основе формирования той или иной компетенции, т.е. знания, умения и опыт их практического применения.

ГОС требует, чтобы общие компетенции формировались у студента на протяжении всего периода обучения: при освоении учебных дисциплин, профессиональных модулей, прохождении учебной и производственной практики. Однако в структуре основной образовательной программе специальности практика стоит отдельно. Получается, что мы не имеем возможности оценить освоение каждой из образовательных компетенций до тех пор, пока студенты не закончат изучение этой программы. Как же тогда быть с промежуточной аттестацией?

В методической литературе и в интернете обсуждаются различные взгляды на данную проблему. Предлагается несколько вариантов её решения. Первый – оценивать общие компетенции только на защите выпускной квалификационной работы, но тогда отпадает промежуточная аттестация. Второй – оценивать общие компетенции частично, но в таком случае их придётся разбивать на части и привязывать образовательные фрагменты к учебным дисциплинам и модулям.

Третий – проводить диагностирование и оценку сформированности у студентов общих компетенций методом анкетирования и собеседования, но когда и как.

Литература

1. Авдеев, В.М. Педагогическая система формирования ключевых образовательных компетенций старшеклассников : дис. ... канд. пед. наук / В.М. Авдеев – Тамбов, 2007. – 225 с.
2. Асмолов, А.Г. Социальная компетентность классного руководителя: режиссура совместных действий / А.Г. Асмолов. – М. : Просвещение, 2007. – 321 с.

3. Байденко, В.И. Компетенции: к освоению компетентностного подхода : Материалы к первому заседанию методологического семинара 20 мая 2004 г. / В.И. Байденко. – М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 30 с.
4. Воровщиков, С.Г. Учебно-познавательная компетентность старшеклассников: состав, структура, деятельностный компонент / С.Г. Воровщиков. – М. : Академия АПК и ППРО, 2006. – 160 с.

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

D.B.O‘rinova
Urganch davlat universiteti Turizm kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ziyorat turizmining ahamiyati, mazmun-mohiyati va uni rivojlantirishning nazariy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, ziyorat turizmi, diniy turizm, ziyorat qilish, ma’naviy ziyorat turizmi.

Bugungi kunda zamonaviy turizm nisbatan yangi hodisa sifatida qaralsa-da, uning kelib chiqishi azaliy ziyorat amaliyotiga asoslangan. Darhaqiqat, qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan ziyorat qilish amaliyotini chuqur anglamay turib, turizmning rivojlanishini tushunishimiz qiyin.

Ziyorat turizmi diniy turizmning bir turi bo‘lib, turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari yig‘indisidir. Ziyorat kishilarning muqaddas joylarga sajda qilish sayohati, deb tavsiflanadi. Ishtirokchilar soni va oilaviy mansubligidan kelib chiqib, individual, oilaviy va guruhli ziyoratlarga bo‘linadi. Shuningdek, diniy maqsadlarda sayohat qiladigan sayyoh - muqaddas joylar va din markazlariga tashrif buyurish uchun 6 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga doimiy yashaydigan mamlakatdan tashqariga chiqadigan kishidir. Diniy turizm deganda ular uchun odatiy muhitdan tashqarida joylashgan muqaddas joylar va diniy markazlarga boradigan sayyohlarning xizmatlarini ko‘rsatish va ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyat turlari tushunilishi lozim. Diniy turizm quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

- ziyorat turizmi;
- ekskursiya va ilmiy diniy turizm.[16]

Ziyorat turizmi-diniy turizmning bir turi bo‘lib, har xil diniy e’tiqodga bo‘y sunuvchin kishilarning muqaddas qadamjolarni ziyorat qilishlari va u yerda hurmat va ehtirom ko‘rsatishlariga hisoblanadi.

[16] “Buyuk ipak yo‘li chorrahasida ziyorat turizmning renessansi” Ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand-2019.



1-rasm.Diniy turizm turlari[17]

Turizmning maqsadiga ko‘ra boshqa turlari kabi ziyorat turizmining ham muhim qismlaridan biri ekskursiya hisoblanadi. Bunda muqaddas joylarni ko‘rish bilangina chegaralinib qolmay, balki ularni asosiy ma’no-mazmunini, tarixini o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi.

Ziyorat- ma’lum maqsadni ko‘zlagan muqaddas qadamjolarga sayohat bo‘lib, uning ma’nosi ilohiy sajdagohlarga hurmat va ehtirom ko‘rsatishdir. Bu diniy xarakterga ega bo‘lib, xudoga sig‘inishning yaqqol ko‘rinishidir. Ziyorat qadamjolarini ko‘rib, lekin diniy urf-odatlarni bajarmaslik, unga amal qilmaslik, diniy amallarni bajarmaslik, ziyorat turizmi hisoblanmaydi, bu shunchaki ekskursiya hisoblanadi xolos.

Ziyorat turizmini amalga oshiruvchi sayohatchilarning boshqa turistlardan farqli jihati shundan iboratki,ular mehmonxona, oshxona va xizmat sifatiga unchalik talabchan bo‘lmaydilar. Ular joylashtirish obyekti sifatida qadamjolarda tashkillashtirilgan dala hovli, palatka, hujralarda, masjidlarda ham tunab ketaveradilar. Odatda ziyoratda muddat bo‘lmaydi, shu bois bu yerda bayram kunlari va havo yaxshi kunlari ziyoratchilar gavjum bo‘ladi.

Ziyorat turizmida ma’naviy ziyorat turizmi ajralib turadi. Ziyorat turizmi - turli konfessiyalar vakillarining ziyorat maqsadlari bilan sayohatlari majmuidir. Haj esa imonlilarning muqaddas joylarga sajda qilish istagidir. Hamda ziyorat qilish quyidagi sabablar bilan ajralib turadi:

- ruhiy va jismoniy kasalliklardan davolanish istagi;
- qarindoshlar va do‘stlar uchun ibodat qilish;
- inoyat topish;
- xudojo‘y ishni bajarish;
- gunohlarni kechirish;
- yuqoridan yuborilgan ne’matlar uchun minnatdorchilik bildirish;
- imonga sadoqat ko‘rsatish;

[17] Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

- imon nomi bilan kechirishga intilish;
- hayotning ma’nosini topish.

Haj insonning haqiqatga ma’lum bir munosabatini nazarda tutadi. Ziyorat g‘oyasi maxsus qiyinchiliklar sharoitida harakatlar va ixtiyoriy ravishda ushbu shartlarda bo‘lish majburiyatini o‘z ichiga oladi. Bu insonning abadiy ma’naviyat nomi bilan vaqtinchalik moddiy qadriyatlarni qurbon qilishga tayyorligini anglatadi. Kishilar yashash joylarida marosim tadbirlari yetarli bo‘lmaganda ziyorat qiladilar.

Shular bilan bir qatorda, ilm-fanda quyidagi xususiyatlarga ko‘ra tasniflangan ziyoratlar turlari mavjud:

1) ishtirokchilar soni va oilaviy mansubligi bo‘yicha - individual, oilaviy va guruh ziyoratlari;

2) davomiyligi bo‘yicha - uzoq va qisqa muddatli ziyorat;

3) mavsumiylik nuqtai nazaridan - yil davomida ziyorat qilish va diniy bayramlarga ziyoratlar;

4) tashrif buyurish obyektlari bo‘yicha - konfessional diniy joylarga (cherkovlar, monastirlar va ibodatxonalar) va tabiiy diniy joylarga (tog‘lar, ko‘llar, g‘orlar, buloqlar va bog‘lar) tashrif buyurish;

5) ziyorat obyekti joylashgan joy bo‘yicha - ichki (davlat chegaralari doirasida) va xorijiy ziyorat turlari;

6) majburiyat asosida - ixtiyoriy va majburiy ziyorat sayohatlari.

Ma’naviy ziyorat turizmi tor ijtimoiy psixologik asos va geografik yo‘nalishga ega bo‘ladi. Ma’naviy ziyorat turizmi deganda Shimoliy va janubiy Amerika, Yevropa va Rossiyadan sharq mamlakatlaridagi turli ma’naviy amaliyot markazlari, birinchi navbatda Hindiston, Tibet, Xitoy, Nepal va Yaponiyaga sayyohlar safari tushuniladi. Ma’naviy ziyorat turizmi tibbiy sog‘lomlashtirish turizmi bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, Hindistondagi ruhiy markazlar Ayurveda davolash markazlaridir. Ma’naviy ziyorat turizmi va turizmning boshqa turlari bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi. Masalan, har yili ko‘plab sayyohlar Qigong mashg‘ulotlari uchun Xitoyga tashrif buyuradilar. Undagi Qigong - vosita va nafas olish mashqlari majmuasidir.

Hozirgi kunda ziyoratchilar sayyohlik sanoati xizmatlaridan keng foydalanmoqdalar. Bunday sayohatlarni maxsus sayyohlik kompaniyalari tashkil etmoqda. Ziyorat sayohatlari diniy-ma’rifiy yoki madaniy-tarixiy turlardan farqli o‘laroq, ular bilim maqsadlari va marosimning imon bilan belgilangan ma’nosini ham o‘z ichiga oladi. Dasturning ko‘ngilochar bo‘limi sezilarli darajada qisqartirilib, bunda sog‘lomlashtirish va ilmiy dam olishga ruxsat etiladi. Ammo,

ziyorat turlarini tashkil etish bilan tegishli yo‘nalishlarning individual va guruh turizmiga ixtisoslashgan sayyohlik kompaniyalari shug‘ullanishlari mumkin.

Xulosa shuki, ziyorat turizmini rivojlantirishning jihatlari ziyorat kishilarning safarlari, ekskursiya va ilmiy diniy turizmni amalga oshirilishi, ziyoratlar turlarining ko‘payib borishi, ma’naviy ziyorat turizmining keng taraqqiy qilib borishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/5774
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyuldagi PQ-223-son “Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
3. “Buyuk ipak yo‘li chorrahasida ziyorat turizmning renessansi” Ilmiy maqolalar to‘plami. Samarqand-2019.
4. Папирян Г.А. Международные экономические отношения: маркетинг в туризме. - М.: Финансы и статистика, 2000. - С. 201. https://studfile.net/preview/5369263/

MAGNIT MAYDONIDA YUPQA PLASTINKANING MAGNITOELASTIKLIK DEFORMASIYALANISH MODELI

Narkulov Akram Sidikovich
Muhammad al-Xorazmiy namidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti

Shodiyev Azizbek Olim o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy namidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali magistri

Annotatsiya. Maqolada magnit maydonida yupqa toktashuvchi plastinka shaklidagi konstruktiv mikroelementlarning elektromagnit kuchlar ta’siridagi magnitoelastik tebranishlari matematik modellashtirishgan, va bu jarayonni tadqiq etish uchun dasturiy vosita yaratilgan, sonli tajribalar o`tkazilgan, hamda olingan sonli natijalarni taxlil qilinagan.

Kalit so’zlar: magnit maydoni, magnitoelastik, plastinka, deformatsiya.

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insonlarning intelektual faoliyatiga kirib kelib, ilmiy texnik taraqqiyotning o’sishiga asosiy sababchilardan biri bo’lib kelmoqda. O’zaro ta’sir muammolari magnitoelastiklik muammolariga, hamda magnit maydonida elastik deformasiyalanuvchi, elektr

o’tkazuvchi jism harakati masalalariga asos bo’lib hizmat qiladi. Bog’liqli maydonlar mehanikasida tutash muhit harakatini elektromagnit effektlarni hisobga olgan holda o’rganish muhim o’rinni egallaydi. Zamonaviy yangi texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bu effektlarni hisobga olish kerakligi zaruriyatini keltirib chiqardi.

Magnitoelastiklik hozirgi davrga kelib juda muhim amaliy samara bermoqda va zamonaviy texnikaning turli sohalariga tadbiq qilinmoqda. Jumladan: real konstruktiv elementlarni hisoblashlarda, zamonaviy o’lchagich tizimlarini yaratishda, shuningdek elektron avtomatik stansiyalarning elektron boshqaruv mashinalarida va mikroelektronika, radioelektronika, elektrotexnikaning har xil sohalarida uchraydigan elektromagnit maydoni ta’siri ostida ishlaydigan yupqa plastinka va qobiqlar shaklidagi konstruktiv elementlar tebranishi, mustahkamligi kuchlanganlik-deformasiyalanganlik holatlarini tadqiq qilishda.

Magnit maydonida elektr o’tkazuvchi jism deformasiyalanish jaryonini matematik modellashtirish va jismda paydo bo’ladigan elektromagnit effektlarni tadqiq qilish amaliy jixatdan muhim axamiyatga ega.

Elektromagnit maydoni bilan elastik muhitning o’zaro ta’sir mexanizmi har xil bo’lib, qaralayotgan jismning geometrik xususiyatlari va fizikaviy xossalariga bog’liqdir. Xususan, bu ta’sir mexanizmini tadqiq etish muammoli masalalardan biri sifatida anizotrop elektr o’tkazuvchanlik yupqa plastinka va qobiqlarga nisbatan qaralganda bir qancha maxsus xususiyatlarga ega bo’ladi.

Magnit maydonida harakatlanayotgan elektr o’tkazuvchi jismning magnitoelastik tenglamalarida elektr o’tkazuvchi jismning elektromagnit kuchlar, ya’ni Lorens kuchi va mexanik kuchlar ta’siridagi deformasiyalanish jarayonini matematik modellashtiramiz.

Elektromagnit maydoni tavsiflaydigan tenglamalarni yozamiz va miqdorlarni aniqlaymiz.

U holda magnitoelastiklik modelini quyidagicha yozamiz:

$$div\hat{T}+\rho_0\left(F_i+F_i^{\wedge}\right)=\rho_0\frac{\partial^2\vec{u}}{\partial t^2},$$

$$rot\vec{H}=\vec{J} \qquad rot\vec{H}=\vec{J}$$

$$div\,\vec{B}=0, \qquad div\vec{D}=0$$

Mos holda Om qonuni va Lorens kuchi quyidagicha yoziladi:

$$\vec{J}=\sigma\left[(\vec{E}+\vec{V}\times\vec{B})\right], \qquad \rho\vec{F}^{\wedge}=\sigma\left[(\vec{E}+\vec{V}\times\vec{B})\times\vec{B}\right].$$

Bu erda $\vec{E}$ elektr maydoni kuchlanganligi vektori, $\vec{H}$ magnit maydoni kuchlanganligi vektori, $\vec{D}$ elektr induksiyasi vektori, $\vec{B}$ magnit induksiyasi vektorlari bilan tavsiflansin.

Toktshuvchi jism magnit maydonida harakatlanganda elekromagnit maydoni tomonidan shu jismga tasir qiluvchi hajmiy elektrodinamik kuch, yani Lorens kuchi paydo bo'ladi.

Bu elekrodinamik kuchlarning yupqa toktashuvchi egiluvchan plastinka va qobiq shaklidagi ellementlarga tasiri juda sezilarlidir.

Lorents kuchi tangentsial tuzuvchisining toktashuvchi plastinkaning kuchlanganlik holatiga tasirini o`rganish maqsadida allyuminiylardan yasalgan izotrop plastinkani magnet maydonida qaraymiz.

Olingan natijalar Lorens kuchi tangentsial tuzuvchisining va magnit maydonning toktashuvchi plastinkaning kuchlanganlik holatiga tasiri juda sezilarli ekanligini kursatadi quyidagi chizmalardan ko`rinib turibdi:



Elektrodinamik va mexanik kuchlar ta`sirida plastinkani deformatsiyalanishi jarayonining umumiy holda ko`rinishi.

Adabiyotlar

1. Indiaminov, R., Narkulov, A. S., & Zarpullaev, U. K. (2020). Mathematical modeling of magnetoelastic vibrations of a rod in a magnetic field. ISJ Theoretical & Applied Science, 03 (83), 327-332. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-03-83-60 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS. Scopus ASCC: 2200. Philadelphia, USA.
2. Индиаминов Р.Ш., Наркулов А.С. Магнитоупругое деформирование токонесущей оболочки с учетом ортотропии проводящих свойств //

Республиканской научно-технической конференции «Современное состояние и перспективы применения информационных технологий в управлении». - Самарканд, 2019.

RAQAMLI QURILMALARNI LOYIHALASHDA MANTIQIY ELEMENTLARGA ELECTRONICS WORKBENCH MULTISIM DASTURINI QO'LLASH

Narkulov Akram Sidikovich
TATU Samarqand filiali, dotsenti

Jurayev Husan Mamasharip o'g'li
TATU Samarqand filiali, talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mantiqiy elementlardan tuzilgan sxemalarning ishlash jarayonini Electronics Workbench dasturidan foydalangan holda tahlil qilish va vizuallashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: mantiqiy element, elektron sxemalar, VA mantiqiy element,YOKI mantiqiy element.

Mashg'ulotlar jarayonida egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash amaliy mashg`ulotlar orqali amalga oshiriladi. Ammo bu mashg'ulotlarning aksariyat qismida kutilgan natijaga erishilmaydi. Bunday salbiy holatning kuzatilishiga amaliy stendlar, zamonaviy asboblar, qurilmalar etarli emasligi kabi sabablarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu muammoni mashg'ulotlar jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanish yordamida bartaraf qilish mumkin.

Zamonaviy elektron qurilmalarni loyihalash va ishlab chiqish katta aniqlik hamda chuqur tahlilni talab qiladi. Bundan tashqari, bajariladigan ishlarning katta hajmga egaligi va murakkabliligi sababli kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi.

Electronics Workbench Multisim dasturiy kompleksi elektr zanjirlarni dasturiy loyihalash va imitatsiya qilish vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U elektron qurilmalarni loyihalovchi korxonalarda va oliy o'quv yurtlarida qo'llanilishi mumkin.

Electronics Workbench Multisim bilan ishlash kompyuter texnikasi bo'yicha chuqur bilimlarni talab qilmaydi. Dasturning interfeysini bir necha soat davomida o'zlashtirib olish mumkin.

Hozirgi vaqtda jahonda ko'plab kompyuterda modellash dasturlari qo'llanilmoqda. Ular ichida o'quv yurtlarida eng ko'p qo'llaniladigan dasturlardan

biri Interactive Image Technologies firmasining Electronics Workbench Multisim dasturidir.

Electronics Workbench Multisim (EWB) dasturi real vaqt masshtabida ishlovchi, o'lchash asboblari bilan jihozlangan talabaning real o'quv joyida elektron laboratoriyani imitatsiya qiladi. Dastur yordamida har qanday murakkablikdagi analog va raqamli elektron qurilmalarni tuzish, modellash va tadqiq qilish mumkin.

Foydalanuvchining interfeysi menyu, asboblar paneli va ishchi sohadan iborat (1-rasm).

Menyu quyidagi komponentlarga ega: fayllar bilan ishlash menyusi (File), tahrirlash menyusi (Edit), zanjirlar bilan ishlash menyusi (Circut), sxemalarni tahlil qilish menyusi (Analysis), oynalar bilan ishlash menyusi (Window), yordam fayllari bilan ishlash menyusi (Help).

Asboblar panelida elektron sxemalar elementlarining tasvirlari bo'lgan tugmalar mavjud (1-rasm). Tugmalar bosilganda ularga mos bo'limlar ochiladi,



1-rasm. Electronics Workbench Multisim kompleksining interfeysi.

Dasturning bosh oynasi 1-rasmda keltirilgan. Ko'rinib turganidek, dastur standart interfeysga ega. Komandalar menyusi oynasi dastur oynasining yuqori qismida joylashgan. Sxema oynasi dastur oynasining markaziy qismini egallaydi. Ushbu oynada elektr zanjirlar hosil qilinadi va ularga kerakli o'zgartirishlar kiritiladi. Belgilar oynasi sxema oynasining yuqori qismida joylashgan. Yuqori qatordagi belgilar menyu komandalarini qaytaradi. Keyingi, ya`ni sxema oynasining yuqorisida joylashgan belgilardan zanjirga ulanuvchi elementlar va

o’lchash asboblarini tanlash uchun foydalaniladi. Diodlarni (Diodes) va o’lchash asboblarini (Instruments) tanlash oynalari 1-rasmda ko’rsatilgan.

Sxemani hisoblashni aktivlashtirish va to’xtatish (Activate/Stop) hamda pauza (Resume) tugmalari dastur oynasining yuqori o’ng burchagida joylashgan. Activate/Stop tugmasi 0 va 1 raqamlariga ega. Ulardan birini bosish yo’li bilan sxemani hisoblashni aktivlashtirish yoki to’xtatish mumkin.

Sxemani uzoq vaqt davomida aktivlashgan holatda ushlab turish maqsadga muvofiq emas. Chunki ma`lumotlarni uzoq vaqt davomida intensiv qayta ishlash natijasida hisoblashlardagi xatoliklar ortib ketishi mumkin. EWB dasturida ishlash quyidagi uch etapni o’z ichiga oladi:

• sxemani tuzish;

• sxemaga o’lchov asboblarini ulash;

• sxemani aktivlashtirish, ya`ni tadqiq qilinayotgan qurilmadagi jarayonlarni hisoblash.

“VA” - mantiqiy elementini viziuallashtirishda Electronics Workbench dasturi elementlar ba’zasidan bizga kerakli bo’lgan elementlarni tanlab olib sxemani chizamiz.

«VA» - mantiqiy ko'paytirish, «konyunksiya» elementi. A va B kirishlarga bir vaqtda “1” signali berilsa ya'ni ulagichlar bir vaqtda ulansa, Z chiqishda “1” signali hosil bo'ladi ya'ni lampa yorishadi. Kirishlardan birortasiga yoki bir vaqtda ikkalasiga «0» signali berilsa ya'ni ulagichlardan biri yoki bir vaqtda ikkalasi ulanmagan holda bo'lsa, chiqishda «0» signali hosil bo'ladi ya'ni lampa o'chgan holda bo'ladi.

Rasmdan ko’rinib turibdiki, kalitlar uzilgan holat 0 ga to’g’ri keladi. Agar 1 kalit uzulgan bo’lsa birinchi kirishda 0 soni paydo bo’ladi.



2-rasm. «YOKI» - mantiqiy elementi sxemasi.

Olingan natijalar asosida mantiqiy elementning chinlik jadvalini to'ldirish mumkin.

A	B	Z
0	0	0
0	1	1
1	0	1
1	1	1

Zamonaviy kompyuter texnalogiyalari vositalaridan foydalanish talabalarning real elementlar va uskunalar hamda ularning elektron sxemalardagi jarayonlarni o'rganish to'g'risidagi bilimlarini yanada oshirishi va chuqurlashtirishiga xizmat qilishi kerak.

Adabiyotlar

1. Егоров Е.Н., Рempен И.С. Применение программного прикладного пакета Multisim для моделирования радиофизических схем, 2008, 24с. - URL: http://www.sgu.ru/files/nodes/30844/MULTISIM.
2. Карлащук В.И. Электронная лаборатория на IBM PC. Программа Electronics Workbench и ее применение. – М.: Изд. «Солон–Р», 2001. – 726 с.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ТИЛ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

М.А.Расулова
Таянч докторант (ТДПУ)
mokhira876@gmail.com

Аннотация. Мақолада олий таълим муассасаларида чет тилларини ўрганувчи талабаларнинг нутқ фаолиятини замонавий таълим технологиялар воситасида такомиллаштириш ҳақида фикр-мулоҳаза юритилади.

Таянч сўзлар: нутқ фаолияти ,технология, тил қобилияти.

Abstract. The article discusses the improvement of the speech activity of students learning foreign languages in higher education institutions with the help of modern educational technologies.

Key words: speech activity, technology, language ability.

Аннотация. В статье рассматривается совершенствование речевой деятельности студентов, изучающих иностранные языки в высших учебных заведениях, с помощью современных образовательных технологий. Ключевые слова: речевая деятельность, технология, языковая способность.

Таълим жараёнига замонавий технологияларни қўллаш масаласи тобора кучайиб бормоқда. Бу нафақат янги техник воситалар, балки ўқитишнинг янги шакл ва усуллари, ўрганишга янгича ёндашувидир. Биз ўз олдимизга қўйган асосий мақсад - чет тилини ўрганишда замонавий технологиялардан фойдаланган ҳолда, чет тилини ўрганувчиларни ўқитиш сифатини яхшилаш, уларнинг коммуникатив маданиятини такомиллаштириш, амалий машғулотларни ўрганиш учун технологиядан қандай самарали фойдаланиш мумкинлигини кўрсатишдир[1,2]. Унда инглиз тили талабаларга технология ёрдамида ўрганиш кўникмаларини яхшилашга ёрдам берадиган турли хил ёндашувлар ва методлар муҳокама қилинади.

Одатда, анъанавий технологиялар тушунтириш ва тасвирий ўқитиш услубига асосланган. Яъни, талабаларга янги материални тақдим этади, аниқлик билан бирга, материалнинг тақдимоти ўқитувчининг монологи кўринишида бўлади. Талабалар тинглайдилар, ўқитувчининг топшириқларини бажарадилар, шундан сўнг материал эслаб қолинади.

Таълимни инсонпарварлаштириш, табақалаштириш узлуксиз таълим тизимини нисбатан тез мослашувчан, ўзгарувчан, очиқ қилади. Натижада талаба-ўқувчиларнинг ўзлари томонидан таълим олиш йўлларини танлашга

аниқ замин вужудга келади, бу эса уларнинг шахсий - касбий эҳтиёжлари ва интилишларига анча тўлиқ жавоб бера олади [3].

Маълумки, тил қобилияти талабанинг фаоллик, луғат бойлигини тўлдириш, боғланишлилик каби кўрсаткичлари такомиллашишига шунингдек ўйин методидан фойдаланиш ҳам кўмаклаша олади. Қуйидаги ўйин вазиятларини қўллаш мақсадга мувофиқ [4,5]: “Who am I?”, “Assosiation”, “Yes/No” булар тил малака ва кўникмаларини жалб қилишни талаб этади. Амалда муаллиф роли ўйинлар ҳақида гап юритади. Дарс давомида талабаларга ролларни «тақсимлаб бериш» ўзи улар томонидан ихтиёрий танланиши мумкин. Ҳар бир рол маълум нутқий фаолликни (оғзаки ёки ёзма тарзда) кўзда тутади.

Хулоса қилиб айтиш мумкин, замонавий таълим технологиясини қўллаш аниқ белгиланган шарт ва шароитларда таълим жараённинг барча субъектларининг режалаштирилган ва кафолатланган натижага олиб келиши лозим бўлган фаолияти, таълим ва тарбия методлари, воситалари йиғиндисидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абаева Ф.Б. Профессионально-ориентированный подход к формированию иноязычной компетентности у студентов неязыковых факультетов. NovaInfo.Ru. 2016. Т. 1. № 52. С. 183-189.
2. Гришанова О.П., Ильинова Е.В. Современные методы преподавания и интенсивные технологии обучения иностранным языкам. Электронный сетевой политематический журнал "Научные труды КубГТУ". 2016. № 4. С. 173-184.
3. Ашуров А. Коммуникатив компетенция тушунчаси ва унинг мазмун-моҳияти. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 1(30), 76–83 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online) .
4. Lee, M. Who am I? Self-development in organizations. In M. Pearn (Ed.), Individual differences and development in organizations (pp. 17–34). New York: John Wiley & Sons Ltd.
5. Роботова А.С. Язык научно-педагогических и учебных текстов Г.И.Щукиной как предмет анализа. Журнал: Universum: Вестник Герценовского университета 2008

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Kuchkeldiyeva Umida Erkinovna
Tayanch doktarant, Toshkent davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston
Orezzero918@gmail.com

Annotatsiya. Mutaxassislarning chet tilida yuqori darajadagi nutq faoliyatini egallaganliklari muhim hisoblanadi. Mutaxassisning mehnat bozoridagi qiymatini oshiruvchi omillardan biri chet tilini egallashi hisoblanadi. Bu globallashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi, muloqotlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining nutq faoliyatinining rivojlantirishga qaratiladi

Kalit so'zlar: nutq faoliyati, didaktik qarashlar, muloqot kompetentsiyasi.

Abstract. It is important for specialists to have a high level of speech activity in a foreign language. One of the factors that increase the value of a specialist in the labor market is the acquisition of a foreign language. It plays an important role in the process of globalization and serves to expand communication. This article focuses on the development of the speech activity of future foreign language teachers

Key words: speech activity, didactic views, communication competence.

Аннотация. Специалистам важно иметь высокий уровень речевой деятельности на иностранном языке. Одним из факторов, повышающих ценность специалиста на рынке труда, является владение иностранным языком. Он играет важную роль в процессе глобализации и служит расширению коммуникаций. В данной статье основное внимание уделяется развитию речевой деятельности будущих учителей иностранного языка.

Ключевые слова: речевая деятельность, дидактические взгляды, коммуникативная компетентность.

Bugungi kunda talabalarning muloqot kompetentligini faollashtirish, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish amalga oshirilmoqda [1].

Muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik nazariyalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak turli xil didaktik qarashlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, talabalarni kelgusi faoliyatga tayyorlash ularning kasbiy shakllanish jarayonining quyi tizimining ajralmas qismi ekanligi bo'lishiga qaramay, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari ta'lim jarayonini tashkil etishda katta

qiyinchiliklarga duch keladilar va ularda muloqot kompetensiyalari yetarli darajada rivojlanmaganligi ayon bo‘ladi [2].

Mutaxassisning hayotiy zarurat sifatida muloqot qilish malakasi haqida gap ketganda, olimlar bu jarayonning ikki tomonlama tabiatiga e’tibor qaratadilar. Bunday ikkitomonlilik o‘qituvchining qanday-qanaqa muloqot malakalariga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, unda “yosh avlodga ijtimoiy tajribani berish o‘tkazish samarali oshirsa bo‘ladigan unumdor kanalning, zaruriy shart-sharoitlarning yo‘qligi” [3] sababli o‘qituvchi mehnatida samarali unumli natijalarga erisha olmasligiga, va bu bilan muloqot va ta’lim berish (o‘qitish) jarayonlarining bir-biridan o‘shzaro bog‘liqligini ko‘rasatib o‘tadilar.

Pedagogikada muloqot atamasi tor va keng ma’noda qo‘llaniladi. Tor ma’nodagi muloqot so‘zlash orqali og‘zaki shakllarda amalga oshiriladi, bunda tinglash muloqot shartining yordamchi rolini bajaradi. Keng ma’noda – muloqot ostida mazmuni bir tilga oid hamjamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va o‘zaro aloqalarga erishish uchun ma’lumot almashish hisoblangan maxsus faoliyat turi tushuniladi [4].

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishda tafakkur tarzi, nutqning rivojlanganligi, harakat sur’ati, idrok etish imkoniyatini hisobga hisobga olish hamda shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta’sir ko‘rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Riskulova K.J. Bo’lajak ingliz tili ўqituvchilarini sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirish tizimi: Diss…ped. fan.dokt. −Tashkent, O‘.J.T.U, 2017. − 16b.
2. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan.dokt...diss.avtoref. –T.: 2012. -46b.
3. Тер-Минасова С.Г. "Слова, слова, слова." Язык, культура, межкультурная коммуникация // Мир русского слова. 2000. - №2. - С.72-83.
4. Шмит, Р. Искусство общения: Пер. с нем. / Р. Шмит. - М.: СП «Ин¬терэкспорт», 1992. - 79 с.

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

M.D.Abduraxmonova
Tayanch doktorant (TDPU)
abduraxmonovamavzuna@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida o'rganuvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchilar tomonidan integrativ yondashuvdan samarali foydalanishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, til ko'nikmalari, metodlar, samaradorlik.

Annotation. The article discusses the importance of effective use of the integrative approach by teachers in the development of students' language skills in the process of teaching English.

Keywords: integrative approach, language skills, methods, efficiency.

Аннотация. В статье рассматривается важность эффективного использования преподавателями интегративного подхода в развитии языковых навыков учащихся в процессе обучения английскому языку.

Ключевые слова: интегративный подход, языковые навыки, методы, эффективность.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sifatiga va samaradorligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu tufayli ham barcha turdagi ta'lim dargohlarida dars berish samaradorligi o'sib boryapti, qolaversa turli xil xorijiy va nodavlat universitetlar va boshqa ko'plab turdagi ta'lim maskanlari ochilib, ham ilmiy ham madaniy sohalarda yuksak yutuqlar va rivojlanishga erishmoqdalar. Ayniqsa, chet tiliga e'tibor yildan yilga juda yuqori mezonlarda olib borilmoqda. Shu asnoda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qaror ushbu faoliyatga tegishli bo'lib, yurtboshimiz yoshlar tarbiyasi va madaniyati borasida o'z ishini puxta biladigan malakali va har bir yosh ilm o'rganuvchiga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni fikr va tafakkurini to'g'ri shakllantirib borish, kelajakda yuksak saviya, ilm va qobiliyat sohib va sohibasi, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan kelajak avlodni tarbiyalashda, fan va madaniyatni rivojlantirishda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim masala deb ko'p ta'kidlab kelgan [1].

Bizning maqolamizda "integratsiya" atamasi asosiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, u haqida batafsilroq to'xtalib o'tish lozim. "Integratsiya" (lot. integer – butun) tushunchasi ham umumiy, ham keng ma'noga, ham ixtisoslashgan tor yondashuvga ega deb tarif berishni joiz deb bildik. Shuningdek, Integratsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Integratsiya

quyidagi hollarda sodir bo'ladi: ilgari qandaydir tarzda ajratilgan elementlar mavjud bo‘lganda; ularni birlashtirish uchun obyekt shartlar mavjud bo’lganda; ular summativ va yonma-yon emas, balki sintez orqali birlashganda; bunday birlashmaning natijasi yaxlitlik xususiyatiga ega bo‘lgan tizimdir.

“Pedagogika” ensiklopediyasida “integrativ yondashuv”– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi obyektga bir necha yondashuvlar (vaziyatli, tizimli, innovatsion va h.k.)ni birgalikda qo‘llashni anglatuvchi tushuncha deb yoritilgan [4].

M.X.Gulyamova ham o‘z tadqiqot ishida ingliz tilini o‘qitishda talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va rivojlantirish muammolari nutq faoliyati turlari integratsiya qilish orqali ochib bergan. Bundan tashqari tadqiqot ishida integrativ yondashuvda turli fanlardan egallangan bilimlarni o‘zaro bog‘lashgina emas, balki nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish turlarini integratsiyalash ham tushunilishini bayon etgan [3].

Integrativ yondashuv asosida tilni o‘qitish - bu kontekstga asoslangan mavzu orqali chet tili o‘qitish uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi. Shu yo‘l bilan talabalarni tilni o'zlashtirishga undash uchun til tabiiy kontekstga integratsiya qilinadi va real hayotiy vaziyatlar va muloqot qilish orqali o‘rgatiladi. Shuning uchun, integral tilni o‘qitish beradi majburiy tildan ko‘ra tabiiy tilni o‘zlashtirishni afzal ko‘radi [2]. Ushbu maqolada umuman tilning tabiati, uning mohiyati, real hayotdagi vazifasi va maqsadi, tilning tarkibiy qismlari va turli tillarni o‘rgatish usullari muhokama qilinadi.

V.I.Kagan integratsiya jarayonining mazmuniy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi. Bularga quyidagilar kiradi: mantiqiy va mazmuniy asos, geterogen elementlar, darajalar, masshtab, shakl [5]. Yu.S. Tyunnikov integratsiyaning uchta darajasini ta’kidlab, o‘z nuqtai nazarini ko‘rsatadiki, ko‘proq darajalar pedagogik jarayonlardagi ba’zan juda nozik siljishlarni aniqlash va baholashni qiyinlashtiradi. Bu darajalarda integratsiya jarayoni, bir tomondan, ilgari tuzilgan tarkibni tubdan qayta qurish bilan, ikkinchi tomondan, prinsipial jihatdan yangi didaktik prinsip tarkibni rivojlantiruvchi-innovatsion tendensiyalarini sintez qilish bilan birga kechadi [7].

Ta’lim jarayoniga integral yondashuv insonga yaxlit pedagogik usul bilan yaxlit ta’sir ko‘rsatish bilan tavsiflanadi. Bunday yondashuv ta’lim va tarbiya jarayonlarining mazmuni bilan bir qatorda o‘qituvchi faoliyatining tegishli metodlari, shakllari va usullarini bilishni ham nazarda tutadi. Integrativ pedagogikaning tamoyillaridan biri talabani hurmat qilish, uning shaxsiyatining qadr-qimmatini, uning tengligi va erkinligini tan olish, jamoaviy ijodiy mehnat muhitini yaratishga asoslangan munosabatlar uslubini rivojlantirishdir [6].

Xulosa qilib aytganda, tilni muloqot vositasi sifatida faqat muloqot va mahoratga asoslangan maqsadlar uchun yaxlit holatda o‘rgatish mumkin. Qarama-qarshi yondashuvlarning har biri kerakli natijani keltira olmaydi Integratsiyalashgan til o‘qitishning asosiy tamoyillaridan biri o‘quvchilarni maqsadli tildan foydalanish orqali mazmunga asoslangan fanga faol jalb etishdir. Til o‘qitishning integratsiyalashgan yondashuvi ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishga katta hissa qo‘shdi. Bunday ta’lim va o‘quv resurslariga ega bo‘lish o‘qituvchilarga o‘zlarining etakchilik va rahbarlik rollariga diqqatni jamlash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarga ongli va mas’uliyat bilan ta’lim jarayoniga kirishishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son Qarori
2. Brown, H. Douglas. Principles of Language Learning and Teaching, 6th ed., Pearson Education ESL, 2014, pp. 218-235.
3. Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ yondashuv. Diss… (Ph.D) . Toshkent. - 2019
4. Педагогика: энциклопедия. II жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. Б.101.
5. Каган В. И.Система интегральной подготовки / В.И. Каган // Высш. образование в России. – 2002. – № 4. – С. 84–88.
6. Клименко Н. Ю. Социально-педагогическая компетентность специалистов социальной сферы / Н.Ю-. Клименко // Педагогика. – 2003. – № 2. – С. 22–27.
7. Тюников Ю. С. Методика выявления и описания интегративных процессов в учебно-воспитательной работе СПТУ / Ю.С. Тюников. – М.: АПН СССР, 1988. – 146.

O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH

Mamajanov Nodirbek Shuxratjon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
Tel: +998 99 970-58-07

Annotasiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish hamda sug'urta faoliyatini tartibga solishdagi muammolar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta bozori, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, innovatsiya, raqobat, moliya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы развития страхового рынка и регулирования страховой деятельности в нашей стране.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, страховщик, страхователь, инновации, конкуренция, финансы.

Abstract. This article examines the problems of insurance market development and regulation of insurance activities in our country.

Key words: insurance, insurance market, insurer, insured, innovation, competition, finance.

Zamonaviy davrdagi globallashuv jarayonida sug'urta bozorining innovatsion rivojlanishi jadal o'zgarishlar qamrovida kechayotganligi mazkur institut faoliyatini nazariy-amaliy tadqiq etish dolzarb ekanligini anglatadi. Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtda, bevosita uning ravnaqiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sug'urta faoliyati o'ziga xos tarzda shakllangan va keng qo'llanilayotgan ijtimoiy hodisa bo'lib, barqarorlik omili sanaladi. Mamalakat sug'urta bozori rivojini prognozlash o'z navbatida, biznes sub'ektlari va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada ta'minlash instituti sifatida sug'urta faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqdaki, buni e'tiborga olgan holda sug'urta va lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot

Strategiyasi”18da qishloq xo‘jaligida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish hamada mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo‘llabquvvatlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash amaliyotini kengaytirish masalasiga e’tibor qaratilgan.

Yurtimizda sug’urta bozorini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar muayyan darajada, mamlakat sug’urta bozorini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo’lsada, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda sug’urta bozorini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish sug’urta munosabatlarini rivojlantirishga va mamlakatda ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ma’lumki, sug’urta bozorining muhim sub’ekti va uning ishtirokchilaridan biri davlat hisoblanadi.

Sug’urta tizimini tartibga solish maqsadida O’zbekiston Respublikasining “Sug’urta faoliyati to’g’risida”19gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning 3-moddasiga muvofiq “Sug’urta — muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararning o’rnini qoplash, tovonlar va boshqa to’lovlar to’lash uchun maqsadli pul jamg’armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar” majmui tushuniladi.

Sug’urta munosabatlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy tizimlar faoliyatini olib borishda strategik muhim vazifa hisoblanadi. Barqaror sug’urta tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini rag’batlantiradi.

Sug’urta tizimini nazariy jihatdan tadqiq etishda sug’urta va sug’urta faoliyatiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ma’lumki sug’urta jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manffatlarini himoya qiluvchi samarali vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo’lgan.

Sug’urta moliyaning integratsiyalashgan shakllaridan hisoblanadi. Dunyoning yirik sug’urta kompaniyalari, birgalikda sug’urtalash va qayta sug’urtalash operatsiyalarini amalga oshirish uchun birlashadilar. Ko’pgina mamlakatlarda xorijiy sug’urta kompaniyalarini milliy bozorlarga kirishiga ruxsat etilgan. Masalan, 1992 yildagi Mastrixt shartnomasiga asosan, Yevropa mamlakatlarida xorijiy kapitalni cheklash bo’yicha barcha to’siqlar olib tashlandi va Yevropada yagona sug’urta bozorini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar boshlandi. Shunday bo’lsada, milliy sug’urta bozorlari o’ziga xos xususiyatlarni saqlab qolmoqda. Bu xususiyatlar birinchidan, sug’urta sohasining tarkibi va taklif etilgan sug’urta himoyasining turlariga taalluqlidir.

[18] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan.
[19] O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrdagi “Sug’urta faoliyati to’g’risida”gi qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son

Respublikamizda sug‘urta munosabatlarida uchrayotgan asosiy muammolarga sug‘urta summasini to‘lashni rad etish, sug‘urta xizmatlarida zamonaviy yondashuvning yo‘qligi, davlat aralashuvining ko‘pligi, majburiyatlarning tomonlar kelishuvisiz belgilanishi, sug‘urtalovchini tovon to‘lash majburiyatidan ozod qilinishi qonunda belgilab qo‘yilganligi, nizolarni hal qilishning alternativ usullarining taklif qilinmasligi, shartnoma erkinligi ta’minlanmaganligi va undagi munosabatlarda cheklovlarning ko‘pligi kabilar kiradi.

Aynan ushbu muammolar, tomonlar orasida turli kelishmovchiliklarga, munosabatlardagi keskinlikka va pirovardida sug‘urta tashkilotining ishonchsizligiga olib kelmoqda.

Sug’urta munosabatlarini tartibga solishning erkinlashuvi jarayonlari dunyo sug’urta bozori globallashuvi sharoitida, xalqaro sug’urta xizmatlarining erkinlashuvi, sug’urta va qayta sug’urta kapitalining kontsentratsiyasi yirik transmilliy sug’urta kompaniyalari o’rtasidagi raqobatning keskin kuchayishiga, natijada sug’urta va qayta sug’urtaning ko’plab yangi shakllari paydo bo’lishiga, sug’urta, bank va moliya kapitalining o’sishiga olib kelmoqda.

Sug’urtachilar faoliyati ustidan davlat nazorati tizimida bir qancha o’zgarishlar yuz bermoqdaki, bunda asosiy mavqeni davlatlararo integratsion kelishuvlar, xizmatlar savdosi to’g’risidagi bosh kelishuv egallanmoqda. Internet vositasidagi yangi informatsion muhitning paydo bo’lishi davlatlar o’rtasidagi chegaralarni buzib tashlab, sug’urta xizmatlarining misli ko’rilmagan darajalariga erishilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, respublikada sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishning normativ-huquqiy bazasini xalqaro talablarga javob beradigan darajada shakllantirish davlatimiz uchun ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi va berilgan takliflarni amalga oshirish jarayonida davlat va tegishli organlarning faol ishtiroki talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Yadgarov A.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug’urta tizimi. – Toshkent. Yangi asr avlodi,-2005.
2. Sharapova M. Iqtisodiy islohotlar sharoitida O‘zbekiston Respublikasida su'urta bozorini rivojlantirish yo'llari. Science and Education/№3.2022Mehmonov S.U.,.Karimova Z.X,.Tursunov A.S; “Bujet tizimi” Darslik, T.; “Iqtisod-moliya”, 2018 yil. 544 bet.
3. Shermuhammedov A., Oxunova G., Jo’rayev O. Xalqaro transport sug’urtasi.-T.:TDIU,2000

MASHINALI O'QITISHDA CHIZIQLI REGRESSIYA

Axrorov M.Sh., Toshboyev J.S., Akbarov D.Q.
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada berilgan ma'lumotlar grafigini qurish, u asosida masofa va sarflangan vaqt orasidagi bog'liklik xarakterini aniqlash, eng kichik kvadratlar usulini qo'llash imkoniyatini taxlil qilish, regressiya tenglamasini qurish, regression bog'lanish kuchini tekshirish uzoq masofaga yukni yetkazib berish vaqti masalasi qaraladi.

Kalit so'zlar: chizikli bog'lanish, teskari bog'lanish, kvadratik munosabat, regressiya tenglamasi, funksional bog'liqlik, korrelyasion-regression tahlil, korrelyatsiya tushunchasi chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti, regressiya tahlili, regression model, chiziqli funksiya, o'rta qiymat, parabola, giperbola, chetlanish, xato, ko'rsatkichli funksiya, darajali funksiya, Cost funksiyasi.

Chiziqli regressiya tushunchasi. Regressiya bu – ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullaridan biri bo'lib, obyekt yoki jarayonga tegishli o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash uchun statistik jarayonlar to'plami hisoblanadi.

Regression tahlil chiziqli yoki nochiziqli, o'z navbatida logistik regressiya usullari asosida amalga oshiriladi. Regression tahlil asosan bashorat qilish va prognoz qilish uchun keng qo'llaniladi va hozirda ushbu usulning ishlatilishi mashinali o'qitish sohasi bilan mos keladi.

Regressiya va uning turlari. Regressiya asosida yaratiladigan model ma'lumotlarni berilgan nuqtalardan o'tgan eng yaxshi giper tekislikka (nuqtalar o'rtasidan o'tishiga) moslashtirishga harakat qiladi. Regression tahlilda turli xil modellardan foydalanish mumkin, eng sodda model chiziqli regressiya asosida quriladi.



X	Y
1	3
2	5
3	6
4	9
4	10
5	13
6	13
...	...
100	203

1-rasm. Regression model

Masalaning qo'yilishi: Matlab muhitida regression modelni quring.

Matlab ishga tushiriladi, Obyekt parametrlari bo'yicha o'qitiluvchi to'plam ma'lumotlari tayyorlanadi. Misol uchun:

X	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Y	3.2	3.8	5.8	2.43	4.65	6.25	6.8	9.4	9.43	9.5

1-jadval.

Berilgan to'plam grafigini chizish scatter(x,y).

Bu jadvalda berilgan ma'lumotlarni, matlab oynasi ochib olingandan so'ng chaqirib olinadi, ya'ni bu jadval joylashgan faylni joyini matlab oynasidan ko'rsatib yuboramiz.



Ushbu oyna ochib olingandan so'ng, import selection tugmasi bosiladi



Yangi hosil bo’lgan oynadan tools paneliga kirib Basic Fitting buyrug’iga murojat qilamiz



Ko’rsatilganlari bo’yicha ketma ketlikda ishlar bajarilganidan so’ng grafik chiqadi. Basic fitting oynasi hosil bo’lganidan keyin LINEAR bandini tanlaymiz bizga berilgan x va y ning bog’liqlik qiymatlarini chiziqli funksiya ko’rinishida grafik chizib beradi.



x va y ning bog'liqlik qiymatlarini chiziqli funksiya grafigining ko'rinishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aurelian Geron, Hands on Machine Learning with Scikit-Learn Keras&Tensorflow // Second edition Concepts, Tools, and Techniques to Build Intelligent Systems, 2019, 510 pages.
2. Tavboyev Sirojiddin Akhbutayevich, Mamaraimov Abror Kamoliddin ugli, and Karshibaev Nizomiddin Abdumalikovich, "Algorithms for Selecting the Contour Lines of Images Based on the Theory of Fuzzy Sets", TJET, vol. 15, pp. 31–40, Dec. 2022.
3. Sakiev T. R. et al. АРХИТЕКТУРА МЕДИЦИНСКОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 5. – С. 35-39.
4. Dilshod Bekmuratov[1, a)], Mukhammadjon Akhrorov[2, b).] Construction of Decision Rules for Pattern Recognition in the Event of Erroneous Division of Classes of the Training Sample. 2023. – С. 12.

YOSH AVLOD IJTIMOIYLASHUVIDA SHARQ ALLOMALARI QARASHLARINING AHAMIYATI

Rahmonova Dilnoza O`ktamovna
Navoiy Davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Sattorova Mohinur Dilshodovna
2- kurs Pedagogika(tarbiya fani o`qituvchisi) yo`nalish talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda biz bola ijtimoiylashuv jarayoni hamda uning jamiyatga to`la moslashuvida sharq allomalarining beqiyos merosining o`rni qay daraja ekanligini yoritib o`tganmiz. Bundan tashqari sharq mutaffakkirlarining ijodlaridan, tarbiyasi borasidagi qarashlaridan namunalar keltirib o`tdik.

Kalit so`zlar: ijtimoiylashuv, jamiyat, farzand tarbiyasi ,barkamol avlod, komillik, shaxs, ta'lim, tarbiya, axloq.

Davlatimizda yoshlarni yaxsi ta`lim va tarbiya olishi uchun kerakli barcha shart-sharoitlar yaratilib, yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Hurmatli, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz" Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz.

Pedagogik adabiyotlarda ijtimoiylashuv tushunchasi mavjud bo`lib, bu shaxsning rivojlanish darajasiga qarab bosqichma-bosqich sodir bo'ladigan bolaning jamiyatga to`liq moslashuvi demakdir. Bolaning jamiyatga moslashuvida, uning barkamol shaxs bo`lib shakllanishida sharq allomalarining o`rni beqiyosdir.

Sharq mutafakkirlarining merosida ta'lim - tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ular oila va oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida oilada bola tarbiyasi masalalari va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. [1, 38-46-b].

Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir

bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq" deya ta'kidlab o'tgan.

Sharqda Arustadan keyingi yirik mutafakkirimiz Abu Nasr Farobiy"Muallim us-soniy","Sharq Arastusi"nomlari bilan shuhrat topgan.Farobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va eng yetuk yakuni deb biladi.U o'z asarlarida ta'lim-tarbiya berish haqida ham to'xtalib o'tgan.Insonning ma'naviy kamolatida asosan uning ikki tomoniga:aql-idrok ongiga va axloqiga e'tibor beradi.Allomamiz "Fozil odamlar shahri"asarida o'n ikki xislatni o'zida birlashtirgan insongina axloqli inson bo'ladi deb aytgan. Bular quyidagilar: "Birinchidan bunday odamning barcha a'zolari mukammal taraqqiy etgan, sog'lom bo'lish lozim; ikkinchidan, tez fahm so'zlovchining maqsadini tez payqay oladigan bo'lsin; uchinchidan, xotirasi juda kuchli va mustahkam bo'lsin; to'rtinchidan, zehni tez va o'tkir bo'lsin; beshinchidan, nutqi ravon, fikri teran, mulohazalarini yorqin bayon eta olsin, oltinchidan, bilish va o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lib,bilimlarini charchashni sezmasdan o'zlashtira olsin; yettinchidan, nafsini tiya oladigan, qimor o'yinlaridan jirkanadigan bo'lsin; sakkizinchidan haqiqatni sevadigan bo'lsin; to'qqizinchidan g'ururli va vijdonli bo'lsin, oliyjanob ishlarga intilsin; o'ninchidan, mol-dunyo yig'ishga berilmasin; o'nbirinchidan, adolatli bo'lsin, odamlarni adolatga targ'ib etadigan bo'lsin; o'n ikkinchidan, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o'zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo'lsin, o'zi zarur debbilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin".Keyinchalik esa o'zgaradi, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonida odamalar ming yillardn beri amal qilib kelayotgan qadriyatlar va me'yorlarni qabul qiladilar. Abu Nasr Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog`i lozim degan xulosaga kelgan[2, 28-36-b].

Beruniy ham o'zining "Geodiziya","Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar","Meneralogiya"kabi ko'plab asarlari mavjud. Abu Rayhon Beruniy me'rosi har bir davr uchun eng muhim ilmiy manba sifatida keng tadqiq etiladi. Shunday ekan, mazkur ishlardan asosiy maqsad "Beruniyning barcha asarlaridagi diniy, axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy jihatlarini tadqiq qilish va bu borada jahon ilm-fani rivoji ta'siriga qanchalik muhim o'rin tutganligini o'rganish asosiy maqsad qilib olingan".

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida tarbiya,axloq masalari ham alohida o'rin egallaydi.Kaykovus yana ushbu bobda o‘g‘liga nasihat qilib deydi: “… o‘z farzanding seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmatini joyiga qo‘y, zero, sen ularga qanday munosabatda bo‘lsang, xuddi shunday o‘zingga

qaytgay”. U bu bilan ota-onaning ko‘nglini ranjitmaslikka, ularni hurmatini qilib, shirinso‘z bilan xushmuomala bo‘lishga undaydi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash mumkinki, Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib yetishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N.M.Ijtimoiy predagogika. Darslik.T.2009
2. Vohidova N.X., Mirzaeva F.O. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Sano-standard. 2021 y
3. Galaguzova M.A. Istoriya sotsialnoy pedagogiki. O‘quv qo‘ll. M. Vlados. 2000.

SHOYIM BO‘TAYEV HIKOYALARIDA DAVR VA QAHRAMON TALQINI

Xolmatov Doston Abdujabbor o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Maqolada Shoyim Bo‘tayevning “Qahramonlar”, “Maktab qorovuli”, “Tunda ko‘ringan bog‘”, “Avliyoning yo‘li” hikoyalari tahlili orqali yozuvchi uslubining rang-barang qirralari yoritilgan. Uning qahramon va davr muammolarini aks ettirishdagi mahorati ko‘rsatib berilgan.

Аннотация. В статье освещаются колоритные стороны стиля писателя посредством анализа повестей Шоима Ботаева «Герои», «Школьный охранник», «Сад, увиденный ночью», «Путь святого». Показано его мастерство в изображении героя и проблем времени.

Annotation. The article highlights the colorful aspects of the writer’s style through an analysis of Shoyim Botaev’s stories “Heroes”, “School Security Guard”, “A Garden Seen at Night”, “The Path of a Saint”. His skill in depicting the hero and the problems of the time is shown.

Kalit so‘zlar: mahorat, uslub, davr va qahramon, tasviriy vositalar, hikoya, nutq, personaj, syujet.

Ключевые слова: мастерство, стиль, эпоха и характер, наглядные пособия, рассказ, речь, персонаж, сюжет.

Key words: skill, style, period and character, visual aids, story, speech, character, plot.

“Qahramonlar” (1979) hikoyasi voqealari muallifning bolalik xotiralari asosiga qurilgan. Isabek Odilov urush qatnashchisi, bir qo‘lidan ajragan. “Geroy bova” nomini olgan Xidir bova ham ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Uning aytishicha, “Usta Mamasoli kattalarga jilpanglab-jilpanglab moshin olgan”. Usta Mamasoli urush vaqtida juvoz haydab boyib ketgan. Bir kuni juvozning o‘qi usta Mamasolining kunda ustida turgan chap bilagi ustiga tushib majaqlab yuborgan. “Yalpizlanib” o‘zini “prontovikka o‘tkazib” olgan. Hozir kal Musaning nafasiga yaqinlashib bo‘lmaydi, urush paytida paranji yopinib jon saqlagan. G‘ani cho‘ltoq esa qo‘liga paxta qo‘yib otgan. Barchasi o‘zini hujjatda urush qatnashchisi deb yozdirib, uning imtiyozidan foydalanib yuradilar. Xidir bova esa Isabek Odilovni hukumatga arz qilib borishga, mashina olishga undaydi. Sho‘ro davrida urush qatnashchilariga navbatsiz mashina berilar edi. Hikoyada polk komandiridan Isabek Odilovga xat kelib, unga frontdagi qahramonligi uchun “Qizil yulduz” ordeni berilgani, ba’zi sabablarga ko‘ra topshirilmay qolgani aytgan edi. Hikoyada qalloblik qoralanadi. Haqiqat oxir-oqibat yuzaga chiqishi tasvirlanadi.

“Maktab qorovuli” (1981) hikoyasi qahramoni Eshniyoz chol bo‘lib, u ham ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. U maktab qorovuli va o‘z ishini fidoyisi. Erta tongdan ishga keladi, “o‘z mol-mulkinasini tekshirayotgan zamindordek dastlab maktab hovlisini boshdan-oyoq aylanib chiqadi”. Maktabda gullarga suv quyishdan to cho‘p-xas va qog‘oz parchalarini terishgacha bo‘lgan ishlarni bajaradi. Uning yoshlik yillari poda boqib o‘tgan. Bolalar uning doimiy suhbatdoshi. Tanaffus bo‘lishi bilan uni o‘rab olishib ertak aytib berishini so‘rashadi. U esa doimo quyidagilarni takrorlaydi: “– Shu-u Germaniyada ketyapmiz, qo‘lda beshotar! Bir poshist o‘tdi oldimdan – hahh dedim! Peshonasidan o‘q tegdi poshistning – yiqildi, cho‘zildi, jon berdi! Ortidan yana biri kelyapti ekan. Uyam uhh dedi-yu ketdi… – Eshniyoz cholning ko‘zlari o‘sha-o‘sha g‘alati ifodalarga to‘ldi. Ertagi ham o‘sha-o‘sha. Uning urushda ko‘rgan-bilgani shu. Qahramonligi-yu xotirasi ham shugina, xolos. Urush haqida boshqa gap aytolmaydi…”[1,17]. Maktab direktori armiya kuni munosabati bilan bolalarga urush xotiralarini so‘zlab berishini undan so‘raydi. Eshniyoz chol u yerda ham bolalarga aytgan o‘sha xotirasini takrorlab kulgiga qoladi. Direktor uning so‘zlariga hatto ishonmaydi, samimiyligi ustidan kuladi: “– O‘zi ikki fashist o‘lgandan keyin nima bo‘luvdi, – dedi direktor kinoya bilan. So‘ng Eshniyoz cholning oqarib ketgan yuziga qarab qo‘ydi. – Shu bo‘lgan gapmi o‘zi? Urushga borganlarning o‘zlariyam to‘qishsa kerak-ov! Nahotki, ikkisiniyam o‘zingiz otgan bo‘lsangiz! Tushingizda edimi, o‘ngingizdami? – Direktor shunday deb iziga

qaytarkan, barcha savollarning javobini o‘zi topganday, – ikki og‘iz gapniyam eplolmaysiz-a, – dedi achingannamo”[1,22]. Og‘iz ko‘pirtirishdan, balandparvoz so‘zlardan, yolg‘on gapirishdan tortinmaydigan direktor Eshniyoz chol samimiyatini yo‘qqa chiqaradi. Lekin uning qahramonligi hech qanday ta’masiz bo‘lib, balandparvoz, ko‘z-ko‘z etishdan holi edi.

“Tunda ko‘ringan bog‘” (1992) hikoyasi voqealari tahririyatlarning birida bo‘lib o‘tadi. Asarning bosh qahramoni Shahobxo‘ja bo‘lib, musichaday beozor. U xo‘jayini, shu tahririyat bo‘lim boshlig‘i Yoshuzoq akasi nima buyursa, shuni bajaruvchi shaxs. Shahobxo‘janing ojiz, haddan ortiq mo‘min-qobil, muloyim xarakteri uning uzun, nozik barmoqlari va bu barmoqlarni onda-sonda qirsillatib qo‘yishda ko‘rinadi.

Ma’lum bo‘lishicha, Shahobxo‘ja o‘n yildan buyon uysiz, xotini va qizchasini qishloqda qoldirib kelgan. Joy yo‘qligi tufayli ularni shaharga olib kela olmaydi. O‘zi esa masjidda tunab yuradi. Unga uy olish uchun navbat kelganida, senga to‘rt xonali uy mumkin emas deb, unga beriladigan uyni o‘g‘liga to‘g‘rilatib Yoshuzoq olgan. Hozir Shahobxo‘ja uyida Yoshuzoqning o‘g‘li yashamoqda. Undan bu voqealarni eshitgan u bilan birga ishlovchi qiz Iqlim qattiq g‘azabga keladi. Bo‘lim mudiri Yoshuzoq esa Iqlimning chiroyli qomatiga suqlanib qaraydi. Iqlim bu holni sezib undan jirkanadi va uning ortidan “– E o‘l, basharang qursin, cho‘chqa” deya so‘kinib qoladi. Bu gaplardan qaltirab ketgan Shahobxo‘ja Yoshuzoqning yaxshi inson ekanligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Iqlim Shahobxo‘jani “poliz qo‘riqchisi” deya ataydi. Sababi u o‘z haqini tilab olishdan yiroq. U o‘z mudiriga ko‘r-ko‘rona mute, uning chizgan chizig‘idan chiqa olmaydi. Yolg‘iz Iqlimgina ishga kelgach, uning qarashlarini o‘zgartiradi. Shahobxo‘ja boshpana izlab yurarkan, shaharning shafqatsiz hayoti, ojizliklar-u ko‘ngilchanliklarni yarim chaqaga olmasligini, bunda avvaldan bo‘lgani kabi makkorlik, xiyonat, olchoqlik olqishlanaverishini tasvirlaydi. Shahobxo‘ja tunda qandaydir go‘zal “katta-katta arvug‘oniy daraxtlar chayqalgan, shovullab tun musiqasini chalgan, chirildoqlar, mayda-chuyda hasharotlar jo‘rovozlik qilgan bog‘ga kirib qoladi. U shu bog‘ning taxta o‘rindig‘ida tunaydi. Shunda, “Iqlimning jajji qomatini, xatti-harakatini, yuz-ko‘zlaridagi ifodalarni ko‘z o‘ngiga keltirib, Shahobxo‘ja g‘alati iljaydi. So‘ng ruxsat so‘ramay Iqlim haqida o‘ylayotgani uchun xijolat chekkanday bo‘ldi. U shunday xayollar bilan pinakka ketdi. Tepasidan esa daraxtlar shovullardi.”[1,147-148]. Yozuvchi tun bog‘ orqali Yoshuzoqni tasvirlaydi. Uning qanday ekani tong otgach ma’lum bo‘ladi.

Shahobxo‘ja uyg‘onganida tungi go‘zal bog‘dan darak topmaydi. U yotgan joy iflos, turli narsalar sochilib yotganini ko‘radi. Bu bilan yozuvchi Shahobxo‘janing Yoshuzoqqa bo‘lgan munosabatidagi o‘zgarishga ishora qiladi.

Ertasi kuni ish o‘rnida o‘tirar ekan xonalariga Yoshuzoq kiradi. Shunda Shahobxo‘janing holati quyidagicha tasvirlanadi: “Shunda u Yoshuzoqqa bugun salom bermaganini esladi. O‘rnimdan tursammikn-turmasammikn, salom bersammikin-bermasammikin deya o‘ylanib, kiftlarini qisganicha hardamxayol turib qoldi”[1,149]. Ushbu o‘rinda professor Y.Solijonovning “Yozuvchi asarlarini mutolaa qilgan o‘quvchi uning ijodi talay fazilatlar bilan ajralib turishga ishonch hosil qiladi. Bu fazilatlarning birinchisi Odil Yoqubov ham tarixiy, ham zamonaviy mavzuda yozgan hikoya, qissa, drama va romanlarida haqiqatni asosiy mezon qilib olganligidir. To‘g‘ri, bu aslida umuman so‘z san’atining bosh talabi sanaladi. Biroq ko‘pchilik ijodkorlar Sho‘ro davri qoliplarini yorib chiqishga jur’at qilolmagan bir paytda yangilikka intilgan, hayotiy haqiqatdan chekinishni ijodga xiyonat deb bilgan yozuvchilardan biri O.Yoqubov edi. Ana shu ijodiy prinsipiga qat’iy amal qilganligi uchun ham hozirgacha uning birorta asari zamonsozlik nuqtayi nazaridan chiqitga chiqqan emas va bundan so‘ng ham yashab qolishga haqlidir”[2,69-70] degan so‘zlarini Shoyim Bo‘tayev asarlariga ham to‘la talqin etish mumkin.

“Avliyoning yo‘li” (1994) hikoyasi inson tafakkurining intihosiz imkoniyatlari haqida. Asar voqealari molboqar yigit tilidan so‘zlab beriladi. U qishloq darakchisi vazifasini bajaradi. Ismoil qori o‘ladigan bo‘ldi va u o‘limi oldidan Shorayim bovani, ya’ni pirini janozaga aytib kelishlarini vasiyat qiladi. Masjo qishlog‘i ko‘k osmon dovoni ortida bo‘lib, bu yerga borib aytish uchun Toshmozorbovadan o‘tish zarur bo‘ladi. Toshmozorbovada bir qora tosh bo‘lib, ko‘nglida qilvirligi bo‘lmagan odam uni quchoqlasa qo‘llari bir-biriga tegar emish. Mamarayim chavandozning bir o‘r oti bilan darakchi yigit yo‘lga otlanadi. Hikoyada otning ko‘rinishi shunday tasvirlanadi: “Mamarayimning oti baland, sag‘rasi keng, ko‘kragi oldinga turtib chiqqan, oyoqlar uzun-uzun, badanining har joy-har joyida bir mirlik tangaday qorasi bo‘lgan kulrang ot edi”[1,152]. Darakchi kimsasiz ko‘k osmon dovoni bo‘ylab yurarkan yo‘lda yuz-ko‘zlaridan nur yog‘ilib turgan, oq soqoli ko‘ksiga tushgan, egnida eski chakmon, oyog‘ida kalish kiygan cholni ko‘radi. Cholning kalishi ancha katta bo‘lgani bois har zamon-har zamonda oyog‘idan chiqib ketar, u kalishini kiyib olish uchun bir zumga to‘xtardi. Chol bilan bir zum birga yurishgach, otliq yigit o‘ziga mingashib olishini so‘raydi. Lekin chol rad etadi. Bir soatcha yurgach otliq bir odam qorasini ko‘radi. Unga yetib borgach yana o‘sha boyagi cholni uchratadi. Shunda u ajinalar haqidagi voqealarni xayoliga keltiradi. O‘shanda Ibroyim to‘ydan mast-alast qaytayotganida ajinalar yo‘lning o‘rtasida olov yoqib o‘tirishgani ustidan chiqadi. U yana bir to‘yga kelib qolibman deb ertalabgacha ular bilan o‘tirib gurunglashgach, o‘yin tushib, ashula aytgan. Bir mahal noxosdan bismillo deb yuborgan. Butun davra

to‘zib, na olovdan, na bazm-u jamshiddan, na ulfatlardan nom-nishon qolmagan. Shu-shu qo‘rqinch bilan labi tortilib qolgan ekan.

Chol darakchiga katta toshni ko‘rsatib, unga hech razm slogan-solmaganini so‘raydi. Undan rad javobini eshitgach, afsuslangandek bosh chayqab deydi! “– Ko‘k osmon dovonining boshdan-oyog‘igacha hech bir tosh bejiz sochilib yotmaydi, bolam. Bunda shunday zotlar o‘tishganki, oyoqlari ostidagi tuproqni to‘tiyo qilsang arziydi. Bu yo‘llarda yuraverib-yuraverib mana qaridik – ollohga shukur. Yo‘l pisand bo‘lmay qoldi. Sizlar endi-endi tetapoya qilayotgan bolaga o‘xshaysizlar – shitob yo‘l yuryapman deb o‘ylaysizlar-u, ammo yo‘lni bilmaganliklaringiz uchun, qadamlarinigiz unmaydi”[1,155]. So‘ng bu yerlardan toj-u taxtdan ayrilib bir shoh o‘tganini, undan bor do‘stlari, urug‘-aymoqlari yuz o‘girganligini, u esa dushmanlaridan qochib ko‘k osmon dovonini maskan tutganini aytadi. Shoh dunyoda yolg‘iz do‘st borligiga shu yerda iymon keltirgan, kecha-yu kunduz tosh ustidan tushmay, u Do‘st bilan muloqotga kirishganini aytarkan, toshdagi odamning tizzalari, qo‘llari, peshonasi botgan izlar borligini (Bunda Zahiriddin Muhammad Boburga nisbat berilgan “Bobur toshi” nazarda tutiladi – D.X) aytadi. Hikoyada u yerdagi Boburchak qishlog‘i borligini, u yerdagi odamlarning barchasi hindlarga o‘xshab ketishini, ko‘zlari katta-katta bo‘lib, katta-katta ashulaga ishqiboz ekanliklari qayd etilgan.

Darakchi yigit Shorayim bovani qishloqdoshlari Avliyo ota deb ham atashlarini bilib oladi. U Shorayim bova xonadoniga kirib borarkan, ostonada o‘ziga tanish, chol oyog‘ida kattakon ho‘l kalish turganini ko‘radi. Ichkariga kirgach u yo‘lda uchragan cholni ko‘radi. Chol Ismoil qorini vafot etganini eshitgach “Bundan ketasan, Unga yetasan…” deydi. So‘ng qator qishloqlarni nomma-nom sanab, Ismoil qorining yo ustozi, yo birodar og‘aynisi, yo shogirdi ularda borligini aytib, xabar berishni tayinlaydi. So‘ng o‘z xabarchilari orqali bu voqeani ularga yetkazishni aytadi. So‘ng o‘r otni, ya’ni darakchining ulovini to‘daga – uloqqa solishni tayinlaydi. Shunda darakchi yigit “Bilgichlar aytishadiki, o‘r otni to‘daga solib bo‘lmaskan…” deydi. Chol esa, “Bilgichlar bilishmaydi. Bilishmagach ko‘p va behuda gapirishadi. Bu ot yaxshi chopadi” deydi. Janoza kuni Shorayim bova o‘zi sanagan qishloqlardan Ismoil qorining ustozlarini, yor-do‘stlarini, shogirdlarini boshlab keladilar va tobutni qabristonga olib boradilar.

Hikoyada “Dunyo deganlari uzugining ko‘zida evriluvchi” avliyo Shorayim bova qiyofasi darakchi yigit – roviy-qahramon tili orqali tasvirlanadi. U masofani tezlik bilan bosib o‘tuvchi, bashoratgo‘y, o‘tmishni yaxshi biluvchi, ko‘plab qishloqlarga tezlik bilan xabar yetkaza oluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Ma’lumki, “Sharq chechagi” jurnalining 1921-yil sonida Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasi bosilib chiqadi. Unda ham g‘ayrioddiy voqea tasvirlangan.

Tabiatning biz izohlash mumkin bo‘lmagan hodisalari ham borligini yozuvchi ko‘rsatib beradi. Adabiyotshunos A.Sabirdinovning O.Muxtor ijodi haqida ushbu so‘zlari Shoyim Bo‘tayev asarlariga xosdir: “Yozuvchi ta’sir manbalariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish yo‘lidan bormaydi. Ularga yangicha yondashib, betakror qiyofa va obrazlar, milliy xarakterlar yaratishga erishadi. Halollik va xiyonat, muhabbat va nafrat, boylik va kambag‘allik, baxt va baxtsizlik, o‘tmish va bugun, hayot va o‘lim tushunchalari bor ziddiyatlari, qarama-qarshiliklari bilan goh falsafiy, goh xalqona ifodalarda, goh hayotiy manzaralarda yoritiladi. Xayol bilan hayot, fantastika bilan reallik o‘ziga xos mushtaraklik kasb etdi”[3,91].

Xullas, Shoyim Bo‘tayev hikoyalarida jamiyatda hech qanday mavqega ega bo‘lmagan, ko‘zga tashlanmaydigan shaxslar hayoti, xarakteri, tuyg‘u-kechinmalarini tasvirlaydi. Ularda yuksak insoniy fazilatlarni ulug‘laydi. Odamiylik, mehr-oqibat, yaxshilik, ezgulik kabi jihatlarni tarannum etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Бўтаев Ш. Авлиёнинг йўли. Ҳикоялар. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018.
2. Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. –Тошкент: «Адабиёт учқунлари», 2018.
3. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. –Тошкент: « Akademnashr», 2016

ЁШЛАР ТАРБИЯСИ ВА ДУНЁҚАРАШИДА МУНИС ХОРАЗМИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ

Сапаев Ғуломжон Бахтиярович
Урганч давлат педагогика институти доц.в.б., фалс.ф.ф.д. (PhD) тел: 99 964 09 83, e-mail: g.sapaev@dba.uz

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида маънавият, маърифат давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Миллий-маданий, тарихий меросимизни ўзимизга қайтариш имконига эга бўлдик. Миллатнинг мавжудлиги унинг маданиятида акс этиши тўғрисидаги ҳақиқат том маънода қарор топа бошлади. Миллий маданиятимизнинг тиклана бошлаши бизнинг жаҳон майдонидаги ўрнимизни белгилашга кўмак бера бошлади. Ушбу ижобий жараёнлар силсиласида XVIII-XIX аср Хоразм воҳасининг маҳоратли тарихчи ва таржимони, етук ҳаттот ва шоири Шермуҳаммад Мунис Хоразмий(1778-1829)нинг илмий-маърифий ва гуманистик қарашлари янгича тафаккур асосида ўрганила бошлашини алоҳида таъкидлаш лозим.

Мунис Хоразмийнинг ахлоқий, дидактик ва гуманистик фикрлари таҳсинга сазовор бўлиб, «Девони Мунис», «Мунис ул-ушшоқ», «Саводи таълим», «Арналар», «Фирдавс-ул иқбол» каби асарлари билан замонасининг

маънавий-маърифий уйғониши ва ривожига катта таъсир кўрсатган. Мунисниng маънавий мероси нафақат ўтмишда, балки бугунги глобаллашув даврида ва турли “оммавий маданият”га қарши курашда, ёш авлод тарбиясида муҳим маънавий омил бўлиб хизмат қилиши шубҳасиз.

Маърифатпарвар шоир инсонларни вақтни беҳуда ўтказмай ёшликдан бошлаб таълим олиш, илм ўрганиш ва маърифатга даъват килиб, илм ҳар бир кишининг ҳаётдаги энг муҳим қуроли деб билади:

Камол касбида, Мунис, шитоб қилки, эрур,
Ҳаёт фурсатиким, бедаранг фасли шабоб[20].

Шу нуқтаи назардан Мунис Хоразмий ўз ҳаёти мисолида ёшларга илм аҳли билан кўпроқ мулоқотда бўлишни, зиё масканларига бориб туришни, олим ва зиёлилар билан мулоқотда бўлиб, улардан кўпроқ нарсани ўрганишни насиҳат қилади:

Қаю ерда аҳбоб базм айласа.
Тараб иртиқобиға азм айласа,
Ўзумни алар ичра солур эрдим,
Кўнгил қонғуча баҳра олур эрдим[21].

Айрим ёшларимизда худбинлик, жамият манфаатларига беписандлик каби иллатларнинг мавжудлигида ғарбнинг таъсири кучайиб бораётганлигини ҳам эсдан чиқармаслик муҳим. Бунда алломаларимиз таъкидлаганидек, «қалб тарбияси» ўта муҳим бўлиб, қалбни тарбияламасдан одамни ўзгартириб бўлмайди. Шу нуқтаи назардан Мунис Хоразмий ёшликдан таълим-тарбия олишни, бекорга вақтни ўтказмасликни тавсия қилади.

Соғлом маънавий эҳтиёж инсон қалбини нурга, яхшилик, эзгуликка тўлдирувчи, уни ёмон иллатлардан ҳимоя қилувчи восита ҳисобланади. Соғлом эҳтиёжни шакллантириш учун эса, мавжуд ҳолатни тахлил қилиш кўникмасига эга бўлишимиз лозим. Бундай ҳолатни аниқлаш учун эса, бизнинг назаримизда, қуйидагиларга эътибор бериш лозим. Биринчидан, бугунги ёшларимизнинг шахс сифатидаги мақомида қайси сифатлар устувор аҳамиятга эга бўлмоқда: моддий бойликми, амалга ўтиришми, билим олишми, умумий маданий савияни оширишми? Ушбу саволларга жавоб топишда Мунис Хоразмийнинг маънавий мероси, жумладан, унинг мол-дунёга ҳирс қўймаслик, бойликнинг ўткинчилиги, амалдорларни танқид остига олиши, билим олишга даъват, ҳунарни эгаллашга чақириқ, баркамол инсонни тарбиялаш ҳақидаги ғоялари ёрдамга келади. Зеро, ҳалол меҳнат

[20] Мунис. Сайланма. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, - Тошкент. 1980. – Б. 235.
[21] Мунис. Мунис ул-ушшоқ. ЎзФА ШИ. Қўлёзмалар фонди, инв. № 940. 6-варақ.

билан топилган давлат, ризқ-насиба, бировнинг миннатли ошидан, садақасидан, меҳнат қилмай топилган нонидан, олтин идишда берган овқатиданда ҳалол ва ширинроқ деб таъкидлайди.[22]

Ёшлар маънавий эҳтиёжини шакллантириш ўта мураккаб ва маълум вақтни талаб этади. Бунинг учун, энг аввало, шахсда ўзини-ўзи ривожлантиришга мойиллик бўлиши лозим. Бу эса, жамиятдаги ўрнак ва ибрат масаласига боғлиқ. Жамиятимиздага ўрнак ва ибрат масаласида ҳам оқсоқлик мавжуд. Айниқса, раҳбар кадрлар ўртасида ёшларга ўрнак ва ибрат бўладиганлари кам. Кўпчилиги мансаб курсисига ўтиргач, кибрга берилиб, ўзидан кетиб, нафснинг қули бўлиб қолмоқда. Улар ёшларга ибрат бўлиш ўрнига, жиноий ишларга қўл уриб халқнинг назаридан қолмоқда. Бу ўринда Мунисниг маърифатпарвар, адолатли шоҳ ҳақидаги ғояси тарбия мактаби бўлиб хизмат қилади. Зеро, «Адолат»[23] шеърида қаернинг шоҳи одил бўлса, уни барча мақташини ва эл кўнгли мойил бўлишини таъкидлайди.

Соғлом маънавият ёмон одамни яхши одамга, яхши одамни эса гўзал хулқли инсонга айланишини ифода этувчи маънавий бойликлар асосидагина шаклланиши мумкин. Шу маънода мутафаккирнинг диний-ирфоний қарашлари фундаментализм, экстремизм, ақидапарастлик, сепаратизм каби ғоявий таҳдидларга қарши курашда самарали омил бўлиб хизмат қилади.

Совуқ юзингни совутма, эй зоҳиди ях,
Ишқ аҳлига таъна бирла кўп урма занах.
Сўзунгни бас эт, айлама изҳори азоб,
Йиғ маъракани, қилма намоён дўзах[24].

Бугунги ёшларда, пировард натижада, миллатда ўзга шахс ва миллатнинг маънавий «бойликлари»ни ўзлаштиришга, уларни «культ» даражасига кўтаришга мойиллик – космополитизм ҳолатлари мавжуд. Аммо, ўзбек халқи ўз миллий-маданий тараққиёти билан жаҳонда алоҳида ҳурмат ва эъзозга эга бўлган халқ ҳисобланади. Бу — эътироф этилган аксиома. Ўзбек халқининг, қолаверса, Мунис Хоразмийнинг юқорида таҳлил қилганимиз ижтимоий-фалсафий ва маънавий-маърифий қарашларини халқимиз онги-шуурига сингдириш, уларнинг қалбига жо этиш асосида миллат маданий-маънавий қиёфасини шакллантириш мумкин. Мунис Хоразмий маънавий мероси ҳар қандай космополитизм ва миллатчиликдан ҳоли омил сифатида хизмат қилади.

Ёшлар қалби шаклланаётган қалб хисобланади. Шаклланиш жараёни тўғри белгиланмас экан, бундай вазиятда инсоннинг виртуал дунёга кириб

[22] Қаранг: Мунис Хоразмий. Сайланма. – Б. 102.
[23]Мунис Хоразмий. Сайланма. – Б. 16.
[24]Мунис Хоразмий. Сайланма. – Б. 323.

қолиш эҳтимоли кўп бўлади. Виртуал дунёда инсон қалбида ҳали тўла англаб етилмаган қандайдир ғайриодатий ўзгаришлар рўй беради, ундайларда турли тубанликларга тушиш эркинлик сифатида таҳлил этилади. Яна шу нарса маълумки, виртуал дунёда инсон маънавий жавобгарликни ҳис этмайди. Ҳозирги шароитда айрим ёшларимизнинг виртуал дунёга тушиб қолиши, реал дунёдан ажралиб қолаётганликларининг икки сабаби бор: биринчидан, ундайлар ўзининг мустақил маънавий қиёфасига эга эмас. Натижада «четда»ги нарсалар уни ўзига тортади, аста-секин реал дунёдан оёғи узилганини сезмай қолади. Иккинчидан, бундай тоифадаги ёшларда ўзини-ўзи ривожлантиришга эҳтиёж йўқ, шунингдек, бу нарса уларни мослашувчанлик, эргашувчанлик кайфиятига тушириб қўяди ва космополитизм кўчасига олиб киради.

Ёшларимизни виртуал дунёдан чиқариб олиш, уларнинг қалбини эзгулик, яхшилик уруғлари билан тўлдириш учун, энг аввало, бундайларни маргиналлик ҳолатидан ҳимоя қилиш лозим. Маргиналлик – айрим шахс ёки гуруҳнинг жамиятда муайян ижтимоий гуруҳ, табақа, қатламга мансуб бўлмасдан «чеккада», «ораликда» қолишидир. Бу ҳолат ҳозирги ахборот технологиялар даврида табиий бўлиб, аслида бу ёшларнинг доимий интернет ва ижтимоий тармоқларда бўлиши, уларга боғланиб қолишига, уларнинг реал жамиятдан бегоналашиб кетишига, ўзи ёлғиз ҳолда қолишни истаб, яқин кишилари, қариндош-уруғлари, ёру-дўстлари ва маҳалласидан узоқлашиб кетишига, ҳатто жонли мулоқот қилмай қўйишига олиб келади. Айниқса, виртуал оламдаги турли зўровонлик ва ахлоқсизликни тарғиб қилувчи ножўя сайтларга кириши, ёшлар маънавияти ва ахлоқига салбий таъсир қилиш шубҳасиздир.

Шу нуқтаи назардан Мунисниng гуманистик ва ахлоқий ғояларидан ҳозирги кунда ёшларнинг виртуал оламда ножўя сайтларга кириб, шулар таъсирида бўлиши, шунингдек, ёшлар орасида тарқалиб бораётган «жамиятдан бегоналашув», қолаверса, гиёҳвандлик, кашандалик, ичкиликбозлик, фоҳишалик каби «девиант ахлоқ» кўринишларига карши курашда ғоявий қурол сифатида фойдаланишимиз мумкин. Бу борада шоирнинг илмий-маърифий, ижтимоий-ахлоқий қарашлари беқиёс маънавий манба бўлиб хизмат қилади.

Инсондин ўзингга ошно қилма талаб,
Жон фарқига шамшири бало қилма талаб.
Мақбуллиқ истасанг бўлурсен мардуд,
Қоч жавру жафосидин, вафо қилма талаб[25].

[25] Мунис Хоразмий. Сайланма. – Б. 322.

Мунис Хоразмийнинг асарлари бўйича китобхонлар конференцияси ва ижодий учрашувлар ўтказиш, Мунис Хоразмий ҳаёти ва ижоди ҳақидаги спектаклларни тамошо қилиш каби тадбирлар ёшларимизни маргиналлик ҳолатидан қутулишга ёрдам беради, деб ўйлаймиз.

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан келиб чиқиб, қуйидаги хулосаларни бериш мумкин: биринчидан, ёшлар қалби шаклланаётган қалб бўлгани учун шаклланиш жараёнини тўғри белгилаш, ёшларнинг вертуал дунёга боғланиб қолмаслиги ва шу оламнинг салбий таъсирининг олдини олиш учун Мунис Хоразмий маънавий меросидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Зеро, Президентимиз Ш.Мирзиёев айтганларидек: «Энг асосийси, уларнинг калбида бой тарихимиз, маданий меросимиз билан фахрланиш туйғуси камол топади»[26].

Иккинчидан, шоирнинг маънавий меросидаги мол-дунёга ҳирс қўймаслик, бойликнинг ўткинчилиги, амалдорларнинг танқид остига олиниши, билим олишга даъват, касб-хунар эгаллашга чақириқ, баркамол инсонни тарбиялаш ҳақидаги ғояларга хизмат қилади.

Учинчидан, мутафаккирнинг сиёсий ва тасаввуфий қарашларидаги нафсни тарбиялашгаоид ғояларидан бугунги кун раҳбар кадрларни танлаш, тарбиялаш ва жой-жойига қўйиш ишларида назарий жиҳатдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

ВАКОЛАТЛИ ИҚТИСОДИЙ ОПЕРАТОР: ЯНГИ ИНСТИТУТ, ЯНГИ ИМКОНИЯТЛАР

И.Тораходжаева
Божхона Институти, ҚТМОФ
“Махсус фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси,
б/х подполковниги

Айни пайтда мамлакатимизда божхона маъмуриятчилиги тизимига буткул янгича ёндашувлар шаклланмоқда: ёппасига назорат ўрнига хавфларни бошқариш тизими, истиқболли божхона технологиялари ва қонунга итоаткор бизнес билан ҳамкорлик муносабатлари фаол қўлланилмоқда.

Шу билан биргаликда мамлакатимизда мутлақо янги институт - ваколатли иқтисодий оператор (ВИО)[27] институти жорий этилди. Ушбу

[26] Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, ИМИУ, 2018. – Б. 25.
[27]Совет Таможенного Сотрудничества (Всемирная Таможенная Организация) Международная Конвенция от 18 мая 1973 года “Об упрощении и гармонизации таможенных процедур.

институтнинг жорий этилишига эса халқаро майдонда божхона маъмуриятчилигини соддалаштириш ва такомиллаштиришга қаратилган глобал ўзгаришлар сабаб бўлди.

Юқоридаги глобал ўзгаришларнинг тарихига назар соладиган бўлсак, ўтган асрнинг 70-йилларидан бошлаб, кўп йиллар давомида божхона органлари халқаро савдо контексти ичидаги хавфсизликни таъминлашга катта эътибор бера бошладилар. Шундан сўнг ушбу мақсадларни кучайтиришга қаратилган бир қатор махсус дастурлар ишлаб чиқилди. ВИО концепцияси ушбу дастурларнинг бир қисмидир. Шунинг учун 2005 йилда Бутунжаҳон Божхона Ташкилоти ВИО учун алоҳида хавфсизликнинг ҳадли стандартларини ишлаб чиқди.

ВИО дастурининг бир қисми сифатида божхона органлари ушбу мақомни олган ташкилотларга бир қатор имтиёзларни тақдим этишлари керак. ББТнинг Ҳадли стандартлари 6-стандартининг II бўлими, хавфсизликнинг энг юқори даражасини таъминлаш ва соддалаштириш учун божхона органлари ва савдо иштирокчилари ўртасидаги ҳамкорликни қўллаб-қувватлашга йўналтирилган. Бироқ, ушбу стандарт соддалаштиришга эмас, балки хавфсизликка устувор аҳамият беради, бу эса маълум бир дилемма яратади. Шу муносабат билан, Бутунжаҳон Божхона Ташкилоти ВИОнинг махсус йўриқномаларини (ББТнинг хавфсизлик стандартлари бўйича 5-бобида келтирилган), шунингдек ВИО учун “Имтиёзлар режасини” ишлаб чиқди. Ушбу имтиёзлар ТИФ иштирокчилари устидан текширувлар сонини қисқартириш ва текширишларни ўтказишдаги устуворлик , ташқи иқтисодий ҳамкорлик дастурларини ўзаро тан олиш, хавфсизлик ва кафолат талабларининг соддалашуви , товарларнинг тезроқ чиқарилиши , шунингдек, олдиндан рўйхатдан ўтиш, соддалаштирилган тартиб, фавқулодда вазиятларда биринчи даражали хизмат ва бошқа имтиёзларни ўз ичига олади.

Ваколатли иқтисодий оператор ким ўзи?

ББТ Ҳадли стандартларидаги таърифга кўра, ваколатли иқтисодий оператор (ВИО) – товарларнинг халқаро миқёсдаги ҳаракатига жалб этилган ва миллий божхона органи ёки унинг номидан ЖБТ хавфсизлик стандартларига ёки шунга ўхшаш етказиб бериш тизимига мувофиқ келиши эътироф этилган ҳар қандай юридик шахс ҳисобланади.

Ваколатли иқтисодий оператор институтининг мамлакатимизда жорий этилишига Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Божхона маъмуриятчилигини такомиллаштириш ва Ўзбекистон Республикаси давлат божхона хизмати органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича

қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2018 йил 24 ноябрдаги ПФ-5582-сонли Фармони[28] асос бўлиб хизмат қилди.

Ушбу Фармоннинг ижросини таъминлаш мақсадида 2019 йил 1 февралдан бошлаб мамлакатимизда инсофли ташқи иқтисодий фаолият иштирокчиларига соддалаштирилган божхона тартиб-таомилларидан фойдаланиш ҳуқуқини берувчи халқаро стандартларга мувофиқ ваколатли иқтисодий операторлар институти жорий этилди.

Шу билан биргаликда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 24 августдаги “Ваколатли иқтисодий оператор тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида” ги №500-сонли Қарори[29] билан “Ваколатли иқтисодий операторлар тўғрисидаги низом” тасдиқланди.

Шунингдек, Давлат Божхона Қўмитаси томонидан “Ваколатли иқтисодий операторлар реестри” шакллантирилиб, ДБҚ веб-сайтида уларнинг рўйхати юритила бошлади.

Реестрга киритишлари учун юридик шахс ДБҚга ариза топширади, унга қуйидагилар илова қилинади:

- раҳбар муҳри ва имзоси билан тасдиқланган юридик шахснинг таъсис ҳужжатлари нусхалари;
- ариза топширгунга қадар юридик шахсда охирги 6 календарь ойда божхона ва солиқ тўловлари бўйича қарздорлик мавжуд бўлган бўлса, 500 000 АҚШ доллари миқдоридаги таъминот сифатида банк кафолати.

Шуни алоҳида таъкидлаш зарурки, реестрга киритилган ВИОлар томонидан импорт ва экспорт қилинадиган товар ва транспорт воситаларининг божхона расмийлаштируви “яшил” йўлак орқали амалга оширилиши белгиланди.

Бугунги кунда Ваколатли иқтисодий оператор реестрига 17 та юридик шахслар киритилган бўлиб, мазкур рўйхат Давлат божхона қўмитасининг веб сайтида онлайн тарзда янгиланиб бормоқда.

Ваколатли иқтисодий операторлар институтини амалиётга киритишдан қуйидаги натижалар кутилмоқда:

- Тадбиркорлик субъектларига янада қулай шарт-шароитлар яратилиши ва уларнинг ривожланишига хизмат қилади;

[28] Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.11.2018 й., 06/18/5582/2220-сон; 20.03.2020 й., 06/20/5971/0348-сон.

29 Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.08.2020 й., 09/20/500/1204-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.04.2022 й., 09/22/153/0266-сон; 05.09.2022 й., 09/22/487/0794-сон; 25.10.2023 й., 09/23/560/0796-сон.

•Инсофли ташқи иқтисодий фаолият иштирокчиларига соддалаштирилган божхона тартиб-таомилларидан фойдаланиш ҳуқуқини тақдим этади;

•Мамлакатимиз иқтисодининг юксалиши ва ЯИМнинг ошишига имкон яратади;

•Халқаро майдонда мамлакатимизнинг инвеститцион жозибадорлигини оширишга қўмаклашади;

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак ВИО институти мамлакатимизда мутлақо янги тизим сифатида жорий қилинганлиги сабабли у хали тўлалигича миллий иқтисодиётимиз ва божхона тизими билан мослаша олгани йўқ. ВИО институтини ривожлантириш бўйича сезиларли ишлар амалга оширилган бўлишига қарамай, унинг ўз олдига қўйилган мақсад ва вазифаларини амалга ошириши учун яна кўплаб саъй-харакатлар амалга оширилиши лозим. Бу саъй-харакатларни амалга оширишда божхона органларининг тинимсиз меҳнати ва изланишлари катта аҳамиятга эга бўлади.

SPIRITUAL, SOCIO-POLITICAL ASPECTS OF ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY

Meilimuhametov Elyor
Institute of socio-spiritual research under the center for spirituality and enlightenment of the republic.

Introduction. The Republic of Uzbekistan is confidently following its own path of development and progress, building a fair civil society, and the gradual formation of a democratic legal state. The young sovereign Uzbek state embodies the centuries-old domestic, as well as advanced foreign experience of state and legal construction. One of the most important events in the recent history of independent Uzbekistan is the development, discussion and adoption of the Basic Law of the country. "The constitution is the foundation of the life of society, the basis of peace, tranquility and national harmony in the country, the legal guarantee of the freedoms of citizens."[30] The beginning of the formation of a fundamentally new Uzbek.

National statehood was established by the adoption of the Constitutional Law "On the Fundamentals of the State Independence of the Republic of Uzbekistan" dated August 31, 1991. The statehood of Uzbekistan is not just a formal legal result of the proclamation of its sovereignty and independence. It is the result of a

[30] Karimov I.A. Uzbekistan: its own path of renewal and progress. -T.: Uzbekistan, 1992.

centuries-old history of state-legal development. During the years of independence, Uzbekistan has gone through a short but meaningful period of building a qualitatively new system of state authorities.

2. The revival of Uzbek statehood makes it possible to concentrate all efforts on the formation of a civil society, the development of democratic institutions, and the solution of socio-economic, spiritual, cultural, political and legal problems that have accumulated in society. For the stability and prosperity of society, it is necessary to strengthen the institutions and principles of the rule of law, because the present and future of the country depends on their strength. The rule of law and its principles are the driving force behind the development of any nation.

The Republic of Uzbekistan, as a new sovereign state, faces the task of reviving and developing its own legal statehood, taking into account foreign experience in state-legal construction and its historical past, in accordance with the realities of life.

METHOD

The article uses chronological and systematic periodic data, comparative and quantitative methods. More than ten scientific papers on this topic are used to explain the "Place and the role of political power in ensuring the stability of society - one of the most relevant dimensions of the modern state. In addition, the researcher also used a variety of materials to collect data related to the study.

DISCUSSION

Maintaining political stability, preventing conflicts between large social groups - ethnic groups, classes, religious communities - is one of the traditional tasks of any country's national security policy. Forms and methods of maintaining peaceful socio-political, inter-ethnic and inter-confessional relations, prevention of internal conflicts have been developed and tested in the global political practice for a long time. At the same time, despite the arsenal of tools and methods to prevent such conflicts, modern states often lose to their opponents, who are representatives of extremist socio-political, ethnic and religious organizations, in the struggle to maintain political stability.

Extremist forces began to use methods of information and psychological influence and manipulation of social consciousness much more widely than before, which made it possible to provide a large part of the population with political mobilization, turning them into a crowd acting for the benefit of manipulators in order to destroy the legitimacy of power.

Opponents of political regimes also use the protest potential of various groups and strata of the population. This factor is taken into account in the incitement of

interethnic and interreligious conflicts that destabilize political systems and lead to the disintegration of states.

In 2011, the uprisings in the countries of the Middle East (Yemen), the "color" revolutions in Georgia, Ukraine, Kyrgyzstan, attempts to overthrow the state in the Republic of Kazakhstan, the collapse of the former Yugoslavia showed that the collapse of governments, first of all, their state socio-economic, ethnic-national and regional systemic failures in policy implementation are explained by the inability of the authorities to solve accumulated social and political problems in time.

Attempts to assign the responsibility for social contradictions, destabilization only to the political opposition, to form the "image of the enemy" and to explain the crisis processes in terms of "conspiracy theory" is a bad attitude from the methodological point of view. Therefore, the main attention of the scientific community should be focused, first of all, on the study of the ways and internal conditions of maintaining political stability in the country. Undoubtedly, the main condition for confronting threats to the political stability of any country is to build a prosperous and promising society. It is not for nothing that social, economic, environmental, and youth policy problems are given a great place in official documents and researches.

Currently, the modernization processes are not yet completed in Uzbekistan, and the processes of stabilizing the spiritual, ideological, socio-economic and institutional foundations of regulating the existing social contradictions are underway. Ways to strengthen these foundations are promising, they deserve a separate study, but taking into account this situation, in our research we pay attention to something else - first of all, technologies for combating threats to political stability.

In the study of political stability as a holistic and multifaceted phenomenon that describes the state of the political life of society, it is most important to analyze its main structural aspects that directly affect the relations of power in the state. Determining these aspects allows to determine the existence and level of political stability in the society, as well as the degree of their impact on the country's security. Today, the stable and consistent development of the effectiveness of state activity is determined by the presence of a multi-level state power system that can quickly respond to new problems and offer optimal solutions for society, ensure the implementation of constitutional rights to citizens, and maintain social order in society without conflicts. The stability of the political system is a universal generalized feature that allows to indicate the important parameters of the society in a certain period of its development. In all aspects, the

stability of society plays an important role in the process of its determination and in the vector of the historical path in general. There are different approaches to understanding this category in foreign practice, which are developed within the framework of structural, functional, institutional and behavioral approaches.

F. Billie, C. Dowding, and R. Kimber interprets political stability as the absence of a real threat of illegal violence in society or the existence of state capabilities that allow to overcome it in a crisis situation;

E. Zimmerman refers to the functioning of one government over a certain long period of time, correspondingly to its ability to successfully adapt to changing realities;

S. Huntington as the existence of a constitutional order;

S. Lipset and D. As a result of the legitimacy of siring power. That is, the process of stabilization is strictly determined by the factor of the legitimacy of the authorities[31]. The internal stimulus of power is the desire to maintain the existing order, protect society from wars, conflicts and revolutions, the lack of structural changes in the political system or the ability to manage them, the result of the combination of power and social forms of the organization, it is a behavioral model and social attribute.

The experience of European countries shows that a well-organized mechanism of management and interaction of different levels of state power, from the state to municipal power, allows to ensure stable and consistent development of state administration for the benefit of every citizen and society as a whole[32]. S. In his work "political stability in a changing society", Savin identified objective and subjective factors of political stability and showed the following two factors.

First; it supports the stability of political institutions and the effectiveness of the system of distribution of the regime of power and the political culture of society.

Second; includes the effectiveness and legitimacy of power in society. Depending on the conditions for stability in various components of political and other spheres of society, as well as the presence of stabilization mechanisms, the author emphasizes different types and levels of political stability in the social system. Ideal-a typical model of political stability depends on a particular type of political regime.

As one of the tasks of maintaining political stability and ensuring political security, Andrey Semchenkov proposed a specific content of the concept of

[31] Макарычев А. С. Стабильность и нестабильность при демократии: методологические подходы и оценки // Политические исследования. 1998. № 1. С. 149-158.

[32] Sytin A.V. The role of local self-government in the life of modern society and the state (the experience of the countries of the European Union) // Greater Eurasia: development, security, cooperation. 2022. No. 5-1.

"Maintaining political stability of society". In his opinion, this is due to the measures and actions of state bodies, local government bodies and public organizations aimed at ensuring the legitimacy of the government, internal civil, inter-ethnic and inter-confessional peace, territorial integrity and sovereignty at the regional level, protection from external, internal and cross-border threats across the country. can be considered as a system. The main aspect of political stability is the legitimacy of political power. Scientific study of the role of local government bodies in Uzbek statehood from a historical point of view is of great importance. Because in order to deeply understand the essence of historical events and phenomena, first of all, one can observe how they happened in historical processes, what stages they went through in their development, what changes took place in form and content. Without such a historical approach, especially in the years of independence, it is difficult to understand the nature of the reforms aimed at the formation of local government bodies, which are an integral part of the national statehood, and at improving their activities, to objectively evaluate them. As mentioned above, the Uzbek statehood has gone through a long historical period and has accumulated significant experience in the field of state structure and administration). In this, the state structure of the time of the great Amir Temur occupies a special place) Amir Temur relied on time-tested theoretical and practical principles and improved them in his management activities). "Timur's regime" states that Amir Timur implemented State Administration on the basis of demand-principles close to the current democratic principles). These are: a) almost all cases (the council was brought to life through the event and the consultation; b) great attention was paid to the rule of Law) Court (the justice system was divided into branches). In the legislation, the principle of “power in justice” was followed; C) in public-state relations, all taabaqa activities and interests in society are based on the principles of equality of mutual respect; G) officials in the public service are selected according to their intelligence, erudition, managerial ability, honesty-purity, morality and patience; d) Public Administration is divided into two bodies-the highest state office and Devon (ministries); E) it is found that the head of state must know his work in a single word, be fair to himself and those around him, do business with.[33]

This, in turn, requires local governments to define their role in national statehood from a historical point of view. It is known that public authorities should reflect the needs and national interests of the population living in each part of society.

[33] Azamat Ziya History of Uzbek statehood. Pages 173-182.

On August 31, 1991, the state sovereignty of the Republic of Uzbekistan was officially proclaimed and, in accordance with the Constitutional Law "On the Foundations of the State Independence of the Republic of Uzbekistan", Uzbekistan was recognized as an independent, democratic state and its national-state and administrative-territorial structure, the system of government bodies and governing bodies[34]. From the first years of independence, the creation of a unique model of state and public construction, the main consequences of reforms in the field of state building and management the goal is to increase the responsibility and efficiency of all branches of government, including the local government system. This was reflected in the Constitution of Uzbekistan adopted on December 8, 1992. Chapter XXI of the Constitution is devoted to the "Fundamentals of Local State Power", which legally substantiated the existence of local representative bodies in a two-tier system, and this norm was also reflected in the adopted Law "On Local State Power". September 2, 1993.

RESULTS

If the citizens of the country support the institutions of power, the legal basis for the exercise of their powers and the political, legal and organizational conditions for the existence of society created by them, they can be considered legitimate[35]. Local self-government has an open democratic character and ensures the direct participation of citizens in the management of public affairs.

The political system of society consists of structures that perform various tasks and functions, and political institutions occupy a special place in it. In socio-political sources, political institutions include state political parties, interest groups, social movements, organizations, associations, and the media. who form the basis of power and exercise power.

Organizational and legal conditions, forms and methods of activity are formed within the framework of local self-government bodies for the implementation of rights related to the most urgent needs of the population. All this contributes to the strengthening of the socio-political system at the level of local and central authorities, the development of civil society, and a significant increase in countering threats to political power.

In recent years, the country has been implementing reforms in many areas of state and public life, including increasing the efficiency of public authorities. In the development of the country, state power plays not only an important, but also a decisive role.

[34] New laws of Uzbekistan №3. - Tashkent: Justice. 1993.- B.114.
[35] Tsurenkov Nikolai Vladimirovich Main aspects of political stability and their impact on the border security of the Russian state // Social and humanitarian knowledge. 2014. No. 5.

It is precisely in the direction in which, by whom and how the state power is exercised that the fate of the country and its population is largely determined. It would not be an exaggeration to say that this is clearly confirmed by human historical experience of several millennia.

State power as the main type of public power has always been in the focus of attention of researchers and politicians. As Professor Z.M. Islamov noted, "issues of power have never left the political arena and in no case have lost their relevance"[36]

The Greek philosopher Aristotle believed that power, first of all, is necessary for organizing a community of people, whose members must obey the general will, ensure its integrity and unity[37].

The difference between state power and other types of political power (family, social group, etc.) is that it generalizes and represents the interests of the whole society, and not of an individual or social group. State power ensures the management of social processes that are most important for the existence and development of society. In this sense, it will not be a mistake to say that state power is one of the most complex phenomena of social life and reflects the most important aspects of human civilization.

Since the Republic of Uzbekistan gained independence, administrative reforms have been carried out several times, aimed primarily at creating an acceptable and effective system of public administration, because only an effective state power is able to solve urgent socio-economic problems and create conditions for improving the level and quality of life of the population.

It should be noted that in the modern world there are significant trends towards a revision of the understanding of the role of the state, its functions, the relationship between society and the state, its bodies. As a result, attempts to carry out administrative reforms in a number of countries are associated with an increase in the efficiency of public authorities.

Their experience shows that this is a long, difficult task that requires the efforts of the entire society and, most importantly, the openness of the authorities to communicate with them. At the same time, hasty and ill-conceived decisions can lead to large economic and social losses, and the success of public authorities is out of the question.

A.M. Nagimova said that improving the efficiency of public administration is not only the structure of state institutions and a change of staff, but also a revision

[36] Islamov Z.M. The problem of power: its understanding, purpose, social value. - T .: TPOI. - 2003. P.13
[37] Aristotle. Works: In 4 volumes - M., 1984. V. 4. - S.376-380

of the powers of the full authorities, and improving the mechanisms for the implementation of these powers and functions.

However, the improvement of the efficiency of the state authorities should be solved taking into account the inadmissibility of the "loss" of important and necessary functions for the society. The reason for this is that the effectiveness of the state management body is determined not by the breadth of coverage of the spheres controlled by it, but by the actual observance of public interests and the effectiveness of political and legal mechanisms in the country.

This is due to the development of the legislation of the Republic of Uzbekistan, in particular, during the reporting period, the following activities were carried out in the priority areas of the Action Strategy in five priority areas for the development of the Republic of Uzbekistan in the field of improving the system of state and public construction in 2017-2021.

When will public administration reform be successful in the country? if at the level of each subject of the country there is not only a clear understanding of the goals and objectives to be solved, the activities being implemented, but also a mechanism for assessing the achievement of the expected final results is being introduced. And the socio-economic development of the regions depends not only on the accountability of the regional government to the population, strengthening its transparency, but also on improving the efficiency of the government.

Currently, several programs are being implemented in Uzbekistan to reform the public administration system. It should be noted that in order to maximize the impact of this activity, it is necessary not only to evaluate the overall results, but also to constantly monitor the activities of state bodies, and the evaluation of these projects can be carried out both during their implementation and according to the results of the program.

Currently, important methods for evaluating effectiveness have been developed and are being used in practice, including expert analysis, normative mapping methods, etc. These methods have been successfully implemented in practice in various countries. However, at present, approaches to the evaluation activities of state bodies should change.

The lack of new approaches to evaluating the performance of a state body and civil servant has a negative impact on indicators of socio-economic development and the results of public administration reform. The introduction of new methodological approaches to the evaluation of the effectiveness of local government bodies is an important condition for increasing the effectiveness of achieving the set goals and final results.

The practical application of modern methodological approaches to the assessment of efficiency in local government bodies ensures long-term planning, the provision of public services that meet the needs of citizens; helps to allocate budget funds to socially necessary and economically based expenses, increases the validity of the adopted management decisions and the responsibility of officials and civil servants.

A special feature of public administration reforms aimed at improving the efficiency of state structures is the complexity of determining objective quantitative indicators of the effectiveness of these reforms. In this regard, an important part of the presented efficiency indicators is based on the results of the study of the population, civil servants, and business circles.

CONCLUSION

Thus, regardless of the political regime, level of socio-economic development, traditions and structure of political and administrative management for all states, the task of ensuring political stability is the main and permanent one. The history of the development of human society shows that the diverse tasks of achieving political stability and maintaining the achieved balance of political forces are solved both at the level of intrastate and interstate relations. Moreover, the central subject in the process of ensuring political stability is always the state and its institutions. The problem of political stability is especially intensified when the country moves from an authoritarian political system to a democratic one.

References

1. Khollievich AK (2017) Spiritual Aspects of Formation of a Threatening Resistant Society. J Socialomics 6: 214. doi:10.1472/2167-0358.1000214
2. Авазов Комил Холлиевич Идеологические угрозы современности, безопасность и стабильность в обществе и их взаимосвязь//Национальная безопасность и стратегическое планирование: Выпуск 4 (12), 2015, с.42-47
3. Avazov Komil Hollievich,"Political Analysis of the Stability of Modern Society". Journal of International Politics 2019;1(1): 39-44.
4. Avazov Komil Hollievich, «Efficiency Factors of Political Power»// Scholars Journal of Physics, Mathematics and Statistics. 2019; 6 (4): P.91–94
5. Avazov Komil Hollyevich «Information Threats: Types, Objectives and Methods»// Ijsrm.Human, 2017; Vol. 7 (4): P.107-116.
6. Avazov K.H. Factors of the effectiveness of political power as the basis of the sustainability of society//Theoretical & Applied Science. 2020. № 2 (82). Pp. 586-589.

7. SI Pakhrutdinov The legitimacy of power structures as the factor for the threat resistance of society//Journal of critical reviews, 2020, vol 7. P.1434-1438
8. SI Pakhrutdinov Uzbekistan: Responsibility for Sustainable Development and Intensity of Rapid Changes// Advances in Social Sciences Research Journal. Vol.6, No.8. P.233-239
9. Пахрутдинов Ш.И. Угрозоустойчивое общество в качестве фактора развития государства и общества// Конфликтология. №4, 2016. с-74
10. Пахрутдинов Ш.И. Узбекистан: ответственность за устойчивое развитие и интенсивность ускоренных изменений// Вопросы политологии. - 2019. -Том: 9 Номер 8 (48): С. 1754-1764
11. Avazov K.External and internal threats of modernity, security and stability in society, and their relationship//Russia and the Muslim world-Moscow, 2017, P. 23
12. O. Musaev. Some questions of the developing of interethnic relations// Theoretical & Applied Science. -2016. №06(38). -Pp.82-84
13. Umarali Kadyrov Factors and importance of forming personal consciousness in the information society //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – Т. 18. – С. 74-79.
14. T. H. Qurbonov 2023. Unity of nationality and universality in the Uzbek national mentality. American Journal of Pedagogical and Educational Research. 16, (Sep. 2023), 186–191.
15. Авазов К. Х., Тураева С. Современные факторы духовной культуры и их влияние на развитие человека //общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. – 2022. – С. 29-33.
16. Komil Avazov (2017). Internal and external threats of modernity, security and stability of the modern society and their affinity // The article was presented for the publication in the bulletin Russia and the Moslem World. Russia and the Moslem world, (3 (297)), 102-114.
17. Авазов К. Х. Социально-политический анализ формирования угрозоустойчивого общества //Вопросы политологии. – 2023. – Т. 2. – №. 90. – С. 590-593.
18. Мусаев О. Социально-философские интерпретации таких понятий, как" этнос" и" нация" как социальная единица //Thematic Journal of Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 1.

ARXIVLARDA TASVIRLARNI SIFATINI TIKLASH USULLARI

Dauletov Adilbek Yusupbayevich
ALFRAGANUS UNIVERSITY
Raqamli texnologiyalari kafedrasi dotsenti
Telefon:+99890-956-58-01
davletov—odilbek@mail.ru

Kuryazov Sanjarbek Egamberganovich
ALFRAGANUS UNIVERSITY
Magistiranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada arxivlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan eskirgan tasvirlar va hujjatlarni sifatini yaxshilash usulari keltirilgan. Maqolada zamonaviy arxiv va muzeylar global jarayonlar ta’sirida vayron bo‘layotgan xalqlar tarixi va madaniyati yodgorliklarini to‘playdi, o‘rganadi, ommalashtiradi va eng muhimi, asrab-avaylaydi. Ana shunday muhim ahamiyat kasb etgan tasvirlarni sifatini tiklash usullari bayon qilingan

Kalit so‘zlar: arxiv, fotohujjat, hujjat, mexanik usul, kimyoviy usul, raqamli usul, nuqson, tasvir sifatini tiklash, algoritm

Arxivlarda tasvirlarni tiklash texnologiyalarining rivojlanish tarixi 100 yildan ko‘proq vaqtga borib taqaladi. Bu sohadagi birinchi ish 19-asrning oxirida amalga oshirilgan va shikastlangan fotosuratlarni tiklashga bag‘ishlangan. 20-asrning boshlarida buzilgan hujjatlarni tiklash bo‘yicha birinchi ish paydo bo‘ldi.

Arxivlarda tasvirni tiklash texnologiyalarini ishlab chiqishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi bosqich (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). Ushbu bosqichda tasvirni tiklashning asosiy vazifasi chizish va yirtiq kabi mexanik shikastlanishlarni bartaraf etish edi. Buning uchun turli mexanik va kimyoviy usullar qo‘llanilgan.

Ikkinchi bosqich (XX asr o‘rtalari). Ushbu bosqichda raqamli tasvirni qayta ishlash usullaridan foydalangan holda tasvirni tiklash bo‘yicha birinchi ishlar paydo bo‘lgan. Ushbu usullar mexanik shikastlanishni yanada samarali bartaraf etish, shuningdek, yorug’lik, namlik va boshqa omillar ta’sirida shikastlangan tasvirlarni tiklash imkonini berdi.

Uchinchi bosqich (20-asr oxiri - 21-asr boshlari). Ushbu bosqichda arxivdagi tasvirlarni tiklash texnologiyalari faol rivojlanmoqda. Mashinani o‘qitish, sun’iy intellekt va neyron tarmoqlar kabi turli yondashuvlardan foydalanishga asoslangan yangi tiklash usullari paydo bo‘lmoqda.

Arxivdagi tasvirlarni tiklashning ko’plab usullari mavjud. Eng keng tarqalgan usullar quyidagilardir:

- Mexanik usullar. Ushbu usullar tasvirga jismoniy ta’sir ko‘rsatishga asoslangan. Mexanik usullar chizish, chuqurlik va yirtiq kabi mexanik shikastlanishlarni tuzatish uchun ishlatilishi mumkin.
- Kimyoviy usullar. Ushbu usullar kimyoviy moddalardan foydalanishga asoslangan. Kimyoviy usullar ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash, rangni tiklash va tasvir kontrastini oshirish uchun ishlatilishi mumkin.
- Raqamli usullar. Bu usullar raqamli tasvirni qayta ishlash texnikasidan foydalanishga asoslangan. Raqamli texnikalar har xil turdagi shikastlanishlarni, shu jumladan mexanik shikastlanish, yorug’lik, namlik va boshqa omillar ta’sirida etkazilgan zararni tuzatish uchun ishlatilishi mumkin.

Tasvirlarni tiklashning yuqoridagi usullari har birini alohida ko‘rib chiqamiz. tasvirga jismoniy ta’sir ko‘rsatishga asoslangan.

Tasvirni tiklashning asosiy mexanik usullari

Silliqlash. Ushbu usul qum qag‘oz yoki abraziv material yordamida tasvirning yuqori qatlamini olib tashlashni o‘z ichiga oladi. Qum qag‘oz tirnalgan joylarni, chuqurchalarni olib tashlash va tasvirning rangini tiklash uchun ishlatilishi mumkin.

Jilolash. Bu usul abraziv pasta yoki boshqa abraziv materiallar yordamida tasvirning sirtini tekislashni o‘z ichiga oladi. Jilolash kichik tirnalishlarni olib tashlash va tasvir kontrastini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin.

To‘ldirish. Ushbu usul maxsus material yordamida tasvirdagi yoriqlar va yirtiqlarni to‘ldirishni o‘z ichiga oladi. To‘ldirish tasvirning yaxlitligini tiklash uchun ishlatilishi mumkin.

Yelimlash. Bu usul tasvirning ikki yoki undan ortiq qismini maxsus elim yordamida birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bog‘lanish yirtilgan yoki yorilib ketgan tasvirlarni tiklash uchun ishlatilishi mumkin.

Mexanik tasvirni tiklash usullarining afzalliklari**:**

Samaradorlik. Mexanik usullar har xil turdagi mexanik shikastlanishlarni samarali tarzda tuzatishi mumkin.

Mavjudligi. Mexanik usullar ko‘pchilik foto ta’mirlash ustaxonalarida mavjud bo‘lgan oddiy asboblar va materiallar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Mexanik tasvirni tiklash usullarining kamchiliklari:

Tasvirga zarar etkazish ehtimoli. Mexanik usullar ehtiyotkorlik bilan bajarilmasa, tasvirga zarar etkazishi mumkin.

Maxsus ko‘nikmalarga ehtiyoj. Mexanik tasvirni tiklash usullari maxsus ko‘nikma va tajribani talab qiladi.

Mexanik tasvirni tiklash usullari turli xil tasvirlarni, jumladan, fotosuratlar, hujjatlar, chizmalar, rasmlarni tiklash uchun ishlatiladi.

Mexanik tasvirni tiklash usullari tasvirlarning mexanik shikastlanishini bartaraf etishning eng samarali usullaridan biridir. Biroq, ular tasvirni shikastlamaslik uchun ehtiyotkorlik va tajribani talab qiladi.

Tasvirni tiklashning kimyoviy usuli

Tasvirni tiklashning kimyoviy usullari ifloslanish, dog‘lar, eskirish, rang o‘zgarishi kabi turli xil tasvir nuqsonlarini bartaraf etish uchun kimyoviy moddalardan foydalanishga asoslangan.

- Tozalash. Ushbu usul kimyoviy eritmalar yordamida tasvir yuzasidan ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlashni o‘z ichiga oladi. Tozalash chang, kir, barmoq izlarini olib tashlash va tasvir rangini tiklash uchun ishlatilishi mumkin.
- Oqartirish. Ushbu usul tasvirni kimyoviy eritmalar yordamida yoritishdan iborat. Oqartirish dog‘larni olib tashlash va tasvir kontrastini oshirish uchun ishlatilishi mumkin.
- Rangni tiklash. Ushbu usul kimyoviy eritmalar yordamida tasvir rangini tiklashdan iborat. Rangni tiklash eskirganiga qarab xiralashgan yoki yorug‘lik ta’sirida shikastlangan tasvirlar uchun ishlatilishi mumkin.

Tasvirni tiklashning kimyoviy usullarining afzalliklari:

Samaradorlik. Kimyoviy usullar turli xil tasvir nuqsonlarini samarali ravishda yo‘q qilishi mumkin.

Ko‘p qirrali. Fotosuratlar, hujjatlar, chizmalar, rasmlarni o‘z ichiga olgan turli xil rasmlarni tiklash uchun kimyoviy usullardan foydalanish mumkin.

Tasvirni tiklashning kimyoviy usullarining kamchiliklari:

Rasmga zarar etkazish ehtimoli. Kimyoviy usullar ehtiyotkorlik bilan bajarilmasa, tasvirga zarar etkazishi mumkin.

Maxsus ko‘nikmalarga ehtiyoj. Tasvirni tiklashning kimyoviy usullarini bajarish uchun maxsus ko‘nikma va tajriba talab etiladi.

Tasvirni tiklashning kimyoviy usullari fotosuratlar, hujjatlar, chizmalar, rasmlarni o‘z ichiga olgan turli xil rasmlarni tiklash uchun qo‘llaniladi.

Tasvirni tiklashning mexanik va kimyoviy usullaridan tashqari, turli xil tasvir nuqsonlarini bartaraf etish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan raqamli usuli ham mavjud.

Tasvirni tiklashning raqamli usuli

Raqamli tasvirni tiklash usullari raqamli tasvirni qayta ishlash usullaridan foydalanishga asoslangan. Raqamli usullar har xil turdagi shikastlanishlarni, shu jumladan mexanik shikastlanishlarni, yorug‘lik, namlik va boshqa omillar ta’siridan kelib chiqadigan zararni bartaraf etish uchun ishlatilishi mumkin. Raqamli tasvirni tiklash usullari turli xil algoritmlardan foydalanishga asoslangan bo‘lib, ularni quyidagi toifalarga bo‘lish mumkin:

• Signallarni qayta ishlash algoritmlari. Ushbu algoritmlar shovqin, artefaktlar va signal sifatida ifodalanishi mumkin bo‘lgan boshqa nuqsonlarni olib tashlash uchun ishlatiladi.

• Kompyuter ko‘rish algoritmlari. Ushbu algoritmlar tasvirning odatda qanday ko‘rinishini bilishdan foydalangan holda tasvirni qayta qurish uchun ishlatiladi.

• Mashinani o‘rganish algoritmlari. Ushbu algoritmlar modelni tasvirlar ma‘lumotlar to‘plamiga o‘rgatish uchun ishlatiladi, bu modelga turli nuqsonli tasvirlarni qayta tiklashni o‘rganish imkonini beradi.

• Generativ modellar. Generativ modellar mavjud tasvirlardan yangi tasvirlarni yaratish uchun ishlatiladi. Ushbu modellar shikastlangan yoki yo‘qolgan tasvirlarni tiklash uchun ishlatilishi mumkin.

• Dekonvolyutsion tarmoqlar. Dekonvolyutsiya tarmoqlari siqilish yoki buzilishning boshqa shakllariga duchor bo‘lgan tasvirlarni qayta tiklash uchun ishlatiladi.

• Chuqur o‘rganish tarmoqlari. Chuqur o‘rganish tarmoqlari shovqin, artefakt, buzilish va rang yo‘qolishi kabi turli nuqsonlar bilan tasvirlarni tiklash uchun ishlatilishi mumkin.

Mashinani o‘rganish va sun’iy intellekt texnikasi - ilgari tiklab bo‘lmaydigan deb hisoblangan tasvirlarni tiklash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan kuchli vositalar. Bu usullar turli sohalarda, jumladan, arxiv hujjatlarini boshqarish, fan, madaniyat va san’atda keng qo‘llash istiqbollariga ega.

Tasvirni tiklash usulini tanlash tasvirning shikastlanish turiga, shuningdek kerakli natijaga bog‘liq. Mexanik usullar mexanik shikastlanishni bartaraf etishda eng samarali hisoblanadi. Kimyoviy usullar turli xil nuqsonlarni, shu jumladan ifloslanish, dog‘lar, rang o‘zgarishini bartaraf etish uchun ishlatilishi mumkin. Mexanik yoki kimyoviy usullar bilan bartaraf etilmaydigan murakkab nuqsonlarni bartaraf etish uchun raqamli usuldan foydalanish mumkin. Raqamli usullar har xil turdagi shikastlanishlarni, shu jumladan mexanik shikastlanishlarni, yorug‘lik, namlik va boshqa omillar ta‘siridan kelib chiqadigan zararni bartaraf etish uchun ishlatilishi mumkin. Mashinani o‘rganish va sun‘iy intellekt usullaridan ilgari tuzatib bo‘lmaydigan deb hisoblangan tasvirlarni tiklash uchun foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. YALDIR & POLAT(2016). electronic document management system selection with multi-criteria decision making techniques. Mehmet Akif Ersoy Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi.Cilt.8 Sayı.14 2016-Mart (s. 88-108).issn:1309-1387

2. RASHIDOV O. O ‘zbekistonda arxiv ishi tarixi //O ‘quv qo ‘llanma–Toshkent-2019.
3. Muminov B.B., Dauletov.Yu. Classification and Mathematical Model of Electronic Document Circulation Systems International Journal of Advanced Research in Science Engineering and Technology. Vol. 7, -P. 15142-15150 Issue 10, October 2020.
4. Гребинь А. и др. Выбор Технологии Оборудования для Реставрации Архивных Фильмокопий. – 2015.
5. А.Н. Панфилов, А.Н. Скоба Электронные системы управления документооборотом / Юж.-Рос. гос. политехн. ун-т (НПИ) имени М.И. Платова.- Новочеркасск: ЮРГПУ (НПИ) имени М.И. Платова, 2017.- 20с.
6. И.В. Гейде, С.В. Панин. Технология блокчейн: основные аспекты и перспективы использования в системах электронного документооборота. москва 2019 г. 28-37 с.
7. Iteam «Системы электронного управления документами: обзор, классификация и оценка возврата от внедрения» // http://www.iteam.ru/publications/it/section_64/article_2712/ [мурожат санаси 05.10.2021]
8. Кузнецов С. Л. Современные технологии документационного обеспечения управления ООО «ТЕРМИКА.РУ», 2017 г. -470 с.
9. Варламов А. Д. Восстановление цвета полутоновых изображений нейронной сетью //Алгоритмы, методы и системы обработки данных. – 2011. – №. 2. – С. 2-2.

IJTIMOIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIY FALSAFIY TALQINNING MUXIM MUAMMOLARINI BELGILASH

Majidov Sodiqjon Sadullayevich
Namangan muhandislik qurilish instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Ijtimoiy ziddiyatlar va ijtimoiy falsafiy talqin, ijtimoiy hayotda uyg'unlik, tartibsizlik va boshqa muammolar o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida gapiradi. Bu mavzuga umuman baxsak, bir nechta muxim muammolar mavjud bo'lishi mumkin. Bu muammolarning bir qismini quyidagicha belgilash mumkin:

O'zaro qarama-qarshilik: Ijtimoiy hayotda, insonlar, guruhlar, milliy va etnik jamlar, diniy va siyosiy to'plamlar kabi turli jamlar o'rtasida qarama-qarshilik bo'lishi odatdir. Bu ziddiyatlar, rivojlanish, quvvatli fikrlash va ideyalarni o'rgatish uchun muhim bo'lgan faktorlar bo'lishi mumkin. Ularning yo'qolishi va natijalari

esa fuqarolar, mamlakatlar va jahon o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy ziddiyatlar: Ijtimoiy hayotda, iqtisodiy muammolar ham muximdir. Kapitalizm va sosializm o'rtasidagi tartib, resurslar va pul menejmenti, daromad taqsimoti va umumiy iqtisodiy faoliyatga doir talablar o'rtasidagi ziddiyatlar, ijtimoiy falsafiy talqinlarning asosiy muammolarini tashkil etadi.

Jinsiy ziddiyatlar: Jinsiy qarama-qarshilik, ijtimoiy falsafiy talqinlarning muhim muammolaridan biridir. Bu muammo, jinsiy barqarorlik, to'g'ri va adolatsizlik, jinsiy identifikatsiya, homoseksualizm va transgendizm kabi masalalar asosida paydo bo'ladi. Bu muammo ijtimoiy qonunlar, diniy tushunchalar va inson huquqlariga bog'liq tartibotlarning o'zaro mosligiga tegishli bo'ladi.

Milliy ziddiyatlar: Milliy taraqqiyot, etnik identifikatsiya, davlatning milliy siyosati va milliyatiga oid talqinlar, ijtimoiy ziddiyatlarning muammolaridan biri sifatida ko'rinadi. Bu muammo, qayg'udorlik, tushuntirish, muhofaza va o'zaro istiqbolli munosabatlar kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Diniy ziddiyatlar: Diniy talqinlar ijtimoiy ziddiyatlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Muhim diniy g'oyalar, tanqid va to'g'ri fikrlash odatlari o'rtasidagi muammo va ziddiyatlar, ijtimoiy falsafiy talqinlarning birlashmasida paydo bo'lishi mumkin.

Bu muammolar va ziddiyatlar, ijtimoiy hayotning o'zgarishlari, inson huquqlari, o'zgargan ijtimoiy falsafalar va o'zaro munosabatlar o'rtasidagi ko'rsatkichlar bilan bog'liqdir. Ularni hal qilish uchun adolatsizlik va noaniqlikning o'rniga, maslahatlashish, yoshlarni tarbiyalash va ma'rifat olish, inson huquqlarini muhofaza qilish, shuningdek, dialog, toleransiya va ma'naviyatga e'tibor berish zarur.

Ijtimoiy ziddiyatlar va ijtimoiy falsafiy talqinning muxim muammolarini belgilash qisqacha bayon qilish mumkin. Ijtimoiy ziddiyatlar, ijtimoiy tashkilotlarda va jamiyatda paydo bo'ladigan manfaatlar, qarashlarning o'zaro tushunchalaridan kelyapti. Bu ziddiyatlar odatda o'zaro qarashlarning, maqbul tushunchalar va qonunlarga, diniy va madaniy normativlarga mos kelmaydigan tushunchalar o'rtasida yuzaga keladi. Bunday ziddiyatlarga misol sifatida etnik, mazhabiy, siyosiy, iqtisodiy ziddiyatlar keltirilishi mumkin.

Biroq, ijtimoiy ziddiyatlar o'zida negativ tomondan ham o'z ichiga oladi. Bu ziddiyatlarga qaramay, jamiyatda tinimsizlik, intolerantlik, diskriminatsiya va konfliktlar ro'y berishi mumkin. Ijtimoiy ziddiyatlar qat'iyat bilan qarashlarning o'zaro qaramay, qarashlarning ko'rsatkichlariga, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga to'g'ri kelishi uchun muhimdir.

Ijtimoiy falsafiy talqin esa fikrlar, tushunchalar va nazariyalar to'plamidir, uning asosiy maqsadi jamiyatning yaxshi bo'lishi uchun xalqaro, iqtisodiy, siyosiy va madaniy qonunlarni belgilashdir. Ijtimoiy falsafiy talqinlar inson huquqlarini muhofaza qilish, demokratiya, barqarorlik, o'zaro hamkorlik, iqtisodiy ravishda taraqqiyotni kengaytirish va boshqa maqsadlarni qamrab olishga qaratilgan.

Muxim muammolar esa ijtimoiy ziddiyatlar va ijtimoiy falsafiy talqinlar bilan bog'liqdir. Bunda o'zaro ziddiyatlar asosida ijtimoiy falsafiy talqinlarni amalga oshirish, qonunlarga rioya qilish, manfaatlar va hujjatlarga asoslangan muzokaralarga erishish muammolari o'rtasidagi bog'liqlarni ko'zlab beradi. Bu muammolar jamiyatda tartib, adolat, huquqiy muhofaza, barqarorlik, tengsizlik, din va axloqiy tashabbuslar va boshqa ko'rsatkichlarning aniq belgilanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Muxim muammolarini belgilashning o'ziga xos usullari va strategiyalari mavjud. Ularning asosiy maqsadi jamiyatda to'g'ri va barqaror harakat qilish, ziddiyatlarni kamaytirish, o'zaro tushunchalar o'rtasidagi kelishuvlarni osonlashtirish, to'g'ridan-to'g'ri kompromis topish va jamiyatning umumiy taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltiriladi. Bu maqsadga erishish uchun diqqat, mazmunli muzokaralar, diplomatiya, huquqiy muhofaza tizimlari, kelishuv va uzlaishish uchun mehanizmalar, o'zaro munosabatlarni o'rgatish va o'zaro ishonchni kuchaytirish talablari amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Исмоилов, Темурбек Исломович. "Problems And Solutions Of Public Activity Of Unorganized Youth." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 2.10 (2020): 242-247.
2. Ismoilov, T. I., & Umarov, I. (2018). Necessity and importance of using new pedagogical technologies in higher education. Теория и практика современной науки, (3), 28-30.
3. Islomovich, Ismoilov Temurbek. "The Content And Practical Significance Of The Principles Of Academic Independence In The Management Process Of Higher Education." Nveo-natural volatiles & essential oils Journal| NVEO (2021): 4264-4270.
4. Ismoilov, Temurbek Islamovich. "Social and legal solutions of insurance mandatory recommendations." Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology 1.3 (2019): 152-154.
5. Islomovich, Ismoilov Temurbek. "Academic Profession and University in the Context of the Historical Role of Higher Education." International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development 3.3 (2021): 73-77.

BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Abduraximova Umida Shuxratovna
Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada bo‘lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari taraqqiyotining muhim omili ekanligi to’g’risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: pedagogik-psixologik, lingvomadaniy, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta’lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim standartlari, Ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Tarjimonning kasbiy muloqoti - nafakat ikki tilga egasi, balki bir vaktda ikki madaniy makonda b^luvchi, dunyoni bir vaktda ikki xar xil nuktai nazardan idrok kilishga kodir shaxe sifatida namoyon bulishi bilan belgilanadi. Tabiiyki, psixoglossa tarjimonning til ongi birligi sifatida fakat bir-biriga mos bulgan ikki til (ona tili va xorijiy tili) tuzilishi jixdtlarini kamrab olgan bilingval bulishi mumkin. Birok, bilingvizm nafakat ikki tilda mulokot kilish, balki tarjimonning kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun tarjimonda psixoglossariydan tashkari chet tildan ona tiliga va teskari kayta kodlash mexanizmi shakllangan bulishi kerak. Shunday kilib, tarjimonning til ongi asosiy belgilari - bu bimadaniyatlik va bilingvilik komponentlar sifatida psixoglossalar majmuasi, ona tilidan chet tilga va teskari kayta kodlash mexanizmi, madaniyatlar mulokotiga kodirlik sanaladi.

Dunyoda oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlari tarjimonshunoslarning kas-biy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim jarayonini mediatexnologi-yalar asosida tashkil etish, kasbiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga kasbiy muammolar, ilmiy farazlarni tekshirish, kasbiy muammolarni aniqlash, mustaqil fikrlash ta’lim strate-giyalarini belgilash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Xususan, hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida mutaxassislar samarali tayyor-lash yo‘llarini izlash - tizimli, shaxsiy-faoliyatli, madaniy, polisub’yekt, tex-nologik va boshqa yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Bo‘lajak tarjimashu-noslar lingvokommunikativ kompetent-ligini shakllantirish tizimini ishlab chiqishni nazariy-uslubiy asosi sifatida biz tizimli-faoliyatli va madaniyshunoslik yondashuvlarni tanladik. Ularni bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llash bo‘lajak

tarjima-shunoslar lingvokommunikativ kompetent-ligini shakllantirish jarayonning tashki-liy kompleksligini va uni interlingvoma-daniy kommunikasiya jarayoni sifatida samarali ishlay-digan tizimni qurishni ta’min-laydi.[2]

Binobarin, mazkur qoidalarini amalga oshirilishi bo‘lajak tarjimashunoslar ling-vokommunikativ kompetentligini shak-llantirish jarayonini ma’lum darajadagi abstraksiya nuqtai nazardan tadqiq qilishga imkon beradi, chunki pedagogik o‘zaro harakatni pedagogik tizim o‘z-o‘zini rivoj-lantirishi manbai sifatida ko‘rib, ular maz-kur kompetentlik shakllanadigan o‘qituvchi va talabalarni o‘zaro harakat jarayonining mohiyatini ochib bermaydi.

Tadqiq qilinayotgan jarayonning xususiy-ligi va bo‘lajak tarjimashunoslarda shaklla-nayotgan xislatni xususiyatini inobatga olgan holda, ta’kidlaymizki, bizning tizimni qurishda bo‘lajak tarjimashunoslar lingvo-kommunikativ kompetentligini shakllanti-rish jarayonni ham tizimli, ham faoliyatli xususiyatlar inobatga olinishi kerak. Shuning uchun bo‘lajak tarjimashunoslar lingvokom-munikativ kompetentligini samarali shak-llantirishni ta’minlash uchun bizga tizimli va faoliyatli yondashuvlar jihatlarni bir-lashtiruvchi yondashuv talab qilindi. Bu o‘quv mashg‘ulotlarda chet tili nutqiy faoliyatni modellashtirish sharoitida bo‘lajak tarji-mashunoslar lingvokommunikativ kompetent-ligini tartibli, tizimli amalga oshirila-digan tayyorlash tizim qurishni talab etuvchi tizimli-faoliyatli yondashuv bo‘ldi.[4] Tizimli-faoliyatli yondashuv bo‘lajak tarjimashunoslar lingvokommunikativ kompetentlikni shakllantirish tizimini talabani interling kommunikativ faoliyatga qo‘shish jarayoni sifatida qurishni nazarda tutadi.[5:68] Madaniyatshunoslik yondashuvi bo‘lajak tar-jimashunoslarning lingvokommunikativ kompetentligini madaniyatlar dialogi sifatida shakllantirish jarayonini yaratishni ta’minlaydi, bunda talaba boshidanoq faol pozisiyani egallaydi va tillararo, mada-niyatlararo va shaxslararo kasbiy muloqot sub’yekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Tizimli-faoliyatli va madaniyatshunoslik yondashuvlar asosida biz tomondan bo‘lajak tarjimashunoslarning lingvokommunikativ kompetentligini shakllantirishning kom-munikativ yo‘naltirilgan tizimni ishlab chiqildi, uni mavjud kasbiy lingvistik ta’-lim tizimi doirasida ishlaydigan quyi tizim deb hisoblash mumkin. Kasbiy tayyor-garlikning maqsadlari, vazifalari, maz-muni, shuningdek metodlari va shakllariga e’tiborni qaratgan holda, u ham o‘ziga xos maqsadlari, vazifalari, mazmuni, usullari, shakllariga ega va ma’lum tamoyillar tizimiga asoslanadi.[6]

Tadqiqot jarayonida olingan empirik materialni nazariy tahlil qilish va umum-lashtirish natijasida biz quyidagi tamoy-illar tizimiga keltirdik: ilmiylik tamoy-ili,

ochiqlik tamoyili, kommunikativlik tamoyili, texnologiklik tamoyili, yaxlitlik tamoyili, dinamizm tamoyili.

Ilmiylik tamoyili: bo‘lajak tarjima-shunoslarning lingvokommunikativ kompe-tentligini shakllantirish jarayonida peda-gogika, psixologiya, chet tillarini o‘qitish metodikasi, lingvistika, tarjimashunoslik sohalaridagi zamonaviy ilmiy yutuqlardan foydalanish kerak. Eskirgan ma’lumotlar nafaqat tizimning ishlab chiqilayotgan sifa-tiga ta’sir qilishi, uni yaratishga sarfla-nadigan vaqtni, intellektual, hissiy, mod-diy va moliyaviy xarajatlarini oshishiga, balki uning faoliyati jarayonida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kommunikativlik tamoyili: bo‘lajak tarjimashunoslarning lingvokommunika-tiv kompetentligini shakllantirish o‘qitish o‘quv mashg‘ulotlarida modellashtirilgan chet tili nutqiy faoliyati sharoitida mada-niyatlararo aloqa vositasi sifatida tar-tibli, tizimli va o‘zaro bog‘liq holda chet tilini o‘qitish jarayonida amalga oshiri-lishi kerak. Muloqot modeli sifatida o‘quv jarayonini yaratish muloqotning faqat aso-siy, mohiyatan muhim parametrlarini modellashtirishni anglatadi, ular tarki-biga quyidagilar kiradi: muloqot sub’yek-tini kommunikativ faoliyatining shaxsiylik xosiyati, nutq parametrlarining o‘zaro muno-sabati va o‘zaro ta’siri, vaziyatlar muloqot ishlashining shakli sifatida, madaniyatla-raro kommunikasiya jarayonining mazmunli asosi, o‘zlashtirilishi muloqot vaziyatla-rida kommunikativ faoliyatni ta’minlaydi-gan nutq vositalarining tizimi, nutq vosita-larini o‘zlashtirish va ulardan foydalanish-ningfunksional xususiyati, evristiklik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Педагогикадан атамалар луғати. — Тошкент: Фан, 2008. — 196 б.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Конигил. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедяси, 2002. — 704 б.
3. Базаров Т.Ю., Ерофеев А.К., Шмелов А.Г. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания // Вестник Московского университета. —Москва, 2014. № 1. Серия 14. Психология. — С. 87–99.
4. Алиев И.Т. Педагогнинг касбий компетентлиги // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истиқболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. —55 б.

KICHIK SINF O‘QUVCHILARINING TABAQALASHTIRILGAN JISMONIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Boboraximov Sanjar Malikjanovich
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyalashda obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olish, shuningdek, hudud omili, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun moddiy-texnik bazaning yetarliligi hamda o‘quvchilarning xususityalari, rivojlanish holatini inobatga olish asosida tabaqalashtirilgan ta’limni joriy etish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, innovatsion dastur, jismoniy tarbiya va sport, sog‘lom turmush tarzi, sensitiv davr, pedagogik tajriba, jismoniy qobiliyat.

Kirish (Введение/Introduction). Hozirgi kunda ta’lim muassasalari oldida turgan muhim masalalardan biri bu umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining jismoniy faolligini shakllantirish va ularning sog‘lig‘iga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishdir. Ushbu muammolarni turli xil ijtimoiy-pedagogik vositalar va usullar bilan hal qilish mumkin, shu o‘rinda, bolalar va o‘spirinlarning jismoniy faolligini shakllantiradigan yoki to‘sqinlik qiladigan turli xil omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. «Dunyoda sog‘lomlashtiruvchi ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarning valeologik madaniyatini rivojlantirish, harakatli o‘yinlar vositasida jismoniy sifatlarni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, sport to‘garaklarini tashkil etishning interaktiv modellarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, sport to‘garaklarini tashkil etishga qo‘yiladigan valeologik va psixo-pedagogik talablarni takomillashtirish, to‘garak mashg‘ulotlarini loyihalash va rejalashtirishning texnologik asoslarini konstruktiv imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, klasterli va genderli yondashuv asosida sport to‘garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, madaniyatshunoslikka doir va kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida o‘quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda»[3:12]. Shunday ekan, o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga tayyorlashda ommaviy sport sog‘lomlashtirish jarayonining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim vazifalariga ko‘ra, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning aqliy va ruhiy barqarorligini oshirishga qaratilgan pedagogik ishlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mazkur pedagogik jarayonni yangicha metodlar, interfaol usullar asosida olib borish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatini oshirish, ommaviy sport sog‘lomlashtirish jarayoniga tayyorlash, shuningdek, sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ta’limiy vazifalarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buning uchun, «jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazishda xilma-xil jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish, o‘quv amaliy darslarni innovasion pedagogik texnologiyalar asosida izchil tashkil qilish, mashg‘ulotlar jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol tatbiq qilish» kerak bo‘ladi[4:62].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasi bo‘yicha innovatsion dasturning maqsadi – yilning iqlimiy mavsumlarini xarakterli xususiyatlarini hisobga olish asosida, mazkur jarayonning mazmunli-texnologik jihatlarini reglamentlovchi dasturiy-normativ xujjatlarni optimallashtirish yo‘li bilan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar jismoniy tarbiyasi sifatini yaxshilash hisoblanadi.

Asosiy harakatlarni shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha dasturning bo‘limlari sportning har xil turlari vositalarini, harakatli o‘yinlarni va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning maqsadlariga mos ravishda protsessul blok quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jismoniy tarbiya jarayonini yilning iqlimiy mavsumlari xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirishga asosiy talablar va metodik yondashuvlarni; yilning iqlimiy mavsumlari xususiyatlarini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tayyorgarligi jarayonini rejalashtirish xujjatlarini.

Rejalashtirish paytida quyidagi asosiy prinsipial holatlarga rioya qilish kerak:

a) rejani ta’lim tizimining boshqaruv organlarini normativ xujjatlarga mosligiga;

b) realligi va konkretligiga;

v) bolalarning ontogenetik rivojlanishini yoshga oid xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning jismoniy tarbiyasi asoslarini shakllantirishning umumiy tamoyillarini hisobga olinishini;

g) asosiy jismoniy sifatlarni majmuaviyligini;

d) kichik maktab yoshidagi bolalarni yoshi, salomatligi holati va jismoniy tayyorgarligibilan belgilangan ta'lim-tarbiya jarayoni vazifalarini hal qilishni ketma-ketligini va maqsadga muvofiqligini;

ye) jismoniy tarbiya samaradorligini amaliy xarakterini;

j) sport trenirovkasini tuzishning asosiy qonuniyatlarini jismoniy tarbiya vazifalarida qo'llashdan kelib chiqqan holda rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish jarayonida qo'llashdagi modifikatsiyalashni.

Quyidagilarni hisobga olish zarur:

asosiy iqlimiy parametrlar xususiyatlarini va 7-10 yoshli bolalarning alohida jismoniy sifatlarini rivojlanishi darajasiga kalendar yilning har xil iqlimiy mavsumlarida ta'sir qilishi xarakterini;

kichik maktab yoshidagi bolalarningalohida jismoniy sifatlari bilan yilning har xil iqlimiy mavsumlarini xarakterli xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik xarakterini;

funksional ko'rsatkichlarni yilning mavsumlari parametrlariga bog'liqligini;

kalendar yilning har xil iqlimiy mavsumlarida jismoniy tayyorgarlik va funksional ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni.

Yuqorida bayon qilingan ma'lumotlarning barchasi bizga kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya jarayonini rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish va tuzishni boshlashga imkon berdi. Ularning asosiga jismoniy sifatlarni rivojlanishini sensitivligi to'g'risidagi umumiy qabul qilingan tushunchalardan tashqari yilning har xil iqlimiy mavsumlarini hududiy xususiyatlari kiritildi.

Xulosa qilganda, kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyalashda obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olish, shuningdek, hudud omili, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun moddiy-texnik bazaning yetarliligi hamda o'quvchilarning xususityalari, rivojlanish holatini inobatga olish asosida tabaqalashtirish ta'lim sifati uchun ijobiy ta'sir ko'sratadi.

Adabiyotlar ro'yxati: (references)

1. Usmanxodjayev T.S., Meliyev X.,Nuriddinova M., Olimov A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-Chirchiq, 2019. – 159 b.
2. Xakimov X.N. Umumta'lim maktablarida jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyalashuvining pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand.: SamDU. 2020. – B. 12.

3. Xamroyev S.S. Sport to‘garaklari orqali o‘quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand.: SamDU. – B. 12.
4. Zayniddinov T.B. Sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining pedagogik faoliyati // Jismoniy tarbiya va salomatlik. Ilmiy jurnal. 2019, 2(75). – B. 62.

PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA UNING ZAMONAVIY TA'LIM AMALIYOTIDAGI O'RNI

Abdulxafizov Bunyod Xakimjonovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining Namangan viloyatidagi bo‘limi boshlig‘i

Annotasiya. Maqola zamonaviy ta'limning pedagogik texnologiyalari va tajribavi sinovlari bilan qanday muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ta'lim natijalarini o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yaxshi ko'rsatilishi haqida ham ma'lumot beradi. Pedagogik kvalimetriyaning ta'limning sifatini oshirishda o'ynagan roli, boshqa ta'lim tizimlari va o'quv jarayonlarini yanada yaxshi tashkil etish imkoniyatlari haqida maqolada ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik kvalimetriya, zamonaviy ta'lim, o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim natijalari, ta'lim amaliyoti, kvalimetriyaning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar, sinovlar va baholash, ta'lim jarayonlarini tahlil qilish, ta'lim tizimlari, o'quv jarayonlari, yangiliklar o'qitish, o'quv natijalarini oshirish.

Pedagogik kvalimetriya, ta'lim jarayonida ma'lum birni o'lchash va baholashning ilmiy metodikasini ifodalaydigan, ta'limning sifatini oshirish va o'rganish jarayonida o'rin olishgan eng muhim tajribaviy yo'nalishlardan biridir. Ushbu maqolada pedagogik kvalimetriyaning zamonaviy ta'lim amaliyotidagi o'rni va ahamiyati haqida muloqot qilinadi. Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, o'zlashtirilgan ta'limning natijalarini, o'qituvchilarning ish faoliyatini, ta'lim dasturlarini tuzish va yangilash jarayonlarini baholash va takomillashtirish uchun qo'llaniladi. Bu yo'nalish, o'qitishni mustahkamroq qilish, o'quvchilarni tahlil qilish, ta'limning natijalarini chuqurroq o'rganish, va o'qituvchilarning o'zlashtirilgan ishlarini o'rganishga yordam beradi.

Zamonaviy ta'limda pedagogik kvalimetriya, yangi ta'lim texnologiyalari va internetning o'zgaruvchan rolini o'z ichiga olgan. O'qitishni baholash, monitoring qilish, va o'qitishning samaradorligini oshirish uchun ma'lumotlar va statistik

tahlilni o'rganishda muhim vazifalarni bajaradi. Pedagogik kvalimetriyaning zamonaviy ta'limda o'rni, o'qitish jarayonlarini rivojlantirish, o'quvchilarni qiziqtirish va ta'lim tajribasini yaxshi ko'rsatishda juda katta ahamiyatga ega.

Pedagogik kvalimetriya, ta'limning sifatini o'lchash va baholashning zamonaviy usullari va texnologiyalari bo'yicha yuqori muhimiyatga ega bo'lgan so'rovdir. Bu maqolada pedagogik kvalimetriyaning, ya'ni o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish va ta'lim jarayonini yaxshi o'rganish uchun qanday ko'rsatkichlar, ko'nikmalar va usullar ishlatildiği haqida gapiraman.

Pedagogik kvalimetriya, o'qituvchilar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun ta'limning natijalarini baho va baholash jarayonini takomillashtirishda kritik ahamiyatga ega. Uning asosiy maqsadi ta'lim tizimini mustahkamlash, o'quvchilarning o'zlashtirishini oshirish, o'qituvchilarning ta'lim jarayonini samarali o'rganishlari uchun ilmiy va amaliy ma'lumotlarni o'rganishni ta'minlashdir. Bu maqola, pedagogik kvalimetriyaning o'zining asosiy prinsiplari va amaliyoti, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir qilishi va ta'lim natijalarini o'qitishning yangi usullarini joriy etishda qanday yordam berishi haqida batafsil ma'lumotlar taqdim qiladi.

Pedagogik kvalimetriya ta'lim sohasida samarali va samarali o'qishning o'rni va ahamiyatini ko'rsatib beradi va ta'lim sohasining yangi texnologiyalar bilan o'zgarayotgan zamonaviy kontekstida bu mavzuga qanday e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi.

Pedagogik kvalimetriya, ta'limning sifatini o'rganish va baholashning zamonaviy usullarini o'rganuvchi o'quv jarayonlarida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan tuzilma va amaliyotdir. Bu maqola davomida pedagogik kvalimetriyaning maqsadi, uning asosiy tushunchalari va zamonaviy ta'limning amaliyotida o'rnini o'rganish uchun bazi muhim nuqtalarni ko'rib chiqamiz.

Pedagogik kvalimetriya, ta'lim jarayonlarini o'rganish va baholashning ilmiy tadqiqotlar, ma'lumotlar, va ma'lumotlar tizimlaridan foydalanishni o'z ichiga olgan tadqiqot usuli va texnikalarining birligini ifodalaydi. Bu tushuncha ta'limni ilmiy, obyektiv, va natijaga yo'naltiruvchi tizimga o'g'irlaydi. Pedagogik kvalimetriyaning asosiy maqsadi, o'quvchilarning tushunchalarni tushuntirish, ma'lumotlarni o'rgatish, va ta'lim natijalarini baholash orqali ta'limni sifatliroq qilishdir. Bu shu jumladan o'quvchilarning ma'lumot darajalari va ko'nikmalarini oshirish, o'zlashtirish, va o'quvchilarni mustahkamlash uchun foydalaniladi. Pedagogik kvalimetriya, o'quvchilarning baholashida ilmiy va obyektiv yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu, o'qituvchilar va ma'muriyat organlari uchun o'quvchilarning rivojlanishini o'ylab topishda yordam beradi va ta'limning sifatini oshirish uchun muhim bo'lib qarashga olib keladi.

Zamonaviy ta'limning amaliyoti, pedagogik kvalimetriyaning amaliy jihati bo'lib, ta'limni amaliy o'rganish jarayonlarini o'rganib, ta'lim samaradorligini oshirish uchun ilmiy yondashuv beradi. Bu, o'quvchilarning ma'lumotlarni amaliyotda qo'llash va ularni muvofiqlashtirish uchun muhimdir. Pedagogik kvalimetriya, zamonaviy texnikalar va kompyuter dasturlari, o'zlashtirilgan ta'limning tashqi sinov va baholashlarini amalga oshirishda yuqori darajada foydalanadi. Bu texnikalar ma'lumotlar to'plamlarini analiz qilish, o'quvchilarning amaliyotini baholash va ta'lim natijalarini aniqlashda juda foydalanishli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Фредериксен, N. (1984). The real test bias: Influences of testing on teaching and learning. American Psychologist, 39(3), 193-202.
2. Мессик, Д. М. (1994). Validity of psychological assessment: Validation of inferences from persons' responses and performances as scientific inquiry into score meaning. American Psychologist, 49(9), 741-749.
3. Коллектив авторов (2017). Методологические и прикладные аспекты педагогической квалиметрии: учебное пособие. Москва: Проспект.
4. Андерсен, Л., Крюгер, А., Моллер, И., & Ульриксен, Г. (2013). Основы квалиметрии: методы исследования в педагогической практике. Санкт-Петербург: Речь.

ZARARKUNANDA HASHAROTLARNI BIOLOGIK NAZORAT QILISHDA ENTOMOPATOGEN NEMATODALARNING QO‘LLANILISH TARIXI

Nafosat Kurbonova Sattor kizi
O’simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Bugungi kunda foydali nematodalar ya’ni entomopatogen nematodalar dunyo bo’yicha eng ko’p qo’llanilayotgan bioagentlar hisoblanadi. Respublikamizda mazkur turlar 2020 – yillardan boshlab, ilk marotaba mahalliy tabiatdan ajratib olinib, zararkunanda hasharotlarga qarshi qo’llanila boshlandi. Ushbu manba entomopatogen nematodalarning biologik nazoratda qo’llanilishi bo’yicha tarixiy xronologiya tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: entomopatogen nematodalar, O’zbekiston, biologik nazorat, Steinernema, Heterorhabditis, yuqumli lichinkalik bosqichi.

Dastlab dala sinovlari uchun entomopatogen nematodalarni ishlab chiqarishda tirik hasharotlardan foydalanilgan bo‘lib, Kaliforniyaning Lakeview shahridagi Nutrilite korporatsiyasi 1970 - yilda eksperimental foydalanish uchun Galleria mellonella mumi kuya lichinkalaridan foydalangan edi.

1981 - yilda Berklidagi "Nematodalar fermasi" da tijorat maqsadlarida bog‘ zararkunandalariga qarshi Galleria mellonella lichinkalaridan foydalanib, bir nechta entomopatogen nematodlar (S.carpocapsae, S.glaseri va H.bacteriophora) ko‘paytirilgan. Shuningdek, 1981-yilda Exeterdagi BR Supply korxonasi S.carpocapsae nematodasini buzoqbosh va ildiz qurtlariga qarshi kurashda qo‘llash maqsadida “Neotsid” deb nomlangan mahsulotni qadoqlaydi.

1982 - yilda Kaliforniyaning Palo-alto shahridagi Biosys (ilgari Kaliforniyaning Emerivil shahrida "Kaliforniya nematodlari laboratoriyalari" nomi bilan tashkil etilgan va qisqa muddatga Palo-alto, Kaliforniyada "Biosis") fermentatsiya jarayonidan foydalangan holda ekinzor va bog‘ zararkunanda hasharotlariga qarshi birinchi bo‘lib Steinernema spp. turlarini keng ko‘lamda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

1983 - yilda Avstraliya Biotexnologiya markazida Bedding tomonidan ishlab chiqilgan maxsus usullar asosida sun’iy ozuqa shimdirilgan gubka bo‘laklaridan foydalanib, foydali nematodalarni ishlab chiqarishni boshladi. Ushbu texnikada poliuretan asosli gubka asosiy substrat sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, bunda nematodalarning harakatlanishi va havo almashinuvi qulay ta’minlandi.

Entomopatogen nematodalarni suyuq kulturalarda tijorat maqsadida ishlab chiqarish 1990 - yilda Fridman boshchiligidagi Biosys Inc. kompaniyasida olimlar jamoasi tomonidan yanada takomillashtirildi. Shunday qilib, 80 - yillarning o‘rtalariga kelib, bir qator kichik kompaniyalar sanoat miqiyosida entomopatogen nematodalarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

Entomopatogen nematodalarni tijoratlashtirishdagi muhim jihatlardan biri ko‘paytirilgan foydali, infeksion bosqichdagi lichinkalarni foydali xususiyatlarini yo‘qotmasdan, tegishli sharoitlarda muayyan muddatga saqlash usullarini aniqlash lozim edi. Bunda sovutgich mos tanlov bo‘lib ko‘rinsada, biroq chakana sotuvchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun mazkur usul kutilgan natijalarni taqdim etmaydi. Shundan so‘ng, nematodalarni xona haroratida saqlashni ko‘zda tutgan holda quritish imkoniyati bo‘yicha tadqiqotlar boshlandi. Simons va Poinar agar S.carpocapsae ning yuqumli lichinkalik bosqichlari asta-sekinlik bilan quritilsa, nematodalar qisman angidrobiozga tushib qolishini va agar tezlik bilan suv bilan ishlov berilsa ular va ancha muddat ham infeksiyalilik xususiyatlarini saqlab qolishini aniqladilar.

Ushbu tahlillarga ko‘ra, Bedding 1988 - yilda "loy sendvich" formulasini ishlab chiqdi, unga ko‘ra nematodlar, yer usti suvlarini olib tashlash va qisman anhidrobiozni keltirib chiqarish uchun loy qatlamlariga joylashtirildi.

Biosys olimlari xususan Georgis 1990 - yilda alginat formulasini ishlab chiqdi hamda unda nematodlarni ushlab turish va saqlash uchun plastik ekranlar ustiga yoyilgan kaltsiy alginat varaqlari qo‘llanildi.

Capinera va Xibbard 1987- yilda donador formulani ishlab chiqdi, unda nematodlar qisman beda va bug‘doy uni bilan qoplangan edi.

Ayniqsa, Silver va boshqa olimlar jamoasi tomonidan nematod formulalarini ishlab chiqishda katta qadam qo‘yildi, jumladan, 1995 - yilda suvda eriydigan, donador asosli formula ishlab chiqildi, bunda nematodalar har xil turdagi kremniy, loy, sellyuloza, lignin va kraxmal aralashmasidan tashkil topgan 10-20 mm diametrli granulalarga o‘ralgan. 2000 - yilda Gaugler qayd etishicha, ushbu formuladan foydalanib, tijorat uchun ishlab chiqarilgan S.carpocapsae ning saqlash muddati 7 oygacha uzaytirildi.

Webster va Bronskill tomonidan 1968 - yilda o‘simlikning yer usti organlari zararkunandalariga qarshi foydali nematodalrni qo‘llashi ham muammo tug‘dirdi, sababi nematodalar juda tez quriydigan bo‘lsa, ularning samaradorligi sezilarli darajada kamayadi. Olimlar barg zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan nematodalarning umrini uzaytirish uchun bug‘lanishni to‘xtatuvchi vositadan foydalanganlar.

Entomopatogen nematodalarning yuqumli-infeksion lichinkalik bosqichlari an’anaviy pestitsidlarni qo‘llash uskunalari yordamida osongina qo‘llanilishi mumkin, shuningdek, nematodalarni boshqa vositalar bilan bir vaqtda qo‘llash mehnat xarajatlarini tejashi Rao va boshqalar tomonidan S. carpocapsae ni ba’zi insektitsidlar bilan aralashtirib, makkajo‘xori ildiz qurti bilan sinovdan o‘tkazish jarayoni yakunlanganidan so‘ng ko‘rsatdi.

1985 - yilda Kaya va Nelson optimallikni oshirish maqsadida alginat gellaridan foydalanib, infeksion lichinkalik bosqichini daraxt tanasiga qo‘llashni tijoratlashtirdi

Shapiro-Illan va boshqalar 2001 - yilda bu usulni nematoda bilan kasallangan hasharot murdalaridagi yopishqoqlikni kamaytirish maqsadida kraxmal bilan ishlov berish orqali takomillashtirdi.

1989 - yilda Miller tijorat maqsadida ishlab chiqarilgan S. carpocapsae ning virulentligini aniqlash uchun patogenlikni baholash usulini ishlab chiqdi.

Grewal esa 1999 - yilda past konsentratsiyalarni qo‘llab, entomopatogen nematoda turlarining sifatini muntazam baholash uchun javob beradigan “qum-quduq” usulini ishlab chiqdi.

2006 - yilda Georgis va boshqa tadqiqotchilar tomonidan biologik nazorat agentlari sifatida foydalanilgan entomopatogen nematodalarning afzalligi va kamchiligini tahlil qildilar.

Keyingi tadqiqotlar foydali nematodalarning uchinchi yoshdagi infeksion bosqichlarini xatti-harakatlari hamda ular tomonidan zararkunanda hasharotlarni qanday topishga muvaffaq bo‘lishlariga qaratildi. Jumladan, Reed va Wallace 1965 - yilda S.carpocapsae ning infeksion lichinkasi harakatining uch turini tavsiflaydi.; siljish, ko‘prik orqali o‘tish hamda sakrash.

Nematodalar tuproq yuzasiga yetib borish uchun sirpanib harakatlanadi. Ko‘prik harakati nematodalarning dumlari uchida turib, oldingi uchlarini silkitishi bilan bog‘liqdir. Xuddi shunday xatti-harakatlar hasharotlar bilan foretik munosabatlarga ega bo‘lgan erkin yashovchi rabdititlarda allaqachon qayd etilgan. Ajablanarlisi, sakrash harakati ular jismini suv tomchisi atrofida o‘rashidan iborat bo‘lib, bunda birdan tomchini qo‘yib yuborib, yuzaga kelgan kuchlanish ta’sirida substrat bo‘ylab gorizontal ravishda harakatlanadi.

Nematodalarning haqiqiy sakrash harakati qurollanmagan ko‘z bilan kuzatib bo‘lmaydigan darajada tez yuzaga keladi. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, infeksion – uchinchi yoshdagi lichinkalar o‘zlarining xo‘jayinini topish maqsadida turli xil usullarni qo‘llaydilar.

Steinernema nematodalarining vertikal va gorizontal tarqalishining asosiy sabablari Moyle va Kaya tomonidan 1981- yilda xo‘jayin organizmini izlab topish vazifasi bilan bog‘liq ekanligini bilan tushuntirildi. Bunda S.carpocapsae qo‘llanilgan nuqtasidan o‘z o‘rnini sezilarli darajada o‘zgartirmagan bo‘lsa, S.glaseri gorizontal holda uzoq masofalarga migratsiya qilganligini ta’kidladilar. Georgis va Poinar esa vertikal migratsiya Heterorhabditis spp. turlarida kuzatilishini qayd etdilar.

Gaugler 1991 - yilda laboratoriyasida o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlar entomopatogen nematodalarning o‘z o‘ljasini izlab topishdagi ikki xil harakatlarini tasvirlab berdi; pistirmada poylovchilar va kreyser (faol harakatlanib, xo‘jayinini izlab topuvchi)lar. Bunda ozuqa izlashning pistirmada poylovchi turidagi foydali nematodalar tuproq yuzasida yuqori harakatchan xo‘jayinlarining tana bo‘shlig‘iga kirib borishga yaxshiroq moslashgan bo‘lsa, kreyser turidagi foydali nematodalar esa tuproqdagi kamharakat, o‘troq hasharotlar uchun ko‘proq moslashgan. Gaugler va Kempbell xo‘jayinni izlab topishning pistirmada poylovchi turi tuproqdagi ba’zi entomopatogen nematoda turlarining cheklangan harakatini tushuntirishi mumkinligini e’tirof etdi.

Grewal tomonidan 1994 - yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarda S.feltiae va S.riobrave nematodalari bir vaqtning o‘zida ham pistirmada poylash va o‘ljasini faol izlab topish harakatlaridan foydalana oladigan oraliq turdagi xatti-harakatlaridan navbatma-navbat foydalanishini ko‘rsatdi.

Poinar tomonidan olib borilgan 1979 - yildagi ilmiy izlanishlarda S.carpocapsae entomopatogen nematodasining ayrim umurtqasiz va umurtqali hayvonlarga ta’sirini aniqlash bo‘yicha dastlabki hisobotlarni jamladi. Ushbu izlanishlarda entomopatogen nematodalarning tuproq umurtqasizlari uchun xavfsizligi qayd etildi.

Ammo S.carpocapsae nematodasini laboratoriya sharoitida erkak asalariga nobud qiluvchi ta’siri haqidagi Hackett va Poinarning 1973 - yilgi hisobotida qaydlar uchraydi.

Umuman olganda, entomopatogen nematodalar maqsadli bo‘lmagan umurtqasizlarga minimal ta’sir ko‘rsatadi. Foydali nematodalarning 200 ga yaqin hasharotlarga qarshi samara berishidan tashqari, ba’zi hasharotlar sinfiga oid bo‘lmagan turlarni ham zararlay olish xususiyati yanada afzalligi sifatida qayd etildi. Jumladan, Samish va Glazer 1991 - yilda entomopatogen nematodalarning qoramol kanalarini ham o‘ldirishga qodir ekanligini aniqladilar. Bunda mazkur nematodalar kanalarni ham nazorat qilish potensialiga ega bo‘lsa-da, araxnidalarda nematodalarning ko‘payishi bo‘yicha bugungi kunga qadar hech qanday dalillar mavjud emas.

Odamlarda parazitlik qiluvchi hasharotlar ham entomopatogen nematodalarga sezgir bo‘lib, jumladan, burgalarning sezgirligi birinchi marta mushuk burgasi Ctenocephalides felis da Silverman tomonidan 1982 - yilda aniqlandi.

Biosys kompaniyasi zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan nazorat dasturining bir qismi sifatida uy xo‘jaliklarida burgalarni nazorat qilish uchun S.carpocapsae nematodasidan foydalanib bionazorat mahsulotini ishlab chiqganligi Manweilerning 1994 - yildagi tadqiqotlarida qayd etiladi.

Shuningdek, *Pediculus humanus humanus* tana bitining entomopatogen nematodalarga sezuvchanligi birinchi marta Vayss va boshqalar tomonidan 1993- yilda isbotlangan. Ularning ma’lum qilishicha, S.carpocapsae va S.glaseri 24 soat ichida urg‘ochi bitlarning 85% o‘limiga sabab bo‘lgan.

Doucet 1998 yilda bosh biti - P.humanus capitis ham entomopatogen nematodalarga sezgir ekanligini, H. bacteriophora sinab ko‘rilgan nematodalar ichida eng samarali tur ekanligini tasdiqladi.

Poinarning 1993 - yildagi tadqiqotlarida leyshmanioz vektorlari ham Steinernema va Heterorhabditis nematodalari tomonidan zararlanishga moyilligi aniqlandi.

Entomopatogen nematodalarning tabiatda uchraydigan mahalliy populyatsiyalari tabiiy tanlanish yo‘li orqali yashash joylari va zararkunanda xo‘jayin organizmiga yaxshi moslashgan bo‘lsa-da, ularning genomiga qo‘shimcha foydali xususiyatlarni kiritish orqali turli xil muhitdagi boshqa zararkunanda

hasharotlarga nisbatan yanada samaraliroq ta’sir qilishini ta’minlash mumkin. Poinar xuddi shunday urinishlarini mikroin’eksiya, gen transplantatsiyasi, mutagenez va selektiv naslchilik kabi rekombinant DNK texnologiyasi usullari orqali ba’zi foydali xususiyatlarni namoyon qilishni tahlil qildi.

Bunga qadar, 1980 - yilda Burman S.carcopasae ning haroratga bog‘liq genlarini kuchaytirish orqali ushbu nematodaning selektiv shtammini ishlab chiqdilar.

1995- yilda Hashmi va boshqalar H.bakteriophora ning issiqlikka chidamli transgen shtammini ishlab chiqarish uchun mikroin’eksiyadan foydalangan.

Entomopatogen nematodalar tarixining bu qisqacha tavsifi ma’lum bir qisqartirishni talab qildi, bu bizga ushbu sohaga hissa qo‘shgan boshqa ko‘plab odamlarning ishlarini kiritishga imkon bermadi. Masalan, Garri Kaya va Rendi Gaugler tomonidan 1989 - yilda Kaliforniyaning Asilomar shahrida tashkil etilgan Biologik nazorat bo‘yicha "Entomopatogen nematodalar xalqaro simpoziumi" butun dunyodagi tadqiqotchilarga umumiy muammolarni muhokama qilish imkoniyatini berdi. Muhim to‘siqlardan biri sifatida nafaqat nematodalarni, balki ularning simbiotik bakteriyalarini ham davlat ro‘yxatidan o‘tkazish edi. Bunda entomopatogen nematodalarni o‘simliklar va insonlarga zararli ta’siri yo‘qligini tushuntirish orqali jamoatchilikni o‘rgatish yana bir dolzarb vazifa edi. Entomopatogen nematodlarning mahsuldorligi va ulardan foydalanishni yaxshilashning ko‘plab usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, Heterorhabditis va unga aloqador bakteriya bilan bog‘liq qiziqarli jihat ularning molekulyar biologiyada genetik model sifatida ko‘proq qo‘llanilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Filipjev, I.N. (1934). Miscellanea Nematologica 1. Eine neue Art der Gattung *Neoaplectana* Steiner nebst Bermerkungen über die systematische Stellung der letzteren. *Magazine de Parasitologie du Musée Zoologique de l’Académie des Sciences de l’USSR* 4, 229-240.
2. GLASER, R.W. (1932). Studies on *Neoaplectana glaseri*, a nematode parasite of the Japanese beetle (*Popillia japonica*). *New Jersey Department of Agriculture Circular* 211.
3. Glaser, R.W. & Farrell, C.C. (1935). Field experiments with the Japanese beetle and its nematode parasite. *Journal of the New York Entomological Society* 43, 345-371.
4. Hominick, W.M., Briscoe, B.R., Del Pino, F.G., Heng, J.A., Hunt, D.J., Kozodoy, E., Mráïc Ek, Z., Nguyen, K.B., Reid, A.P., Spiridonov, S.E., Stock, P., Sturhan, D., Waturu, C. & Yoshida, M. (1997). Biosystematics of

entomopathogenic nematodes: current status, protocols and de. nitions. *Journal of Helminthology* 71, 271-298.

5. Journey, A.M. & Ostlie, K.R. (2000). Biological control of the western corn rootworm (Coleoptera: Chrysomelidae) using the entomopathogenic nematode, *Steinernema carpocapsae*. *Environmental Entomology* 29, 822-831.
6. Kaya, H.K. & Stock, S.P. (1997). Techniques in insect nematology. In: Lacey, L.A. (Ed.) *Techniques in insect pathology*. London, Academic Press, pp. 281-324.
7. Lacey, L.A. & Chauvin, R.L. (1999).Entomopathogenic nematodes for control of diapausing codling moth (Lepidoptera: Tortricidae) in fruit bins. *Journal of Economic Entomology* 92, 104-109
8. Nadler, S.A., Adams, B.J., Lyons, E.T., Delong, R.L. & Melin, S.R. (2000). Molecular and morphometric evidence for separate species of *Uncinaria* (Nematoda: Ancylostomatidae) in California sea lions and Northern fur seals: hypothesis testing supplants veri. cation. *Journal of Parasitology* 86, 1099-1106.
9. Nguyen, K.B. & Smart, Jr, G.C. (1994). *Neosteinernema longicurvicauda*n. gen., n. sp. (Rhabditia: Steinernematidae), a parasite of the termite *Reticulitermes □ avipes* (Koller). *Journal of Nematology* 26, 162-174.
10. Nguyen, K.B., Maruniak, J. & Adams, J.B. (2001). Diagnostic and phylogenetic utility of the rDNA internal transcribed spacer sequences of *Steinernema*. *Journal of Nematology* 33, 73-82.
11. Poinar, Jr, G.O. (1986). Recognition of *Neoaplectana* species. *Proceedings of the Helminthological Society of Washington* 53, 121-129.
12. Poinar, Jr, G.O. (1990). Taxonomy and biology of Steinernematidae and Heterorhabditidae. In: Gaugler, R. & Kaya, H.K. (Eds). *Entomopathogenic nematodes in biological control*. Boca Raton, Florida, USA, CRC Press, pp. 23-60.
13. Powers, T.O., Todd, T.C., Burnell, A.M., Murray, P.C.B., Zsalanski, A.L., Adams, B.J. & Harris, T.S. (1997). The rDNA internal transcribed spacer region as a taxonomic marker for nematodes. *Journal of Nematology* 29, 2441-2450.
14. Reid, A.P., Hominick, W.M. & Briscoe, B.R. (1997). Molecular taxonomy and phylogeny of entomopathogenic nematode species (Rhabditida: Steinernematidae) by RFLP nalysis of the ITS region of ribosomal DNA repeat unit. *Systematic Parasitology* 37, 187-193.

15. Román, J. & Figueroa,W. (1994). *Steinernema puertoricensis* n. sp. (Rhabditida: Steinernematidae)a new entomopathogenic nematode from Puerto Rico. *Journal of Agriculture, University of Puerto Rico* 78, 167-175.
16. Seinhorst, J.W. (1959). A rapid method for the transfer of nematodes from. xative to anhydrous glycerin.*Nematologica* 4, 67-69.
17. Steiner, G. (1923). *Aplectana kraussei* n. sp., eine in der Blattwespe *Lyda* sp. parasitierende Nematodenform, nebst Bemerkungen über das Seitenorgan der parasitischen Nematoden. *Zentralblatt für Bakteriologie, Parasitenkunde, Infektions Krankheiten und Hygiene, Abteilung II* 59, 14-18.
18. Steiner, G. (1929). *Neoaplectana glaseri* n. g. n. sp. (Oxyuridae), a new nemic parasite of the Japanese beetle (*Popillia japonica* Newm.). *Journal of theWashington Academy of Science* 19, 436-440.
19. Stock, S.P., Campbell, J.F. & Nadler, S.A. (2001). Phylogeny of *Steinernema* Travassos, 1927 (Cephalobina: Steinernematidae) inferred from ribosomal DNA sequences and morphological characters. *Journal of Parasitology* 87, 877-889.
20. Stock, S.P., Heng, J., Hunt, D.J., Reid, A.P., Shen, X. & Choo, H.Y. (2001). Redescription of *Steinernema longicaudum* Shen & Wang (Nematoda: Steinernematidae); geographic distribution and phenotypic variation between allopatric populations. *Journal of Helminthology* 75, 81-92.
21. Szalanski, A.L., Taylor, D.B. & Mullin, P.G. (2000). Assessing nuclear and mitochondrial DNA sequence variation within *Steinernema* (Rhabditida: Steinernematidae). *Journal of Nematology* 32, 229-233.
22. Travassos, L. (1927). Sobre o genero *Oxysomatium*. *Boletim Biologico, Sao Paulo* 5, 20-21.
23. Kurbonova N.S. (2023): Can entomopathogenic nematodes be the best measure for growing eco-friendly agricultural products? American Journal of Applied Science and Technology. ISSN –2771-2745. Sjifimpact Factor (2023: 7.063). Issue: Vol. 3 No. 07: Volume 03 Issue 07 | Pages: 23-31 Crossref DOI: https://doi.org/10.37547/ajast/Volume03 Issue07-06.
24. Kurbonova N.S. (2023): First report on local entomopathogenic nematode Steinernema feltiae in Uzbekistan. International Journal of Advance Scientific Research, 3(07), 225–235. https://doi.org/10.37547/ijasr-03-07-38.

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА“ОДАМ АНАТОМИЯСИ ВА ФИЗИОЛОГИЯСИ”ФАНИДАН ЛАБОРАТОРИЯ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ.

Хамидова Дилбар Ғиёсовна
Навоий давлат педагогика институти,
Биология кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу тезисда масофавий таълим жараёнида“Одам анатомияси ва физиологияси”фанидан лаборатория машғулотларини ташкил этиш методикаси ҳақидаги маълумотлар баён этилган.

Калит сўзлар: ахборот-коммуникация, онлайн тизими, морфологик ва анатомик тузилиш, виртуал, индивидуал, дифференциал ёндашув, веб-квест компьютерли ўқитиш тизими.

Аннотация. В данной дипломной работе изложены сведения о методике организации лабораторных занятий по специальности «Анатомия и физиология человека» в процессе дистанционного обучения.

Ключевые слова: информационно-коммуникативные, онлайн-система, морфолого-анатомическая структура, виртуальный, индивидуальный, дифференцированный подход, компьютерная система обучения веб-квест.

Abstract. This thesis provides information about the methodology for organizing laboratory classes in the specialty “Human Anatomy and Physiology” in the process of distance learning.

Key words: information and communication, online system, morphological and anatomical structure, virtual, individual, differentiated approach, web-quest computer training system.

Жаҳонда таълим жараёнига ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш, SMART технологияси, Интерактив дастурий воситаларнинг визуал ва виртуал имкониятларига асосланган, масофавий таълим ресурслари базасини яратиш ва улардан фойдаланиб таълим самарадорлигини орттиришда алоҳида аҳамият қаратилмоқда.

Айниқса одам анатомияси ва физиологияси фанини ўқитишнинг методик таъминотини янгилаш, фанлараро алоқадорлик ва масофавий таълим имкониятларини ошириш, амалий аҳамияти сифатида лаборатория ишларни назорат қилиш ва баҳолашнинг онлайн тизимини жорий этиш, виртуал лаборатория машғулотлари, веб-квест каби технологияларидан фойдаланишда кўринади.

Лаборатория машғулотларининг мазмуни машғулотлар давомида амалга ошираладиган мақсад ва вазифалар, хусусан систематика, морфологик ва

анатомик тузилишига оид маълумотларни билиш билан белгиланади. Машғулотлар давомида ўқувчилар маъруза дарсларида ўзлаштирган назарий билимларини мустаҳкамлайди; амалий кўникма ва малакага эга бўлади.

Лаборатория машғулотининг мақсади талабанинг машғулот давомида бажарадиган индивидуал ишининг натижасига боғлиқ ҳолда биринчи машғулотданоқ белгиланиши ва уни барча машғулотларда татбиқ этиш лозим. Лаборатория машғулотларида талабалар олдига қўйилган мақсадни амалга оширилишини доимо назорат қилиб борилиши зарур. Масофавий таълим жараёнида талаба лаборатория машғулотларини яъни ўз ўқув фаолиятини ўзи бошқариб боради; ўз-ўзини баҳолаш тизими асосида у ҳар бир машғулот якунида ўзлаштирилган билимларини ўзи баҳолайди. Бу система талабага ўзи олган билим ва кўникмаларни ўзи узлуксиз назорат қилиб бориш имконини беради.

Лаборатория машғулотларида қуйидаги дидактик тамойилларга амал қилинади:

- лаборатория машғулотларини режалаштириш ва ўтказиш;
- лаборатория машғулотларининг мақсадини аниқ белгилаб олиш;
- талабаларда фан ва ишлаб чиқариш бўйича билимларни чуқурлаштириш имкониятларига қизиқиш уйғотиш;
- талабага натижани мустақил қўлга киритиш имкониятини яратиш;
- талабани назарий жиҳатдан тайёрлаш.

Лаборатория машғулотлари нафақат аниқ мавзу бўйича билимларни якунлаш, балки талабаларни креатив ва ижодий фикрлаши учун ҳам муҳим манба бўлиб ҳисобланади .

Лаборатория машғулотларида мавзу мазмунига боғлиқ ҳолда таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадлар белгилаб олинади. Машғулотларнинг таълимий мақсади талабанинг машғулот давомида мавзуга мувофиқ эгаллаган билим, кўникма ва малакалари билан белгиланади.

Компьютерли ўқитиш тизими-ўқув вазифаларини дастурлаштирилган воситаси бўлиб, таълим жараёнида масофавий таълимни амалга оширишда кенг қўлланилади. Бу тизим қуйидаги жараёнларни қамраб олади:

- таълим жараёнига индивидуал ва дифференциал ёндашувни амалга оширади;
- таълим олувчиларнинг хатоларини ташҳислашни ва қайтар алоқани амалга оширади;
- ўз-ўзини назорат қилиш орқали, ўқув фаолиятини тўғри изга солади;
- вақтни тежайди, таълимни оптималлаштиради;
- виртуал ўқув ахборотларини намойиш қилади;

- ҳодиса ва жараёнларни моделлаштириш ва имитатсия қилади;

-виртуал аниқликда лаборатория машғулотлари, тажриба ва намойишларни ўтказа олади;

- оптимал қарор қабул қилиш кўникмаларини шакллантиради;

- ўйинли вазиятларни қўллаб таълим жараёнига қизиқишни орттиради;

-билиш ва ахборот маданиятини, ҳамда кўникма ва малакаларни шакллантиради.

Xulosa қилиб айтганда олий таълимда “Одам анатомияси ва физиологияси”фанини ўқитишда компьютерли ўқитиш тизимидан фойдаланиш талабаларнинг фанга оид компетенцияларини ривожлантиришда , назарий билимларни амалиётга тадбиқ этишда креатив фикрлашида муҳим аҳамиятга эга.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho`lpon” – 2011 y.
2. J.O.Tolipova “Pedagogik kvalimetriya moduli bo`yicha ma’ruzalar matni va amaliy mashg`ulotlar. Toshkent – 2015 y.
3. М.Н.Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари . Педагог журнали 11. 07. 2022 й
4. М.Н.Ибодова Биология дарсларини ташкил этиш технологияси. Услубий қўлланма. (Академик лицей 3920001 табиий фанлар тайёрлов йўналиши ўқувчилари учун мўлжалланган). 11. 08. 2022 й
5. M. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 10.10.2021г.
6. M. N. Ibodova Akademik litseylarda biologiya fanini o’qitishninh interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023
7. Ibodova Mahfuza Namozovna. IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT “ ZOOLOGY " IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONSIn Volume 4, Issue 2 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) February 2023

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАТSIОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДОКЛИНИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ

Ю.Д.Хайитова, С.У.Иргашев
Термезский филиал Ташкентской медицинской академии
E-mail: Irgashev_2019@bk.ru

Абстракт. В статье отражены вопросы модернизатsiи содержания модулей, преподаваемых в медицинских учебных заведениях, и поднятия эффективности образования на новый качественный уровень. Описаны технологии, разработанные авторами для практических занятий, проводимых в этой системе.

Ключевые слова: Интеллектуал, предмет, международные образовательные стандарты, модернизатsiя, педагогический процесс.

Abstract. The article reflects the issues of modernizing the content of the modules taught in medical educational institutions and raising the effectiveness of education to a new level of quality. It describes the technologies developed by the authors for the practical training classes taught in this system.

Key words: Intellectual, subject, international educational standards, moderniza-tion, pedagogical process.

Осуществляется модернизатsiя натsионального медицинского и фармацевтического образования в нашей стране, внедрение международных образовательных стандартов в этой области, проведение комплексных научных исследований по актуальным проблемам охраны здоровья населения, а также обеспечение духовно-нравственного воспитания молодежи, изучающей последовательные меры. приняты для создания эффективной системы.

Поэтому развитие таких важных сфер, как наука, образование, малый бизнес и частное предпринимательство, медицина, культура и искусство, занимающих сегодня все большее место в нашей жизни, должно развиваться с участием ученых. В целях реформирования и совершенствования системы образования, повышения результативности образования, применения инноватsионных технологий в учебном процессе, поиска ответов на эти и подобные вопросы, профессора и преподаватели, работающие в Термезском филиале Ташкентской медицинской академии, и должностные лица других сфер участвуют. Рекомендуется использовать инноватsионные технологии и повышать качество преподавания профессорско-преподавательского состава в процессе прохождения практики в Термезском филиале Ташкентской медицинской академии.

Техника пирборд. Пирборд происходит от английского слова «Pin» — фиксatsiя, «board» — доска, и позволяет систематизировать и группировать идеи, связанные с решением задач, формировать противоположные идеи коллективно или индивидуально. Сначала преподаватель ставит проблемный вопрос и просит учащихся высказать свои мысли. Формирует начало прямого или массового мозгового штурма. Активные студенты поощряются. Затем идеи анализируются, обсуждаются, оцениваются и выбирается наиболее эффективная идея. Этот основной вывод записывают (прикрепляют) на отдельных листочках и на доске.

В этой технологии после сбора всех мнений по проблемному вопросу представители группы выходят к доске и консультируются:

- удаляются ошибки или повторяющиеся мысли;
- уточняются спорные моменты;
- мысли систематизируются по определенным признакам, разделяются на группы;
- их взаимосвязь определяется с помощью линий или других символов. Вырабатываются единые или противоположные мнения команды.

Технология Beep. Сложный, проблемный, используется при изучении тем характера. В этой технологии сначала дается полная и краткая информatsiя по предмету. Основные проблемные вопросы по теме выделяются и обсуждаются в отдельных малых группах, то есть определяются положительные и отрицательные стороны проблемы, достижения и недостатки. Эта интерактивная технология формирует критическое, аналитическое, ясное логическое мышление и создает условия для студентов, чтобы выразить и защитить свое мнение устно или письменно.Обеспечивается активное участие малых групп и каждого студента по конкретным вопросам темы с помощью технологии Veer. и оцениваются их знания по этому вопросу.

Технология ФСМУ. Эта технология учит слушателей отстаивать свое мнение, свободно мыслить и убеждать других в своем мнении, спорить, анализировать полученные знания, оценивать степень их усвоения, а также обучать слушателей культуре. дебатов. Эта технология реализуется путем предложения слушателям четко и кратко излагать свои мысли на бумаге, излагая свои поддерживающие или опровергающие аргументы.

Ф – высказать свое мнение.

В – аргументируйте свое мнение.

М- Приведите пример, объясняющий указанную причину.

У-Обобщите свое мнение.

В технологии ФСМУ задается вопрос по теме. Студентам объясняются среда применения технологий ФСМУ и их миссия. Установите конкретное время выполнения задания, например 15-20 минут. Каждый студент обязан выполнить задание лично. Контролирует деятельность студентов, отвечает на их вопросы, направляет, дает советы. Отслеживание в течение верно идентифицирует студентов, которые пишут решение или мнение. После сбора ответов он зачитывает мнения студентов, оказавшиеся за период наблюдения относительно правильными, вносит дополнения и дает полную informatsiю по вопросу. Данную технологию можно использовать для решения спорных вопросов, проведения дебатов или в конце обучающего семинара (с целью узнать мнение аудитории об обучающем семинаре) или после изучения раздела на основе учебной программы. .

Технология «Скарабей». Это одна из интерактивных технологий обучения, которую можно использовать на разных этапах изучения учебного материала. Эта технология использует опыт учащихся, обеспечивает рефлексивное наблюдение и предоставляет возможности для активных творческих исследований и мысленных экспериментов. Данная технология реализуется исходя из следующей последовательности:

- первоначально на основе технологии «мозгового штурма» определяется сущность, структура и содержание учебного предмета;

- определяются связи, связи и основные понятия между изучаемыми вопросами по теме;

- каждый вопрос предмета изучается углубленно, студентам предоставляется возможность выдвигать новые идеи по предмету.

- Учитель дополняет тему и закрепляет полученные знания. Таким образом, использование innovatsionных технологий в преподавании производственной практики создает основу для создания здоровой творческой среды в системе медицинского образования, поднятия качества преподавания на новый уровень, развития мировоззрения, мышления и самостоятельной наблюдательности студентов. навыки. Благодаря вышеуказанным технологиям развиваются навыки концентratsii, свободного наблюдения, формирования навыков принятия надежных решений, достигается групповая активизatsiя. Innovatsionные технологии направлены на решение коллективных задач образовательного процесса и представляют собой совместную деятельность преподавателей и учащихся. Они выполняются шаг за шагом. В этом случае на цель направлена эффективная система управления, основанная на определенных методах, методах и инструментах. Это поможет в достижении желаемых результатов.

Книги:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. Народное слово 26.01.2020.
2. О.Д.Рахимов, О.М.Тургунов, К.О.Мустафаев, Х.Я.Розиев. Современные образовательные технологии / Ташкент, «Наука и технологии». 2013
3. Абдуллаева Ш.А. Педагогика . - Т.: «Наука и технологии », 2013.

HOMILADORLIKNING IKKINCHI YARMIDA REPRODUKTIV YO'QOTISH SABABLARINING TAHLILI

Babadjanova Guljaxon Sattarovna
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Akusherlik va ginekologiya kafedrasi professori t.f.d.,

An Andrey Vladimirovich
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Akusherlik va ginekologiya kafedrasi
dotsenti t.f.d.,

Alisherova Moxinur Baxtiyor qizi
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Akusherlik va ginekologiya kafedrasi
I kurs magistri

Homiladorlikning kech davrida (ikkinchi va uchinchi trimestrlarda) reproduktiv yo'qotishlar zamonaviy akusherlik va perinatologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday yo'qotishlarga birinchi navbatda homilaning o'z-o'zidan tushishi, homilaning antenatal o'limi, erta tug'ilish kiradi [1]. So'nggi o'n yilliklarda tibbiy texnologiyalarning rivojlanishiga qaramay, homiladorlikning bunday natijalari qabul qilinishi mumkin bo'lmagan darajada yuqoriligicha qolmoqda. Shunday qilib, JSST ma'lumotlariga ko'ra, klinik jihatdan tasdiqlangan homiladorlikning 15-20 foizi abort qilish bilan tugaydi va taxminan 5 foizi homilaning antenatal yoki intranatal o'limi bilan tugaydi [2].

Ushbu maqolaning maqsadi fiziologik homiladorlikning ikkinchi yarmida reproduktiv yo'qotishlarning etiologiyasi va patogenezi haqidagi zamonaviy g'oyalarni tahlil qilishdir. Yuqumli omil, uteroplasental qon oqimining buzilishi, immunologik yetishmovchilikning roliga alohida e'tibor beriladi. Laboratoriya va instrumental usullardan foydalangan holda homiladorlikning erta yoqotish xavfini bashorat qilish masalasi ko'rib chiqildi.

Homiladorlikning ikkinchi yarmida spontan tushish - embrion yoki homilaning o'limi bilan birga bo'lgan homiladorlikning 22 haftagacha o'z-o'zidan to'xtashi.

Kechki bosqichlarda (homiladorlikning ikkinchi yarmi) spontan tushish sabablari ko'p jihatdan birinchi trimestrda abortga olib keladigan omillarga o'xshaydi [4]. Bularga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

• Platsentadagi tarkibiy va funksional buzilishlar tufayli platsenta yetishmovchiligi (masalan, trofoblastning past invaziyasi bilan). Natijada homilaning surunkali gipoksiyasi rivojlanadi, bu esa erta tug'ruqni keltirib chiqaradi.

• Doimiy virusli, bakterial, protozoal infeksiyalardan kelib chiqadigan yuqumli asoratlar. Eng muhimi surunkali chorioamnionit, platsentit. Mikroorganizmlar va ularning hayotiy faoliyati mahsulotlari yallig'lanish reaksiyasini va bachadon bo'yni erta pishishini keltirib chiqaradi.

• Immunologik kasalliklar-masalan, ona va homila o'rtasida Rhesus tizimiga mos kelmasa, onada fosfolipidlarga antikorlar mavjud bo'lsa. Otoimmun jarayon platsentaning shikastlanishiga va homilaning o'limiga olib keladi.

• Endokrin kasalliklar, birinchi navbatda, progesteron yetishmovchiligi bilan kechadigan korpus luteum funksiyasining yetishmasligi. Bu bachadon bo'yni erta pishishiga va erta tug'ilishning boshlanishiga olib keladi.

• Rivojlanish bilan mos kelmaydigan embrion yoki homilaning genetik anormalliklari (trisomiya, monogen kasalliklar). Qoida tariqasida, bunday homila homiladorlikning turli bosqichlarida, nihoyasi tushish bilan tugaydi.

Xomilaning antenatal yoki intrauterin o'limi homiladorlikning 22-haftasidan keyin bachadonda uning o'limi deb ta'riflanadi [5]. Homiladorlikning kechki davrida antenatal o'limga olib keladigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi [6]:

• Platsenta yetishmovchiligi. Platsentaning patologiyasi (yurak xuruji, kalsifikatsiya va boshqalar) tufayli homilaning o'limiga olib keladigan og'ir surunkali gipoksiya rivojlanadi.

• Yuqumli jarayonlar, birinchi navbatda, herpes virusi, sitomegalovirus, Parvovirus b19 tufayli. Platsentada patogenlarning kirib borishi va davom etishi homila shikastlanishiga, hatto o'limga olib keladi.

• Onadagi trombofiliya va gemostaz tizimining patologiyasi-masalan, koagulyatsion omillar genlaridagi mutatsiyalar, antifosfolipid antikorlarining mavjudligi. Qon tomir trombozi va platsenta infarkti tufayli homila o'tkir gipoksiyadan o'ladi.

• Kindik ichakchasidagi patologiya, xususan, uning bo'yin yoki homila tanasi atrofida joylashishi. Siqilish va qon aylanishining buzilishi bilan xomilalik asfiksiya o'limga olib keladi.

• Omon qolish bilan mos kelmaydigan homilaning tug'ma nuqsonlari (Markaziy asab tizimi, yurak, buyraklar va boshqalar).

• Kritik asfiksiya bilan kechadigan tug'ilish travması.

Erta tug'ilish homiladorlikning 22-haftasidan keyin, ammo 37-haftasidan oldin sodir bo'lgan tug'ilish deb ataladi [7]. Ular dunyodagi perinatal va chaqaloqlar o'limining asosiy sabablaridan biridir.

Homiladorlikning ikkinchi yarmida erta tug'ilish genezisida quyidagi asosiy aloqalar mavjud [8]:

• Yuqumli omillar-bu odatda qindan ko'tarilgan bakterial yoki zamburug' infeksiyasi bo'lib, bachadon bo'yni erta pishishiga va membranalarning erta yorilishiga olib keladi.

• Immunitetning yallig'lanishi va platsentaning shikastlanishi, masalan, otoimmun jarayonlar, ona va homila qonining mos kelmasligi, antifosfolipid sindromi va boshqalar. Yallig'lanishga qarshi va protrombotik reaksiyalar kaskadi boshlanadi, bu esa erta tug'ilishga olib keladi.

• Istmiko-servikal yetishmovchilik - bachadon bo'yni homilaning ortib borayotgan massasini ushlab tura olmasligi, natijada uning og'riqsiz ochilishi va xomilalik siydik pufagining prolapsasi sodir bo'ladi.

• Endokrin kasalliklar (tuxumdon disfunksiyasi, progesteronning past darajasi) ham bachadon bo'yni erta pishishi bilan bog'liq.

• Stress, noqulay yashash sharoitlari kabi ijtimoiy-psixologik omillar.

Xulosa. Shunday qilib, homiladorlikning keyingi bosqichlarida reproduktiv yo'qotishlar turli xil etiologik omillar - yuqumli, otoimmun, genetik, qon tomirlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Homiladorlikning ikkinchi yarmida tushish, homilaning antenatal o'limi va erta tug'ilish genezisida yetakchi rol platsenta yetishmovchiligining har xil turlariga tegishli. Platsentaning ishlashidagi buzilishlarni o'z vaqtida tashxislash yuqori xavf guruhlarini aniqlash va homiladorlikning salbiy oqibatlarining yetarli darajada oldini olish uchun juda muhimdir.

References

1. Баев О.Р., Бутова В.Г., Михельсон А.А., Румянцев М.А., Филлипов О.С., Шамоян М.В. Привычное невынашивание беременности: диагностика, профилактика и терапия // Акушерство и гинекология. 2022. No3. С. 144-158.
2. Бойкова Т.И., Аксененко В.А. Медико-социальные аспекты потери беременности // Проблемы репродукции. 2018. Т. 24. No 5. С. 58–62.
3. Радзинский В.Е. Прерывание беременности в I и II триместре: возможности современной диагностики и терапии // StatusPraesens. Гинекология, акушерство, бесплодный брак. 2019. No5(60). С.50–59.
4. Доброхотова Ю. Э., Краснова И. А., Шуршалина А. В. Привычное невынашивание беременности. Причины, патогенез, диагностика, лечение и прогноз // Вопросы гинекологии, акушерства и перинатологии . 2021. Т.20. No2. С. 25-33.
5. Волков В.Г., Забозлаев Ф.Г., Кулавский Е.В., Петрухин В.А. Антенатальная гибель плода: факторы риска, особенности течения, подходы к профилактике (обзор литературы) // Вопросы гинекологии, акушерства и перинатологии. 2021. Т. 20. No 3. С. 136-144.
6. Милованов А. П. Патология системы мать-плацента-плод. М.: Медицина, 1999. 448 с.
7. Башмакова Н.В., Баев О.Р., Баранов И.И., Парашутин Н.А., Припутневич Т.В., Радзинский В.Е., Сухих Г.Т. Преждевременные роды. Клинические рекомендации. 2022. 68 с.

8. Romero R., Dey SK, Fisher S. Preterm labor: one syndrome, many causes. Science. 2014 Aug 15;345(6198):760-5.

JAMIYAT HAYOTINI MODERNIZATSIYALASHDA YOSHLAR SIYOSIY-HUQUQIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZARURIYATI

Doniyor Yuldashev
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Jamiyat hayotini modernizatsiyalash sharoitida mamlakat taraqqiyotining asosiy strategik maqsadlaridan biri yoshlar siyosiy – huquqiy ongini takomillashtirishdir. Ushbu maqolada jamiyat hayotini modernizatsiyalashda yoshlar siyosiy-huquqiy ongini takomillashtirishning zaruriyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, davlat, jamiyat, siyosiy modernizatsiya, siyosiy-huquqiy ong, islohotlar, demokratiya.

So‘nggi asr zamonaviy yoshlarning huquqiy madaniyati, siyosiy qadriyatlari va yo‘nalishlarining shakllanishi, shuningdek, yosh avlodning maqsadi va xatti-harakatlari tizimining faol o‘zgarishi bilan tavsiflanadi.

Siyosiy nazariyada modernizatsiya deganda zamonaviy ochiq jamiyatni shakllantirishga olib keladigan sanoatlashtirish, dunyoviylashtirish, urbanizatsiya, ta’lim va fanning jadal rivojlanishi, vakillik siyosiy hokimiyati, huquqiy va ijtimoiy harakatchanlikni tezlashtirish, hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiy munosabatlarni ratsionalizatsiya qilish jarayonlari majmui tushuniladi.

Siyosiy – huquqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida siyosiy – huquqiy nazariyalarda, g‘oyalarda, qarashlarda, shuningdek odamlarning siyosiy tizimga, siyosiy rahbarlarning faoliyatiga munosabati bilan bog‘liq hissiyotlari va kayfiyatlarida aks etadi. Shuningdek, siyosiy-huquqiy ong-bu siyosat, huquq, hukumat, siyosiy jarayonlar, subyektlar va institutlarga bo‘lgan munosabatlarga vositachilik qiluvchi individual qarashlar majmuidir.

Yoshlarning siyosiy salohiyatining ijtimoiy-madaniy asoslarining xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish ularning mamlakat siyosiy hayotidagi tayyorgarligi va ishtirokini baholash uchun muhimdir, chunki bugungi yoshlar yaqin kelajakda siyosatga kirib, mamlakatning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlaydilar va ularning siyosiy ko‘rsatmalari mamlakatning kelajakdagi siyosiy rivojlanishida amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekistonda yoshlar aholining asosiy qismini tashkil etadi. Yoshlarga mustaqillikka erishgan ilk kunlardanoq alohida ahamiyat berilgan. Xususan, 1991 yil 20 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov, 2016 yil

14 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Bu qonun O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkoni boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. Zero, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar, yoshlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas’uliyatining birligi;
- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi.

Jamiyatni isloh qilishning hozirgi sharoitida yoshlarga o‘z bilimlarini mustaqil egallay olish, o‘z hayotini, jamiyat hayotini baholashni va yo‘lga qo‘yishni, ko‘lami tobora kengayib borayotgan va o‘zgaruvchan axborot olamida mo‘ljal ola bilishni, o‘z ongida professionalizm va bilimdonlikni mustahkamlashni, o‘z tafakkuri asoslarini shakllantirishni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bunda o‘quv muassasalarida pedagog kadrlarning ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari samarali hamkorlik qilib kelmoqdalar.

Zamonaviy yoshlarning siyosiy salohiyatining tarkibiy qismlarini rivojlantirish va amalga oshirish darajasini bir necha darajalarda oshirish mumkin. Davlat va mintaqaviy darajada zamonaviylik talablarini inobatga olgan holda yoshlar siyosati asoslarini yanada takomillashtirish, yoshlar siyosati chora-tadbirlari tizimini aniq shakllantirish zarur. Ommaviy kommunikatsiyalar orqali axborot ta’siri tizimini shakllantirish, yoshlar media makonini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Ta’lim muassasalari doirasida yoshlarning siyosiy qadriyatlarini rivojlantirish ta’lim, ma’rifiy, ilmiy faoliyat tarkibiga turli tashabbuslarni, shu jumladan huquqiy madaniyat, fuqarolik va siyosiy faoliyat bo‘yicha maxsus fanlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Turli ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar doirasida huquqiy ta’lim va ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish, yuridik ta’lim sohasida

OTM tanlovlari va loyihalarini tashkil etish, fuqarolik ma’suliyatini shakllantirish va boshqalar zarur. Ta’lim muassasalarida yoshlar muammolari bo‘yicha sotsiologik monitoring xizmatini yaratish maqsadga muvofiqdir. Masalan, har yili ta’lim muassasalarida “Huquq bilimdoni” tanlovi o‘tkaziladi. Bu kabi tanlovlar yoshlarning xuquqiy-siyosiy bilimlarini oshirish, ularda konstitutsiya xaqida to‘liq va ishonchli axborot olish va sog‘lom ahborot muhitini rivojlantirishga shubhasiz turtki bo‘ladi. So‘nggi yillarda zamonaviy yoshlarning siyosiy voqealarga doimiy qiziqishi ortib bormoqda, ular asosan ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, bloglardan ma’lumot olishadi. Ko‘pincha yoshlar o‘z oilalarida, do‘stlari va hamkasblari orasida mavjud siyosiy voqealarni muhokama qilishadi. Shuningdek, jamiyat asosi bo‘lmish oila institutini yanada mustahkamlash, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganligiga, jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalashda, yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlikning kuchaytirilganligiga, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta’minlashda ijtimoiy hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu jihatlar o‘z navbatida yoshlarni vatanparvarlik ruhida kamol topishlariga xizmat qiladi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlari jamiyatning barcha sohalariga, fuqarolarning, shu jumladan yoshlarning ongi va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz yoshlarining ijtimoiy-siyosiy faolligi amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining samaralarini, navqiron avlod vakillari vatanimiz tanlab olgan mustaqil taraqqiyot yo‘lini yakdil qo‘llab-quvvatlashini dunyoga ko‘rsatib beradigan muhim jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., O‘zbekiton, 2023.
2. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida” Qonun, 2016 yil 14 sentabr.
3. Zokirov I.B., Fuqarolik huquqi. –T., 2009.

INGLIZ VA O'ZBEK HIKOYALARIDA QAHRAMON VA ZAMON MUAMMOSI

Saitov Suxrob Djumaydillayevich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi
ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ingliz va O'zbek hikoyalarida qahramon va zamon muammosining mazmun mohiyati va uning adabiyot san'atida tutgan o'rni qayd etilib o'tilgan. Shuningdek hikoyalardagi qahramon va zamon muammolarining ahamiyati adabiyotshunoslar fikr-mulohazalari orqali isbotlangan.

Kalit so'zlar: konfliktlar, Realizm, metod, antik davr, neorealizm, sotsialistik realizm, magik (sohir), romantizm, talon, tamagir, ellikboshi, shiypon, Defoliatsiya, rancho, fitomorflar, Ventomerme, molbert, regtaym, matriarxat, patriarxat, stereotiplar.

Realizm hayotning barcha jabhalarini boricha tasvirlash xususiyatiga ega bo'lganligi uchun jahon adabiyotida bu yo'nalishda yozilgan asarlarning mavqei yuqori turadi. XIX asrning o'rtalariga kelib realistik adabiyot o'z taraqqiyot bosqichiga kirdi. Ta'kidlash kerakki, realizm metod sifatida shakllangan davr masalasida adabiyotshunoslarning qarashlari turlicha. Ma'lum bir tadqiqotchilar guruhi uni ancha qadim davrlardan buyon mavjud bo'lganligini ta'kidlab, antik davr realizmi, Uyg'onish davri realizmi, ma'rifatparvarlik realizmi (Boshqacha aytganda, XVIII-XIX asrlar realizmi. XIX asrning o'rtalari realizm gullab-yashnagan palladir), shuningdek, neorealizm (XX asr realizmi), sotsialistik realizm, magik (sohir) realizm singari tushunchalarni ilgari surishgan. Yana kimlardir uning XVIII asrda maishiylashgan asnosida paydo bo'lganini ta'kidlashgan. Realizm XIX asrning o'ttizinchi yillarida Yevropa adabiyotida shakllanganligi haqidagi qarashni esa aksar adabiyotshunoslar qabul qilishgan[38].

Amerika adabiyoti realizmida O'Genrining hissasi beqiyosdir. Uning asarlar qamrovi keng. Inson hayotida sodir bo'ladigan holatlar tasvirlanadi, muammolarga go'yoki yechim topilganday bo'ladi. Ko'pgina asarlaridagi tasvirlanayotgan voqealarni inson osongina tafakkurida gavdalantira oladi, bu esa realizmning bosh prinsipidir. Abdulla Qahhor hikoyalari realizmi magiya va romantizm bilan qorishib ketadi. Romantizmning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri achchiq kinoyadir. Ijodkorning "O'g'ri" hikoyasida Qobil boboning yakka-yu yagona ho'kizi o'g'irlanadi. Kimning uyi talonga tushgan, kimnidir eri urgan, yana boshqa

birovning boshiga yana bir kulfat tushgan, ammo kampirning dodiga odam tez to'planadi. Buning sababi nima?! Buni asarning boshida ijodkorning o'zi keltirib o'tadi: "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n besh xoda, bir arava qamish-uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak" (97-b) Qobil boboning asosiy tirikchilik manbai shu - ho'kizi. U bilan ozgina yerida dehqonchilik qiladi. Ho'kizning yo'qolish sababi ham aslida ma'lum. Bu hikoyada berilgan "Otning o'limi-itning bayrami" xalq maqolidan ayon bo'ladi. Bunda ot Qobil bobo, itlar esa xalqni zulukday so'ruvchi tamagir amaldorlardir. Ayni shu hikoyada milliy mentalitetimizga xos ishonuvchanlik, soddalik, rahbarlarga nisbatan hurmat xususiyatlari ham bo'y ko'rsatgan. O'zi ho'kizini yo'qotgan bo'lsa-yu, yana ortiqcha xarajat qilishning Qobil boboga nima zarurati bor. Aynan mana shu achchiq kinoya butun asar davomida bo'y ko'rsatib turadi. Milliy o'zligimizni namoyon etuvchi holatlardan biri xalqimizga xos maqollarning ko'p qo'llanilganligidadir. O'Genri asarlarida bu holat deyarli ko'zga tashlanmaydi. Burunsiz ellikboshi bilan bo'lgan holatda "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", amin bilan munosabatda "Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'lad!", pristavning oldiga borilganda esa "O'ynashmagil arbob bilan –seni urar har bob bilan" maqoli qo'llangan. Milliy adabiyotimizda xonlik davri tasvirlanar ekan, unda poraxo'rlik va tamagirlikning yuqori darajaga ko'tarilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Muammodan chiqish yo'li sifatida olib boriladigan ishlar uni yanada katta fojialarga giriftor qiladi. Qobil bobo va uning kampiri shu holatning domiga tushib qolishadi. O'Genri asarlarida esa har qanday holatga borliqda, inson hayotida sodir bo'lish ehtimoli yoqori bo'lgan hodisalarga nisbatan realistik munosabatda bo'linadi. Vaziyatdan chiqib ketish, unga yondashish prinsipi tamomila farqlanadi.

O'zaro ikki kishining dardoshligi tuyg'ular mavjudligining mushtarakligiga asoslanadi. Biz yuqorida O'Genrining "Darddoshlar", G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" va Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyalaridagi o'zaro mushtarakliklar va tafovutlar haqida gapirib o'tgan edik. Xayriddin Sultonovning "Dunyoning siri" hikoyasidagi obrazlarning o'zaro tutumi butunlay farq qiladi. Astma kasaliga yo'liqqan yigit tog' havosidan shifo topish maqsadida sanatoriyaga keladi. Har kungi mashg'uloti kutubxonada kitob o'qishdan iborat. Bundagi har ikki obraz bir-biridan naf ko'radi, bilim ham o'rganadi. Shu bilan birga inson va jamiyatdagi fojialar talqini betakror yo'sinda o'z ifodasini topgan. Yangi kelin libosidagi Qunduz to'rt milliard odamga yetgan havo unga yetmayotganidan shikoyat qiladi. Aslida, kimga havo yetmaydi. Bu o'rinda ustuvor milliy qadriyat sifatida xalqimizda shakllangan shukronalik hissiga ishora qilinadi. Kutubxonada ishlaydigan odam kitob o'qimaydi, ammo bemor Muzaffar Qunduzga buni ta'na

qilmaydi. Qunduz o'zicha «Indamasxo'ja» «ammasining buzog'i» kabi nomlar qo'yib olgan. Shu o'rinda ijodkorning yana bir muddaosi namoyon bo'ladi. Kelinchak undan qanday kasal ekanligini so'raganida:"— Shunaqa... Yer yuzida to'rt milliard odamga yetgan havo menga yetmaydi", - deb javob beradi. Ajablanib qaragan kutubxonachiga astma ekanligini aytadi. Qunduz yigitning juda yoshligini, bu kasallik unga qayerdan paydo bo'lganligini so'raganida, Muzaffarning javobidan mustabid tuzum davrida xalqimiz boshiga tushgan yana bir mudhish fojianing guvohi bo'lamiz:"— Bilasizmi... — Yigit so'z qidirib kalovlandi. — Haligi, dadam shiyponga qorovul edi. Ko'p kasal bo'lardi. O'shanda o'rnida turardim. Defoliatsiya vaqtida... Tog'da paxta ekilmaydi, defoliatsiyani bilarmikansiz?". Aynan mana shu paxtalarning defoliatsiya qilinishi natijasida qanchadan qancha odamlar nafas yetishmovchiligi kasaliga chalingan. Insonning ruhiy holati, unda kechayotgan hislarning uning tashqi belgilarida ham namoyon eta olish mahorati har qanday ijodkorga ham nasib etavermaydi. "qat'iyat bilan qimtilgan lablar, g'amgin qo'yko'zlar, qiz bolaniki singari uzun, ingichka barmoqlar" tasviri Muzaffarning vujudida sodir bo'layotgan jarayonlar ifodasini yaqqol ifodalay olgan. Milliy o'zligimizga qaratilgan tasvir subyektlarida erkak va ayol har jihatdan alohida ma'vo sifatida tasvirlanadi. Mumtoz adabiyotimizdagi erkak va ayol tasvirining individualligi ham bunga yaqqol misoldir. Aslida ayollar nozikligi bilan, nozik tutumlari bilan diqqatni tortadi, erkaklarda esa jismonan barkamollik, o'z so'zida qat'iyatlilik va boshqa xislatlar orqali namoyon etiladi. Qunduzning opasi boshqa bir kishi bilan qochib ketgan, buning og'ir yuki esa Qunduzning taqdiriga ham ta'sir qilmay qolmaydi, chunki oilaning muqaddasligi bizning xalqimiz qadriyatida yillar davomida shakllangan. Qunduzning eri tasvirida ham xuddi shunday milliy qiyofani ko'rish mumkin. Said Ahmadning "Ufq" romanidagi obrazlarda e'tibor qiladigan bo'lsak, hikoyadagi Qunduz obrazi yaqqol milliy qiyofa sifatida gavdalanganligiga ishonch hosil qilamiz. "Ufq" romanida Jannat xola, Dildor, Ikromjon, Zebi, Nizom kabi qator obrazlar keltirilgan, ammo adibning o'zi ham Zebi obrazini milliy obrazar darajasiga ko'tarmaydi, chunki millat ayollarining eng buyuk matonati oila deb atalmish muqaddas qo'rg'onda, munosabatlar silsilasida shaxsiy "men"ini ustun qo'ymasligidadir. Unda Tursunboy urushga ketmay qochib to'qayzorga yashirinadi, tabiiyki, buni Zebi ham eshitadi, zum o'tmay Nizomjon bilan topishib oladi, uning aynan shu qarorini milliy qadriyatlarimizga mos deb bo'lmaydi, natijada u milliy obraz darajasiga ko'tarila olmaydi.

"Bemor" hikoyasidagi Sotiboldining tasviri quyidagicha: "To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan, qo'lida ro'molcha mukka tushib uxlab qoladi, Hamma yoq jimjit.

Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: "Hey do'st, shaydullo banomi Ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli Xudo…"

Bir kecha bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga birov solingan kishiday talvasaga tushar edi"(28-b)

O'Genrining "Haqiqiy sifatgoh" va "So'nggi yaproq" hikoyalaridagi bemorlar tasviri quyidagicha tasvirlangan: "-Jo'na, yo'lingdan qolma, simyog'och!-deb xirilladi. – Men seni chaqirganim yo'q.

Gayrini tugatmasdan boshlangan yo'tal xuruji uni ikki bukchaytirib qo'ydi. Yo'tala-yo'tala holdan ketgan Mak Gayr shu atrofda turgan yuk tashiydigan aravaga ag'anadi. Reydler yo'tal to'xtashini kutdi". (77-b).

"Shifokor ketgandan keyin Syu xonasiga kirib ketdi. U yerda yig'layverganidan yaponcha dastro'molini ham ho'l qilib yubordi. So'ngra qaddini tutib, qo'lida molbert bilan regtaym chalgancha Jonsining xonasiga kirib keldi. Jonsi ko'rpaning tagida bilinar-bilinmas yotar, ko'zlari deraza qadalgandi" (121-bet).

O'Genrining "Haqiqiy sihatgoh" hikoyasidagi mehribon fermer Reydler obrazi diqqatni tortadi, u kimgadir yaxshilik qilish uchun hech narsadan qaytmaydi, ezgu ishlarni amalga oshirishi uchun har qanday kuch unga to'siq bo'la olmaydi. Mayk Gayrni dastlab Redlerga qilgan qo'pol muomalasi uchun ayblash mumkin, u birovga og'irligi tushishini xohlamaydi, o'z betob bo'la turib qiziqishi yuzasidan yana yutqizib qo'yganidan afsuslanadi, go'yo hayot unga har tomondan zarba berayotgandek tuyiladi unga. Reydler uni o'z ranchosiga olib boradi, unga alohida joy ajratadi, unga mehribonchilik qilishlarini uqtiradi, hatto unga qarash uchun alohida odam ham tayinlaydi. Uning dangalligi, halolligi, to'g'riso'zligini hamma qadrlaydi, shunday vaziyatlar bo'ladiki, u keltirgan odamlarni ko'rish uchun qo'shni rancholardan ham odamlar keladi. Aslida, Reydlerning bunday tutgan yo'lidan Mayk Gayr o'zini noqulay sezadi, bunday mehribonlik unga ortiqchadek ko'rinadi, bu mehribon kimsadan tezroq qutulishni xohlaydi. Reydler birgina Mayk Gayrga emas, o'zi uchratgan istalgan insonga yaxshilik qiladi, ulardan o'zining beminnat yordamini ayamaydi, hattoki u hayvon bo'lsa ham. U bir safar yo'ldan buzoqchani topib olganda ham keltirib davolaganligini hamma bilar edi. Reydlerning o'z halol, to'g'riso'z bo'lgani uchun boshqalarga ham ishonadi, o'z ezguliklariga teskari javob qaytarilgan holatda u buni javobsiz qoldirmaydi. Bunday insonlar obrazi dunyo va o'zbek adabiyotida talaygina. Shekspirning "Otello" fojiasidagi Otello obrazi ham shular jumlasidandir, ammo u shu yolg'onlarning qurboniga aylanadi, vaziyatga hushyorlik bilan munosabatda bo'lmaydi. Olim Otaxonning "Qarovsiz uy" hikoyasi qahramoni ham ko'z oldida

barbod bo’layotgan, xarobaga aylanib borayotgan uyning taqdiriga o’kinadi, boshqalar ham bu vaziyatga shunday munosabatda bo’lishadi deb fikr qiladi, jillaqursa, rahbarlar, biroq bunday bo’lmaydi, oxir oqibatda uydan nom – nishon ham qolmaydi. Reydler o’z hayotiy tutumiga sadoqatli kishilar toifasidandir, u yaxshilikni tama uchun qilmaydi, birovning qadrini yerga urmaydi, o’z qadrini ham yerga urishlariga yo’l qo’ymaydi. Inson ba’zi vaziyatlarga o’zi uchun lozim bo’lgan yo’ldan bormaydi, qilayotgan ishlari, o’y-fikrlari batamom noto’g’ri bo’lgan taqdirda ham bu yo’lidan qaytmaydi. Mayk Gayr xuddi shunday insonlar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, O'Genri sevgiga bag'ishlangan qisqa hikoyalarida ayol va erkak munosabatlarining dono va adolatli modelini yondasha oladi. Amerika matriarxatni bilmaydi, lekin patriarxat ham unga begona. Amerika Qo'shma Shtatlari jamiyati hamma teng huquqli va teng muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat sifatida shakllangan. Bu tamoyil erkak va ayollar uchun ham bir xilda amal qiladi. O'Genri obrazlari orqali axloqiy jihatdan hayotiy munosabatlarni ko’rsata oldi. Gender stereotiplarini o'zgartirish muqarrar ravishda munosabatlardagi qiyinchiliklarga olib kelishi va donolik bilan uzoqni ko'ra olish qobiliyati orqali, har qanday teng munosabatda muhabbat asosiy qadriyat bo'lib qolayotganini ifodalaydi. Erkaklar ham, ayollar ham tenglikka erishgan va undan voz kechishni istamagan holda, ongli ravishda munosabatlarning mo’tadil vaziyatini saqlab qolishga intilishadi. Zamonaviy Qo'shma Shtatlarda e'lon qilingan oilaviy qadriyatlarning ustuvorligi, ayollarning to'liq tengligi, yozuvchining qarashlari, badiiy asarlarda ilgari surgan g’oyalari to’g’riligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro’yxati

1. Lixachev D.S. Testologiya: na materialax russkoy literature X-XV vekov. - 1983.s.37
2. Анастасев Н.А. Обновление традитсии. Реализм XX века в противоборстве с модернизмом. Москва, Советский писател, 1984, стр.430.
3. Сопиева Ш. Хайриддин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. – Тошкент, 2006. – 160 б.
4. Шамсутдинова Н.З. «Магический» реализм в современной британской литературе (Анжела Картер, СалманРушди) – Диссертатсия на соискание ученой степени кандидата филологических наук: 10.01.03 – Литература народов стран зарубежя (европейская и американская литература) – М., 2008. – 24 с.;

5. https://en.wikipedia.org/wiki/Literary_realism
6. http://www.ziyonet.uz

TABIIY FAN (SCIENCE)LAR TA'LIMINI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Xasanova Sevara G'iyosiddinovna
Prezident adminstrasiyasi huzuridagi
Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy- metodik markazi
O'quv -metodik komplekslarni ishlab chiqish
va joriy etish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida Tabiiy fanlar (SCIENCE) ni o'qitish mazmunini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan bo'lib, Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy xususiyatlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'quvchi shaxsidagi rivojlantiriladigan ijobiy individual xususiyatlariga ahamiyat qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy fanlar (SCIENCE) ta'limi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, ta'limda muvaffaqiyat muhiti, insonparvarlashtirish, o'quvchi shaxsi, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlari, tabiiy-ilmiy savodxonlik, tolerant munosabat.

Dunyoda, erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal hamda rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh komil insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish, jahon andozalariga javob beradigan yangi avlodni voyaga yetkazish, jumladan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini oshirish, Tabiiy fanlar (SCIENCE) ni o'qitish mazmunini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ulardan asosiy maqsad, har tomonlama yetuk, barkamol, o'z fikriga ega, muammoli vaziftlarni hal etishga qodir, tabiat va jamiyat munosabatlarini to'g'ri anglay olgan shaxslarni tarbiyalashdir.

Shaxsning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: uning ijtimoiy yo'nalishi, dunyoqarashi va dunyoni anglash bilan bog'liq ijtimoiy mavqei; individual xususiyatlari–shaxsiy qiziqishlari, xatti-harakati, faoliyatining sababi va mazmuni; maqsadini oldindan bilish; biron narsaga erishishdagi muvaffaqiyat; shaxsning hissiy hayoti, ma'naviy madaniyati mazmuni va xususiyatlarini belgilaydigan o'z ehtiyojlarini (ma'naviy) aniq bilish, ehtiyojlari maqsadini va mazmunini tushunish; doimo yangi qiziqish va ehtiyojlarni yuzaga keltirish va ularni qoniqtirish.

O’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan ta’lim – o’quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularning ayrim asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi: 1. Har bir o‘quvchiga buyuk shaxs sifatida qarash, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. 2. Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs sifatida sezsin, unga bo‘lgan e’tiborni tuysin. 3. O‘quvchiga tazyiq o’tkazmaslik va uning kamchiligini bo’rttirmaslik; 4. Bilimlarni o’zlashtirmasligi, o’zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni o‘quvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish; 5. Ta’limda muvaffaqiyat muhitini tashkil etish, o‘quvchiga o’qishda muvaffaqiyat qozonishga yordam berish, uning o’z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O’quvchiga atrofdagilarning har biri o’zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish. 6. O’quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o’ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash.

Ta’lim jarayonlarida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv texnologiyasidan foydalanish K.Rodjers nomi bilan bog‘liq. Unda o‘qitishning ahamiyati, o‘qituvchining roli, uning o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabati haqidagi g‘oyalari o‘qitishni insonparvarlashtirish asosiga qo‘yilgan. Bunday o‘qitish natidasida, o‘quvchilarda rivojlanish kuzatilgan, ularning o‘z-o‘zini namoyish etish qobiliyati yanada rivojlangan, bu o‘z navbatida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasining va darslarda ishtirok etish holatining yaxshilanishiga olib kelgan.

O‘qitishda shaxga yo‘naltirilgan yondashuv: Birinchidan: O‘quvchilarning individualligini shakllantirishni talab etadi. Ikkinchidan: O‘quvchi fikrlashda erkin, harakatchan bo‘ladi, bu esa o‘qituvchidan o‘quvchi bilan o‘zaro munosabatda yangicha yondashuv va texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. Uchinchidan: Zamonaviy ta’lim muassasalari o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatini insonparvarlashtirishga muxtoj, mazkur yondashuv boshqa pedagogik yondashuvlar doirasida yechilmaydigan o‘qitish vazifasini yechishga imkon beradi, uning bu imkoniyati bugungi zamonaviy pedagogikaning talabidir.

Tabiiy fanlar (SCIENCE) ta’limi jarayonlarida o‘qituvchi shaxsga yo’naltirilgan ta’lim turlaridan foydalanganida quyidagi shartlarga qat’iy rioya etishi kerak: har bir o‘quvchini alohida, o’ziga xos shaxs sifatida ko’ra olishi;o‘quvchini hurmat qilishi; o‘quvchining ruhiy holatini tugri baxolay olishi; o‘quvchining xoxish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi; har bir o‘quvchiga tolerant munosabatda bo’lishi; o‘quvchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi; har bir o‘quvchi uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi; o‘quvchilarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun

imkoniyat yaratish; o‘quvchilarni o’z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati
samaradorligini aniqlash, yutuslarning omillari va yo’l quyilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilishga o’rgatish; ta’lim jarayonida hech bir o‘quvchiga tazyiq o‘tkazmaslik; o‘quvchining kamchiliklarini bo’rttirib ko’rsatmaslik; bordi-yu, o‘quvchi tomonidan bilimlarni o’zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o’zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash; aniqlangan sabablar asosida o‘quvchining sha’ni, gururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o’zlashtira olmaslik, o’zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish; ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi uchun “muvaffaqqiyat muhiti”ni yarata olish; har bir o‘quvchiga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish; o‘quvchining qobiliyatini o’stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish.

Mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o’quv axborotlarining o‘quvchilar bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo’lishini ta’minlashga aloxida e’tibor qaratishlari zarur.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda o‘quvchini ta’lim tizimiga moslashtirmay, balki o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo‘l larini qidirish uchun erkinlik berish, o‘quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi.

Har qanday o‘quvchi o‘ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish, namoyish qilishga intiladi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishda o‘qituvchi o‘quvchilar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o‘quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o‘z-o‘zini namoyon qila olsin. Ta’lim jarayoni nafaqat axborot, balki rivojlantiruvchi ham bo‘lishi kerak. Umumta’lim maktablarida Tabiiy fanlar (SCIENCE)ni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning joriy etilishi o‘quvchilarda tabiat bilan bog‘liq o‘quv materiallarini yuqori darajada o‘zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Беспалко В.П., Татур Ю.Г. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитателного процесса подготовки спесиалистов. - М.: «Висшая школа»,1988.
2. Karimova G.Q. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari. Zamonaviy ta’lim-2019.
3. Крюкова Е.А. Личностно-развивающие образователные технологии: природа, проектирование, реализатсия. - Волгоград: «Перемена», 1999. -С. 196.
4. Митина Л.М. Личностное и профессионалное развитие человека в нових сотсиалних условиях. // Журнал «Вопроси психологии», М., 1997, № 4. -С. 28-38.
5. Хохлова С. Мониторинг качества школного образования: Дис. канд. пед. наук. - Тюмен, 2003.
6. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Вип. 2. - М., 1996.
7. Sherov D. Shaxsga yo’naltirilgan ta’limda pedagogik klasterning ahamiyati. academic research in educational sciences. Volume 2 | ISSUE 9 | 2021.

BIOLOGIYA TA’LIMIGA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUVNI JORIY ETISH VA TA’LIM JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISHDA ELEKTRON AXBOROT TA’LIM RESURSLARINI YARATISH METODIKASI

Saparov Kalandar Abdullayevich
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Zoologiya va anatomiya” kafedrasi professori., biologiya fanlari doktori

Haytbayeva Sayyora Raximberganovna
Toshkent shahar Chilonzor tumani 178-IDUM biologiya fani o‘qituvchisi

Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin olish uchun ma’naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimizning erkin, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, ularning bilim salohiyatlarini jahon andazalariga mos ravishda oshirish hamda kelajakda

xalqimizga astoyidil xizmat qiladigan kasb egasi bo‘lib yetishishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, O‘zbekistonning 2030 yilga kelib PISA – O‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dasturida birinchi 30 ta ilg‘or mamlakat qatoriga kirishiga erishish belgilangan. Unda, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich tatbiq etish hamda “…xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish” xalq ta’limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni [2] da ham 2026 yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish(47-maqsad), xususan milliy o‘quv dasturiga asosan 2026 yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022 yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish dolzarb vazifalar sifatida belgilangan.

Ushbu ko‘rsatilgan vazifalar ijrosining ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mamlakatimiz ta’lim tizimi samaradorligining oshirilishiga zamin yaratadi. Xususan, umumta’lim maktablarida biologiya ta’limini optimallashtirishda elektron ta’lim resurslarini yaratish va joriy etish orqali o‘quvchilarning axborot kompetentligini takomillashtishiga xizmat qiladi. Zero, biolog olim O.Mavlonov ta’biri bilan aytganda, “Biologiya tirik tabiat to‘g‘risidagi fanlar majmui hisoblanadi” [3]. Shuning uchun o‘quvchilarda tirik tabiat to‘g‘risida puxta bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishda elektron axborot ta’lim resurslar (EATR) katta ahamiyat kasb etadi. EATR lari qo‘llanilgan biologiya darslarida o‘quvchilar tabiat hodisalari, tabiiy jarayonlar, atrof-muhit, inson va tabiat munosabatlari bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘ladilar.

I.T.Azimovning fikriga ko‘ra, biologiya darslarida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun avvalo, o‘quvchilarning dasrda mustaqil ishlari uchun o‘quv topishirqlarini tuzishi, biologik ob’ektlar, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida tajriba v kuzatish o‘tkazish yuzasidan ko‘rsatmalar tayyorlashi, ta’lim-tarbiya jarayonlarida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini qo‘llashi, o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta’limi uchun qo‘shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim [4].

Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarning biologiya fanidan komptentligini oshirishda EATRlaridan foydalanishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim: - o‘rganilayotgan o‘quv-ma’lumotlarni animatsiya, audio va video shaklda taqdim etish; - o‘quvchi idrok va bilish jarayonining to‘liq ishtirokchisiga aylanadigan o‘quv jarayonida o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning interfaol hamkorligi; - har xil tashqi axborot manbalari bilan mustaqil ishlash imkoniyati; - o‘quvchilar tomonidan o‘quv jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni onlayn test sinovlari tizimlari orqali doimiy monitoring qilish va baholash.

Yuqoridagi fikrlardan shuni aytish mumkinki, biologiya fanidan o‘quvchilarning kompetentligini shakllantirishda EATRlarini integratsiyalash asosida zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish uchun o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning didaktik tamoyillari, shaxs faoliyatining asosiy qoidalari hamda o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘rganish uchun shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan barcha kerakli imkoniyatlar mavjud bo‘lishi zarur degan xulosaga kelish mumkin. O‘quvchilarning kompetentligini shakllantirishga mo‘ljallangan EATRlardan foydalanish vaqtida tasodifiy shakllantirilishi kerak. Bundan tashqari, turli o’quvchilar tomonidan olingan vazifalar bir-biridan farq qilishi talab etiladi. Bu pedagogik o‘lchovlarning ob’ektivligi va yetarliligini ta’minlash uchun ta’lim ehtiyojlariga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
3. Mavlonov O. Biologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti. 2003 yil, 366-b.
4. Azimov I.T. Biologiya o‘qitish metodikasi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari “Biologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. “Mahalla va oila nashriyoti”. Toshkent-2023. 64-66-b.
5. Tolipova J.O. G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi // Darslik. – Toshkent, 2012. – 239 b.
6. Ратнер Ф.Л. Разработка электронных образовательных ресурсов: зарубежный опыт // Учебно-методическое пособие по направлению «Электронные образовательные ресурсы». – Казань: КГУ, 2008. –104 с.

7. Qaraxonova L.M. Biologiyani o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7-sinf misolida) // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 46 b.

TALABALARDA AXLOQIY SIFATLARNING RIVOJLANISHIDA XALQ HUNARMANDCHILIGIGA OID KO‘NIKMALARNING ROLI

Esanova Sarvinoz Uktamovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: +998 91 510 83 80
E-mail: esanovas@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirish jarayonida xalq hunarmandchiligiga oid ko‘nikmalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Xalq hunarmandchiligi orqali talabalar nafaqat amaliy va badiiy ko‘nikmalarni egallaydilar, balki mas’uliyat, mehnatsevarlik, jamoada ishlash, muloqot va estetik did kabi axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Maqolada pedagogik jarayonda xalq hunarmandchiligi vositalaridan foydalanishning samarali usullari, interaktiv va ijodiy texnologiyalarning roli, hamda yoshlar axloqiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga qo‘shadigan hissasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalq hunarmandchiligi talabalar shaxsining axloqiy rivojlanishi va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanishida muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: talabalar, axloqiy sifatlar, xalq hunarmandchiligi, ko‘nikmalar, pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar, badiiy ta’lim, shaxsiy rivojlanish, ma’naviy tarbiya.

Xalq san’ati, dastlab odamlarning kollektiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatini bir vaqtning o‘zida ifodalagan holda, o‘zining asosida mustaqil ijodiy faoliyatni saqlab kelgan. Hunarmandchilik xalq san’ati shakli sifatida avloddan-avlodga meros qilib o‘tilgan an’analar va xalq an’analari asosida rivojlangan bo‘lib, ijod turi va ishlash usuli bilan belgilanadi. O‘zbek xalq hunarmandchiligi maktab ma’rifati amaliyotida badiiy madaniyatning jonli fenomeni sifatida, alohida ma’naviy ijod turi sifatida qo‘llaniladi.

Struktura nuqtai nazaridan, amaliy hunarmandchilikning badiiy shakllanishi uning moddiy qo‘l mehnati mahsulotlari bilan bog‘liq vazifalar, estetik faoliyat mahsulotlari, uning belgili funksiyalari, undagi go‘zallik va foyda nisbatlari, badiiy madaniyatni iste’mol qilish xususiyati, texnik did va ma’naviy qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi.

Agar ilgari xalq hunarmandchiligining o‘ziga xosligi, mustaqil madaniyat hodisasi sifatida ajratilmagan va uni badiiy va mustaqil ijod bilan tenglashtirishgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda u mustaqil, umumiy tur maqomiga ega bo‘lib, bu nafaqat uni o‘rganishda, balki maktab ta’limida badiiy amaliyot masalalarini hal qilishda yangi imkoniyatlar ochadi [1].

Zamonaviy bosqichda xalq san’ati turli shakllarda mavjud va rivojlanadi. Milliy ong elementi sifatida, xalq hunarmandchiligi estetik talablarni qondiradi, aholining amaliy ehtiyojlarini qondiradi (g‘alla idishlari, temirchilik, duradgorlik, tikuvchilik, yog‘och o‘yma, kashtachilik va boshqa badiiy hunarmandchilik turlari), ular mahalliy madaniy an’analardan kelib chiqib rivojlanadi va tashqi talab bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Mamlakatning barcha hududlarida turli hunarmandchilik va uy sharoitidagi ishlar keng tarqalgan edi: mato, charm, yog‘och ishlovi, oyoq kiyim tayyorlash, zargarlik, sopolchilik, temirchilik va boshqa xalq qo‘l hunarmandchilik ishlari. Masalan, oddiy asbob-uskunalar yordamida temirchilar ko‘plab uy-ro‘zg‘or buyumlarini, turli turdagi chiroqlar, pichoq, bolg‘a, arra, xalta va h.k. tayyorlashgan. Yog‘och ishlov hunarmandchiligi juda rivojlangan. Hunarmandlar – duradgorlar uy sharoitida ishlatiladigan buyumlarni oddiy qo‘l mehnati bilan tayyorlashgan. Ayollar esa to‘qimachilik, to‘qish va kashtachilik bilan shug‘ullanib, o‘z xo‘jalik mahsulotlaridan foydalanishgan. Yog‘och to‘qimachilik dastgohlari oddiy konstruktsiyaga ega bo‘lib, ular mamlakatimizning markaziy tarixiy muzeylarida namoyish etiladi [2].

O‘zbek madaniyatining eng qadimiy turlaridan biri – xalq amaliy san’ati: kashtachilik va sopolchilik bo‘lib, ular kundalik hayotda keng qo‘llanilgan va rivojlangan. Kashtali materiallar turli uy kiyimlari va devor bezaklarini bezash uchun ishlatilgan. “Kashtali milliy buyumlar murakkab naqshlar, geometrik va o‘simlik motivlarining turli xil variatsiyalari, rang-barang yorqin rang boyligi bilan ajralib turadi.” Ko‘plab hunarmandlar respublika tanlovlarida suzan, ayol liboslari, tupi, chiroyli lenta va boshqa erkak va ayol kiyimlarini namoyish etishadi.

Turli uy-ro‘zg‘or buyumlari – yog‘och idishlar, qoshiq, bolg‘a, g‘ildirak, disk, ezgich, daraxt, eshiklar, derazalar, o‘yinchoqlar, kitob javonlari, stullar, kitoblar uchun tayanch, erkak oyoq kiyimi, elak, mil, yog‘ ishlovchi, panjara, sandiq, musiqa asboblari – dutar (ikki torli), rubob (olti torli), tor (10-12 torli), doira (baraban, yog‘och va charm), tambur (ikki torli yog‘och, dutardan kattaroq), chang (ko‘p torli, ikki tayoq bilan chalinar) va boshqa asboblar avloddan-avlodga o‘tib, oilaviy xo‘jalikda keng ishlatilgan. Moddiy va badiiy madaniyatni birlashtirishni maqsad qilgan holda, amaliy san’at va duradgorlik funksionalligi moddiy buyumlarning shakllanish prinsiplari uchun umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan va

ularni kundalik xizmat va oilaviy xo‘jalik uchun ishlatishga keng yoyilgan. Shu asosda, xalq ijodiy buyumlari avloddan-avlodga o‘tib kengaydi va hunarmandchilikning barcha tuzilmalari, butun amaliy konstruktsiya majmuini qamrab oldi. Duradgorlik, uy-ro‘zg‘or va amaliy hunarmandchilik xalqning moddiy-badiiy madaniyati qonuniyati sifatida estetika va mehnat faoliyatida o‘rganiladi [3].

Ko‘pchilikni sopol buyumlari jalb qiladi: piyolalar, shishalar, dekorativ vazalar, ularning mualliflari mamlakatimizning turli hududlaridagi mashhur o‘zbek xalq ustalari. Ushbu buyumlar xalqimizning madaniy boyligi sifatida o‘zining rang-barangligi, shakllari, naqshlari va ranglari bilan hayratga soladi. Sopolchilik Markaziy Osiyoda eng qadimiy hunarmandchilik san’ati bo‘lib, o‘zbek keramika juda xilma-xil va naqsh boyligi va go‘zalligi bilan ajralib turadi. Inqilobdan oldin shaharlarda idish yasash bilan erkaklar shug‘ullanib, g‘ildirakli sopol dastgohida ishlashgan, tog‘li hududlarda esa idish yasash bilan erkak va ayollar ham shug‘ullanishgan.

Ta’kidlash joizki, ushbu turli san’at shakllari hanuzgacha aholida keng qo‘llaniladi, ayniqsa tog‘li hududlarda. Ko‘plab xalq hunarmandchiligi turlari o‘z mohiyatini yo‘qotmagan; aksincha, yangi konstruktsiyalar va naqshlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu an’anaviy o‘zbek san’ati asosida yangi, yangilangan va xilma-xil ijodiy ishlanmalar yaratiladi va shakllanadi [4].

Yosh rassomlar va ijrochilar boshqa ustalarning realizm an’analari asosida tarbiyalangan. Ko‘p millatli san’at an’analari o‘zbeklarning ma’naviy madaniyatiga ko‘plab elementlar kiritdi. O‘zbekiston davlatining rivojlanishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq holda professional san’atning turli shakllari, ularning darajasi oshirildi. Chunki san’atga bo‘lgan muhabbat xalq orasida chuqur ildiz otgan edi. Respublikaning ko‘plab hududlarida madaniyat markazlari, klublar, xalq teatrlari va kutubxonalar ochilgan bo‘lib, ularni bezashda xalq hunarmandchiligi va san’ati ustalari jalb qilingan.

Jamiyatni yangilash va sotsialistik madaniyatni modernizatsiya qilish bilan birga, professional san’at darajasi oshdi. Professional san’atda, ayniqsa, badiiy faoliyatga katta ahamiyat beriladi, u badiiy shakllanish tizimida, tarixan shakllangan mehnat taqsimoti va hunarmandchilik an’anasi asosida o‘z ifodasini topadi. Xalq ijodining yangilanishida badiiy san’atning funksionalligi va rivojlanishi jamiyatning o‘rnatilgan va o‘zgaruvchan ijtimoiy normalari, badiiy asarga talab, estetik ideal va badiiy uslub xususiyatlari bilan tartibga solinadi. Unda buyurtmachi, muallif yoki ijrochilar va tomoshabin o‘rtasidagi dialektik o‘zaro bog‘liqlik doimiy namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, asrlardan beri badiiy san’at

va boshqa hunarmandchilik inshootlari rivojlanib, gilamlar, matolar va me’moriy o‘ymakorlik bilan saroy va ibodatxonalarni bezash bilan birga bo‘lgan [2].

Maktab pedagogik amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, mehnat ta’limi va estetik ma’rifat orqali talabalar va o‘quvchilarda turli o‘zbek xalq san’ati va xalq hunarmandchiligi turlarini bajarishda ma’naviy ko‘nikmalar va professional yo‘nalishlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarning jamiyatga foydali professional mehnatga tayyorlanishini tashkil etish masalalariga ko‘plab taniqli olim-pedagoglar e’tibor qaratganlar, masalan, M. Ashuraliev, B. Boynazarova, X.A. Jalilova, X.Yu. Juraeva, M.I. Krishtul, O. Musoeva, A.D. Sazonov, A. Semyonov, A.E. Seynenskiy va boshqalar. Ularning tadqiqotlarida kelajak mutaxassisining turli kasblar va ta’lim tarmoqlarida shakllanishi ajratib ko‘rsatilgan.

Shunday qilib, hunarmandchilik asboblari bilan turli ekspozitsiyalarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar mehnatning ahamiyati va xalq asbob-uskunalarining ma’naviy qiymatini chuqur anglashga intiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda axloqiy sifatlarni rivojlantirishda xalq hunarmandchiligiga oid ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega. Xalq hunarmandchiligi jarayonida talabalar nafaqat amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar, balki mas’uliyat, mehnatsevarlik, jamoada ishlash va muloqot qilish kabi axloqiy sifatlarni ham shakllantiradilar. Pedagogik jarayonda xalq hunarmandchiligi vositalaridan foydalanish interaktiv, ijodiy va amaliy usullar orqali talabalar shaxsining ma’naviy va estetik rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, xalq hunarmandchiligi o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, yoshlarni o‘z madaniy merosiga hurmat va e’tibor bilan qarashga o‘rgatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalq hunarmandchiligi orqali shakllantirilgan ko‘nikmalar talabalar shaxsining axloqiy va ma’naviy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi hamda ularni jamiyatga foydali va madaniyatli inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyeva Y.V. Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda rekreativ texnologiyalar vositalari orqali yondashuv. Zamonaviy fan va ta’lim muammolari. 2017. – № 3. – B. 132-137.
2. Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. – Berlin: Springer, 1935.
3. Amanjonova D.A. O‘zbekistonning qo‘l mehnati bilan yaratilgan bebaho boyliklari. – Toshkent. 2011. – 78 b.
4. Журкина А.Я. Трудовое воспитание школьников во внеурочной деятельности. Автореф.дисс. д.-ра пед. наук/А.Я. Журкина. - М., 1988. –

SAYYID BURHONIDDIN TERMIZIYNING “MAORIF” ASARI: TARBIYAVIY-DIDAKTIK MANBA SIFATIDA

Abdunabiyev Sunnat Ne’mat o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: sunnat.abdunabiyev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk olim va mutasavvif Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning ilmiy-ma’naviy merosi, uning “Maorif” asarining tarbiyaviy-didaktik ahamiyati borasida tahliliy ma’lumotlar beriladi. Mazkur asarda keltirilgan g’oyalarning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so’zlar: Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy, Maorif, Termiz, ta’lim-tarbiya, talaba-yoshlar.

Islom olamida ilm-fan, axloq va tarbiya masalalariga qadimdan katta e’tibor berilgan. Shu yo‘nalishda yetuk olimlar va mutafakkirlar asarlari nafaqat ilmiy manba sifatida, balki tarbiyaviy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbek xalqi tarixida bu boradagi eng mashhur olimlardan biri Sayyid Burhoniddin Termiziy bo‘lib, uning “Maorif” asari nafaqat ilmiy va diniy manba, balki tarbiyaviy qo‘llanma sifatida ham ajralib turadi. Sayyid Burhoniddin Termiziy 823–898 (1420–1492) yillarda yashab, Termiz shahrida tug‘ilgan. U o‘z davrining mashhur mutafakkiri va olimi bo‘lib, Markaziy Osiyodagi ilmiy madaniyatning rivojlanishida faol ishtirok etgan. Tarixiy manbalarda uning ilmiy va ma’naviy faoliyati haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud bo‘lib, uning asarlari asosan islomshunoslik, axloqshunoslik va tarbiya masalalariga qaratilgan. Shu asarlardan eng e’tiborlisi va keng tarqalganlaridan biri “Maorif” risolasi hisoblanadi. Bu asar insoniy axloq, diniy e’tiqod, odob-axloq qoidalari, hayotiy maslahatlar va jamiyatda yuksak axloqiy qadriyatlarni shakllantirish yo‘llarini mujassam etgan. “Maorif” asari o‘z mazmunida inson qalbini poklash, ilm va ma’rifatga rag‘batlantirish, shuningdek, jamiyatni axloqiy jihatdan barqarorlashtirish maqsadini ko‘zlagan [1].

Asarda inson tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar, diniy bilimlar va jamiyat hayotidagi axloqiy prinsiplar batafsil yoritilgan bo‘lib, u ko‘plab bob va mavzulardan tashkil topgan. Unda axloqiy tarbiya masalalari, Qur’on va Hadis asosidagi e’tiqodiy tushunchalar, kundalik hayot uchun axloqiy va ma’naviy maslahatlar, shuningdek, jamiyatni tarbiyalashdagi muhim tamoyillar muhokama qilingan. Shu yo‘nalishlar orqali asar insonni nafaqat ilmiy, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan shakllantirishga qaratilgan tizimli manba sifatida ajralib turadi. Masalan, “Maorif”da keltirilgan bir rivoyatda insonning sabr va tafakkur qobiliyati

qadrlanadi: “Har bir qiyinchilik ortida o‘sish va bilim bor, sabr qiluvchi esa har doim yuksaklikka erishadi.” Bu kabi hikmatlar nafaqat diniy jihatdan, balki psixologik va tarbiyaviy nuqtai nazardan ham chuqur ma’no kasb etadi [2].

“Maorif” asari tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. U o‘z davri jamiyati, odat va an’analari haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot beradi. Asarda Termiz va uning atrofidagi mintaqaning ijtimoiy hayoti, kishilar o‘rtasidagi munosabatlar, ta’lim-tarbiya tizimi haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu jihat tarixshunoslar uchun beqiyos ahamiyatga ega, chunki u o‘sha davr hayotini real va tafsilotli tarzda aks ettiradi. Misol uchun, asarda shahar maktablaridagi o‘qituvchilar va ularning talabalarga yondashuvi, ularning ma’naviy va axloqiy tarbiyada tutgan o‘rni haqida tafsilotlar berilgan. Bu esa o‘sha davr ilmiy muhitini, ta’lim tizimi va jamiyatning axloqiy strukturasi haqida qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, asar tarixiy voqealar va shaxslar haqida ma’lumot beruvchi manba sifatida ham xizmat qiladi. Keltirilgan hadislar va rivoyatlar orqali o‘sha davr ilmiy muhitini, diniy va ma’naviy qarashlarni o‘rganish mumkin. Shu tariqa, “Maorif” nafaqat axloqiy va diniy manba, balki tarixiy kontekstda ham muhim bo‘lgan manba sifatida qaraladi. Masalan, asarda keltirilgan shaxslar hayoti va ularning axloqiy fazilatlari haqida rivoyatlar bugungi tarixshunoslik va etika tadqiqotlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa tarixiy ma’lumotlarni nafaqat fakt sifatida, balki axloqiy va pedagogik talqin orqali ham o‘rganishga imkon beradi [3].

Asarning tarbiyaviy ahamiyati uning mazmuniy va pedagogik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Inson tarbiyasi uchun belgilangan tamoyillar orasida ilm va ma’rifatga intilish, axloqiy kamolotga erishish, o‘zini tuta bilish va sabr, shuningdek, ijtimoiy mas’uliyat kabi jihatlar alohida e’tiborga loyiq. Ilm va ma’rifat orqali inson ruhiy va intellektual jihatdan rivojlanadi, axloqiy kamolot esa har bir insonning harakatlari, so‘zlari va niyatlari orqali shakllanadi. Hayotdagi murakkab vaziyatlarda inson o‘zini nazorat qilish va sabrli bo‘lishi, jamiyatga foydali bo‘lishi va boshqalarga yordam berishi lozimligi ta’kidlanadi. Shu jihatlar “Maorif” asarini nafaqat diniy yoki ilmiy risola sifatida, balki pedagogik qo‘llanma sifatida ham o‘rganishga imkon beradi. Asar yosh avlodni tarbiyalash, ularni axloqiy va ma’naviy jihatdan shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi [4].

Bugungi kunda “Maorif” asari nafaqat tarixiy, balki zamonaviy pedagogik va axloqiy manba sifatida ham qadrli hisoblanadi. Asarda keltirilgan tamoyillar, qadriyatlar va axloqiy yo‘riqnomalar bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida, ta’lim tizimida va ijtimoiy hayotda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, insonning shaxsiy rivojlanishi, jamiyatga foydali bo‘lishi, bilimga intilishi kabi tamoyillar har

doim dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, asarda keltirilgan tarixiy ma’lumotlar tadqiqotchilar va tarixchilar uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu jihat asarni zamonaviy etika va tarbiya pedagogikasi nuqtai nazaridan ham dolzarb qiladi.

O‘zbek va Markaziy Osiyo ilm-fanida “Maorif” asari bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Tadqiqotchilar asarda mavjud bo‘lgan axloqiy, ma’naviy va pedagogik yo‘nalishlarni chuqur tahlil qilganlar. Shu bilan birga, asar tarixiy manba sifatida o‘rganilib, u o‘z davri ijtimoiy, madaniy va dini hayoti haqida batafsil ma’lumot beradi. Tadqiqotlarda asarning axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlari, shuningdek, u zamon olimlari va mutafakkirlariga ta’siri alohida e’tibor bilan o‘rganiladi. Misol uchun, tadqiqotchilar asarda keltirilgan sabr, adolat va halollik fazilatlarini, shuningdek, yoshlarni tarbiyalashda ustoz va murabbiylarning tutgan o‘rnini chuqur tahlil qilganlar. Bu esa “Maorif”ni nafaqat tarixiy manba, balki pedagogik va etika bo‘yicha mustahkam qo‘llanma sifatida qadrlashga imkon beradi [2].

“Maorif” asari shuningdek, insonning ichki dunyosi va ruhiy rivojlanishiga oid qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Asarda keltirilgan hikmatlar va rivoyatlar insonni o‘zini tan olishga, ruhiy va axloqiy kamolotga intilishga undaydi. Masalan, bir rivoyatda shunday deyiladi: “O‘z qalbingdagi yomon niyatni pokla, shunda dunyo senga yor bo‘ladi.” Ushbu jumla insonning ichki dunyosini tozalash va axloqiy jihatdan rivojlanish yo‘lini yoritadi. Shuningdek, asar o‘quvchilarga shaxsiy mas’uliyat, jamiyatdagi roli va boshqalar bilan munosabatlarni yaxshilash zaruriyatini tushuntiradi. Bu jihatlar zamonaviy pedagogika va tarbiya masalalari bilan uzviy bog‘liqdir va asarni yosh avlodni tarbiyalashda samarali vosita sifatida foydalanishga imkon beradi [1].

Xulosa qilib aytganda, Sayyid Burhoniddin Termiziyning “Maorif” asari nafaqat tarixiy manba, balki tarbiyaviy va axloqiy yo‘riqnoma sifatida ham ahamiyatga ega. Asar inson qalbini poklash, ilm va axloqiy kamolotga yetaklash, jamiyatni axloqiy jihatdan barqarorlashtirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu sababli, “Maorif” asari nafaqat o‘rganiladigan tarixiy manba, balki pedagogik qo‘llanma sifatida ham qadriyatli hisoblanadi. Uning mazmuniy, tarixiy va tarbiyaviy jihatlarini chuqur o‘rganish, zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimida qo‘llash, yosh avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, “Maorif” asari nafaqat Termiziy davrining ilmiy va ma’naviy merosi, balki bugungi kunning tarbiyaviy va axloqiy manbasi sifatida ham o‘z o‘rniga ega. Shu jihatdan, bu asar o‘rganilishi va tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan boy ilmiy, tarixiy va pedagogik merosdir. “Maorif”ning mazmuni bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u nafaqat tarixiy manba sifatida,

balki yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy madaniyat va axloqiy me’yorlarni shakllantirishda ham amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu asarni o‘rganish, uni ilmiy va tarbiyaviy jihatdan tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy pedagogik jarayonlarga tatbiq etish – nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki jamiyatda axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Ahmad Aflokiy. Manoqibul orifin. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul. 1989.
2. Faridun Sipohsolor. Risola: Mavlono va atrofidagilar. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul. 1977. – B. 117–120.
3. Lewis F. D. Rumi: Past and Present, East and West: The Life, Teaching and Poetry of Jalal al-Din Rumi, Oxford 2000. – Pp. 96–118.
4. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy. Maorif. Tarjimon: Abdulboqi Gulpinarli. – Anqara. 1972. – 212 b.
5. Semih Ceyhan. Seyyid Burhanüddin Hüseyn Muhakkık-ı Tirmizi (ö. 639/1241) / İslam ansiklopedisi, 37-cilt. –İstanbul: Türkiye diyanet vakfı, 2009. –S. 56-57.

MUNDARIJA

Qoxxorova M.A. The effect of food and service quality on customer satisfaction and loyalty in uzbek ethnic restaurants....3
Abdunazarov O.Z. “Yangi O'zbekiston”- yangi imkoniyatlar yurti....7
Шигакова Л.А. Развитие исследовательских умений при обучении биологии с использованием дидактических средств....10
Ismoilov Sh. Sudlar faoliyatining asosiy prinsiplari....13
Tangirov N.T. Fuqarolarning siyosiy huquq va burchlari....16
Maxamadaliyev B.B. Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etish va takomillashtirish....19
Burkhanova M.G. Ziyoli madaniy mavqeining ijtimoiy hayotdagi o’rni....22
Qoriyev M.R., Qodirova Z.O. Tog’ va tog’ oldi hududlarda bog’dorchilikni tashkil etishni o’ziga xos xususiyatlari....26
Ravshanov S.G‘. Qora dengizning Turkiya tashqi siyosatidagi ahamyati....29
Rizayev N.K., Abdumannopov K.G‘. Budjet ijrosi nazoratining samaradorligini takomillashtirish....34
Atashov A.Sh. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida biologiya darslarini tashkil etish....37
Normurodov B. Ko‘ndalang kesimi murakkab bo‘lgan fazoviy yuklanishlardagi sterjenlarning deformatsiyalanish holatini komyuter grafikasi yordamida uch o‘lchovli vizuallashgan grafiklarni hosil qiluvchi dasturiy vosita ishlab chiqish....40
Рўзиев Ж.Қ. Таълим тизимини ривожлантиришнинг фалсафий хусусиятлари....42
Абдурахманова М.Т. Қишлоқ хўжалигида ер ресурслардан самарали фойдаланиш асосий йўналишлари....46
Абдурахманова М.Т. Рациональное использование земельных ресурсов как ключевой фактор обеспечения продовольственной безопасности....49
Nigmatov S.K. Innovatsion ta’lim sharoitida topografiya va kartografiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli....52
Ibragimov X.X. Axbarotlashtirish sharoitida “osiyo mamlakatlari” bo‘limini o‘qitish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida....56
Нўъмонжонов Б.Ш., Ғуломов Ш.А., Далиев А.Ғ. “Оптимизация эндоскопической диагностики и результата лечения экссудативного среднего отита у детей”....59
Нўъмонжонов Б.Ш., Ғуломов Ш.А., Далиев А.Ғ. “Патогенез и эндоскопическая диагностика экссудативного среднего отита у детей”....61
Imomaliyev M.A. Olma mevasini saqlashda ularga ta’sir etuvchi omilar, zararkunandalar va fizalogik kasaliklar....63
Касимов Э.Р. Экспериментальная изучение комбинированных ноотропных препаратов на содержаний глюкозы при развитии гемической гипоксии....66
Касимов Э.Р. Изучение комбинированных ноотропных препаратов на содержаний морфологический состав периферической крови при развитии гемической гипоксии ...68
Abduvaxovbova R.Sh. Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari....71
Tursunboyev M.Y. Davlat tushunchasi va mohiyati....74
Ulmasova S.U. “Street law” loyihasining jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda tutgan o‘rni....77

Raxmanova M.U. Bo‘lajak o‘qituvchilarining oquv va kognitiv kompetentsiyalarini rivojlantirishda mustaqil ish turlarini ahamiyati 80
Mamajonova E.M. Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’m-maza” konseptiga ega leksemalarni tillararo korrespondensiyasi masalalari 85
Alimqulova R.G. Nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik usullari va texnologiyalari 88
No’monxonova M.N. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tilshunoslarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari.....91
Abdullayeva D.N., Husanov M.A. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida geoekologik madaniyatni shakllantirish mazmuni 94
Allambergenova M. Main types of systems and errors in machine translation.....97
Заирова М.Х., Палванова Г.С., Ахмаджанов А.М. Возбуждение изомерных состояний в реакций типа (N,2N) на ядре 90ZR.....99
Sattarova N. Kasb-hunar nomlari asosida hosil qilingan godonimlar.....101
Исаева Ю.П. Мир казахского этноса в прозе В.И.Даля 107
Mustafayeva G.B. Geografiya ta’limida nostandart test topshiriqlaridan foydalanish 111
Усманова К.Х. Медиатехнология асосида инглиз тили дарсларини ташкил этишда шахсга йўналтирилган замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш.....114
Musayeva D.T. Freydizm va psixoanaliz 116
Mamatkazina Aliya Ali - Aksarovna Modern concept of global ideology 119
Абдуллаев А. Фатҳ ал-Ваҳбий асарининг юртимиз тарихини ўрганишдаги аҳамияти. 124
Bazarov S.N. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarining ijtimoiy-tarixiy, ilmiy nazariy rivojlanish asoslari 127
Нормаматова Ҳ.А. Илк ўрта асрлар Ўрта Осиё тангаларидаги қадимги туркий унвонлар 130
Axmedova S.B.-Mehnat huquqlarini himoya qilish mehanizmining mohiyati 135
Махмудов Т.Д. Инвестицияларни оптимал тартибга солишнинг эконометрик моделлари 138
Нормуродов М. Муҳаммад Ҳаким Термизийнинг “Ал-Фарқу байнал аяти вал-каромат” асарининг қўлёзмалари ва унинг аҳамияти.....
.....142
Sharipova D.R. Sinergetik yondashuv asosida biologiyani o`qitishda o’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishdagi innovatsiyalar 145
Бурханов С.С. Уровень сформированности ключевых компетенций у студентов 149
O‘rinova D.B. Ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy jihatlari 151
Narkulov A.S., Shodiyev A.O. Magnit maydonida yupqa plastinkaning magnitoelastiklik deformasiyalanish modeli 154
Narkulov A.S., Jurayev H.M. Raqamli qurilmalarni loyihalashda mantiqiy elementlarga electronics workbench multisim dasturini qo’llash 157
Расулова М.А. Талабаларнинг тил қобилиятларини такомиллаштиришда замонавий таълим технологияларининг аҳамияти 161
Kuchkeldiyeva U.E. Bo’lajak o’qituvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari 163

Abduraxmonova M.D. Ingliz tilini o'qitish jarayonida integrativ yondashuvning ahamiyati 165
Mamajanov N.Sh. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish 168
Axrorov M.Sh., Toshboyev J.S., Akbarov D.Q. Mashinali o'qitishda chiziqli regressiya..171
Rahmonova D.O`., Sattorova M.D. Yosh avlod ijtimoiylashuvida sharq allomalari qarashlarining ahamiyati 175
Xolmatov D.A. Shoyim Bo'tayev hikoyalarida davr va qahramon talqini 177
Сапаев Ғ.Б. Ёшлар тарбияси ва дунёқарашида мунис хоразмий илмий меросининг ўрни 182
Тораходжаева И. Ваколатли иқтисодий оператор: янги институт, янги имкониятлар.186
Meilimuhametov E. Spiritual, socio-political aspects of ensuring the stability of society 189
Dauletov A.Y., Kuryazov S.E. Arxivlarda tasvirlarni sifatini tiklash usullari 199
Majidov S.S. Ijtimoiy ziddiyatlar va ijtimoiy falsafiy talqinning muxim muammolarini belgilash 203
Abduraximova U.Sh. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish tizimini takomillashtirish modeli 206
Boboraximov S.M. Kichik sinf o'quvchilarining tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiyasini rivojlantirishning pedagogik mazmuni 209
Abdulxafizov B.X. Pedagogik kvalimetriya va uning zamonaviy ta'lim amaliyotidagi o'rni 212
Kurbonova N.S. Zararkunanda hasharotlarni biologik nazorat qilishda entomopatogen nematodalarning qo'llanilish tarixi 214
Хамидова Д.Ғ. Масофавий таълим жараёнида"одам анатомияси ва физиологияси"фанидан лаборатория машғулотларини ташкил этиш методикаси.....222
Хайитова Ю.Д., Иргашев С.У. Использование инноватsионных технологий при обучении доклинических модулей 225
Babadjanova G.S., An Andrey Vladimirovich, Alisherova M.B. Homiladorlikning ikkinchi yarmida reproduktiv yo'qotish sabablarining tahlili 228
Yuldashev D. Jamiyat hayotini modernizatsiyalashda yoshlar siyosiy-huquqiy ongini takomillashtirishning zaruriyati 231
Saitov S.Dj. Ingliz va o'zbek hikoyalarida qahramon va zamon muammosi 234
Xasanova S.G'. Tabiiy fan (science)lar ta'limini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida takomillashtirish.....239
Saparov K.A., Haytbayeva S.R. Biologiya ta'limiga kompetensiyaviy yondoshuvni joriy etish va ta'lim jarayonini optimallashtirishda elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish metodikasi 242
Esanova S.U. Talabalarda axloqiy sifatlarning rivojlanishida xalq hunarmandchiligiga oid ko'nikmalarning roli 245
Abdunabiyev S.N. Sayyid Burhoniddin Termiziyning "Maorif" asari: tarbiyaviy-didaktik manba sifatida 249